

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

OLIMA AYOLLAR OVOZI

Ilmiy-metodik to‘plam

ZEBO PRINT
CHIRCHIQ 2025

UO‘K-373.2;37.02

KBK-74.1;94

Olima ayollar ovozi. Ilmiy metodik to‘plam. – T.: “ZEBO PRINT”, 2025. 700 b.

Mas’ul muharrir

T.L. Xurvaliyeva - Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta’lim fakulteti professori, p.f.d. (DSc).

Nashrga tayyorlovchi

K.K.Abdamitova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich
magistranti.

Taqrizchilar

F.U. Qodirova - Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Maxsus ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), professor.

Sh.K.Xo‘jamberdiyeva - Namangan davlat universiteti p.f.d.
(DSc), professor.

*Mazkur to‘plam Chirchiq davlat pedagogika universitet O‘quv-
uslubiy kengashining 2025 yil 26 iyundagi 11-sonli kengashida
nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-581-33-5

© Olima ayollar ovozi., 2025

© "Zebo print", 2025

KIRISH

Butun dunyoda ilm-fan va boshqa sohalarda gender tenglik masalasi ko'ndalang qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham barcha sohalar qatori ta'lim va ilm-fan sohalarida ham gender tenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayollarning fan va texnika sohasidagi ishtiroki mamlakatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar ta'lim sohasida faol bo'lsa, jamiyatning ma'naviy saviyasi oshib, intellektual salohiyati yuksaladi. Ayollarning ta'lim va fan sohasida to'laqonli ishtiroki gender tengligini ta'minlaydi va jamiyatda barqarorlikka hissa qo'shadi. Oliy ma'lumotli onalar farzandlarining savodxonligi va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor vazifalaridan biri xotin-qizlarni ilm-fanga jalb etish, ular uchun imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishga erishish etib belgilangan. Tabiiyki, xotin-qizlarni ilm-fan sohalaridagi faoliyat olib borgan, ilmiy dunyoqarashga ega bo'lsa o'ziga bo'lgan ishonchni ortadi. Zamonaviy sharoitda xotin-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, qadriyatli yondashuvlar asosidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, bunday vaziyat ayollarning muayyan ilm-fan sohalarini erkin tanlashiga ham, o'z kasbiy yo'lini belgilashiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Xotin-qizlar an'anaviy ravishda gumanitar sohalarga tegishli ilmiy faoliyatga sohalaridagi tanlashga intilish kuchlidir. Universitetimizda tashkil etilgan "Olima ayollari kengashi" a'zolari va talaba qizlarining tashabbuslariga ko'ra mazkur ilmiy-metodik to'plam tayyorlandi.

Mazkur to'plam ijtimoiy gumanitar sohalariga oid tezislar asosida shakllantirildi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SENZITIV RIVOJLANISH DAVRLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna-
p.f.d. (DSs), professor
Maktabgacha ta’lim fakulteti**



Annotatsiya

Maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarni tug‘ilganidan 6-7 yoshgacha senzitiv rivojlanish xususiyatlari yuzasidan nazariy ta’limotlar keltirilgan. Xususan har bir yosh davrida bolaning psixik taraqqiyotining o‘ziga xosliklari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: senzitiv, psixika, nutq, muloqot, atrof-muhit, xulq-avtor, tarbiya, madaniyat, rivojlanish, refleksiya, sezgi, sensorika.

Ma’lumki maktabgacha bolalik davrida bola aqliy, axloqiy, jismoniy va ma’naviy shakllanishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga boy yo‘lni bosib o‘tadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi va ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha xorijda va mamlakatimizda bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Senzitiv davr (lotincha sēnsus so‘zdan olingan bo‘lib, hissiyot, sezgi) ontogenetik rivojlanish davri bo‘lib, butun tana a‘zolarini ichki va tashqi ta’sirlarga yuqori hissiy javobi ya’ni fiziologik, psixologik jihatdan o‘zgarishi yangi bilim va xulq-avtorn shakllarini o‘zlashtirishga tayyorligi bilan namoyon bo‘ladi. Fransuz psixologi va faylasufi Rene Dekart bolaning senzitiv davrini o‘rganib, quyidagi xulosaga keladi: “5-6 yosh bolalarda g‘oyalar mavjudligiga ko‘ra uchta turga bo‘linadi: natija va oqibatga ko‘ra paydo bo‘ladi; tayyor g‘oyalar; tug‘ma va tabiiy

g'oyalar. Natija va oqibatga ko'ra paydo bo'ladigan g'oyalar hissiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, sezgi a'zolarimizni umumiy holatidan kelib chiqadi. Bu g'oyalarni bola mustaqil ravishda o'z tajribalarini tahlil qilishi natijasida oladi. Ular alohida narsa va buyumlar, hodisalar haqida bilim beradi, lekin atrof olam haqidagi ob'ektiv qoidalarni anglashiga yordam bermaydi. Tug'ma va tabiiy g'oyalar insonga atrof olam borliq haqida hamda uning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarni beradi” .

Dj.Lokk insondagi barcha bilimlar hissiy tajriba asosida yig'iladi degan xulosaga keladi- “ hissiy tajriba ikkita turga bo'linadi: refleksiya va sezgi. Ikkala jarayon ham tashqi olam haqidagi bilimlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Sezgi nafaqat anglashning birinchi bosqichi, balki tashqi olam haqidagi bilimlarni kashf qilishning yagona yo'li, inson bilan bog'lanuvchi yagona kanal hisoblanadi. Insonning sezgi a'zolari narsa va buyumlar, atrofimizdagi odamlar haqida batafsil ma'lumot beradi”. Maktabgacha yoshdagi bolalarda avvalo tarbiyachi sezgini rivojlantirishi muhim. Sezgi rivojlanishi bilish faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

David Gartli bolaning psixik rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish haqiqatdan ham chegaralanmagan deb hisoblaydi. U quyidagi fikrlarni bildiradi “inson psixikasining rivojlanishi va xulq-atvorining shakllanishiga oid bilimlarni qiyoslash orqali o'zlashtirishdan bola tarbiyasida foydalanish lozim.Chunki bolaning kelajagi atrofdegilarning unga nimalar haqida axborot berayotganligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun bolaning qanday o'sishi, qanday fikrlashi va hatti-harakati faqatgina kattalarga bog'liqdir” Shunday ekan, maktabgacha yoshidagi bolalar tarbiyasida oila va ota-onalar ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

0 -3 yoshda bolalar atrof muhitdagi voqeliklarni anglaydi va tushunadi. Mariya Montessori bolalarni turmush tarzi tartiblariga o'rgatish lozimlini tavsiya etadi. Bolalar oilada tartib qoidaga o'rgatiladi. Odamlar uchun pol yurishga mo'ljallangan , suv

baliqlar uchun, ular esa suvda suzadi. Bolalar yotishi uchun krovati bor, o'yinchoqlar uchun javon. Bolalar oyoq kiyimlar uchun javon alohida ekanligini tushunadi, idish tovoqlar oshxonada turishini biladi. Agarda onasi otasini oyoq kiyimini kiyib olsa, hayratlanadi. Har bir oila a'zosini vazifalarini angelaydi (ona-ovqat pishardi, kir yuvadi, uyni tozalaydi... v.h.). Bolalar uchun kundalik tartib ham muhim hisoblanadi. Bolaning bir yoshligidanoq, tartibga o'rgatish zarur. Ertalablabki nonushtadan so'ng sayrga chiqish, uyqudan oldin qo'l va tishlarni tozalab yuvish kabi sog'lom turmush tarziga o'rgatiladi. Kattalarning bolalarga bo'lgan talablari muntazam va aniq bo'lishi lozim, masalan ovqat vaqtida gapirmaslik, ovqatdan oldin va keyin qo'llarni yuvish, kattalar so'zlashayotganda aralashmaslik kabi odob-axloq qoidalari o'rgatib boriladi. 3 yoshda bolaga o'rgatilgan odob-axloq me'yorlari va tartib-intizom kelgusi hayotida ham zamin bo'ladi. M.Montessori, sensor tarbiyani tafakkurning asosi deb ta'riflaydi, so'z boyligi ko'payadi, matematik idrok, yozish malakalari, estetik tarbiya rivojlanadi. Atrof olamni sezish orqali angelaydi, hissiy idrok rivojlanadi. Bolalarda tajribalar shakllandi, turli shakllar, miqdor va rangni idrok qiladi. Ularda ko'rish, eshitish va taktil sezgi rivojlanadi.

Bolalarda nutq rivojlanishining senzitiv davri tug'ilganidan olti yoshgacha davom etadi. Bu davr 1 yoshdan 4 yoshgacha davom etadi. Bu yoshdagi bolalarga harakat qilish muhim. Chunki, harakatlanish natijasida qon kislorod bilan to'yinadi, bosh miya rivojlanadi, psixik jarayon rivojlanishi faollashadi. Bilish faoliyati juda yuqori bo'ladi, harakatlari ham jadallashadi. Bu yoshdagi bolalar uchun shunday faoliyat turlari tanlanishi kerakki, harakatlanish cheklanmasligi lozim. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda bolalar ko'p o'tirishi mumkin emas, ular zo'riqmasligi uchun jismoniy daqiqalar o'tkazish zarur. 2 yoshdan 6 yoshgacha bolalar xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtiradi. Bolalar atrofida qanday voqea-hodisalarni ko'rsa shunga ta'sirlanadi, shuning uchun ular bilan muloqot madaniyatiga xos ravishda munosabatda bo'lish muhim. Kattalar bolalarga yurish, so'zlashish, o'qish, yozishni,

hatti-harakatni o'rgasa, ular uchun oson kechadi. Ota-onalar birgalikda bolalar bilan barcha harakatlarni bajarishlari lozim. Bolalarga atrof olamdagi voqea-hodisalar ta'sir qiladi, shuning uchun sezitiv davrda ular bilan birga o'ynash, suhbatlashish, ularning hoxish va istaklarini inobatga olish muhim. Shundagina bolalarda produktiv tafakkur rivojlanishiga erishiladi. Mariya Montessori fikricha, "hech qachon bolalarga biror narsani to'liq o'rgata olmaymiz, qachonki, senzitiv davrga mos ravishda ta'lim-tarbiyani tashkil etilmasa". Ayni senzitiv davrda bolalarda muayan ko'nikma shakllantiriladi. Olimlar senzitiv davrni deraza oynasiga o'xshatadi. Oyna asta sekin yopiladi, qaysidir yoshda inson psixik funksiyalarni o'zlashtira olmaydi. Senzitiv va tanqidiy fikrlash davrida emotsional rivojlanish kuzatiladi. Masalan: bolani erkalatish, mehr berish, diqqat e'tiborli bo'lish muhim. Ilk kunidanoq kattalarga ishonishni boshlaydi. Agarda ota-onalar bolaning harakatlari ga e'tibor bermasa, javobsiz qolsa, u kamgap, odamovi bo'lib qoladi. Bolalarda qandaydir faoliyatga qiziqish paydo bo'ladi, kattalar uni qo'llab-quvvatlamasa bir qancha muddat o'tgach, qiziqish yo'qoladi. Bolaning turli yosh davrida atrof olamning ta'sirini qabul qiladi. Vaqtlar o'tib, mazkur jarayon ancha pasayadi. Masalan, ilk yoshda bola nutqi osongina shakllanishi mumkin, kattalar yordamisiz gapirishni biladi, grammatik gaplar tuzadi, fonetik va leksik jihatdan mustaqil harakat qiladi. Agarda nutq shakllanishida qandaydir ta'sir bo'lsa, bir qancha muddat to'xtalib qoladi va rivojlanishida qiynchilik ro'y beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Баранова Э.А. Введение в детскую психологию: Курс лекций. Учебное пособие.- Санкт-Петербург.: Речь, 2006. -176 с.
2. Бодалев А. Личность и общение. -М.: Международная педагогическая академия, 1995.-328 с.
3. Виготский Л.С. Вопросы детской психологии-СПб.: Союз, 1997.-224 с.


4. Галустова О. В. Шпаргалка по истории психологии: учеб. пособие. -М.: ТК Велби, 2005.-48 с.

5. Дарвиш О.В. **Возрастная психология. Учеб.пособие для студ. высш. учеб. Заведений.** - М.: Владос-пресс, 2003.- 341 с.

6. Davletshin. M.G., Sh.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR.

**Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna-
p.f.d. (DSs), professor
Maktabgacha ta'lim fakulteti**



**“Maktabgacha ta'lim “fakulteti
1-bosqich talabasi
Abdukarimova Inobat Shavkat qizi**



**“Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Kamolova Ulbo'lsin Yusuf qizi**



Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Bolaning har tomonlama rivojlanishida oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviy aloqa asosiy omil sifatida ko'rsatib berilgan. Hamkorlik shakllari – ochiq eshiklar kuni, pedagogik seminarlar, oilaviy tadbirlar va individual suhbatlarning o'rni yoritilgan. Maqolada ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi doimiy muloqot va o'zaro hamjihatlik bolalarning ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, oila va ta'lim hamkorligi, tarbiya jarayoni, pedagogik hamkorlik, bolaning rivojlanishi, ota-ona va tarbiyachi muloqoti, oilaviy tadbirlar, ijtimoiy faollik, ta'lim sifatini oshirish.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishida, ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bolaning to'liq va uyg'un

rivojlanishini ta'minlash uchun esa maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligi nihoyatda zarurdir. Bu hamkorlik bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, uning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Oila – bolaning birinchi tarbiyachisi va hayotdagi ilk bilimlar manbai sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari esa ushbu tarbiyaviy jarayonni davom ettiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun ular o'rtasidagi uzviy aloqani yo'lga qo'yish bolalar ta'lim-tarbiyasining sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Oila va ta'lim tashkiloti o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish uchun quyidagi shakllar muhim ahamiyatga ega:

Ochiq eshiklar kuni: ota-onalar bolalar ta'lim jarayoni bilan yaqindan tanishadilar.

Pedagogik seminar va treninglar: ota-onalarga zamonaviy tarbiyaviy metodikalar haqida ma'lumot beriladi.

Oilaviy tadbirlar va bayramlar: ota-onalar va bolalar birgalikda ishtirok etib, o'zaro ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi.

Individual suhbatlar va maslahatlar: har bir bolaning rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlari muhokama qilinadi.

Bundan tashqari, pedagoglar ota-onalarga bolalarining rivojlanishidagi yutuq va muammolar haqida muntazam axborot berib borishlari lozim. Ota-onalarning esa tarbiyaviy jarayonga faol qatnashuvi bolada o'ziga ishonch, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun oila va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Bola ilk tarbiyani oilada oladi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (MTT) esa uning bilim va ko'nikmalari yanada rivojlanadi va mustahkamlanadi.

Hamkorlikning ahamiyati

Bola rivoji uchun yagona muhit yaratiladi: Oila va MTT birgalikda ishlaganda, bola uchun uyg'un, qulay, izchil tarbiya va ta'lim muhiti shakllanadi.

Tarbiya usullarining uyg'unligi: Oila va tarbiyachilar

o'rtasida kelishilgan yondashuv bolada ijobiy fe'l-atvor, ijtimoiy ko'nikmalar va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

Muammolarni tez aniqlash va bartaraf etish: Bola rivojida yuzaga keladigan muammolar oilaviy va ta'lim muassasalari hamkorligida erta aniqlanib, bartaraf etiladi.

Ochiq eshiklar kunlari: Ota-onalar uchun tashkil etiladigan maxsus tadbirlar orqali ular bolalar faoliyati bilan yaqindan tanishadilar.

Seminar va treninglar: Ota-onalar uchun tarbiyaviy, pedagogik maslahatlar beriladigan mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Individual suhbatlar: Tarbiyachilar va ota-onalar o'zaro bola xulqi, qiziqishlari va rivojlanishidagi o'zgarishlar haqida muloqot qiladi.

Uyga vazifalar va loyihalar: Ba'zan bolalarga ota-onalari bilan bajarish uchun ijodiy topshiriqlar beriladi, bu ham oilaviy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bayram va tadbirlar: Ota-onalar ishtirokida turli bayramlar va sahna ko'rinishlari uyushtiriladi.

Hamkorlikning natijalari

Bola o'ziga ishonchli, ochiq va ijtimoiy faol bo'lib voyaga yetadi.

Ota-onalar farzand tarbiyasida yanada faol va ongli ishtirok etadi.

Ta'lim muassasasining tarbiyaviy samaradorligi oshadi.

Bola oilasi va bog'cha o'rtasidagi muhitda ijobiy mustahkamlik hosil bo'ladi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik bolalarning intellektual, ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Samarali hamkorlik uchun doimiy muloqot, o'zaro hurmat va birgalikdagi mas'uliyat zarur. Faqat ana shunday yondashuv bolalarimizni kelajakda mustaqil, bilimli va ijtimoiy faol shaxslar qilib tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4312-son qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. G'ulomov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. — Toshkent: Fan, 2015.
4. Qodirov A., Qurbonov Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Noshir, 2020.
5. Sharipov M. Oilada va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tarbiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
7. Davletshin M.G. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2016.

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK JIHATLARI.

Aminova Nodirabegim Hasanjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti



Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning dolzarb masalalari, pedagogik shart-sharoitlar va zamonaviy texnologiyalar asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonlari o'rganiladi. Talabalarni mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlashning metodik asoslari va amaliy yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, amaliyot, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi, motivatsiya.

Kirish qismi

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy vazifasi — jamiyat va iqtisodiyot talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdir. O'zbekiston Respublikasi "ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hujjatlarida ta'lim oluvchi shaxslarni kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar sifatida shakllantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat faoliyati olib borishga tayyorlash maqsadini, talabalarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali ularni amaliy mehnat faoliyati olib borishga tayyorlash maqsadini ko'zda tutadi.[1]

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash nafaqat ularning nazariy bilimlarini shakllantirish, balki kasbiy ko'nikmalar, shaxsiy kompetensiyalar, kreativ tafakkur va ijtimoiy faollikni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida kasbiy tayyorgarlik jarayonida zamonaviy yondashuvlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar,

mehnat bozorining real ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta'lim konsepsiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni amaliyotga yaqinlashtirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashdir. Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarishlar, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, raqobatbardosh kadrlar bozoridagi talablar ta'lim mazmunini yangilash, talabalarni mustaqil faoliyatga tayyorlashni talab qilmoqda. [2]

Mamlakatimizda ta'lim tizimining bugungi bosqichida kasbiy tayyorgarlik va ta'lim sifati eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida dars berayotgan yosh, zamonaviy bilimga ega pedagoglar muhim o'rin tutmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining kasb ta'limi yo'nalishlari bitiruvchilari hozirda kasb-hunar maktablari hamda akademik litseylarda samarali faoliyat olib borayotganligi quvonarli holatdir. Ular nafaqat an'anaviy o'qituvchilik vazifasini bajarishmoqda, balki innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarda kasbiy qiziqish uyg'otish va ularni mehnat bozoriga tayyorlash borasida ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Kasbiy tayyorgarlik — bu talabalarda kelgusida o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, professional dunyoqarash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon nafaqat auditoriyadagi darslar, balki amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish amaliyoti, loyiha ishlari va mustaqil tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari

-Talabanning kasbiy kompetensiyasi quyidagi asosiy elementlardan iborat bo'ladi:

-Bilim kompetensiyasi – kasbiy sohaga oid fundamental nazariy bilimlar.

-Amaliy kompetensiya – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasi.

-Axloqiy va ijtimoiy kompetensiya – kasbiy etika, jamoada ishlash, liderlik, muloqot ko‘nikmalari.

-Innovatsion kompetensiya – yangilikka ochiqlik, muammoni kreativ hal qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish. [3]

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda ta’lim muassasalari va mehnat bozori o‘rtasida uzviy hamkorlik, yangicha yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, shuningdek, shaxsiy yondashuv asosida o‘quvchilarning qiziqishi va iste’dodini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Har bir talaba o‘zining kelajakdagi professional faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashgandagina sifatli, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishadi.[4]

Xulosa

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni ko‘p bosqichli, tizimli va doimiy takomillashtirilishni talab etadigan murakkab jarayondir. Rivojlangan ta’lim tizimlarida kasbiy tayyorgarlik amaliyot bilan uzviy bog‘langan, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlar bilan boyitilgan. Shuningdek, shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy motivatsiyani oshirish va ta’lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Talabalar o‘z sohasining yetuk mutaxassisi sifatida shakllanishi uchun ularga zamonaviy ta’lim metodikasi asosida yo‘naltirilgan, natijaga qaratilgan, individual rivojlanishni ta’minlaydigan ta’lim zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni; (2020)

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”(1997)

2.Mardonov R. THE ROLE AND PLACE OF UNIVERSITIES IN THE “KNOWLEDGE SOCIETY” // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal .-2022.-T.10-N9.-S..317-325

3.A.R.Xodjaboyev, I.A.Xusanov, U.N.Nishonaliyev “Kasbiy Ta’lim Metodologiyasi” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2006

4. Abduhaliqov T. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringini tashkillashtirish ilmiy pedagogik asoslari. Nomzodlik disertatsiyasi –T.:MRI,2003

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Asatullayeva Simora
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi



Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida uchrayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Asosan, kadrlar yetishmovchiligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi, dastur va metodik materiallarning eskirganligi kabi dolzarb masalalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda individual yondashuvning yetishmasligi, tarbiyaviy ishlarning sustligi va ota-onalar bilan hamkorlik muammolari tahlil qilingan. Muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion yondashuvlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlangan. Maqola maktabgacha va boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ta'lim muammolari, kadrlar yetishmovchiligi, metodik materiallar, individual yondashuv, ota-ona hamkorligi, ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, tarbiyaviy ishlar.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim inson hayotidagi eng muhim va poydevor bosqichlaridan hisoblanadi. Bu davrda olingan bilimlar va shakllangan ko'nikmalar bola kelajagining asosini tashkil etadi. Shu sababli, ushbu ta'lim bosqichlarining sifatli va zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi juda muhim. Biroq, amaliyotda ko'plab muammolar kuzatilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagi asosiy muammolar va

ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Maktabgacha ta'limdagi muammolar

1. Kadrlar yetishmovchiligi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida yetarlicha malakali tarbiyachilar yetishmaydi. Ko'plab tarbiyachilar zamonaviy pedagogik texnologiyalardan yetarlicha foydalanmaydi.

2. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zaifligi

Ayrim bog'chalar zamonaviy jihozlar, o'quv-qurollar bilan to'liq ta'minlanmagan, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Dastur va metodik materiallarning eskirganligi

O'quv dasturlar zamonaviy psixologik-pedagogik talablar bilan hamohang emas. Natijada bolalarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Boshlang'ich ta'limdagi muammolar

1. Individual yondashuv yetishmasligi

Dars jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olish ko'pincha e'tibordan chetda qoladi.

2. Tarbiyaviy ishlarning sustligi

Faqat bilim berishga e'tibor qaratilib, tarbiyaviy ishlar ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

3. Ota-onalar bilan hamkorlik yetarli darajada emas

Boshlang'ich ta'limdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan ota-onalarning faol ishtirokiga bog'liq bo'lsa-da, bu boradagi hamkorlik ko'pincha sust.

Muammolarni hal etish yo'llari

Maktabgacha ta'lim uchun

Malakali kadrlar tayyorlash va ularni muntazam qayta tayyorlash

Tarbiyachilarni zamonaviy metodikalarga o'rgatish va ular uchun amaliy seminarlar tashkil etish zarur.

Moddiy-texnik bazani mustahkamlash

Davlat va xususiy sektor hamkorligida bog'chalarni zamonaviy jihozlar va o'quv materiallari bilan ta'minlash.

Innovatsion dasturlarni joriy etish

Ijodiy yondashuv va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Boshlang'ich ta'lim uchun

Individual yondashuvni kuchaytirish

Har bir o'quvchining imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiluvchi differensial ta'lim usullarini joriy etish.

Tarbiya va bilim berish o'rtasida muvozanatni saqlash

Dars jarayonida axloqiy qadriyatlar va milliy an'analarga asoslangan tarbiyaviy ishlarga ham e'tibor qaratish.

Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash

Ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish, seminar va uchrashuvlar tashkil etish orqali ularni bolalarning ta'lim-tarbiyasi bo'yicha doimiy hamkorlarga aylantirish.

Xulosa

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda mavjud muammolarni hal etish nafaqat ta'lim tizimi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham juda muhimdir. Sifatli ta'lim orqali kelajak avlodni har tomonlama yetuk va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirish mumkin. Bu esa uzluksiz islohotlar, innovatsiyalar va jamoaviy harakatlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova, N., & Jo'rayev, M.

Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2020.

2. Tojiboyeva, M.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2019.

3. Qosimova, D.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik asoslari. – Toshkent: «Ilm Ziyoy», 2021.

4. Karimov, I., & Mamajonov, A.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida" (PF-5712-son, 2019-yil 29-aprel).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Maktabgacha ta’lim muassasalarini rivojlantirish konsepsiyasi" (2018-yil 12-dekabr, 999-son).
7. Vygotskiy, L.S.
Pedagogik psixologiya. – Moskva: «Pedagogika», 2020.
8. Bruner, J.
Ta’lim jarayonini tushunish. – Moskva: «Progress», 2019

INDIVIDUAL TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINI KASBIY-METODIK TAYYORLASH

Azamatova Dildora Shuxrat qizi
“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”
kafedrasi o'qituvchisi



Ganiyeva Nasiba Shuxrat qizi
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Yusupbayeva Gulsevar Rafadjan qizi
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual ta'lim muhitining ahamiyati va tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ko'rib chiqiladi. Maqola, individual-pedagogik va psixologik shart-sharoitlarning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Individual ta'lim muhiti, bolalarning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali ularning o'qish va rivojlanish jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Individual ta'lim muhiti, maktabgacha ta'lim, tarbiyachilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi, psixologik shart-sharoitlar, individual-pedagogik yondoshuv, bolalar rivojlanishi, shaxsiy ehtiyojlar, psixologik holat, inson shaxsini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, ta'lim jarayonining

individuallashtirilishi, pedagogik metodlar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 uilgasha rivojlantirish Konsersiyasida Oliy ta’lim bilan qamrovni kengautirish, oliu ma’lumotli mutaxassislar tauyorlash sifatini oshirish bo‘uisha belgilangan tadbirlarda talabalarning ta’lim jarayonida individualligini oshirish, individual ta’lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta’lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo‘uisha oliy ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini kasbiy metodik tayyorlash, hozirgi zamon fan texnologiyalari asosida o‘qish va metodik mahoratlari hamda ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishda, ularning kasbiy metodik rivojlantirishda, kelgusi kasbiy-pedagogik faoliyatlarida yetuk mutaxassislar bo‘lishida muhim axamiyat kasb etadi

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi – bu bolalarning ilk o‘qish va ijodiy faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish, ularning ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlashga mas’ul mutaxassis hisoblanadi. Buning uchun tarbiyachi nafaqat pedagogik ko‘nikmalarga, balki individual xususiyatlar, psixologik va kasbiy qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini ishlab chiqishda individual-psixologik shart-sharoitlar va xususiyatlar muhim ahamiyatga ega.

“Individual” tushunchasi lotincha bo‘lib, yakka tartibda yolg‘iz va maxsus shug‘ullanish ma’nolarini bildiradi Individuallashtirish tabaqalashtirilgan ta’limning bir turi sifatida modulli o‘qitishda to‘liq o‘z ifodasini torgan.

Individual ta’lim muhiti – bu har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga asoslangan ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Ma’zarafga olib kelgan tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki,

bolalarning psixik, emosional va intellektual rivojlanishi har birining shaxsiy xossalariga bog‘liq.

Shuning uchun, maktabgacha ta’lim tarbiyachilari har bir bola bilan ishlashda individual yondashuvni ta’minlashi lozim.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning ishlash uslubi va malakasini shakllantiradi.

Individual ta’lim muhiti – bu o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro ishlash jarayonidagi psixologik va pedagogik sharoitlarning to‘planmasi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun individual ta’lim muhiti bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu muhitda har bir bolaning shaxsini o‘rganish, uning ijodiy qudratlarini rivojlantirish, o‘qitish jarayonidagi stress va chalkashliklardan qochish uchun psixologik imkoniyatlar yaratish talab qilinadi.

Individual-psixologik shart-sharoitlar maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy-metodik tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydi. Bu shart-sharoitlar tarbiyachilarning kasbiy qobiliyatlarini, pedagogik qobiliyatlarini va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratish uchun muhimdir. Shuning uchun tarbiyachilarning individual psixologik jihatlarini inobatga olish, ularning har birining kasbiy rivojlanishini yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.“2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori / “Xalq so‘zi”. 29.12.2016y.

2.Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari “Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta’lim mazmuni” 20 aprel 2019-yil II tom, 45-bet.

3.Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari “Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta’lim mazmuni” 20 aprel 2019-yil II tom, 128-

bet.

4.Qurbonova, M. F. (2023). INDIVIDUAL TA'LIM – INNOVATION O'QITISH USULI. Academic Research in Educational Sciences, 4(3), 394–399.

5.Mustafojeva Munajat Oltinbekovna. (2022). PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(5), 86–92. Retrieved from

6.Sadikova, Sh, and D. Azamatova. "Pedagogical Innovation Cluster of Activity of Centers in Preschool Education." Science and Innovation 1.7 (2022): 1138-1143.

TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK JIHLARINI O'RGANISH

Boliyeva Lola
Maktabgacha ta'lim fakulteti,
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi



Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy faoliyatga o'rgatish fanini o'qitishning pedagogik jihatlari yoritib berilgan. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi fani boshqa fanlarga nisbatan yosh fan hisoblanadi uni o'qitishning pedagogic jihatlari haqida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ma'lumotlar va tajribalar bo'yicha ma'lumotlar asosida maqola yozildi.

Kalit so'zlar: tasviriy faoliyat, metodik bilimlar, rasm chizish, badiiy ijod

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limda tasviriy san'atni o'qitishning pedagogik jihatlari tobora ko'proq e'tiborni jalb etmoqda. Bu esa bolalarning erta rivojlanishida badiiy ta'limning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu adabiyotlar sharhi maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy san'at ta'limining metodologiyasi, strategiyasi va ahamiyatini o'rganuvchi turli tadqiqotlarning asosiy xulosalarini umumlashtiradi.

Maktabgacha yosh davri bola o'z-o'zini namoyon etish va o'z-o'zini anglash uchun eng sezgir davr hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy faoliyati hisoblangan tasviriy faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri yo'naltirish Maktabgacha ta'lim sohasidagi asosiy masalalardan biridir. Talabalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish modulini samarali o'qitishda asosiy e'tibor hozirda psixologiya va pedagogikada mavjud kompetentsiyaga asoslangan yondashuvga qaratilgan. So'nggi yillarda ta'lim sohasida

ro'y bergan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamon talablariga mos keladi.

Talabning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi - bu pedagogik ongni, maxsus malakalar tizimini, umuman olganda, tarbiyachi shaxsini rivojlantirishni ta'minlaydigan jarayon bo'lib, uning xarakterli xususiyatlari yaxlitligi, farqlanishi va bosqichma-bosqich tashkil etilishidir. O'z navbatida, MTM tarbiyachisini tayyorlash muammosi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirish va shakllantirish juda muhimdir.

Tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi ushbu sohada metodik bilimlarni qay darajada mukammal egallashiga bog'liq. Bo'lajak tarbiyachi- mutaxassislarining kasbiy- metodik tayyorgarligi muammosini o'rganish o'zbek pedagog- olimlari oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagog olim Saransev.G.I keltirib o'tgan nazariy ma'lumotlarga tayanib o'qitish metodikasini ilmiy jihatdan tarifini ko'rib chiqadigan bo'lsak, o'qitish metodikasining asosi metodik tizimlardir. Keng ma'noda o'qitishning metodik tizimi o'qitishning maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va shakllaridan iborat. Fanni o'qitish metodikasi amaliy pedagogik soha bo'lib, o'quv jarayonining texnologik tomonini ta'minlash uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi. Uning roli o'quv materialini o'rganish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tavsiyalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati pedagogika oliy o'quv yurtida bo'lajak pedagogning uslubiy tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Zamonaviy metodik tafakkur – bu bo'lajak pedagog kasbiy ta'limining fundamental va amaliy yo'nalishini uyg'unlashgan funktsiyalarini bajaradigan maxsus kompetensiyalardan iborat. (Saransev.G.I.218-bet)

Bolalar tasviriy ijodiga ko'plab tadqiqotchilar: arxeologlar, san'atshunoslar, rassomlar, psixologlar va pedagoglar qiziqish bildirganlar.Ular bu masalaga murojaat qilib, quyidagi savollarga javob izlaganlar: bolalar nima uchun rasm chizadilar, bu jarayonlar bolalikning qaysi davrlarida sodir bo'ladi, bola ijodini qanday

tushunish kerak, uni o'rgatish kerakmi, agar shunday bo'lsa, nimaga va qanday usullar bilan? Antik davrda san'at va ijod bilan shug'ullanish Qadimgi Yunoniston faylasuflari (Aristotel, Platon, Suqrot, Geraklit, Pifagor) tomonidan alohida qadrlanardi. Ular bu mashg'ulotlarning insonning to'liq, barkamol rivojlanishi, ruhi va tanasining takomillashuvi uchun ahamiyatini ta'kidlab, ularni bolalikdan boshlash muhimligini ta'kidlaganlar. Rasm chizish, to'qish, xoreografiya, notqlik san'ati, pantomima va teatrlashtirilgan harakatlar bilan shug'ullanish insonga o'z qobiliyatlarini namoyon etishga yordam berishi kerak edi. Shunday qilib, Qadimgi Yunoniston mutafakkirlari va rassomlari rasm chizishni o'rganish nafaqat ko'plab amaliy hunarmandchilik uchun, balki umumiy ta'lim va tarbiya uchun ham zarur deb hisoblashgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan san'atga oid qadimiy risolalar estetik tarbiya sohasidagi asosiy yo'nalishlarni ochib beradi.

A. Komenskiy, F. Frebel, I.G. Pestalotssi kabi o'tmishdagi ko'plab pedagoglar bolalar rasm chizishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ular buni qo'l va ko'zni yozishga tayyorlash, keyinchalik esa tekislikda hajmli shaklni tasvirlash bilan bog'liq deb bilishgan. F. Frebel "bolaning rasm chizishiga intilishi ta'lim va tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi" deb yozgan. I. Pestalotssi esa rasm chizishni o'rgatishni kuzatuvchanlikni rivojlantirish va turli shakllarni tasvirlashda o'lehash san'ati bilan bog'liq deb hisoblagan. O'tmishdagi pedagoglarning ilg'or qarashlariga qaramay, XIX asr oxirida rasm chizishni o'qitishda geometrik yondashuv ustunlik qilgan. Bu yondashuv ko'p mamlakatlarning pedagogik tizimlarida uzoq vaqt hukmronlik qilgan va hozirgi vaqtda ham qo'llanilmoqda. Bolalar katakli qog'ozda chizadigan tayanch to'r yordamida rasm chizishni o'rgatish usullari, karton shakllarni to'ldirib chizish, "qo'lni yozishga tayyorlash" maqsadida tayyor konturlarni shtrixlash keng tarqalgan. Bu usullar ko'z bilan chamalash, qo'l harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi, rasm chizish texnikasini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Biroq, ular bolada tasavvurni rivojlantirish bilan kamroq bog'liq.

Tadqiqotchilar fikricha, bolalar ijodiyoti - bu bola uchun subyektiv yangi bo'lgan mahsulotni yaratish jarayonidir. Bunda bola o'z bilimlarini, tasvirlanayotgan narsaga hissiy munosabatini kiritadi hamda pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan yoki mustaqil ravishda topgan tasviriy-ifodaviy vositalarni qo'llaydi. Ijodiy ifoda erkinligi nafaqat obrazli tasavvurlar va ularni rasmda aks ettirish istagi bilan, balki bolaning tasvirlash vositalarini qay darajada egallaganligi bilan ham belgilanadi. O'zlashtirilgan texnik usullar, tasvirlash yo'llari va ifoda vositalari ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Ularning xilma-xilligi va ko'p qirraliligi, idrokning rivojlanganlik darajasi, taassurotlar zaxirasi, tasviriy qobiliyatlar darajasi badiiy obrazning ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim tushunchasiga ko'ra, ta'lim jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni nazarda tutadigan, bolalarning har tomonlama qiziqishlarini rivojlantirish muammosi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bolaning tasviriy ijodida qiziqish faoliyatning xususiyatini ko'p jihatdan belgilaydi: u takroriy yoki ijodiy bo'lishini aniqlaydi. Tasviriy san'at inson ongi va hissiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bunda atrof-dagi dunyoni badiiy obrazlarda aks ettiradi, voqealar, hodisalar va his-tuyg'ularni ko'rinadigan shakllarga aylantiradi, atrof-muhitni estetik mazmun bilan boyitadi. Bu ta'sir, ayniqsa, bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ular psixologik jihatdan ochiq va go'zallikni idrok etishga hamda badiiy tajribani o'zlashtirishga tayyor. Bolalar badiiy ijodiyoti tadqiqotchilari A.V. Bakushinskiy, L.A. Burovkina, T.N. Doronova, Ye.I. Ignatev, R.G. Kazakova, T.S. Komarova, V.B. Kosminskaya, N.P. Sakulina, M.A. Semyonova, Ye.A. Flyorina, Ye.S. Likova va boshqalar tasdiqlaydilar ki, atrof-dagi dunyoni, tevarak-atrof-dagi voqelikni tasviriy san'at vositalari bilan anglash maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsini har tomonlama uyg'un rivojlantirish masalasiga eng to'liq yondashish imkonini beradi. Bolalarning obrazlar orqali idrok etish xususiyatlari va bu obrazlarni o'z rasmlarida aks ettirish uchun tabiiy intilishlari

tasviriy san'at vositalari yordamida rivojlanish va tarbiyalashning universal yo'lini ochib beradi. L.A. Burovkina zamonaviy ta'limning maqsadi quyidagilardan iborat ekanligini juda aniq ta'kidlaydi: "Millatning intellektual, ma'naviy va ijodiy salohiyatini qayta tiklash, rivojlangan aqliy qobiliyatlarga ega, dunyoga ijodiy munosabatda bo'ladigan, shaxsiy mas'uliyat va axloqiylik hissiga ega, o'zgartiruvchan va samarali faoliyat hamda hayot yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan erkin fuqarolarni tarbiyalash" [1, 22-b.]

T.S. Komarova, R.G. Kazakova, N.P. Sakulina, Ye.A. Flerina va boshqa olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaning grafika sohasidagi faoliyati asta-sekin badiiy-ijodiy xususiyat kasb etadi. Bu jarayon taassurotlar, obrazlar va tasavvurlarning to'planishi hamda tasvirlash usullarini o'zlashtirish orqali yuz beradi. Chiziqlar yoki ranglar bilan bajarilgan obraz vaqt o'tishi bilan yanada ifodalibroq, aniqroq va chuqurroq bo'lib boradi. So'rovlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, uy sharoitida bolalar erkin badiiy faoliyat uchun bo'yoqlardan kamdan-kam foydalanadilar. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham bo'yoqlar asosan bevosita ta'lim faoliyati mashg'ulotlarida ishlatiladi, bo'sh vaqtlarda esa faqat ba'zan qo'llaniladi. Shu sababli, tasviriy san'at ta'limida aynan grafik rasm chizish eng dolzarb hisoblanadi. Bolalar grafik tasvirlarni tez-tez bajarib, grafik obrazlarni yaratishda takomillashib boradilar. Biroq, bu sohadagi mustaqil faoliyatning o'zi to'laqonli rivojlanish uchun yetarli emas. Ko'pchilik tadqiqotchilar bolalarga rasm chizish texnikasini o'rgatishda maqsadli psixologik-pedagogik yordam zarur, degan fikrda hamfikrdir.

Tasviriy faoliyatni o'qitish metodikasi - bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy ta'limning metodik tizimining ishlash va rivojlantirish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib bir tomondan, tasviriy faoliyatni o'rgatishning maqsadlari, mazmuni, usullari, vositalari va shakllari, ikkinchi tomondan, dunyoni obrazli ko'rishni u o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy san'atni o'rgatish metodikasining muhim jihati shundaki,

u o‘quv amaliyotida ularni amalga oshirish uchun mos yechimlarni olishga qaratilgan amaliy fandır.(Vershina.Monografiya.).

Tasviriy faoliyatning tuzilishini tahlil qilib, biz uchta asosiy komponentni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: idrok etish, ishlash va ijodkorlik, ular o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi, chunki ular samarali tasviriy faoliyatning asosi hisoblanadi (T.G.Kazakova.O‘quv qo‘llanma.2006.)

Tasviriy faoliyatga rahbarlik qilishda uning o‘ziga xos xususiyatlarini yodda tutish kerak — bu oddiy o‘quv mashg‘uloti emas, unda bolalar shunchaki nimanidir o‘rganadilar, nimanidir o‘rganadilar, bu boladan ijobiy hissiy munosabatni, rasm, rasm yaratish istagini talab qiladigan badiiy va ijodiy faoliyatdir.fikr va jismoniy kuch sarflash. Busiz muvaffaqiyat mumkin emas. Biroq, ko‘pincha amalda tasviriy faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari e‘tiborga olinmaydi, faoliyatning o‘zi boshqa mashg‘ulotlar bilan bir qatorda joylashtiriladi, bu esa pedagogik jarayonni rasmiylashtirishga olib keladi.(Komarova.T.S.o‘quv qo‘llanma).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саранцев У – д-р пед. наук, профессор,. О гармонизации профессионального образования педагога.2015

2. «Российский новый университет», Россия, Москва
Доктор педагогических наук, профессор

3.T.G.Kazakova.O‘quv qo‘llanma.2006. Теория и методика развития детского изобразительного искусства

4.КомароваТ.С.Детское художественное творчество
Методическое пособие для воспитателей и педагогов.2006

5. Н.А.Вершнина. Методика обучения дошкольников изобразительной деятельности. Монография.2015

INKLYUZIV TA'LIM VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH

Egamberdiyeva Matluba Komil qizi
Magistratura 1-bosqich talabasi



Anotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va amaliyotga joriy etilishi masalalari keng yoritilgan. Inklyuziv ta'lim — bu barcha bolalarga, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham bir xil sifatli ta'lim berishni ta'minlashga qaratilgan ta'lim tamoyili sifatida tahlil qilinadi. Maqolada inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun zarur pedagogik yondashuvlar va metodik usullar ko'rsatilgan. Shuningdek, inklyuziv muhitni yaratishdagi muhim sharoitlar, o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishda uchraydigan asosiy muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va ilg'or tajribalar ham tahlil qilinadi. Maqola inklyuziv ta'limning amaliyotga joriy etilishining ijtimoiy va pedagogik ahamiyatini o'rganib, jamiyatda tenglik, adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, amaliyot, pedagogik yondashuv, maxsus ehtiyoj, moslashuvchan o'qitish, ijtimoiy adolat, barqaror rivojlanish, ta'lim tizimi, inklyuziv kompetensiyalar, integratsiya, teng imkoniyatlar.

Maktabgacha ta'lim – shaxsning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishining dastlabki va muhim bosqichi bo'lib, uning keyingi bilim olish jarayoni va jamiyatga moslashuvchanligini

belgilovchi omillardan biridir. Mazkur bosqichda ta'lim-tarbiyaning sifati va inkluzivlik darajasi bolaning akademik va hayotiy muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tizimida barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish, jumladan, maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga to'laqonli integratsiya qilish muhim metodologik va pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning, ularning jismoniy, intellektual, psixologik yoki ijtimoiy ehtiyojlaridan qat'i nazar, yagona ta'lim muhitida teng huquqli ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvdir. Uning asosiy tamoyillari diversifikatsiya, differensiallashtirish va individualizatsiya bo'lib, ular har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.¹

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etish, avvalo, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq. Zero, inklyuziv ta'lim shunchaki ta'lim muassasalarida alohida ehtiyojga ega bolalarni qabul qilish bilan cheklanmay, balki ularning ta'lim olishini samarali tashkil etish, moslashtirilgan metodika va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishni ham talab qiladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan PQ–4860-sonli “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaror inklyuziv ta'limda pedagogik kompetentligini oshirish masalasiga alohida urg'u beradi. Mazkur hujjat maktabgacha ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, aynan ilk yoshdan boshlab bolalarning psixologik, pedagogik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini inklyuziv yondashuv asosida yo'lga qo'yish masalasini ilgari suradi.² Bu esa pedagoglarning

¹ UNICEF O'zbekistonda. "Inklyuziv ta'lim". <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-sonli qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." 2020-yil 13-oktabr. <https://lex.uz/docs/5013097>

maxsus metodik ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. Shu sababli, qarorda maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim muhitini yaratish, jumladan, defektolog, logoped, psixolog kabi mutaxassislarning faoliyatini kengaytirish, o'quv dasturlarini moslashtirish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish bo'yicha qator vazifalar belgilangan.

METODOLOGIYA

Inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun avvalo ta'lim tizimida barcha bolalarning teng huquqlari va ehtiyojlarini hisobga oluvchi yondashuv shakllantirilishi kerak. Bu metodologiya quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Birinchidan, ta'limning moslashuvchanligi va farqlashtirilgan yondashuv tamoyili qo'llanilishi zarur. Har bir o'quvchining individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasiga mos keladigan ta'lim mazmuni va uslublari ishlab chiqilishi kerak.

Ikkinchidan, pedagoglarning professional tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar nafaqat inklyuziv ta'limning nazariy asoslarini, balki amaliy metodlarini ham bilishi, o'z faoliyatida qo'llay olishi lozim. Bunga mos treninglar, seminarlar va maxsus kurslar orqali erishiladi.

Uchinchidan, ta'lim muhiti va infratuzilmaning moslashuvi talab etiladi. Darsxonalar, o'quv qurollari va axborot resurslari barcha bolalar uchun qulay va foydalanishga ochiq bo'lishi kerak. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida texnik va psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlari yaratish lozim.

To'rtinchidan, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim faqat maktab ichida emas, balki kengroq ijtimoiy muhitda ham qo'llab-quvvatlanishi kerak. Ota-onalar ta'lim jarayoniga faol jalb etilib, ularning farzandlari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalari rivojlantirilishi lozim.³

Beshinchidan, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarur. Bu tizim orqali o'quvchilarning moslashuvi, ijtimoiy rivojlanishi va emosional farovonligi

³ To'xtayev, O. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari. <https://academy.uz/uz/news/inklyuziv-ta'lim>

ta'minlanadi. Maxsus pedagoglar, psixologlar va logopedlar bilan tizimli ish olib borilishi muhimdir.

Inklyuziv ta'limni joriy etishda holistik (butunlik) yondashuv qo'llaniladi, ya'ni bolaning shaxsiy rivojlanishi, ta'lim muhitining moslashuvi va jamiyatdagi ijtimoiy qabul o'zaro bog'liq holda ko'riladi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish natijasida, barcha bolalarning bilim olish imkoniyatlari oshadi, to'liq ijtimoiy integratsiya va teng imkoniyatlar tamoyili amalga oshiriladi. Bu esa jamiyatning barqaror taraqqiyoti va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim — bu nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarga, balki har bir o'quvchiga shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta'lim berishni maqsad qilgan tizimdir. Uni samarali joriy etish uchun moslashuvchan ta'lim mazmuni, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ta'lim muhiti va infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ota-onalar va jamoatchilik bilan faol hamkorlik, shuningdek, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarur. Inklyuziv ta'lim sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ijtimoiy integratsiyani ta'minlash va ta'limdagi teng imkoniyatlar siyosatini amalga oshirish uchun inklyuziv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada qilingan ilmiy izlanishlar ta'lim tizimining demokratiklashuvi va inson kapitalini rivojlantirish uchun asosiy omil sifatida baholanmoqda. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish, nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar balki jamiyatning har bir a'zosiga o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

UNICEF O'zbekistonda. "Inklyuziv ta'lim". <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-

tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida." 2020-yil 13-oktabr. <https://lex.uz/docs/5013097>

To'xtayev, O. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari. <https://academy.uz/uz/news/inklyuziv-ta'lim>

QIZ BOLA TARBIYASIDA OTANING ROLI: SHARQ MENTALITETI DOIRASIDA TAHLIL

G.A.Gaynazarova
CHDPU Maktabgacha ta'lim
pedagogikasi kafedrası dotsenti (PhD)



Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq xalqlarida, xususan O'zbekiston oilaviy an'analarida qiz farzand tarbiyasida otaning tutgan o'rni tahlil qilinadi. An'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy yondashuvlar o'rtasida muvozanat, otaning hissiy-psixologik va ijtimoiy roli, shuningdek, gender stereotiplarga nisbatan munosabati yoritilgan. Maqolada qiz bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishida otaning faolligi va madaniyati muhim omil sifatida baholangan.

Kalit so'zlar. *oila, qiz bola, ota, etniklik, qadriyat, gender roli, an'ana.*

O'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari ming yillar davomida shakllangan ijtimoiy-madaniy tizimga tayangan. Bu tizimda ota – oila boshlig'i, himoyachi va mas'ul shaxs sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, qiz bolalarga nisbatan ota munosabati o'zbek oilalarida o'ziga xos mehr, hurmat va nazorat asosida shakllanadi.

Sharq xalqlari tarbiya tamoyillarida otaning qiz farzand tarbiyasidagi o'rni bebaho hisoblanadi.

Etnik jihatdan ota qiz farzand uchun – tarbiyaviy model va yo'l ko'rsatuvchi hisoblanadi. Ota – qiz bola uchun erkaklar dunyosini tushunishda birinchi psixologik obrazdir. U o'zining harakatlari, qadriyatlari va munosabati orqali qiz bola uchun gender rollarini belgilab beradi.⁴

⁴ Saidov A.X. (2019). O'zbek oilasining an'anaviy munosabatlari: etnopsixologik tahlil. – Toshkent: O'qituvchi.

Qiz bola uchun ota – hissiy tayanch va psixologik qo‘llovchi hisoblanadi. Otaning mehribonligi, farzandiga bo‘lgan e‘tibori qiz bolaning emotsional barqarorligiga ijobiy ta‘sir qiladi. Psixologlar otaning do‘stona munosabatini qiz farzand o‘z-o‘zini qadrlash darajasi bilan bevosita bog‘lashadi.⁵

Erkinlik va nazorat o‘rtasidagi muvozanat. Sharq oilalarida qiz farzandga nisbatan haddan tashqari nazorat va "himoya" mavjud bo‘lib, bu ko‘pincha qiz bolaning ijtimoiy faolligini cheklaydi. Zamonaviy yondashuvlar erkinlik, ishonch va maslahatni birinchi o‘ringa qo‘yadi.⁶

Azaldan ota – ta‘lim va hayotiy qarorlar homiysi sifatida oilada alohida mavqega ega shaxsdir. Otasi tomonidan rag‘batlantirilgan va qo‘llab-quvvatlangan qizlar kasb tanlash, ijtimoiy faoliyatda qatnashish va mustaqil fikrlashda faollik ko‘rsatadi.⁷

Sharq xalqlarining madaniyati, qadriyatlari va oilaviy an‘analari ming yillik tarixga ega. Bu mintaqada oilaviy tarbiya eng muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Ayniqsa, qiz bola tarbiyasi o‘ziga xos e‘tibor va mehrni talab etadi. Bu jarayonda onaning o‘rni ko‘p o‘rganilgan bo‘lsa-da, otaning roli ham o‘ta muhim va chuqur psixologik hamda axloqiy jihatlarga ega. Sharq mentalitetida ota – oila boshlig‘i, tayanch, hayotiy tajriba va qadriyatlar manbai bo‘lib, ayniqsa qiz bola tarbiyasida uning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Sharq mentaliteti – bu asosan musulmon dunyoqarashlar bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy ong va axloqiy me‘yorlar tizimi. Ushbu mentalitetda ota quyidagi rollarni bajaradi:

Tarbiyaviy yetakchi: Ota – o‘z farzandlariga, xususan, qiziga jamiyatda o‘zini qanday tutish, qanday axloqiy mezonlarga amal qilish kerakligini o‘rgatuvchi figuradir.

Himoyachi va tayanch: Qiz bola o‘z otasi orqali erkak kishi obrazini shakllantiradi. Agar otaning o‘rni mustahkam bo‘lsa, bu qiz bolaning kelajakda o‘ziga bo‘lgan ishonchi, erkaklarga nisbatan

⁵Baxtiyorova M. (2020). *Oilada psixologik muhit va uning farzandlar shaxsiyatiga ta‘siri*. – Toshkent: TDP.

⁶ Karimova D. (2021). *Gender va madaniyat*. – Toshkent: Ilm Ziy.

⁷ Hofstede G. (2001). *Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations*.

ishonchi va nikohdagi kutgan munosabatlariga asos bo‘ladi.

Mezonlar qo‘yuvchi shaxs: Sharq an‘anasida ota – oiladagi intizom, hurmat va qadriyatlar ramzi hisoblanadi. Aynan ota qiziga jamiyatdagi ijtimoiy me‘yor va odoblar haqida namunaviy tarzda saboq beradi.

Olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota bilan iliq, do‘stona aloqada bo‘lgan qizlar o‘zini qadrlash hissiga ega bo‘ladi. Ota tomonidan e‘tibordan chetda qolgan yoki sovuq muomalada o‘sgan qizlarda erkaklarga nisbatan ishonchsizlik, o‘zini kamsitish, psixologik noxotirjamlik holatlari kuzatiladi.

Ota mehribon, adolatli va diqqatli bo‘lsa, qiz bola o‘ziga ishonchli, hissiy jihatdan barqaror, muvozanatli shaxs bo‘lib shakllanadi.

Imom Ahmadning rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. hadislarida: “Kimki ikki qiz bolasini yaxshi tarbiya qilsa, ular unga jannat eshigi bo‘ladi”-,deganlar⁸. Bu hadis otaning qiz farzandga e‘tibori nafaqat dunyoviy, balki oxiratdagi najot vositasi bo‘lishini ham ko‘rsatadi.

Sharq falsafasida ota jamiyatda va oilada axloqiy yetakchi sifatida tasvirlanadi. Antik davr faylasuflaridan biri Konfutsiy: “Ota – oilaning ustuni. Uning so‘zi, harakati, xulq-atvori farzand uchun namunadir”-,⁹ deb yozgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning fikriga ko‘ra: “Farzand – Allohning ne‘mati. Uni mehr bilan tarbiya qilish har bir ota-onaning zimmasidagi buyuk mas‘uliyatdir”¹⁰. Bu fikrlar qiz bola tarbiyasida otaning mas‘uliyatini ma‘naviy-axloqiy tomondan yoritadi.

Xulosa qilib aytganda, ota – qiz bolaning ijtimoiy-psixologik shakllanishi, axloqiy qadriyatlarni anglashida muhim shaxsdir. Ota zamonaviy tarbiya uslublariga mos ravishda ochiq, mehribon, bilimli va mas‘uliyatli bo‘lishi zarur. Ayniqsa, qiz bolaning shaxs

⁸ Ahmad ibn Hanbal. *Musnad*. – Riyod: Dar-us-Salam, 1999.

⁹ Konfutsiy. *Suhbatlar va mulohazalar*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2005. – 128 b

¹⁰ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Oila – muqaddas maskan*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2010. – 304 b.

sifatida rivojlanishida otaning hissiy yaqinligi katta ahamiyatga ega.

O‘zbek oilasida ota va qiz bola munosabatlari etnik, madaniy va diniy qadriyatlarga tayangan bo‘lib, bu munosabatlar asosan hurmat, masofa va mehr orqali namoyon bo‘ladi. Zamon o‘zgarishi bilan bu munosabatlar shakli o‘zgargani holda, asosiy qadriyatlar saqlanmoqda. Sharq mentalitetida ota – nafaqat oilaning iqtisodiy ta‘minotchisi, balki ruhiy-axloqiy yetakchisidir. Ayniqsa, qiz bola tarbiyasida otaning mehri, e‘tiborli va adolatli bo‘lishi uning shaxs sifatida sog‘lom, barqaror, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan ayol bo‘lib yetishishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ilmiy va amaliy tadqiqotlar bu borada yanada chuqurroq tahlil olib borishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Абдуллаева, Н. (2020). Оилада фарзанд тарбияси: анъаналар ва замонавий ёндашувлар. – Тошкент: «Fan va texnologiya».

2.Фафорова, Д. (2018). Шарқ ва Ғарб менталитетида оилавий тарбиянинг психологик асослари. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

3.Karimova, Z. (2019). Gender munosabatlari va ijtimoiy rollar: psixologik tahlil. – Toshkent: «Ijtimoiy fikr» nashriyoti.

4.Ainsworth, M. D. S. (1989). Attachments beyond infancy. *American Psychologist*, 44(4), 709–716.

5.Lamb, M. E. (2010). *The Role of the Father in Child Development* (5th ed.). – Hoboken, NJ: Wiley.

6.Хайитова, Г. (2022). Қиз болаларда ижтимоий мослашув ва ота билан муносабатлар хусусиятлари. – Тошкент: «Ilm ziyo».

7.Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

8.Хидоятлов, Х. (2015). Ўзбек оиласининг қадриятлари ва

маънавий асослари. – Тошкент: «Sharq».

9. Biddulph, S. (2003). Raising Girls: Why Girls Are Different – and How to Help Them Grow Up Happy and Strong. – HarperCollins Publishers.

10. Юнусова, С. (2021). Оила психологияси. – Тошкент: TDPU nashriyot

TALABALARDA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA AHAMIYATI.

Ismanova Ma'mura Abdumo'minovna
Maktabgacha ta'lim fakul'teti
“Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi.



Ibadullaeva Gulmira Qayrat qizi
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi



Jumabekova Yuldiz Artikbaevna
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.



Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy kompetensiya, kasbiy yetuklik darajasi, ijodkor shahsning shakllanish jarayoni haqida, kreativlik tushunchasi, ta'lim jarayonida talabalarda kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Shahs, kreativlik, mushohada, metodologiya, antogenez, uzliksizlik, vorisiylik.

Jahonda talabalarda ijodiy g'oyalar yaratish, divergent fikrlash, fikrlarni konvertatsiya qilish qobiliyati, aql va kreativlik integratsiyasi, intellektual sub'ektlar muammolarni hal qilishda ijodiy xulq-atvorni namoyon etmasligi va uning tarkibiy tizimlari orasidagi tafovutni kamaytirish an'anasi kuzatilmoqda. Rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy

pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmunini takomillashtirish hamda jamiyatning o'zgaruvchan talablaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmani to'laqonli bajarish, xususan, uzluksiz ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalarni zamon talabi darajasida hal etish, intellektual jihatdan yetuk, sohadagi innovatsion jarayonlarni intensiv o'zlashtirishga qodir mutaxassislarni tayyorlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talaba-yoshlarda ijodiy-kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish, globallashuv jarayonlarini anglash borasida keng ko'lamdagi ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, oliy ta'lim muassasalarida talabalarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarni shakllantirish omillarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bo'lajak pedagoglarda ijodiy-kreativlikni rivojlantirishning eng samarali shakli, bevosita, o'quv-tarbiyaviy jarayon va uning mazmuni ekanligini ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim boshqa bosqichlaridan ob'yektning o'ziga xos pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvni talab qilishi bilan farqlanadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida ta'lim jarayonini talabalarda kasbiy-kreativlik ko'nikmalarini shakllantirish masalasini zamonaviy usullar va pedagogik yondashuvlar, xususan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezinin muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarnin qaror topishi (14-17 yosh) dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenezi, tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik,

vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma‘lumki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishini talab etadi. So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta‘lim tizimida talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs (o‘zlarida hamda talabalar)da kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar. Ta‘lim tizimini boshqarish organlari har yili ta‘lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e‘tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sislariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o‘quv yilining oxiriga kelib oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti.

O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil kreativlik sanaladi. Shaxsda kreatiqlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab kreativlik tushunchasining ma‘nosini tushunib olish talab etiladi. Masalan, Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, Kreativlik o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmuil sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma‘lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim.

Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o'qituvchilar ham aslida kreativlik tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, o'qituvchilar o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda kreativlik tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat

turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, talabalar e‘tiborini ta‘lim jarayoniga faol jalb etishni ta‘minlaydi. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassisleri kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati, faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda ta‘lim amaliyotining kreativ xarakter kasb eta olmayotganligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va buning sabablari hamda ularni bartaraf etish shartlarini quyidagilar bilan izohlaydilar: Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar fanning faqat mazmuni bilan tanishadilar, biroq fikrlash jarayoniga katta ahamiyat, e‘tibor va talablar qanday rivojlanishlari mumkinligi haqida hech qanday ma‘lumot bermaydilar. O‘qituvchining palapartish yo‘riqlar berish yondashuvining samaradorligi talabalar o‘quv faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan metod va strategiyalardan sezilarni darajada past foydalanadilar (Beghetto, Kaufman, 2010; Kirschner, Sweller, Clark, 2006). Vaholanki, talabalarda fikrlash ko‘nikmasi bo‘yicha yo‘riqlarni aniq va tushunarli yetkazib berish uchun o‘qituvchi (tanqidiy, kreativ) fikrlash usullari, ko‘nikmalarni samarali shakllantirish yo‘llari bilan talabalarni tanishtirish orqali talabalar o‘quv faoliyatini nazorat qilish va uni yo‘naltirishi lozim. Masalan, talabalar Aqliy hujum strategiyasi asosida o‘rganish jarayonda, eng avvalo, strategiyaning o‘zi nimaligini, uni qanday qo‘llash zarurligi haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim. Bugungi kunda talabalarda kreativlik sifatlerini shakllantirishga quyidagi muhim yondashuvlar asosida erishish mumkin bo‘ladi:

talabalarning yosh va individual xususiyatlari, jamoaning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosligini inobatga olgan holda o'quv-tarbiyaviy vazifalarni aniq belgilash, zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda o'quv-tarbiya jarayonini didaktik, psixologik va metodik jihatdan rejalashtirish va tahlil qilish; ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning samarali shakl, metod va vositalarni asosli ravishda tanlay olish talabalar tomonidan o'quv dasturi talablaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'zlashtirganlik natijalarini, darsda, darsdan tashqari sharoitlarda to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy ishlarni olib borish; talabalar, ularning ota-onalari bilan individual ishlarni amalga oshirish; talabalarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirish; ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish; didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqish; o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish kabi tizimli vazifalar amalga oshirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil bo'lishida mazmundor, mantiqiy fikrlashishida ulardagi ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini jihatdan to'g'ri tadqiq qilish jarayoni talabalarning intellekti, ijodiy potentsiallari, ijodiy resurslarini o'quv faoliyatiga safarbar qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy tadbirlarko'lamini ishlab chiqish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy-kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini kasbiy rivojlanish xaritasiga asoslangan "talabatalabaga ustoz" yondashuvi orqali tashkil etish maqsadga muvofiq. Talabalarda kreativ ko'nikmalarni shakllanishida ichki va tashqi motivatsiya muhim o'rin egallaydi. Ta'lim jarayonida tanqidiy va kreativ tafakkurni rivojlantirish vositasida konvergent va divergent fikrlash, innovatsion g'oyalarni kashf qilish qobiliyati

shakllanadi. Talabalarda kasbiy bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning ijodiy yutuqlarini qo‘llab-quvvatlash kreativlik ko‘nikmasini oshirishga turtki bo‘lishi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdullaeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d. dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: 2019 y. - B. 36-49.

2.G‘oziev E.G‘. Faoliyat va xulq atvor motivatsiyasi. – T.: “Universitet”, 2003,124.b

3.G‘oziev E.G‘. Usmonova Sh. Intellekt psixologiyasi. – T.: ToshDU, Universitet, 1996 b.

4.Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 30 b.

5.Danilov M.A. i dr. Didaktika / B.P. Yesipov, M.A. Danilov, M.N. Skatkin, E.I. Monoszon,S.M. Shabalov; pod red. B.P. Yesipova. - M.: Izd-vo Akad. ped. nauk, 2008, s. 503-516.

6.Jabborov A.M. Pedagogik texnologiyaning etnik asoslari. – T.: “Zarqalam”, 2006. – 48 b.

7.Ibragimova G.N.. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. P.f.f.d (phd) dissertatsiyasi avtoreferati . - T.: 2017y. – B. 34-38.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI

Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, shakllari va samarali yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar berilgan. Shuningdek, ushbu hamkorlikning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Pedagogik tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va ilmiy nazariyalarga tayanilgan holda, samarali hamkorlik mexanizmlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, oila, hamkorlik, tarbiya, bola rivojlanishi, ijtimoiylashuv, seminar, trening, zamonaviy texnika, individual, shaxs tarbiyasi, loyihako'nikma, muloqot.

Аннотация: В статье рассматриваются значение, формы и эффективные направления взаимодействия дошкольной образовательной организации и семьи. Также представлены существующие проблемы и предложения по их решению. Также было проанализировано положительное влияние этого сотрудничества на развитие ребенка. На основе педагогического опыта, современных подходов и научных теорий создаются эффективные механизмы сотрудничества.

Ключевые слова: дошкольное образование, семья, сотрудничество, воспитание, развитие ребенка, социализация, семинар, тренинг, современные технологии, личность, личностное образование, проектное мастерство, коммуникация.

Abstract: This article highlights the importance, forms and effective directions of cooperation between a preschool educational organization and a family. It also presents existing problems and proposals for their solution. It also analyzes the positive impact of this cooperation on the development of children. Based on

pedagogical experience, modern approaches and scientific theories, effective cooperation mechanisms are substantiated.

Keywords: preschool education, family, cooperation, upbringing, child development, socialization, seminar, training, modern technology, individual, personal education, project skills, communication.

Zamonaviy jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Bolaning ilk tarbiyaviy asoslari aynan oilada shakllanadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bu jarayonni chuqurlashtirib, bolani maktab ta'limiga tayyorlaydi. Ushbu ikki institut – oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining uzviy hamkorligi bolaning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim — inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashi va bilim olishga tayyorlanishi aynan shu davrda asoslanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi uzviy hamkorlik bolalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tizimida oilaning o'rni. Oila bolaga birinchi ijtimoiy tajribani beradi. Oilada shakllangan qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va muomala madaniyati bola dunyoqarashiga asos soladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti esa bu ko'nikmalarni tizimli tarzda rivojlantiradi. Agar oila va bog'cha bir yo'nalishda harakat qilsa, bola uchun qulay pedagogik muhit yaratiladi. O'zbekiston Respublikasida “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi” tomonidan 2023–2024 yillarda o'tkazilgan loyihalar, jumladan, “Ota-onalar maktabi” kabi tashabbuslar samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qildi. Shuningdek, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ota-onalar kuni”, “Sport festivali” kabi loyihalar orqali ijobiy natijalar qayd etilgan. Mashhur pedagoglar A.V. Mudrik, L.S. Vygotskiy, N.G. Salmina va boshqalar oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni bolaning ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omil deb baholaganlar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onasi faol bo'lgan bolalar bog'cha hayotida ko'proq ishtirok etadi, o'z fikrini erkin bildiradi,

dars jarayonlarida faolroq bo‘ladi.

Hamkorlik shakllari:

-Oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik quyidagi shakllarda olib boriladi:

-Ota-onalar yig‘ilishlari: ta’lim jarayonining mazmuni, farzand tarbiyasi bo‘yicha maslahatlar beriladi.

-Ochiq darslar va bayram tadbirlari: ota-onalar ishtirokida bolalarning ijodiy faoliyati namoyish etiladi.

-Individual suhbatlar: har bir bola bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha alohida maslahatlar.

-Ota-onalar uchun seminar-treninglar: pedagogik madaniyatni oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida oila hamkorligida uchraydigan muammolar.

-Ota-onalarning bog‘cha faoliyatiga befarqligi

-Tarbiyachilar bilan doimiy muloqot yetishmasligi

-Oila va bog‘cha o‘rtasidagi pedagogik yondashuvlarning farqliligi

-Tarbiyaviy yondashuvlar farqliligi.

-pedagogik bilim va ko‘nikmalarning yatarli emasligi.

Ota-onalar va MTT hamkorligini kuchaytirish uchun takliflar va yechimlar:

1.Doimiy axborot almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish ya’ni ota-onalar farzandining bog‘chadagi faoliyati haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi uchun Telegram/WhatsApp guruhlari, maxsus mobil ilovalar yoki ota-onalar uchun elektron kundaliklar orqali har kuni yangilik va xabarlarni ulashish.

2.“Ota-onalar maktabi”ni tashkil etish.Har oyda bir marotaba qisqa seminarlar, treninglar, psixologik mashg‘ulotlar tashkil etish.

3.Ochiq darslar va tadbirlarga jalb qilish.

Har oyda ochiq darslar, teatr sahnalari, sport tadbirlari o‘tkazilib, ota-onalarning faol ishtiroki rag‘batlantiriladi.

4.“Individual pedagogik maslahat kunlari” joriy etish.Har bir bolaning o‘ziga xos tarbiyaviy ehtiyojlari mavjud.Tarbiyachilar

va psixologlar har chorakda ota-onalar bilan individual suhbat o‘tkazib, bolaning rivojlanish holati yuzasidan tavsiyalar berishi kerak.

5.Ota-onalarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.Eng faol ota-ona tanlovi, ota-onalar forumlari va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga imkon yaratish.

6.MTT va oilaning yondashuvlarini uyg‘unlashtirish.Yil boshida umumiy tarbiya strategiyasi ishlab chiqilib, ota-onalar bilan kelishiladi.

7.Onlayn maslahat xizmati tashkil etish.Ba’zi ota-onalar vaqt yo‘qligi sababli bog‘chaga bora olmaydi.Telegram bot, Zoom orqali onlayn maslahat sessiyalari orqali savol-javoblar tashkil etish.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bola tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Bu hamkorlik natijasida bolalar ma’naviy jihatdan boy, jismoniy va aqliy sog‘lom, ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanadi. Shuning uchun ham bu yo‘nalishda tizimli yondashuv, doimiy aloqa va innovatsion usullarning joriy etilishi zarurdir. Albatta, quyida “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi” mavzusiga oid umumiy xulosa keltirilgan.Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi samarali hamkorlik — bolani har tomonlama sog‘lom, tarbiyali va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bola hayotining dastlabki yillarida unga ta’sir qiluvchi asosiy muhit — bu oila va bog‘cha bo‘lib, ularning tarbiyaviy yondashuvlari uyg‘unlashgandagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.Zamonaviy ta’lim jarayoni ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida doimiy muloqot, o‘zaro ishonch va hamkorlikni talab etadi. Biroq bu sohada ayrim muammolar, jumladan, loqaydlik, muloqot yetishmasligi va tarbiyaviy yondashuvlar farqliligi mavjud. Shunga qaramay, tegishli tashkiliy ishlar, ma’rifiy dasturlar va innovatsion yondashuvlar orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin.Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan oilaning uzviy va samarali hamkorligi – kelajak avlod tarbiyasining poydevoridir.

Shu sababli bu yo‘nalishda har ikki tomon ham faol, mas’uliyatli va tashabbuskor bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.

3.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining metodik qo‘llanmalari. — Toshkent, 2022–2024 yillar.

4.Qodirova R., Islomova G. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash nazariyasi va metodikasi”. — Toshkent: Fan, 2021.

5.Jumayeva D.A. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

6.Vygotskiy L.S. “Pedagogik psixologiya”. — Moskva: Pedagogika, 1991.

7.Mudrik A.V. “Sotsializatsiya: nazariyasi va amaliyoti”. — Moskva: Akademiya, 2005.

8.Salmina N.G. “Oila va tarbiya: pedagogik asoslar”. — Moskva, 2003.

9.Abdullaeva D. “Oila va maktabgacha ta’lim muassasasi hamkorligining zamonaviy shakllari”. — Ilmiy-amaliy maqola, “Ta’lim va innovatsiya” jurnali, 2023-yil, №2.

10.Rasulova N. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda oila bilan ishlash metodikasi”. — Respublika pedagogika markazi nashri, 2022.

INKLYUZIV TA'LIM VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH

**“Maktabgacha ta’lim “ fakulteti
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi
1-bosqich talabasi
Jumayeva Mohira G‘ofurjon qizi**



Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tushunchasi, uning asosiy tamoyillari va amaliyotga joriy etish bosqichlari yoritib berilgan. Inklyuziv ta’lim barcha bolalarning ta’limga teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuv ekani ta’kidlanadi. Muallif inklyuziv ta’limni joriy etish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asoslar, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ta’lim muassasalarini moslashtirish va jamiyat bilan hamkorlik qilish kabi muhim omillarni ko‘rsatib beradi. Maqola xulosasida esa inklyuziv ta’lim orqali ijtimoiy adolat va tenglikka erishishning ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, teng imkoniyatlar, ta’lim tizimi, imkoniyati cheklangan bolalar, differensial ta’lim, normativ-huquqiy baza, o‘qituvchilarning malakasi, moslashtirilgan ta’lim, jamiyat bilan hamkorlik, ijtimoiy adolat.

Bugungi globallashuv va inson huquqlari rivojlanayotgan davrda inklyuziv ta’lim tushunchasi ta’lim sohasida muhim o‘rin egallab bormoqda. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalar, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki tilshunoslik farqlaridan qat’i nazar, bir xil ta’lim muhitida o‘qish huquqini ta’minlash tizimidir. Bu yondashuv jamiyatda tenglik, bag‘rikenglik va adolat tamoyillariga asoslanadi.

Inklyuziv ta’limning mohiyati

Inklyuziv ta’lim — imkoniyati cheklangan, ijtimoiy yoki

iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan bolalar uchun alohida maktablar emas, balki umumiy ta'lim muassasalarida birgalikda o'qish imkoniyatini yaratishdir. Uning asosiy maqsadi — barcha bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta'lim berishdir. Inklyuziv ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Teng imkoniyatlar yaratish;

Ta'limdagi diskriminatsiyaga barham berish;

Moslashtirilgan o'qitish metodlari va resurslardan foydalanish;

Individual yondashuv va qo'llab-quvvatlovni kuchaytirish.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etish bosqichlari

Inklyuziv ta'limni samarali joriy etish uchun quyidagi asosiy qadamlar amalga oshirilishi zarur:

1. Normativ-huquqiy bazani rivojlantirish

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun avvalo, milliy qonunchilikka mos ravishda normativ hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu hujjatlar imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim huquqini to'liq himoya qilishi kerak.

2. O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish

Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etishda o'qituvchilarning roli katta. Shuning uchun ularni maxsus pedagogika, differensial ta'lim metodlari, psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish zarur.

3. Ta'lim muassasalarini moslashtirish

Maktab binolari, sinfxonalar, darsliklar va o'quv materiallari imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Bu, masalan, panduslar, maxsus texnik vositalar, o'quv adabiyotlarning brayl yozuvida yoki audio formatda tayyorlanishini o'z ichiga oladi.

4. Jamiyat va ota-onalar bilan hamkorlik

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun jamiyatning keng qatlamlari va ayniqsa ota-onalar bilan faol hamkorlik zarur. Ota-onalarni farzandlarining ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularni inklyuziv yondashuv haqida xabardor qilish muhim ahamiyatga

ega.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim — bu nafaqat pedagogik, balki insoniy qadriyatlar asosiga qurilgan tizimdir. Uni amaliyotga joriy etish orqali jamiyatda har bir insonning o'z o'rnini topishi, imkoniyatlar tengligini ta'minlash va ijtimoiy adolatga erishish mumkin. Inklyuziv ta'limga sodiq qolgan ta'lim tizimi nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. "Inclusive Education: The Way of the Future". International Conference on Education, Geneva, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida". 2017-yil, PQ–3165-son.
3. Booth, T., Ainscow, M. "Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools". Centre for Studies on Inclusive Education (CSIE), Bristol, 2011.
4. Vygotskiy, L.S. "Pedagogik psixologiya". Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1991.
5. Amonov, Sh. "Maxsus pedagogika asoslari". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2015.
6. Salomova, D. "Ta'limda inklyuziv yondashuv: nazariya va amaliyot". Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
7. Slee, R. "Inclusive Education: From Policy to Practice". London: Routledge, 2011

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHTIRISH.

Kodirova Muyassar Eshmamat qizi

Maktabgacha ta'lim fakulteti
„Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”
o'qituvchisi



Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida harakatli o'yinlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'siri, ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik jarayonda harakatli o'yinlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, harakatli o'yinlar, jismoniy rivojlanish, bolalar sog'ligi, pedagogik jarayon, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish, motorika, o'yin faoliyati.

Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlash bugungi kundagi muhim muommolarimizdan biri hisoblanadi. Buyuk bobomiz Abu Ali ibn Sino ta'kidlaganidek bola tug'ilganidan boshlab uni to'g'iri tarbiyalash va shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ayniqsa harakatli o'yinlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Bola shaxs sifatida shakllanib borishida harakatli o'yinlarning o'rni uni bolaning yoshiga mos holda tanlash zarurligi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bildirganlar.

Ilk go'daklikning jiddiy xususiyati bolaning salomatligi, jismoniy rivojlanish holatining o'zaro aloqasi va bir-biriga bog'liqligidir. Shunga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog'lomlashtirish, bolaning harakat sohasini rivojlantirish,

chaqqon, kuchli, jasur bo‘lishdek hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish va asoslab berish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi, bizningcha, yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har tomonlama mutanosib, jumladan, jismoniy va shaxsiy rivojini ta‘minlovchi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar birligini yaratishdadir desak mubalag‘a bo‘lmaydi. Bunda bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishning o‘yin shakllari eng qimmatli sanaladi. Biroq harakatli o‘yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarini maqsadli rivojlantirish masalasi xususida ayrim ishlarda to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa ham, batafsil so‘z yuritilmagan. Shuning uchun bu mavzu yuzasidan ish olib borishdan maqsad jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o‘yinlardan foydalanish asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo‘llarini aniqlashdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning yosh xususiyatlari belgilab berildi, ularni maktabgacha ta‘lim muassasasi sharoitida rivojlantirish nazariy hamda tajriba yo‘li bilan asoslab beriladi, buning uchun quyidagilar aniqlandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o‘yinlarni qo‘llash asosida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning yosh xususiyatlari;

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatlari orasidagi o‘zaro bog‘liqligiga doir qonuniyatlar;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va rivojiga ta‘sir o‘tkazish tamoyili bo‘yicha vosita hamda uslublari.

Ishni amaliy va nazariy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotlar jarayonida qo‘lga kiritilgan ilmiy ma‘lumotlar maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida o‘quv jarayonini takomillashtirish muammolariga ta‘lluqli jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyatining qonuniyatlarini oydinlashtiradi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqiladi va nazariy jihatdan asoslandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar mavsumga mos ravishda o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, yozda suvda o‘ynaladigan yoki ochiq havoda yugurish, sakrashni o‘z ichiga olgan o‘yinlar, qishda esa qor bilan bog‘liq o‘yinlar (qor to‘pi o‘ynash, qor odam yasash), kuz va bahorda esa barg, tosh, yog‘ochcha kabi tabiiy materiallardan foydalanilgan o‘yinlar o‘ziga xos tarbiyaviy va o‘quviy qiymatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, texnologik vositalar bilan uyg‘unlashtirilgan harakatli o‘yinlar ham mavjud. Masalan, interaktiv pol yoki ekran orqali harakatga asoslangan topshiriqlarni bajarish – bu o‘yinlar bolaning texnik vositalarga bo‘lgan qiziqishini sog‘lom harakat bilan uyg‘unlashtiradi. Bu kabi zamonaviy usullar bolalarni jismoniy faollikka jalb etishning innovatsion shakli hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar orqali bolalarning mehnatga bo‘lgan munosabati ham shakllanadi. Ba’zi o‘yinlar mehnat faoliyatini taqlid qilishga asoslangan bo‘ladi – masalan, “bog‘ni tozalash”, “pol yuvish”, “urug‘ sepish”, “non yopish” kabi rolli-harakatli o‘yinlar orqali bolalar mehnatning mohiyatini o‘rganadilar va unga hurmat bilan qarashni boshlaydilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.D.Zayniddinova., G.Usmonxodjaev, “Bolalar uchun harakatli o‘yinlar”. Tosh. “Yangi asr avlodi” (2006)

2.Mahkamjonov K., Salomov R., Ikromov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik T; Iqtisod-Moliya (2008)

3.M.E.Kodirova,Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida harakatli o‘yinlarni tahkil qilish va tayyorlov bolalarda axloqiy va irodavuy sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati. „*Eurasian journal of academic research*” (2023)

4.Tulenova. X., Xo‘jaev.P, Xo‘jaeva K., Meliev O., Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya (2012) o‘quv

qo‘llanma.

5.T.Usmonxo‘jaev., M. Toirova., X.Sagdiev., T.Sharipov.
“Kichkintoylarga 200 ta harakatli o‘yinlar” (2006)

6.T.S.Usmonxo‘jaev., S.T.Islomova. “Maktabgacha ta’lim
muassasalarida jismoniy tarbiya” Tosh. – “Ilm ziyo” (2006)

7.Xo‘jaev F., Raximqulov K.D., Nigmanov B.B., «Harakatli
o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi» Cho‘lpon nashriyoti; Toshkent
(2011)

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HARAKATLI O‘YINLAR.

Kodirova Muyassar Eshmamat qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti „Maktabgacha
ta’lim pedagogikasi” o‘qituvchisi



Aminova Sevara Furqat qizi
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida harakatli o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Harakatli o‘yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta’siri, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik jarayonda harakatli o‘yinlardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lim, harakatli o‘yinlar, jismoniy rivojlanish, bolalar sog‘ligi, pedagogik jarayon, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish, motorika, o‘yin faoliyati.

Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxassislarining tobora ko‘proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy ta'sir o‘tkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar to‘la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Bolalarni o‘rab turgan muhit o‘zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o‘yinlar o‘rniga kompyuter o‘yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o‘yinlar, sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot

qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O‘yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o‘yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va o‘tirib o‘ynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o‘z salbiy aksini topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo‘llarini izlash, birinchidan, ko‘rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq.

Ilk go‘daklikning jiddiy xususiyati bolaning salomatligi, jismoniy rivojlanish holatining o‘zaro aloqasi va bir-biriga bog‘liqligidir. Shunga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog‘lomlashtirish, bolaning harakat sohasini rivojlantirish, chaqqon, kuchli, jasur bo‘lishdek hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish va asoslab berish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimi, bizningcha, yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har tomonlama mutanosib, jumladan, jismoniy va shaxsiy rivojini ta‘minlovchi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar birligini yaratishdadir desak mubalag‘a bo‘lmaydi. Bunda bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishning o‘yin shakllari eng qimmatli sanaladi. Biroq harakatli o‘yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va psixik jarayonlarini maqsadli rivojlantirish masalasi xususida ayrim ishlarda to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa ham, batafsil so‘z yuritilmagan. Shuning uchun bu mavzu yuzasidan ish olib borishdan maqsad jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o‘yinlardan foydalanish asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo‘llarini aniqlashdan iboratdir. Maqsadga erishish jarayonida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini

rivojlantirish uchun olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari tashkillashtirib tadqiqot olib borish yuqorida keltirilgan muommoni yechishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasini yaratishning nazariy asoslari mazmuni, shakli, vositalari hamda usuliyatini yangilash ishning predmeti hisobida amalga oshiriladi. Shu predmetni qo'lash jarayonida quyidagi farazni ilgari surish maqsadga muvofiqdir, jumladan maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash haqidagi taxminlarga asoslanadi. Shuningdek, bolalar jismoniy tarbiyasidagi bu yo'nalishni amalga oshirish an'anaviy vositalar, xususan, harakatli o'yinlardan ham bolalar harakat faoliyatini rivojlantirish maqsadida foydalanish ta'sirini jiddiy yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning yosh xususiyatlari belgilab berildi, ularni maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitida rivojlantirish nazariy hamda tajriba yo'li bilan asoslab beriladi, buning uchun quyidagilar aniqlandi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida harakatli o'yinlarni qo'llash asosida jismoniy sifatlar jarayonlarni rivojlantirishning yosh xususiyatlari;

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy jismoniy sifatlari orasidagi o'zaro bog'liqligiga doir qonuniyatlar;

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari va rivojiga ta'sir o'tkazish tamoyili bo'yicha vosita hamda uslublari.

Ishni amaliy va nazariy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotlar jarayonida qo'lga kiritilgan ilmiy ma'lumotlar maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida o'quv jarayonini takomillashtirish muammolariga ta'lluqli jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyatining qonuniyatlarini oydinlashtiradi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqiladi va nazariy jihatdan asoslandi.

Maktabgachayoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash xususiyatlari asosan bolaga tugʻilganidayoq, uning qoniga alohida rivojlanishning irsiy dasturlari tomonidan joylashtirilgan jismoniy imkoniyatlarning tegishli yigʻindisi ato etilgan boʻladi. Organlar, organizm tuzilmalarining biologik yetilishi davomida shaxsiy imkoniyatlar rivojlanib, insonning har-xil jismoniy xususiyatlarini belgilaydi. E.A Pimonova, L.V Karmanova va boshqalar bergan maʼlumotlarga koʻra, soʻnggi 20 yil mobaynida bolalarning jismoniy rivojlanishida qayd etilgan umumiy ijobiy yoʻnalishlari (gavdaning barcha oʻlchamlari kattalashuvi) ularning harakat tayyorgarligida sezilarsiz oʻsish kuzatiladi, bir qator koʻrsatkichlar esa (tezkorlik, tezlik-kuch imkoniyatlari) ancha pasayadi. Shunga qaramay, mutaxassislar jismoniy sifatlarni tarbiyalash aynan maktabgacha davrda boshlanishi kerak, deb hisoblaydilar.

Bolalar va oʻsmirlar harakat faolligi sifat jihatlarini rivojlantirishning fiziologik omillari mushaklar hamda vegetativ organlar faoliyatining boshqarilishini takomillashtirishda namoyon boʻladi. Qisqa muddatli, tezkorlik va kuch harakatlarida asab-mushak tizimi faoliyati boshqaruvini yaxshilashga koʻproq ahamiyat beriladi. Birmuncha uzoq muddatli faoliyatda harakat funktsiyalarini takomillashtirish bilan birga vegetativ funktsiyalarni muvofiqlashtirish ham jiddiy ahamiyat kasb etadi. Biroq bolalar va oʻsmirlar organizmining kuch, tezlik va chidamlilik koʻrsatkichlari yaxshilanishini belgilaydigan funktsiyalarining fiziologik boshqarilishini yaxshilashda eng muhim oʻrinni asab tizimi, ayniqsa, mushak zoʻriqishlarida organizmning funktsiyalari yaxshilanishini taʼminlovchi aloqalarning shakllanishi egallaydi. Shunday qilib, bolalik davrida kuch, tezlik va chidamlilikning oʻzaro bogʻliqligiga oid turli-tuman shakllarni belgilovchi fiziologik mexanizmlar ham xilma-xildir. Shartli-reflektor omillar muhim ahamiyatga ega. Mashgʻulotlar davomida biror yoʻnalishdagi kuch, tezlik yoki chidamlilikni rivojlantiruvchi harakatlar uchun markaziy asab tizimida mushaklar hamda vegetativ organlar ishini dasturlashtirishning maʼlum shakllari yuzaga keladi. Harakatli

o‘yinlar harakat qobiliyatlari kompleks rivojlantirish vazifasining amalga oshirilishini maksimal darajada ta‘minlaydi, chunki ularning mazmuni harakat dasturlarini shakllantirish va almashtirishga yo‘naltirilgan. Ma‘lumki, insonning rivojlanish jarayonida egallab boradigan harakat tajribasi turli darajadagi harakat dasturlarining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida o‘z ifodasini topadi. Harakat malakalari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, yangi harakatlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari shuncha ko‘p bo‘lishi tabiiy. Harakatli o‘yinlar murakkab tizimlar bo‘lgan tana va uning qismlari holatlari, harakatlar va harakat faoliyatlarining tez-tez almashinib turishi bilan tavsiflanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun harakatli o‘yinlar ularning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu yosh davrida bola organizmi faol o‘shishda bo‘ladi, shuning uchun harakat orqali tananing barcha qismlari rivojlanadi, mushaklari chiniqadi, muvozanat saqlash qobiliyati shakllanadi. Harakatli o‘yinlar bolaning koordinatsiyasini oshiradi, reaksiya tezligini rivojlantiradi va chaqqonlikni mustahkamlaydi.

O‘yinlar jarayonida bolalar o‘zaro hamkorlikni, navbat kutishni, qoidalarga rioya qilishni o‘rganadilar. Ular mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, jamoa bo‘lib harakat qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Ayniqsa, ochiq havoda o‘ynaladigan harakatli o‘yinlar bolalarning immun tizimini mustahkamlaydi, ularni sog‘lom va bardam qiladi.

Harakatli o‘yinlar bolaning his-tuyg‘ularini ifoda etishiga, energiyasini to‘g‘ri yo‘naltirishiga yordam beradi. Qiziqarli va serharakat o‘yinlar bolada faollikni, ijobiy kayfiyatni uyg‘otadi. Shu bilan birga, o‘yinlar orqali pedagoglar bolalarning xarakterini, qiziqishlarini, faoliyatga bo‘lgan munosabatini kuzatishlari mumkin. O‘yinlar har bir bolaning shaxsiy rivojiga moslashtirilgan bo‘lishi kerak, chunki har bir bola individual rivojlanish sur‘atiga ega.

Ko‘pgina harakatli o‘yinlar xalq og‘zaki ijodiga asoslangan bo‘lib, ular orqali milliy qadriyatlar, odob-axloq me‘yorlari

bolalarga singdiriladi. “Qo‘l ushlashmashoq”, “Qoch-qoch”, “Top, top, kim topdi?” kabi o‘yinlar bolaning nafaqat jismoniy harakatlarini, balki estetik didini, eslab qolish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o‘yinlar nafaqat jismoniy salomatlikni ta‘minlaydi, balki psixologik jihatdan ham ularni barqarorlashtiradi. Bolalar o‘yin vaqtida o‘zlarini erkin tutadilar, ichki kechinmalarini yengilroq ifoda eta oladilar. Ayniqsa, emotsional holatini barqarorlashtirish, stressdan xalos bo‘lish va ijobiy kayfiyatda bo‘lish uchun harakatli o‘yinlar eng tabiiy vositadir.

O‘yinlar davomida bolaning nutqi ham rivojlanadi. U buyruqlarni eshitadi, tushunadi va ularga amal qiladi. Shu bilan birga, tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lish orqali yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, fikrini ifodalashga intiladi. Bu esa nutqiy faollikni rag‘batlantiradi va kelajakda o‘qish-yozuvga tayyorlaydi. Harakatli o‘yinlar orqali bolalar atrofdagi olam haqida ko‘proq bilib oladilar. Tabiatdagi hodisalarni, hayvonlar harakatini, transport vositalari yoki mehnat faoliyatini taqlid qiluvchi o‘yinlar ularning tasavvurini, tafakkurini kengaytiradi. O‘yin orqali o‘rgatilgan bilimlar bola ongida uzoq saqlanadi, chunki o‘yin – bu bola uchun eng tabiiy faoliyatdir.

Pedagoglar va ota-onalar o‘yinlarni tanlashda bolalarning yoshiga, rivojlanish darajasiga, jismoniy holatiga e‘tibor berishlari kerak. Juda murakkab yoki ortiqcha faol o‘yinlar bolaning charchashiga, qiziqishining so‘nishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, xavfsizlik qoidalariga ham amal qilinishi lozim – ayniqsa, yugurish, sakrash, to‘qnashuvlar ehtimoli bo‘lgan o‘yinlarda.

Ko‘p bolalar uchun raqobatli o‘yinlar motivatsiyani oshiradi. Masalan, “Kim tezroq?”, “Qaysi jamoa g‘olib bo‘ladi?”, “Eng chaqqon kim?” kabi topshiriqlar ularni harakatga keltiradi, lekin bu raqobat sog‘lom bo‘lishi kerak – yutqazgan bolaga dalda berish, uni kamsitmaslik juda muhim.

Bola o'yinda faolligini, tashabbuskorligini, irodasini va qat'iyatini namoyon etadi. Ba'zida u rahbarlik qiladi, ba'zida esa boshqalarning fikriga quloq tutadi. Shu tarzda ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi. Harakatli o'yinlar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi – u nimagadir erisha olayotganini, muvaffaqiyatga intilishi mumkinligini his qiladi.

Shuningdek, harakatli o'yinlar orqali sog'lom turmush tarzi tushunchalari bosqichma-bosqich bolalarga singdiriladi. Har kuni ertalabki badantarbiya, oraliq tanaffuslardagi qisqa harakatli o'yinlar, sport elementlariga ega o'yinlar bolaning hayot tarziga aylanib boradi. Bu esa ularning kelgusida sog'lom, faol, ijobiy fikrlovchi shaxs bo'lib shakllanishiga poydevor yaratadi.

Harakatli o'yinlar bolalarning motorik rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, nozik va yirik motorikani rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'yinlar (masalan, ip tortish, halqa uloqtirish, to'p bilan mashqlar) bolalarning qo'l harakatlarini, barmoqlarning moslashuvchanligini va aniqligini oshiradi. Bu esa keyinchalik yozishni o'rganishda katta yordam beradi.

Shuningdek, harakatli o'yinlar orqali bolalarda fazoviy tafakkur, yo'nalishlarni anglash, harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Masalan, “chapga buril”, “orqaga yur”, “halqadan o't”, “to'siqdan sakra” kabi topshiriqlar bolaning tanasi va atrof-muhit o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, sport, raqs, texnik faoliyat va boshqa sohalarda zarur bo'lgan fazoviy anglashni mustahkamlaydi.

Harakatli o'yinlar pedagogik jarayonda ijtimoiy-psixologik diagnostika vositasi sifatida ham ishlatiladi. O'yin davomida bolaning xulq-atvori, jamoadagi o'rni, liderlik qobiliyati, boshqalarga munosabati, konfliktga kirishish yoki undan chiqish uslubi, hissiy holati va xarakterining ayrim jihatlari kuzatiladi. Bu esa tarbiyachilarga bolalar bilan individual ishlash uchun muhim asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinlar mavsumga mos ravishda o'zgartirilishi mumkin. Masalan, yozda suvda

o‘ynaladigan yoki ochiq havoda yugurish, sakrashni o‘z ichiga olgan o‘yinlar, qishda esa qor bilan bog‘liq o‘yinlar (qor to‘pi o‘ynash, qor odam yasash), kuz va bahorda esa barg, tosh, yog‘ochcha kabi tabiiy materiallardan foydalanilgan o‘yinlar o‘ziga xos tarbiyaviy va o‘quviy qiymatga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, texnologik vositalar bilan uyg‘unlashtirilgan harakatli o‘yinlar ham mavjud. Masalan, interaktiv pol yoki ekran orqali harakatga asoslangan topshiriqlarni bajarish – bu o‘yinlar bolaning texnik vositalarga bo‘lgan qiziqishini sog‘lom harakat bilan uyg‘unlashtiradi. Bu kabi zamonaviy usullar bolalarni jismoniy faollikka jalb etishning innovatsion shakli hisoblanadi.

Harakatli o‘yinlar orqali bolalarning mehnatga bo‘lgan munosabati ham shakllanadi. Ba’zi o‘yinlar mehnat faoliyatini taqlid qilishga asoslangan bo‘ladi – masalan, “bog‘ni tozalash”, “pol yuvish”, “urug‘ sepish”, “non yopish” kabi rolli-harakatli o‘yinlar orqali bolalar mehnatning mohiyatini o‘rganadilar va unga hurmat bilan qarashni boshlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Axmedova M.Q., Turg‘unova N.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2018.
- Abdullayeva D.I. Bolalar harakatli o‘yinlari orqali jismoniy rivojlanishni shakllantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- Salomova D.X. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
- Qodirova M.K. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan sport mashg‘ulotlari va harakatli o‘yinlar. – Samarqand: Registon, 2021.
- O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin dasturlari (uslubiy qo‘llanma). – Toshkent, 2019.
- Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1984.
- Smirnova E.O. Igra v doshkolnom detstve (O‘yin

maktabgacha yoshda). – Moskva: Akademiya, 2015.


- Sharipov A., Xolmatova G. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi va sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish. – Buxoro, 2020.

- UNESCO. Learning through play: Strengthening learning through play in early childhood education programmes. – Paris, 2018.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi PQ–4312-son qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TURLI YOSH GURUHLARIDA ERTAKTERAPIYA TEXNOLOGIYASINI FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Muxiddinova Dilfuza Sherdor qizi
”Maktabgacha ta’lim” fakulteti
”Maktabgacha ta’lim metodikasi”
kafedrası stajyor o’qituvchisi



Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertakterapiya texnologiyasining turli yosh guruhlarida qo’llanish imkoniyatlari yoritiladi. Ertaklar orqali bolalarning emotsional, nutqiy, ijtimoiy va axloqiy rivojiga ko’rsatiladigan ijobiy ta’sir tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so’zlar: ertak, maktabgacha yosh, ertakterapiya, konsepsiya, psixoterapevtik vositalar, bilish jarayonlari, yosh xususiyatlari, muloqot

So’nggi yillarda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi o’zgarishi, ya’ni chuqur fikrlovchi, faol, ijodkor shaxsni shakllantirish talabi maktabgacha ta’lim jarayonini yanada kuchaytirish lozimligini ko’rsatdi. Bu esa ta’limda zamonaviy texnologiyalar hamda ko’rgazmali-amaliy metodlarni keng qo’llash, bolalarning faoliyatni rejalashtirish ko’nikmalari, ijodkorlikni rivojlantirishni taqozo etadi. Har bir bola shunday rivojlanadi va noyobligini hisobga olgan holda uning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini qo’llab-quvvatlash pedagoglarga ta’lim-tarbiya jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ma’naviyat beshigi, deya bejiz ta’riflanmaydi. Chunki, bolaning hayotga, atrof muhitga bo’lgan munosobati, dunyo qarashi unga qadrdon bo’lgan

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shakllanadi. Ma'naviyat beshigini esa ilk bora tarbiyachi va murabbiylar tebratadi. Ma'lumki, maktabgacha yosh davri bola shaxsining rivojlanishida muhim davr bo'lib hisoblanadi. Ertaklar bilan ishlashni haqli ravishda pedagogika va psixologiyadagi eng bolalarcha yo'nalish deb atash mumkin. Tasvir va belgilar tili hamma uchun tushunarli. Shuning uchun ham donishmand ajdodlarimiz ertakdan odob-axloq me'yorlarini beg'araz o'rgatish maqsadida foydalanganlar. Shunday ekan, farzandlarimiz ajdodlariga ergashib, nima yaxshi, nima yomon ekanini o'rganadilar. Bola uchun o'z vaqtida yozilgan ertak, kattalar uchun psixologik maslahat kabi ko'p narsani anglatadi.

Ertaklar qiyin vaziyatlarda o'zini qanday tutish kerakligini yoki o'zini qanday tutmaslik kerakligini aytadi. Bir qator xalq ertaklarida ma'lum pedagogik g'oyalarni (tushunchalar, xulosalar, mulohazalarni) uchratish mumkin. Ularni sanab o'tish ancha vaqt talab etadi, chunki ta'limotlar, ertaklar juda ko'p. Ertakda mehr-oqibat, mardlik, zukkolik, mehnatsevarlik madh etilib, maqtanchoqlik, takabburlik, soddalik qoralanadi; ertak ota-onani, oilani hurmat qilishga o'rgatadi, saxovatli, qat'iyatli, halol, kuchli, dono bo'lishga o'rgatadi va dangasalik, ahmoqlik, ochko'zlik, shafqatsizlik, yolg'onni qoralaydi. Shunday qilib, oddiy va tushunarli shaklda odamlarning xatti-harakatlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy me'yorlarini shakllantiradigan ertakdir. Ertaklar bilan ishlashda eng muhimi, ertak bolaning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ertak terapiyasini qo'llashning nafaqat qonuniyligini, balki zarurligini ham oqlashga imkon beradigan boshqa fikrlar ham mavjud. Psixologiyadagi zamonaviy ilmiy konseptsiyalar insonning sub'ektivligining turli darajadagi o'zaro ta'siriga tobora ko'proq e'tibor berib, buni inson hayotining asosiy sharti deb hisoblamoqda. Ertak voqelikka yangicha yo'llar bilan kirishga yordam beradi, bolaga dunyoni bilishga yordam beradi, uning tasavvurini boyitadi va atrofni

tanqidiy idrok etishga o'rgatadi. Insonning o'zini o'zi rivojlantirish sub'ektiga aylanishiga imkon beradigan eng muhim shart - bu uning o'zini o'zi anglashning ma'lum darajasiga erishishi, ya'ni o'zini o'zi bilishi, o'ziga bo'lgan munosabati va o'zini boshqarishidir. Bolaning o'zini o'zi anglashining rivojlanishi tashqi tartibga solish, unga kattalar sifatida qo'yilgan talablar tizimi (o'qitish, ta'lim) va o'z-o'zidan paydo bo'lgan faoliyat o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi.

Ertak, birinchi navbatda, metaforik tabiati tufayli eng kuchli rivojlanish va psixoterapevtik vositalardan biridir. Har qanday insonning ichki dunyosiga xos bo'lgan mazmuni tushunish va ertak orqali yashash bolaga o'z tajribalarini va o'zining ruhiy jarayonlarini tan olish va aniqlashga, ularning ma'nosini va har birining ahamiyatini tushunishga imkon beradi. Ertaklar matnlari bolalarda ham, kattalarda ham kuchli hissiy rezonans uyg'otadi. Ertaklar tasvirlari bir vaqtning o'zida ikkita ruhiy darajaga murojaat qiladi: ong darajasi va ong osti darajasi, bu muloqot uchun maxsus imkoniyatlar beradi. Bu, ayniqsa, qiyin hissiy vaziyatda samarali muloqot holatini yaratish zarur bo'lganda, tuzatish ishlari uchun juda muhimdir.

Xulosa o'rnida ertakterapiya maktabgacha ta'limda bolalar bilan ishlashda muhim metodik vosita hisoblanadi. Bu metod bola ruhiyatini, ijtimoiy va emosional ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, axloqiy qadriyatlarni o'rgatish uchun samarali usuldur. Ertakerapiya orqali bola nafaqat o'zining ichki dunyosini tushunishga, balki atrof-muhit bilan ham samarali muloqot o'rnatishga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori
2. 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

4. Ahmedova Z. Bolangiz nimaga gapirmayapti. T.:Taraqqiyot/2023.- 178 b

5. Ahmedova Z. Bolangiz nimaga giperaktiv, Amaliy qo'llanma.:T.Ilm nuri/2019.- 245 b


6. Ahmedova Z. Ertak-terapiya. Uslubiy qo'llanma. T.:2018.- 112 b

7. Ahmedova Z. Kichik bolalardagi katta qo'rquvlar. Qo'llanma/T.:Ilm nuri,2021.- 120 b

8. Ahmedova Z.O'smirlar tarbiyasi uchun.T.: 2020.- 237 b

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Narimbayeva Lola Kuzibayevna
Maktabgacha ta'lim metodikasi
kafedrası mudiri. p.f.f. d, (PhD)



Annotasiya. Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining nazariy-amaliy asoslari, ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalar shakllantirishning usul va sharoitlari, zamonaviy yondashuvlar va innovasion texnologiyalarning o'rnini yoritilgan. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, kompetensiya, innovasion ta'lim, amaliyot, pedagogik texnologiyalar.

Global raqobat muhitida muvaffaqiyat qozona oladigan mutaxassislarni tayyorlash har bir oliy ta'lim muassasasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda mehnat bozoriga yuqori malakali, mustaqil qaror qabul qila oladigan va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar talab qilinmoqda. Bu esa talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini ta'lim tizimining markaziga olib chiqmoqda.

Kasbiy tayyorgarlik — bu faqat nazariy bilimlar majmui emas, balki amaliy ko'nikmalar, kasbiy kompetensiyalar, munosabatlar va shaxsiy xususiyatlarni qamrab oluvchi murakkab pedagogik jarayondir. U quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- Kasbiy bilimlar — sohaviy nazariy asoslar, fanlararo integrasiya.

- Kasbiy amaliy ko'nikmalar — ishlab chiqarish, tadqiqot va xizmat ko'rsatish jarayonlarini amalga oshirish qobiliyati.

-Shaxsiy va kommunikativ kompetensiyalar — muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, jamoada ishlash, liderlik.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarni inobatga olish lozim:

- Modulli-reyting tizimi asosida ta'limni tashkil etish;
- Talabalarni amaliyotga yo'naltirilgan loyihalarga jalb qilish
- Ochiq va ishlab chiqarish bilan integrasiyalangan ta'lim

muhiti yaratish;

- Ish beruvchilar bilan hamkorlikda o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish.

Innovation texnologiyalar va ularning roli

Zamonaviy ta'limda quyidagi texnologiyalar talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin tutadi:

Keys-metod — real hayotdan olingan muammolarni tahlil qilish;

-Blis-treninglar va simulyasiya mashg'ulotlari — kasbiy faoliyatni modellash;

- Loyiha asosida ta'lim — mustaqil ishlash va ijodkorlikni rivojlantirish;

- Sifrovizasiya — Moodle, Google Classroom, Teams platformalarida masofaviy va aralash ta'limni yo'lga qo'yish.

Kasbiy amaliyotlar talabalarning nazariy bilimlarni hayotda qo'llash qobiliyatini oshiradi. Oliy ta'lim muassasalarida amaliyotni to'g'ri tashkil qilish, unda ish beruvchilar fikrini hisobga olish, talabalarga real ish muhitini ko'rsatish zarur.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlarida kasbiy ta'limni modernizasiya qilish jarayonlari ketmoqda. Evropaning ECTS (European Credit Transfer System) tizimi, Germaniyadagi dual ta'lim modeli, AQShdagi outcome-based education (natijaga yo'naltirilgan ta'lim) va Finlyandiyadagi muloqot va amaliy ko'nikmaga asoslangan pedagogika — bularning barchasi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali modellaridir.

Germaniya tajribasi. Dual ta'lim tizimida talabalar ta'limning bir qismini ish joyida, ish beruvchi korxonalarda amalga oshiradilar. Bu usulda talabalar real ish sharoitida o'quv rejasini o'zlashtiradi

va diplom olgach, ish tajribasiga ega bo'ladi.

Finlyandiya tajribasi. Ta'lim jarayoni shaxsiylashtirilgan yondashuv, muloqot, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston amaliyoti. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda ta'limning amaliyotga yaqinlashtirilishi, dual ta'lim pilot loyihalari, "ustoz-shogird" tizimi va ishlab chiqarish amaliyoti faol ravishda joriy qilinmoqda. Bunday islohotlar ta'limning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Samarali kasbiy tayyorgarlik talabalarda ichki motivasiya, faol fuqarolik pozitsiyasi va mas'uliyat hissini shakllantirishni ham talab qiladi. Bunda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Maqsadga yo'naltirilgan individual ish rejaları;

Kasbiy o'zi-baho va refleksiya jarayonlari;

Talabalarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish;

Yoshlar ittifoqi va kasbiy klublardagi ishtirok.

Masalan, Fransiyada talabalarning kasbiy tayyorgarligiga baho berishda faqat akademik ko'rsatkichlar emas, balki ijtimoiy faollik va jamoat ishlaridagi ishtiroki ham hisobga olinadi

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi eng muhim omillar:

Ta'lim mazmunining ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirilishi;

Innovation texnologiya va zamonaviy metodlardan foydalanish;

Amaliyotga yaqinlashgan, real ish muhitini aks ettiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish;

Xalqaro tajribadan maqsadli foydalanish va milliy sharoitga moslashtirish. Talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash — bu tizimli yondashuv, o'zaro hamkorlik, innovation pedagogik yondashuvlarni talab etuvchi jarayondir. Ushbu maqsadda ta'lim mazmunini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, amaliyotni mustahkamlash, raqamli platformalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu yo'sinda tayyorlangan mutaxassislar nafaqat

nazariy bilimga, balki amaliy salohiyat va kasbiy mobillikka ham ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ–2909-son “Kasbiy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Zimnyaya I.A. Klyuchevie kompetensii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya. — M., 2005.

3. Turdiev N.Sh. Kasbiy ta'limda innovasion yondashuvlar. — Toshkent: “Fan”, 2018.

4. Mirzaev T. Amaliyot jarayonlarini tashkil etishda yangi yondashuvlar. // Pedagogika ilmiy jurnali, №2, 2020.

5. UNESCO. Future of Education: Learning to Become. — Paris, 2021.

6. Qodirov A. Ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni. — T.: Innovasiya, 2022.

7.OECD. (2020). Vocational Education and Training in Germany. Paris: OECD Publishing.

8.Bologna Process Implementation Report (2019). European Commission.

UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA, SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

**Maktabgacha ta’lim 1- bosqich
magistranti
Quralbayeva Lazzat Jarasbay qizi**



Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalasiga Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari asosida yondashilgan. Forobiy, Ibn Sino, Navoiy kabi Sharq allomalari bilan bir qatorda, Rousseau, Pestalozzi, Montessori, Piaget kabi G‘arb pedagoglarining g‘oyalari taqqoslab o‘rganilgan. Ularning fikrlaridan kelib chiqib, zamonaviy maktabgacha ta’limda ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha muhim xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, ijodiy qobiliyat, Sharq mutafakkirlari, G‘arb pedagoglari, ta’lim, tarbiya, ijodkorlik.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijodkorlik inson shaxsining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, uni ilk bosqichdanoq – maktabgacha yoshda shakllantirish zarur. Bu borada tarixiy-falsafiy merosni o‘rganish, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlariga tayanish dolzarb hisoblanadi

Sharq mutafakkirlarining qarashlari

Sharq mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ijodiy tarbiya va bolalar tafakkurining rivojiga katta e’tibor bergan. Ularning asarlarida ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash ekani ta’kidlanadi.¹¹

Abu Nasr Forobiy- jodkorlikni aql va axloq bilan bog‘lab,

¹¹ Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri” – Toshkent: “Fan”, 1993.

musiqaning va san'atning inson ruhiyatiga ta'sirini chuqur o'rgangan. Unga ko'ra, san'at insonni go'zallikka undaydi, bu esa ijodiy tafakkurga yo'l ochadi, ta'limning maqsadi sifatida aql-zakovatni rivojlantirish, san'at va musiqaning ta'siri orqali ijodiy tafakkurni shakllantirishni ko'rsatadi. Uning fikricha, musiqa, she'riyat va falsafiy tafakkur bolalarda estetik sezuvchanlikni oshiradi.

Ibn Sino -esa "Donishnoma" asarida bola ruhiyati, qiziqishi va qobiliyatiga muvofiq ta'lim-tarbiya berish kerakligini yozadi. U bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, o'yin orqali o'qitishni tavsiya etadi, bu esa hozirgi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga hamohangdir.¹²

Alisher Navoiy- ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ona tili, adabiyot va badiiy asarlarning o'rni haqida chuqur mulohazalar bildiradi. U adabiyot orqali bolalarda axloqiy va estetik tarbiyani uyg'otishni maqsad qilgan. Badiiy adabiyot va ma'naviyatning bola tarbiyasidagi o'rnini asarlarida ijodkorlik, go'zallik, ma'naviyat, axloq kabi tushunchalar muhim o'rin tutadi.

Ularning fikrlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda san'at, musiqa, ertaklar, badiiy asarlar orqali ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kerakligini ko'rsatadi.¹³

G'arb mutafakkirlarining qarashlari

G'arb mutafakkirlari ham bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishiga jiddiy e'tibor bergan. G'arb olimlari asarlarida ko'proq ilmiy-psixologik yondashuvlar kuzatiladi. Ular bolaning tabiiy qobiliyatlarini aniqlash, rivojlantirish va erkin muhitda tarbiyalash tarafdorlari bo'lishgan. Jumladan, Jan-Jak Russo, Yohann Pestalozzi, Mariya Montessori va Jan Piage kabi olimlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi, bilish jarayonlari va ijodiy salohiyati haqida ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari surishgan.

Jan-Jak Russo- ta'lim tabiatga mos bo'lishi lozim, deb hisoblab, bolani erkin fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashni taklif

¹² Ibn Sino. "Donishnoma" – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot", 1996.

¹³ Navoiy A. "Mahbub ul-qulub" – Toshkent: "Yozuvchi", 1981.

etadi. Bola tabiatdan iste'dodli bo'lib tug'iladi, deb hisoblab, ta'lim orqali bu salohiyatni ochib berish zarurligini aytgan. Uning fikricha, bola tabiat bilan uyg'un holda tarbiyalanishi kerak.

Yohann Pestalozzi -esa bolani "qalb, qo'l va bosh orqali" o'qitishni taklif etadi. Bu yondashuv bolaning hissiy, jismoniy va aqliy rivojini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Bolaning yuragi, qo'li va boshi – ya'ni hissiyoti, harakati va aqli uyg'un rivojlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa ijodiylik uchun muhim asosdir.¹⁴

Mariya Montessori bolani erkin tanlov orqali o'rganishga undash lozimligini ta'kidlab, ijodkorlik uchun ochiq va erkin muhit yaratishni zarur deb biladi. Bolaning qiziqishini inobatga olgan holda, unga erkin muhit yaratish orqali mustaqil o'rganish va ijod qilish imkoniyatini beradi. Uning "Montessori metodikasi" hozirgi kungacha o'z dolzarbligini saqlab qolgan.

Jan Piage- bolalarning bilish rivojlanish bosqichlarini aniqlab, ijodiy fikrlash ularning kognitiv rivojiga bog'liq ekanini ilmiy asoslab bergan. Unga ko'ra, bolalar tajriba orqali bilim oladi va bu jarayon ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Bola tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rgangan va tajriba orqali bilim olish – bu ijodkorlikka olib kelishini asoslab bergan.

G'arb mutafakkirlarining qarashlari zamonaviy maktabgacha ta'lim dasturlarining ilmiy asoslarini tashkil etadi. Ular bolaga imkoniyat berish, uni erkin fikrlashga o'rgatish tarafdori bo'lishgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sharq va G'arb mutafakkirlarining qarashlari maktabgacha ta'lim tizimida bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning g'oyalari zamonaviy ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishimiz darkor.. Sharqona axloqiy-estetik qadriyatlar va G'arbning ilmiy-psixologik yondashuvlarini birlashtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni samarali shakllantirish mumkin.

¹⁴ Pestalozzi J. "How Gertrude Teaches Her Children" – New York, 1894.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri” – Toshkent: “Fan”, 1993.
2. Ibn Sino. “Donishnoma” – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot”, 1996.
3. Navoiy A. “Mahbub ul-qulub” – Toshkent: “Yozuvchi”, 1981.
4. Pestalozzi J. “How Gertrude Teaches Her Children” – New York, 1894.
5. Rousseau J.-J. “Émile, or On Education” – London, 1762.
6. Montessori M. “The Montessori Method” – New York, 1912.
7. Piaget J. “The Psychology of the Child” – New York, 1969.

SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING BOLA TARBIYASIDA OILANING O'RNI HAQIDAGI FIKRLARI

Raximova Dildora Mansurbek qizi
Maktabgacha ta'lim 1- bosqich
magistranti



Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiyasiga doir Sharq va G'arb olimlarining qarashlari hamda oilaning bola tarbiyasida, uning yetuk shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni, bundan tashqari oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, xarakter, bag'rikenglik, sabr-toqat, hissiy rivojlanish, o'zlikni anglash, kognitiv rivojlanish, intellectual rivojlanish, muloqot qilish, hamkorlik

Kelajagi buyuk davlatimizning poydevori mustahkamligini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilga. Bola shaxsini shakllantirish, oilaviy munosabatlar, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan.

Bola tarbiyasida oilaning o'rni haqidagi Sharq va G'arb olimlarining fikrlari qiziqarli va ko'p qirrali. Ikkala madaniyat ham

bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor beradi, lekin ularning qarashlari o'ziga xosdir.

Sharq olimlarining fikrlari

Al-G'azoli: Ushbu alloma bola tarbiyasida ota-onaning ahamiyatini ta'kidlagan. U ota-onaning sevgisi va g'amxo'rliqi bolalarning ruhiyati va xarakterining shakllanishida muhim rol o'ynaydi, deb hisoblaydi.

Ibn Sino: Bolalarning tarbiyasida bilim va madaniyatning o'rni haqida gapirgan. U, yaxshi tarbiya olish uchun bolalarga to'g'ri bilim berish zarurligini ko'rsatgan.

Fath Ali Shah Qajar: Ota-onalar bola tarbiyasida bag'rikenglik va sabr-toqatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Bu, oilaning muhim vazifasidir.

G'arb olimlarining fikrlari

Sigmund Freud: Bola tarbiyasida ota-onalar hissiy rivojlanishga e'tibor berishi kerakligini aytadi. Freud, bolalarning o'z hissiyotlarini ifoda etishlari va o'zlari bilan muloqot qilishlari muhimligini ta'kidlaydi.

Erik Erikson: U bola rivojlanishining bosqichlari haqida gapirib, ota-onalar bolalari uchun mustahkam asoslar yaratishlari kerakligini ta'kidlaydi. Bu, farzandlarining o'zlikni anglashida muhim.

Jean Piaget: Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarning kognitiv rivojlanishida faol ishtirok etishlari zarurligini ko'rsatadi. O'quv jarayonida faol ishtirok etish, bolalar uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har ikki madaniyatda bola tarbiyasida oilaning o'rni naqadar muhim ekani ko'rinadi. Sharq olimlari bolalarga mehr-muhabbat va g'amxo'rlikni ta'kidlar ekan, G'arb olimlari esa intellektual va hissiy rivojlanishga e'tibor beradi. Bu fikrlar bir joyda uchrashib, oila tarbiyasining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Zero, oila – bu jamiyatning bir b o'g'inidir. Shunday ekan bola tarbiyasida oilaning tutgan o'rni katta ahamiyatga ega. Agar farzand yoshligidan to'g'ri tarbiyalansa, kelajakda jamiyat uchun munosib shaxs bo'lib yetishadi. Albatta bunga ota-onaning

o‘rni katta, o‘z farzandiga bo‘lgan munosabati, kattalarga bo‘lgan hurmati, ota-onaning bir biriga bo‘lgan hurmati alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сон фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. – 6 (766)-сон. – Б.140.

2. Бекова.Ш.Ж Мактабгача ёшдаги болаларда шахслараро муносабатга киришишнинг психологик жиҳатлари. // Аҳолининг психологик саломатлигижамият фаровонлигини таъминлашнинг муҳим омили сифатида Халқаро имий – амалий анжуман// Фарғона, 2020 .

3. Muhammedova D.G‘, Mullaboyeva.N.M, Rasulov.A.I. "Umumiy psixalogiya" Toshkent-2017.

4.“Maktabgacha pedagogika” F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Kayumova, M.N. A‘zamova. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T. 2019

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MASALALARI

Shodiyeva Dilorom Sodiqjonovna
Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi



Annatsiya: Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kasbiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab samarali metod va vositalardan foydalanishni ishlab chiqish va uni yo'lga qo'yish zarur. Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim tarbiya o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash hamda talabalarni kasbiy rivojlanishida zamonaviy yondashuvlarni ochib berish.

Kalitsozlar: kasbiy faoliyatlar, tayyorlash, metod, zamonaviy yondashuv, vosita, innovatsion texnologiya, ta'lim tarbiya, mustahkamlash, rivojlantirish, uzviy aloqa.

Zamonaviy hamjamiyatda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalardan nafaqat nazariy bilimlar balki amaliy bilim va ko'nikmalarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab qilinadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi o'z sohasi mutaxassisi bo'lib muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga kasbiy kompetendligini rivojlantirish o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini tahlil qilish va baholash orqali amalga oshiriladi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish va ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim darajasi o'zlashtirish saviyasi ta'lim tarbiya manbai didaktik vazifalarga qarab munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirish bilish ehtiyojlarini shakllantirish ta'lim jarayonida mustaqil fikrini

namoyon qilish muhitini ta'minlash. Ijodiy fikrlash uchun qulay muhit, imkoniyat yaratish talabalar tomonidan bayon qilingan fikr va mulohazalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash har bir talabada uning ijodiy fikrlashga bo'lgan ishonchini qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish. Talabalarda individual kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ularning ijodiy ko'nikmalarni kengaytirish, ularda paydo bo'lgan muammoli vaziyatlarni hal qilish, bilim darajasi nuqatai nazardan kelib chiqib oqilona yechim va takliflarni berish muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yechimlar qabul qilish. Kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarini amalga qo'llash va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulotlar mashg'ulot shakllari va metodlarni tanlash va ularni amalda qo'llash. Talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda o'quv faoliyatini samarali tashkil etish taqozo etiladi. Ta'limiy vaziyatlarda ular o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko'rsata olishlari o'quv topshiriqlari berilganda talabalarining imkoniyatlari individual xususiyatlari inobatga olinishi lozim. Talabalar o'zining va boshqalarning faoliyatlarini tahlil qila olishlari hamda o'zgalarga ta'sir ko'rsata olishlari zarur. Talabalarining o'zini-o'zi anglash qobiliyati motiv va qadriyatlar bilan belgilanadi. Talabalar turli nizoli vaziyatlarda yechim topish ko'nikmasiga ega bo'lishi ijtimoiy munosabatlarda fikr va qarashlarini bildira olishlari lozim. Ularning turlicha qarashlar asosida yechimlarni qabul qilishlari, ixtiyoriy va maqsadga yo'nalgan holda harakat qilishlari kasbiy motivatsiyasidan kelib chiqib ko'zlangan maqsadga mos keladi. Talabarda psixologik-pedagogik kompetentlikni oshirish amaliy ko'nikmalarni shakllantirish amaliy tajribani shakllantirish, kasbiy bilim va ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini tarbiyalash, kasbiy motivatsiyani rivojlantirish. Talabalarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ularning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash o'z ustida ishlash usul hamda shakllarni o'rgatish, o'zini

rivojlantirishga zaruriy sharoitlarni yaratish, talabalar jamoasi o'rtasida ma'naviy sog'lom psixologik muhitni yaratish, talabalar bilan individual ishlashni tashkil etish, rejalashtirish, o'z-o'zini takomillashtirishning maqsad va vazifalarini belgilash, turli faoliyatlarga talabalarni jalb etish, o'zini-o'zi rivojlantirishning ilg'or tajribalari bilan tanishtirish o'quv faoliyatida kasbiy motivatsiyasini talabalarning o'zlari mustaqil rivojlanishiga turtki berish, talabalarning kasbiy faoliyatga bo'lgan ichki qiziqishlari va motivatsiyasini rivojlantirish orqali ularning o'z kasbiga mehr va mas'uliyat bilan yondashuvi ta'minlanadi. Bunday jarayonlarga kasbiy o'yinlar, treninglar, seminarlar, tajribali mutaxassislar bilan uvhrashuvlar yordam beradi. Talabalar kasbiy motivatsiyasini quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi. Bilish motivatsiyasi:

-yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'nalganlik, ya'ni dalil hodisa va qonuniyatlardan habardor bo'lish;

-bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga erishish;

-mustaqil bilim olish, qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirish;

Ijtimoiy motivatsiya:

-kengaytirilgan ijtimoiy motivlar; burch va mas'uliyat hissi;

-bilim olishni ijtimoiy ahamiyatga egaligini turshuntirish;

-ijtimoiy yoki pozitsitiv motivlar atrof dagilarga nisbatan

ijodiy munosabatda bo'lishga intilish, ularni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy hamkorlik motivlari; boshqa odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatish usullariga yo'nalganlik.

O'quv motivatsiyasi:

-maqsadli faoliyatni tashkil etish;

-o'quv jarayonida erkin va mustaqil harakat qilish;

-tashqi motivatsiyani ichki motivatsiyaga aylantirish;

-motivatsiyaning internal va eksternal darajalarini namoyon etish.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar asosida motivatsiyaning shakllanishi bevosita shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istak va xohishlari zamirida paydo bo'ladi deb xulosa qilishimiz mumkin. Talabalarni kasbiy faoliyatga

tayyorlash – bu uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo‘lib zamonaviy texnologik talablarga mos, innovatsion tafakkurga ega va uzluksiz o‘shirishga tayyor shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ko‘p qirrali uzluksiz va murakkab jarayon bo‘lib u ta‘lim tarbiya mustaqil va amaliy shug‘ullanish o‘qish faoliyati uyg‘unligi talab qiladi. Talabalarni zamonaviy kasbiy faoliyatga puxta tayyorlash esa ularning jamiyatda raqobatbardosh bo‘lishini va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘shishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Teshabayeva Zamira Sobirovna 2021-yil 110 bet
- 2.G.O.Ernazarova,X.A.Kadirova 2021-yil 203 bet
- 3.interscience.uz <https://interscience.uz>
- 4.I.A.Karimov Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch.Toshkent ma‘naviyat 2008-yil

BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH

Shomurodova Mohichehra Zokir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
bakalavr talabasi
e.mail: mohishomurodova0@gmail.com



Annotasiya: Ushbu maqola bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning ahamiyati va usullarini yoritadi. Emotsional intellekt – bu öz his tuyg‘ularini va boshqalarning emotsiyalarini anglash, boshqarish, baholash hamda ularni samarali tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. Bolalik davrida emotsional intellektni shakllantirish bolaning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: Bolalar, emotsional intellekt, his-tuyg‘ularni anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, muloqot ko‘nikmalari, emotsional tarbiya, stressga bardoshlilik, interaktiv metodlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bolalar tarbiyasi va ularning har tomonlama rivojlanishiga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Garchi u emotsional intellekt atamasini bevosita ishlatmagan bo‘lsa-da, bolalarning hissiy-ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish zarurligini ko‘p bora ta’kidlagan.

Bugungi kunda bolalarning faqat aqliy salohiyati emas, balki emotsional intellekti ham ularning kelajakdagi ijtimoiy va shaxsiy muvaffaqiyati uchun muhim omil sifatida e‘tirof etilmoqda. Emotsional intellekt – bu o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ulariga empatiya ko‘rsatish va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lish qobiliyatidir. Bolalarda ushbu qobiliyatni erta yosh ularning psixologik rivojlanish va jamiyatda faol ishtirok etishi uchun muhimdir intellekt tushunchasi va uning komponentlari: Emotsional intellekt tushunchasini

birinchi marta amerikalik psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer 1990-yilda ilmiy atama sifatida kiritganlar. Ularning ta'rifiga ko'ra, emotsional intellekt – bu “o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, baholash va boshqarish qobiliyati”dir .

Bolalarda emotsional intellektni shakllantirish jarayoni bir kunlik yoki qisqa muddatli ish emas, balki uzluksiz va ongli ravishda olib boriladigan tarbiyaviy jarayondir. Farzandlar o'z his-tuyg'ularini anglaganlarida, ular o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishni va atrofdagilar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishni o'rganadilar. Shu bois, ularni kichik yoshdan boshlab o'zini anglash va empatiyani rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Shuningdek, bolalarda emotsional intellektni shakllantirishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratish muhim: O'z his-tuyg'ularini ifodalash: Bolalarga qanday his qilayotganlarini aniqlash va so'z bilan ifoda etishga yordam berish kerak. Masalan, “Men xafa bo'ldim”, “Men hayajonlandim” kabi iboralarni o'rgatish. Boshqalarni tushunish: Empatiya hissini rivojlantirish uchun bolalarga boshqalarning his-tuyg'ularini sezish va hurmat qilishni o'rgatish. Stress va salbiy his-tuyg'ularni boshqaris. Nafas olish texnikalari, tinchlanish usullari, musiqiy terapiya yoki surat chizish orqali o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. Ijobiy muloqotni rivojlantirish. Bolalar o'z fikrini muloyim, aniq va hurmat bilan ifodalashni o'rganishlari kerak.

Bolalarda emotsional intellektni shakllantirish – bu shunchaki ularni his qilishga o'rgatish emas, balki ularning butun hayotiy yo'lini osonlashtiradigan, ichki dunyosini boyitadigan murakkab va nihoyatda muhim jarayondir. Bola his-tuyg'ularini tanib olganida va ularni boshqara olganida, u o'z hayotini ongli ravishda yo'naltira oladi. Menimcha, bu qobiliyat bola uchun bilim va ko'nikmalardan ham ko'ra ko'proq ahamiyatga ega. Hayotda nafaqat aqlli, balki emotsional jihatdan yetuk insonlar ko'proq muvaffaqiyat qozonadi. Chunki ular muammolarni faqat aql bilan emas, yurak va tushunish bilan ham hal qila oladilar .

Shu munosabat bilan, emotsional intellektni rivojlantirish

ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismi sifatida tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Maxsus treninglar, psixologik mashg'ulotlar va oilaviy muhitda ijobiy emotsional tajribalarni yaratish orqali bolalarda emotsional intellektning yuqori darajada shakllanishiga erishish mumkin. Shunday qilib, emotsional intellektni rivojlantirish bolalarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishida asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish ularning shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt yuqori bo'lgan bolalar o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq anglaydi, boshqaradi hamda boshqalar bilan samarali muloqot va hamkorlik o'rnatadi. Emotsional intellektni erta yoshdan rivojlantirish bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, stress va ziddiyatli vaziyatlarda konstruktiv yondashuvni shakllantiradi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati, rolli mashg'ulotlar, emotsional holatlarni muhokama qilish va ijobiy munosabatlar orqali bolalarda empatiya, o'z-o'zini nazorat qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Shu sababli, emotsional intellektni shakllantirish ta'lim tarbiyaning uzviy qismi sifatida tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xodjaeva N.X. Bola psixologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018.
- 2.Karimova R.A. Oila va bolalar psixologiyasi. Toshkent: O'zRFA, 2017.
- 3.To'raeva M.T. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish. Toshkent: TDPU, 2019.
- 4.Sayfiddinova G.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "Ilm Ziya", 2020.
- 5.Xudoyberganov Q.X. Psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANISHIDA ROLLI O‘YINLARNING O‘RNI

Urmonova Toshxon Ibragimovna
Maktabgacha ta’lim pedagogikasi
o‘qituvchisi



X.SH.Suyarova
Maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi



Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlanishida rolli o‘yinlarning o‘rni, o‘yinlarning turlari va o‘yinga pedagogning rahbarligi masalasi yoritilgan. Shuningdek, o‘yinlarning bola hayotidagi o‘rni masalasida pedagoglarning qarashlari tahlil qilingan.

Kalit sozlar. O‘yin, o‘yin turlari, pridmendli o‘yinlar, maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh daviri, tasavur, ijodiy rivojlanish, ijodiy qobiliyat.

Bolalar dunyosi o‘ziga hos va rang-barangdir. Ularning har bir harakati, so‘zi va o‘yin orqali shaxsiyati shakillanadi. Rolli o‘yinlar esa bolalarning o‘zlarini turli hayotiy rollarda sinab ko‘rishlari, kattalar dunyosini anglashlari uchun esa samarali vositalardan biridir. Bu turdagi o‘yinlar nafaqat ko‘ngil ochar mashg‘ulot, balki bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishda muhim omli hisoblanadi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolalar asosan maz‘munli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni o‘ynaydilar. Ular o‘zlarining turli o‘yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, bayramlarni, muhim sanalar kabi hodisalarni qayta tiklaydilar. Shu

birga polli o‘yinlar bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma-xil bo‘lsa, bolalar o‘yining mazmuni ham shunchalik keng va xilma-xil bo‘ladi. Ana shuning uchun kichik cha maktabgacha yoshidagi bolalar o‘yinlarining mazmuni nihoyatda tor bo‘ladi. Bolalar o‘sib ulg‘aygan sari ular o‘yining sujeti tobora boyib xilma-xillashib boradi. O‘yin turlarining ko‘payishi bilan birga o‘yinga sarf qilinadigan vaqt ham ortib boradi . Masalan, uch yoshli bolalar 10-15 daqiqa moboynda o‘ynaydigan bo‘lsalar, 4-5 yoshli bolalar esa 40-50 daqiqa davomida o‘yin faoliyati bilan shug‘ullanadilar. Katta yoshdagi maktabgacha bolalarida o‘yin faoliyati bir necha soatdan ortiq vaqt mobaynida davom etishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o‘yindir. Bu yoshdagi bolalarning o‘yinlarini uchga bo‘lish mumkin.

- 1) Predmetli o‘yinlar(15-20 minut o‘ynaladi)
- 2) Sujetli-rolli o‘yinlar(30-60 minut o‘ynaladi)
- 3) Qoidali o‘yinlar(1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin)

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlar o‘rganmoqda. O‘yinning bolalar pisixik taraqqiyotidagi g‘oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkur yozuvchilar o‘zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikirlarini yozib qoldirganlar. A.S. Makarenkoning fikricha, bolalarning o‘yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan bir vositadir. Kattalar uchun mehnat faoliyati qanchalik muhim ahamiyatli bo‘lsa, bolalar uchun o‘yin shunchalik ahamiyatga ega.”Yaxshi o‘yin faoliyati,”- diydi A.S.Makarenko, -yaxshi bajarilayotgan mehnatga o‘xshaydi. Chet el psixaloglaridan J.Piaje, Koffkaning fikricha, bolalar go‘yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, ya’na xayollar, afsonalar dunyosida va (real)

voqeyiy dunyoda, yashaydilar. Bolalar o'zlarining faoliyatlarida qanchalik xayolga berilib ketmasinlar, har doim voqiyat dunyoga, undagi real narsalarga nazar tashlab turadilar. Buning haqiqatdan ham shunday ekanligini ularning o'yin jarayonida o'z xatti-harakatlariga "bunday bo'ladi", "bunday bo'lmaydi" deb baho berib turishlaridan ko'rish mumkin. Ular qanchalik o'yinga berilmasinlar, voqeyiy dunyoni hech qachon unutmaydilar va unga g'uyoki andoza sifatida qarab turadilar.

Psixolog A.N.Leontyevning fikricha, bolalar o'yin faoliyatlarida real voqealikka chetga chiqib ketish darajasidagi afsonaviylik yo'q. Bolalar o'yinlaridagi turli-tuman harakatlari va narsalarning real obrazlaridir. Bola o'z yashab turgan real voqealik bilan bog'liq bo'lmagan xayoliy, afsonaviy o'yinlar yaratishning hali uddasidan chiqqan olmaydi. Chunki bola hali o'zi bilmagan, ko'rmagan, eshitmagan narsalarini o'z o'yin faoliyatida aks ettira olmaydi. U yoki bu o'yinni o'ynash uchun bolalar albatta elementar ravishda bo'lsa ham hayotiy hodisalar hamda mehnatning bir qancha turlari bilan tanish bo'lishlari kerak.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V. Manuylenkoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatdan, o'yinda xulq ko'nikmalari oldinroq va osonroq egallashi mumkin, degan fikrlari ilgari surgan.

Rolli o'yin- maktabcha yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyatidir. Rolli o'yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muhim faoliyati bo'lib, ular bunday o'yinda go'yo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajariladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg'ulari, rolli o'yinlarning ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni. Rolli o'yinlar orqali bolalar jamiyatdagi turli rollarni o'zlashtiradilar. Masalan, "oila o'yini" da ona, ota, farzand rollarini bajarish orqali oiladagi munosabatlarni o'zlashtiradi, "Sotuvchi-xaridor" o'yinida

esa bolalar guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatini, “Bog‘cha” oyinida esa o‘zlarini pedagogni o‘rnida tasavvur qiladilar va kundalik jarayonni aks ettiradilar.

Rolli o‘yinlarda bola real voqealarga asoslangan, ammo o‘z tasavvuriga ko‘ra yangi holatlar va voqealarni yaratadi. Bu esa uning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati, o‘yinning umumiylik xarakteriga ega bo‘lishidir. Bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolg‘iz bir kasb egasini emas umuman haydovchilarning, militsionerlarning, tarbiyachilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. O‘rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo‘la boshlaydi. O‘yin faoliyati bolalarni individual ravishda o‘rganish imkonini beradi. Bolalarning individual xususiyatlarini xususan ularning guruhiy o‘yinlari kuzatish qulaydir.

Shuni aytish joizki, rolli o‘yinlar bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda tasavvur qilish, qo‘shimcha qo‘shish, yangi g‘oyalar berish, yetishmagan aksessurni o‘rindoshlik bilan qoplashda ijodiy fantaziyani rivojlantirish xususiyatig ega. Shuning uchun rolli o‘yinlar davomida pedagog sun‘iy ravishda muammoli vaziyat yaratishi, bolalarga vaziyatdan chiqib ketish uchun yechim topishga imkon berish kerak. Masalan, “Doktor” o‘yini davomida bolaga faqat oq halat berib yetishmagan aksessuarlarni (shpatel, fonedoskop, shprints, bint, pahta kabi) o‘zlari o‘ylab topishga imkon yaratish kerak. Bunday vaziyatar bolalarni ijodiy fikrlashga undaydi, ularda yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi.

XULOSA. Demak, bolaning hayoti qanchalik mazmundor va yashash doirasi qanchalik keng bo‘lsa, uning o‘yinlari ham shunhalik xilma – xil bo‘ladi. Rolli o‘yinlar bola hayotining ajalmas qismi bo‘lib, uning aqliy, emotsional, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Shuning uchun ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning rolli o‘yinlariga befarq bo‘lmasliklari, ularni rag‘batlantirish va imkon qadar birgalikda o‘ynash orqali bolalarning rivojlanishlariga yordam berishlari lozim. Rolli

o‘yinlar orqali o‘z shaxsini topgan bola, kelajakda o‘ziga ishonchli, mustaqil fikrlovchi, ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatiga ega inson va jamiyatdagi faol shaxs bo‘lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova Z. "Oila va tarbiya." – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

2. Yusupova G. "Psixologik maslahatlar." – Toshkent: Fan, 2018.

3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent 2021y.

4. Vgotskiy L.S. "Bola psixologiyasi va rivojlanishi." Moskva: Pedagogika, 2003 g.

5. Z.T. Nishonova, G.K. Alimova, A.G. Turg‘inboeva, M.X. Asranboeva


‘‘Bolalar psixologiyasi va psixodiognastikasi’’T.-2021y

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGI VA UNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Urmonova Toshxon Ibragimovna
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi
o'qituvchisi



D.M.Hayitmonbetova
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
“Maktabgacha ta'lim fakulteti” talabasi



Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta'limning qisqacha tarixi, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi va uning kasbiy kompetentligi tushunchasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalariga to'g'ri talab o'tilgan

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi, kompetentsiya, umumiy kompetentsiya, kasbiy kompetentsiya, ijtimoiy-huquqiy kompetentlik, texnologik kompetentlik.

Xozirgi kunda global o'zgarishlar fan texnika va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayn rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrash doirasi keng va mulohazali bo'lishi talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilar, ta'lim tarbiya jarayonini optimal darajada to'g'ri tashki etishni, bola shaxsni shakllantirish yo'llarini turg'un yangi

g‘oyalar bilan boyitishi lozim. Mazkur vazifalarni hal etishda esa bolalarni tarbiyalovchi maskanning tarixini ilmasdan qadam qo‘yib bo‘lmaydi.

Bolalar bog‘chasining paydo bo‘lishi 1837 – yilga borib taqaladi, bolalar bog‘chasining asoschisi deb taniqli nemis pedagogi - Fridrix Frebel hisoblanadi . Aynan u Germaniyaning Bad – Blankenburg shahrida bolalar uchun tashkil etilgan maktabgacha ta‘lim’’ bolalar bo‘chasi’’ deb atadi . XIX asrning ikkinchi yarmi – XIX asrda Shveysarya , Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazaryasi keng ommalashdi . Pedagogika tarixida Frebelning ahamiyati shu bilan begilanadiki, u maktabgacha tarbiya nazariyotchisi bo‘lgani holda maktabgacha pedagogikani mustaqil fan tarmog‘iga ajratilishiga ko‘maklashdi . Ayni paytda u ilk bor “bolalar bog‘chasi” tushunchasini muomalaga kiritdi.

Maktabgacha ta‘lim sohasida vujudga kelishida 1918 – yilda Fridrix Frebel kursi qoshida Petrograd Maktabgacha ta‘lim insitutining tashkil etilishi muhim voqea bo‘ldi . Bu ta‘lim maskanida Maktabgacha ta‘lim bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlangan , shu bilan bir qatorda ilimiy – tadqiqot ishi olib borilgan . 1919 – yilda xalq maorifi kommuisariyati tomonidan’’Maktabgacha ta‘lim’’ bo‘yicha butun ittifoq anjumani bo‘lib o‘tdi . Bunday ijtimoiy Maktabgacha ta‘lim sohasini tashkil etdi , bola tarbiyasining nazariy – amaliy masalalari o‘rin oldi . Maktabgacha ta‘lim sohasi rivojida xisa qo‘shgan olim va psixologlardan S.T.Shaskiy , V. N.Shasskaya, L. K. Shlegerv, Ye. I. Tixeeva , I. I. Chulishskaya Y. A. Arkin, K. N. Kornilov va boshqalar maktabhacha ta‘limni rivojlantirishda o‘z o‘z xisalarini qo‘shdilar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘lim tizimiga qaratilayotgan e‘tibor, ta‘lim muaassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj va talabning o‘sib borishi pedagoglar faoliyati samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda o‘ziga xos talablarni belgilaydi.

Bu o‘z navbatida pedagog-xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori va “Maktabgacha ta’lim tizimi hodimlarini lavozim yo‘riqnomasi”da zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligiga alohida to‘htalib o‘tilgan.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati haqida gap ketganda uning tushunchasiga to‘htalish juda muhim. Inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi aynan “qobiliyat” ma’nosini ifodalasa-da, biroq, mazmunan faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalana olish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish mazmunini yoritishga xizmat qiladi. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan bo‘lib, u noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni yoritadi.

Kompetentlik – bu mutaxassisning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi.

Kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Mutaxassis qiyofasida namoyon bo‘ladigan kasbiy kompetentlik o‘zida bir qator sifatlarni qamrab oladi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi sifatlardan tarkib topadi:

1. Ijtimoiy-huquqiy kompetentlik – ijtimoiy tashkilotlar va subyektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik.

2. Shaxsiy kompetentlik – doimiy ravishda kasbiy o‘shishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olish.

3. Maxsus kompetentlik – mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to‘g‘ri hal qilish va o‘z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga hamda mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikmalarni mustaqil ravishda izchil o‘zlashtirib borish qobiliyatiga egalik.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatiga, zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar va o‘quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik.

5. Tezkor harakatlana olish kompetentligi – favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) va muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik kabilar)ni samarali o‘zlashtira olishiga yordam beradi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali

qo‘llaydi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatning barcha tomonlarida: kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuiy natijasida namoyon bo‘ladi va uning barcha komponentlari shakllanganligini talab

etadi.

Xulosa. Shuni ta'kidlash joizki, bolalar tarbiyasi va ta'lim olishi o'rtasidagi farq hamma mamlakatlarda mavjud emas. Yuqoridagi ma'lumotlar orqali bolada hamjihatlik, jamoada yashash, to'laqonli shahs sifatida shakllanishi kompetentli tarbiyachiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogini kasbiy kompetentligini shakllantirishda o'zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy bilimlar va mahoratni egallashi juda muhimdir. Shuningdek, jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda muammoli vaziyatlardan mustaqil yechim topa olish ko'nikmasini talabalik davridan shakllantirish kerak. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotining kompetentli pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy va amaliy jarayonlarini uzviylashtirish, uning individual xususiyatini hisobga olgan holda yondoshish juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati .

1.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4312-sonli qarori. 2019-yil 8-may

2.F . R . Qodirova , Sh .Q. Toshpolatova , N. M. Kayumova , M. . A'zamova Maktabgacha pedagogika.T.2019.

3. N. Qayumova Maktabgacha pedagogika .T., 2013 .

4. F.R.Qodirova , SH.K. Tashpolatova .Bolalar bog'chasida metodik ishlar . Darslik T.: Istiqlo'l , 2006

5.L.Q.Narimboyeva. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi: Kecha, bugun va ertaga.Pedagogik ta'lim klasteri:Muammo va yechimlar. Qodirova F .R ., Toshpolatova Sh .K ., A'zamztova M . Maktabgacha pedagogika . O'quv qo'llanma T.:Ma'naviyat ,2016.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA DIFFERENSIAL YONDOSHISHGA ASOSLANGAN TA'LIM JARAYONINING XUSUSIYATLARI

Teshabayeva Zamira Sobirovna
“Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”
kafedrasi dotsenti, p,f,f,d (PhD)



Annotatsiya: maqolada differensial ta'limning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqi va o'ziga hox xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Differensial ta'lim muammosi yuzasidan olimlarning tadqiqotlari tahlil etiladi. Shuningdek oliy ta'lim muassasalarida tabaqalashtirilgan ta'limning dolzarbligi hamda o'qitishga differensial yondoshishga doir usullar haqida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lim, muvaffaqiyat, omil, talabchanlik, tabaqalashtirilgan ta'lim, differensial, tizim, natija, texnologiya, natija.

Davlat va jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib oliy ta'lim mazmunini ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga mos holda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "Ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" vazifasi belgilab berilgan.

Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash, erishilgan ilmiy natijalarni maktabgacha

ta'lim amaliyotiga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalar ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Bugungi kunda mehnat bozoridagi zamonaviy ish beruvchi nafaqat yaxshi ijrochi, balki yaratuvchi, muammolarni tezkor tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega, standart va nostandart vaziyatlarda ular uchun javobgar, vaziyatni o'zgartirishga va yangi chegaralarni hamda yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor mutaxassislariga talab qo'yimoqda.

Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlari bo'lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy, balki intellektual rivojlanishi muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi.

Har bir pedagog guruh talabalarining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi turlicha ekanligini yahshi biladi. Tajribali pedagoglar o'z amaliyotida talabalarni o'qitishda kerakli natijalarga erishish uchun diferensial ya'ni tabaqalashtirilgan yoki individual-shaxsiy yondashuv usulini qo'llaydilar.

DIFFERENSIATSIYA-(lotincha differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lgan sistemaning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishini tushuntiruvchi jaryondir.

Differentsiatsiya muayyan tizim funksiyasining kengayishi, intensivligining ko'tarilishi va bu funktsiyalarni uning tarkibiy qismlari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liq holda tizimdagi ishning samarasini oshiradi Majburiy natijalarga asoslangan ta'limni bosqichma-bosqich farqlash texnologiyasi har bir talabani individual imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida o'qitishga yo'naltirilgan texnologiyani rivojlantirish variantlaridan biridir.

Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasiga ko'ra pedagog past darajada o'zlashtiruvchi talabaga differentsial yordam berish va kuchli talabalarga e'tibor berishda yanada samarali ishlash imkoniyatiga ega.

S.L.Mirskiyning ta'kidlashicha, o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuv, birinchi navbatda, individual o'quvchining

xususiyatlarini hisobga olishni o'z ichiga oladi, bu uning individualligini aks ettiradi, shu bilan birga nafaqat unga, balki o'quvchilarning ayrim toifalariga ham xosdir

O'quv jarayonini tabaqalashtirishning maqsadi har bir talabaga umumiy ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonida uning qobiliyatlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun sharoit yaratishdir.

E. S. Rabunskiy talabalar turlarini ajratib ko'rsatish uchun uchta parametrdan foydalanadi: ishlash darajasi, kognitiv mustaqillik darajasi va o'rganishga samarali qiziqish. Tipologiyaning asosini turli xil xususiyatlarning kombinatsiyasini qo'yish istagi ta'limni individuallashtirish vazifasiga ko'proq mos keladi, chunki bolaga yaxlit yondashuv to'liq amalga oshiriladi

Ushbu tizimning yagona elementi, zamonaviy fan rivojlanishining psixologik va pedagogik maqbul xususiyatlari hamda ta'limning ixtisoslashtirilgan ilg'or amaliyoti deb ataladi.

Differentsiatsial ta'lim jarayonining asosiy jihatlari:

1. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.
2. Ushbu xususiyatlar asosida talabalarni guruhlash.
3. Guruhlarda o'quv jarayonining o'zgaruvchanligi

O'qitishda individual va shaxsiy yondashuv yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalarga mavzuga qiziqishni yo'qotmaslik, o'sib borish va tobora yuqori darajadagi bilimni egallash, o'rta va past akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalarga esa tengdoshlar misolida istiqbollarni ko'rish va ularga erishish imkonini beradi.

Differentsiatsial ta'lim jarayonining asosiy jihatlaridan biri, o'zlashtirishda akademik muvaffaqiyatsizlikni oldini olish uchun o'quv jarayonida talabaning harakatlariga e'tibor qaratish va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Bundan tashqari, talabalarni o'z vaqtida aniqlash va ular bilan har bir mutaxassislik fanlarni o'zlashtirishi ustida ishlash kerak, chunki boshqa fanlarning o'zlashtirilishi uning ixtisoslik fanlardagi erishgan muvaffaqiyatlari darajasiga bog'liq.

Talabada o'quv materialining mazmuniga ijobiy munosabat quyidagicha rivojlanadi:

-birinchi bosqichda eng yengil ko'ngilochar material uning ahamiyatidan qat'i nazar beriladi;

-ikkinchi bosqichda material ko'ngil ochar, ammo o'rganilayotgan mavzuning mohiyatiga tegishli bo'ladi;

-uchinchi bosqich esa o'rganilayotgan materialning eng muhim mohiyatiga tegishli bo'ladi.

O'zlashtirishda ortda qolgan talaba o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirishi uchun avval uning kuchini talab qilmaydigan akademik yutuqlarini rag'batlantirish, so'ngra biroz kuch talab qiladigan akademik yutuqlarni rag'batlantirish va shundan keyingina katta kuch talab qiladigan akademik yutuqlarni rag'batlantirish lozim bo'ladi. Ya'ni, o'zlashtirishda ortda qolgan talabada o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish bo'yicha ushbu ish tizimida siz oddiydan murakkabga o'tishingiz kerak bo'ladi. Ortda qolgan talabani aniqlagandan so'ng, o'qituvchi bir qator profilaktika choralari ko'rishi, darsning har bir bosqichida bunday talabani o'qitishga e'tibor qaratishi kerak

Ta'limda talabalar bilan differensial yondoshuvni tashkil qilishni o'rganish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Ta'limda agar har bir talabaning ishtirok etish darajasi hisobga olinmasa, zamonaviy darsni samarali deb hisoblash mumkin emas.

Talaba barchaning muvaffaqiyati va rivojlanishi, ko'pchilikning emas, balki har bir talabaning muvaffaqiyatli rivojlanishidan iborat ekanligini anglaydi. Shu bilan bir qatorda tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonida talabaning ijodiy tashabbusi, zukkolik, mahorat hamda umumiy- kasbiy madaniyati rivojlanadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"

2. Арапов А.И. Дифференциация обучения в истории

отечественной педагогики и школы. - Новосибирск: НГПУ, 2003, - 243 с.

3.Бударный, А.А. Индивидуальный подход в обучении [Текст] / А.А. Бударный // Советская педагогика, 2005. – №7. – С.18-20.

4.Ishmuhamedov.R Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008

5.Мирский, С.Л. Индивидуальный подход к учащимся в трудовом обучении.Серия.Образование. Педагогические науки.-Педагогика, 2013 г.

5. Рабунский Е.С. Индивидуальный подход в процессе обучения школьников. М., 2013.1. С. 164-168.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Tursunboyeva Muxtabar Dexqonovna
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi
kafedrasi o'qituvchisi
Ganiyeva Nasiba Shuxrat qizi
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi



Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati, uning mazmun-mohiyati hamda rivojlantirish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, kompetentlik yondashuv asosida olib borilayotgan ta'lim siyosati doirasida pedagoglarning malakasini oshirishga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta'lim, pedagog, metodik ko'nikma, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati ta'lim sohasidagi bir qator me'yoriy hujjatlar orqali o'zining ustuvor siyosatini amalga oshirmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablari asosida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari uchun istiqbolga yo'naltirilgan mazmunini belgilab olib, o'quv-biluv jarayonini sifatli Davlat ta'lim standartlari, modernizatsiyalashgan o'quv dasturlari hamda darsliklar bilan ta'minlanmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni hayotga tadbiq etish davomida zamon talablariga javob beradigan, barcha jabhalarda mamlakatimizni izchil rivojlanishini ta'minlash shartsharoitlariga mos keladigan butun dunyoda e'tirof etilgan uzluksiz ta'limning tizimi yaratildi.

Respublikamizning Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning

ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim - tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu erda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak" - deb ta'kidlagan edi.

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog'liqligini N.V.Kuxarev shunday ta'riflaydi: «Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o'qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda echadigan fazilatlar to'plami».

A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani etarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak

Kompetentlik – bu biror bir ishni samarali qila olish va ma'lum bir kasbda qo'llaniladigan standartlar bo'yicha bajara olish qobiliyati.

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni echishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Pedagog tarbiyachining kasbiy–pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini

ta'minlash zarur.

Har qanday pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish shu jumladan, pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida tinimsiz ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashi, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholashi, yuksak pedagogic mahoratga ega bo'lishi orqali aniqlanadi. Va ular ikki guruhga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z-o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi. Ular:

– ta'lim-tarbiya jarayonida yuz xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);

– mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) eganligi;

– nutq mahoratini (nafas olish, ovozni boshqarish. nutq tempi) bilishi va o'z nutqida qo'llay olishi.

Pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bu ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Maktabgacha ta'limdagi har bir pedagog o'z ustida doimiy ishlasa, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi yanada oshadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sadikova, Sh, and D. Azamatova. "Pedagogical Innovation Cluster of Activity of Centers in Preschool Education." *Science and Innovation* 1.7 (2022): 1138-1143.

2. qizi O'razaliyeva S. T., qizi Atabekova U. B. **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING.** – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 556-559.

3. Axmadaliev B. **TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA INOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH //Modern Science and Research.** – 2024. – T. 3. – №. 11. – C. 317-323.

4. Farmonov U. N. **Didactic of Training Future Primary School Teachers to Creative Activity //Eastern European Scientific Journal.** – 2017. – №. 5.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MUTAXASSISLIK FANLARINING DIDAKTIK TA'MINOTINI ISHLAB CHIQUISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING QIYOSIY TAHLILI

Maktabgacha ta'lim fakulteti talabasi
Turdialiyeva Safargul To'liqin qizi
Ilmiy rahbar: Mutalova Dilnoza
Abdurashidovna p.f.f.d (PhD)



Annotasiya: Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotini shakllantirish jarayonida ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilgan. Turli davlatlarning ta'lim tizimi, o'quv dasturlari, metodik yondashuvlari tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimiga mos keladigan samarali yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, didaktik ta'minot, mutaxassislik fanlari, xorijiy tajriba, ta'limmetodikasi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda, mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minoti ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida didaktik materiallarni ishlab chiqish natijasida talabalar kasbiy ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. Ushbu maqolada AQSh, Yevropa, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi tahlil qilindi. Zamonaviy dunyoda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning kasbiy rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Axborot texnologiyalarning rivojlanishi, mehnat bozoridagi talabalarning o'zgarishi hamda fan va texnika sohalaridagi yutuqlar ta'lim tizimining doimiy yangilanishini talab etadi. Xususan mutaxassislik fanlarining didaktik ta'limoti uzluksiz ta'limning

samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etboqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish usullari hamda nazariy va amaliyotning uyg'unligi mutaxassis tayyorlash jarayonida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari bu yo'nalishda ilg'or tajribaga ega bo'lib, ularning didaktik tizmlari samaradorlik va innovatsion yondashuvlarga asoslangan va amaliyotga tatbiq etilgan. Xususan AQSH, Yevropa, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari mutaxassislik fanlarini o'qitish bo'yicha turli model va texnologiyalarni joriy etib, global mehnat bozorining talablariga moslashgan ta'lim tizimidan foydalanishni tavsiya etgan bo'lardim.

Xorijiy mamlakatlarning uzluksiz ta'lim tizimidagi yondashuvlari asosida AQShda uzluksiz ta'lim tizimi kredit-modul tizimiga asoslangan bo'lib, ta'lim jarayoni amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ekan. Mutaxassislik fanlari doirasida loyihaviy ta'lim, muammoli ta'lim va case-study metodlari keng qo'llanilgan.

AQSH ta'lim tizimida mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) yondashuvi asosiy o'rin tutmoqda. Ushbu yondashuv ilm-fan va texnologiyalarni uzviy bog'lagan holda, talabalarining muammolarini hal qilish, kreativ fikrlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilib kelmoqda. Shuningdek, AQSH universitetlarida amaliy mashg'ulotlar va loyiha asosida o'qitish tizimi keng joriy qilingan va amaliyotga tatbiq etildi.

Bundan tashqari AQShda uzluksiz ta'lim tizimi turli bosqichlarda amalga oshirilgan va quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Moslashuvchan ta'lim dasturlari – Ta'lim tizimi mehnat bozori talabalariga mos ravishda tezkor moslashtirilgan.

STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) – AQShda mutaxassislik fanlari bo'yicha didaktik materiallar ishlab chiqishda amaliy yondashuvlar ustuvorlik qilmoqda.

Onlayin ta'lim va ochiq resurslar – MOOC (Coursera, edX,

Udacity) kabi platformalar orqali o'quv materiallari keng ommaga taqdim etilgan.

Akademik va sanoat hamkorligi – Universitetlar biznes va sanoat korxonalarini bilan hamkorlikda amaliy materiallar ishlab chiqishgan. Yevropa mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatdiki Yevropa Ittifoqi davlatlarida uzluksiz ta'limning asosiy tamoyili - hayot davomida o'qish (Lifelong Learning). Germaniya va Finlyandiyada dual ta'lim tizimi keng joriy etilgan, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga asoslangan ekan. Fransiya va Buyuk Britaniyada esa interfaol ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanib kelmoqda. Yevropa mamlakatlarida esa dual ta'lim tizimi samarali faoliyat olib bormoqda va bu ta'lim bugungi kunda mamlakatimizda ham amaliyotda tatbiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, Germaniya, Shveysariya va Skandinaviya davlatlarida kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari sanoat korxonalarini bilan uzviy hamkorlikda ishlamoqda. Natijada, talabalar nazariy bilimlarni bevosita amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa mehnat bozorida malakali kadrlar yetishtirishga xizmat qilmoqda.

Yevropa davlatlarida (Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va boshqalar) mutaxassislik fanlarining didaktik ta'minotida quyidagi jihatlar kuzatildi:

Dual ta'lim tizimi (Germaniya modeli) – O'quvchilar nazariy va amaliy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish jarayonini o'zlashtirib o'rgandilar.

Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalaridan kelib chiqqan holda Janubiy Koreya ta'lim tizimi raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim resurslariga asoslangan. Yaponiya esa o'zining "Kaizen" tamoyiliga tayangan holda uzluksiz takomillashtirish va mustaqil ta'limga urg'u bergan. Janubiy Koreya ta'lim tizimi esa ilg'or texnologiyalar va raqamli ta'lim platformalariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ularning ta'lim tizimida sun'iy intellekt va vertual laboratoriyalarda keng qo'llanilmoqda, talabalarga esa mustaqil ta'lim olish imkoniyatini bermoqda.

Shu bilan birga, mamlakatda fan va texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus grant dasturlari ham mavjud, ular innovatsion loyihalarni qo'llab - quvvatlashga xizmat qilib kelmoqda.

Janubiy Koreya o'zining yuqori texnologiyali ta'lim tizimi bilan ajralib tuishi hammaga ma'lum:

IT va sun'iy intellekt asosida ta'lim – Elektron darsliklar, virtual laboratoriyalardan keng foydalanishadi.

Sanoat bilan integratsiya – Oliy ta'lim muassasalari Samsung, Hyundai, LG kabi korporatsiyalar bilan hamkorlikda maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqmoqda.

Kuchli STEM yo'nalishi – Janubiy Koreyada texnika va muhandislik fanlari bo'yicha maxsus grant dasturlari mavjud.


Qo'shimcha ta'lim va sertifikatlashtirish – Ishlab chiqarish jarayonida mutaxassislar o'z malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.UNESCO (2022). Global Education Monitoring Report.
- 2.Jo'rayev. N (2021). Oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni o'rganishning dolzarblig. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali 40-45 b
- 3.European Commission (2021). Lifelong Learning Policies in Europe.
- 4.OECD (2020). Education at a Glance.
- 5.Dewey, J. (1938). Experience and Education.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Urmonova Toshxon Ibragimovna
“Maktabgacha ta’lim
pedagogikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyalari tahlil qilinadi, shuningdek Bloom taksonomiyasi darajasini qo‘llash orqali bolalarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, ijodiy fikrlash, Bloom taksonomiyasi darajasi, bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash.

Kirish: Ma’lumki, rivojlangan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bugungi kunga kelib batamom ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga bog‘liq ekanligi, mazkur sohadagi ilg‘or o‘zgarishlar esa, eng avvalo, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, fan bo‘yicha yangi texnologiyalarni egallagan hamda soha bo‘yicha ijodiy fikrlash layoqatiga ega mutaxassis kadrlarga bog‘liqligini taqazo etishi tufayli, bu maqsadga xizmat qiluvchi pedagogik - psixologik texnologiyalarni ishlab chiqish uni amaliyotga tadbiiq etishga dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirishning samarali faoliyat ko‘rsatishiga doir bir necha muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2019 yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi

uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, boshlangich maktab ta'limiga sifatli tayyorgarligini ta'minlovchi samarali innovatsion metodik tizimini shakllantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga doir N. E. Veraksa va O.A.Shiyanlar o'zlarining tadqiqot ishlarini olib borishgan hamda ijodiy fikrlash tushunchasini zamonaviy yondashuvlar bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida bir qancha fundamental yondashuvlarini aniqlaganlar.

N. E. Veraksa ijodiy fikrlashni qarama - qarshiliklarning birligini saqlab qolish uchun "dialektik" deb atagan bo'lsa, O.A.Shiyan: "Ijodiy (dialektik) fikrlash ajoyibigi shundaki dunyoda rivojlanish, sifat o'zgarishining fenomeni mavjud, chunki rivojlanish aynan qarama qarshiliklarning birligi va kurashidan kelib chiqadi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirgan odam atrof-dagi dunyoda rivojlanish, harakat vaziyatlarini sezishi va yaratish imkoniyatiga egadir"- deb ta'rif beradi. Shuningdek, bolalarda ijodiy tafakkur jarayonlarini rivojlantirish haqida olib borgan tadqiqotlarini natijasi o'laroq, " muammoli masalalarni hal etishda, bolalar kattalarga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar. Bolada ayni daqiqada yangi narsani yaratish g'oyasi tug'ilmasligi mumkin, lekin unda atrof-olamda o'ynash, tajribalar, tadqiqot- izlanishlar o'tkazish istagi kuchliroqdir. Bu vaqtda kattalar beetibor bo'lmasalar bola o'zi to'satdan uning hayoliga qanchalik aqlli fikr kelganini tushunadi. Shuning uchun aytish mumkinki, bolalarda ijodiy fikrlash yo'q, lekin uning yonida o'zini va bolaning rivojlanishini istovchi kattalar bo'lsa-unda ijodiy tafakkur kashf etiladi va taraqqiy etadi "- deb hisoblaydi.

Dunyo miqyosida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nostandart fikrlashga o'rganishning metodik asoslarini ishlab chiqish sohasida tanilgan doktor E.De Bono, insonni ichki taqiq va chegaralardan ozod qiling-u darhol ijodkorga aylanadi, chunki aynan hatto qilish va nohaq bo'lib chiqishdan qo'rqish ijod qilish tavakkalini ushlab turadi, deb ta'kidalydi. Zotan, Ijodiy fikrlash - yangicha g'oyalarni ishlab chiqish, muammolalarga nostandart yechimlarni topish va ularga yangi nuqtai nazar bilan yondoshish imkonini beradigan aqliy qobiliyatlar va usullardir.

Bolalarda ijodiy tafakkurning taraqqiy etish jarayon bo'yicha bir qator tadqiqot ishlarini olib borgan Z.Nishanova, tafakkur - yangilikni qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Bu yangilik sub'ektiv bo'lishi, ya'ni uni kimlardir qachonlardir topgan bo'lish i mumkin, lekin sub'ekt tafakkur jarayoni yordamida o'zi uchun uni yangidan kashf etadi, aks holda biz ko'proq xotira, o'tgan tajribalarimizni qayta tiklagan bolamiz. Shuningdek, bolalarni o'qitishda tafakkurning shu muhim xususiyatini asos qilib olish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshi - psixik rivojlanishning intensiv bosqichi hisoblanadi. Aynan mana shu yoshdan bolada juda katta o'zgarishlar ro'y beradi, ya'ni psixofiziologik funktsiyalarning takomillashuvidan boshlab, to murakkab yangi shaxsiy obrazlaming paydo boiishigacha bo'lib o tadigan jarayonlar sodir bo'ladi. Yangi obrazlarni, xayoliy hodisalarni analiz qilish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xosdir, ammo natijalar hamisha ijobiy bolmasa ham, bolalar faoliyatini tahlil qilganimizda, biz shu narsaga amin bo'ldikki, bolalar predmetlarni tasavvur qitibgina qolmay, ularning o'zaro bog'iqligini ham xayolan tasavvur qilar ekan. Tasavvurning rivojlanishi, tafakkurning shakllanayotgan jarayoni bilan tavsiflanadi, bu shakllanish bolaning xayoliy tasavvuriarining ixtiyoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liqdir. Bunday imkoniyat 5-6 yoshli bolalarda yanada yuqoriroq bo'ladi, chunki bola yangi aqliy harakat usullarini juda tez o'zlashtirib oladi. Aqliy faoliyatda yangi usullarning shakllanib borishi, tashqi predmetlarning harakatini

o'zlashtirib olishdagi bola xatti-harakati, ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega, deb xisoblaydi.

Shaxsning ijodiy fikrlash layoqatini rivojlantirishda turli tuman texnologiyalarni qo'llash esa jarayonni sifatini oshiradi, boyitadi. Ana shunday vazifalarni hal etishda Blum taksonomiyasining o'rni juda muhim desak mubolag'a bo'lmaydi.

Taksonomiya - bu odatda ierarxik tuzilishga ega bo'lgan voqelikning murakkab tashkil etilgan sohalarini tasniflash va tizimlashtirish nazariyasi.

Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi - bu pedagogik maqsadlar tizimi bo'lib, ular doirasida ularning toifalari va ketma-ket darajalari (ierarxiyasi) aniqlanadi.

Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

Ta'lim texnologiyasi doirasidagi taksonomiya ierarxik o'zaro bog'langan tizim sifatida 1956 yilda B.Blum tomonidan yaratilgan bo'lib, keyinchalik D.Krotvel tomonidan davom ettirilgan. Taksonomiyaning yaratilishiga o'quv jarayonining rejalashtirilgan natijalarini (maqsadlarini) to'g'ri qayd etish zarurati sabab bo'ldi.

Ushbu metod savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan.

O'quv maqsadlari taksonomiyasi bolalar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishidir.

Blum taksonomiyasining oltita darajasi bo'lib, ular quyidagicha tavsiflanadi.

1.Bilish - dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda bolalar olingan bilimlarni eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. Ushbu darajaga tegishli barcha maqsadlar eslash nuqtai nazaridan shakllantirilgan.

2.Tushunish - ushbu darajaga erishish o'rganilayotgan

materialni o'z so'zlari bilan ifodalashlari kerak. Taklif etilayotgan ma'lumotni umumlashtirish va uni o'z so'zlari bilan taqdim etish qobiliyati o'quvshilar uni o'rganganligini tasdiqlaydi (ma'lumot berilgan va qayta ishlangan .

3.Qo'llash - darajadagi maqsadlar olingan bilimlarni o'rganilgan va yangi (qisman o'zgartirilgan yoki yangi) uchun qo'llash nuqtai nazaridan shakllantiriladi (Sahnalashtiradi, bajarib ko'radi, taqiqot o'tkazadi, amaliy sinab ko'radi, qo'llaydi).

4.Tahlil qilish - ushbu darajadagi maqsadlar o'rganilayotgan materialni alohida tarkibiy qismlarga bo'lishlari va uning ichki tashkil etilishini tavsiflay olishlarini nazarda tutadi.

5.Sintez -bu darajadagi maqsadlarga erishgan holda, olingan bilimlarni samarali birlashtirishi va undan yangi dizaynlarni shakllantirishlari mumkin.

6.Baholash - bu eng yuqori, oltinchi daraja bo'lib, mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyalar bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi.

Xozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Blum taksonomiyasi keng qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Blum taksonomiyasining o'quv topshirig'ini bajarish orqali tarbiyalanuvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil hulosa chiqarish va atroflicha mushohada yuritish kabi malaka, ko'nikmalar shakllanadi. O'quv topshirig'ining Blum taksonomiyasi darajalari bilan mos kelishi, bolalar ongidagi hulosalar bilan real voqelikni mos keltirish malakalarini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan Blum taksonomiyasini ta'lim jarayoniga tadbiiq etganda bolaning yosh pedagogik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish g'oyatda muhim xisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Blum taksonomiyasini qo'llash bolalarning ta'limiy faoliyatlarini mazmunan boyitadi, ish shakllarini hilma-hil bo'lishini ta'minlaydi. Blum taksonomiyasini kichik, o'rta va katta maktabgacha yo'shdagi bolalar bilan o'tkazish mumkin. Eng muhimi, bolalarning yosh

pedagogik, psixologik xususiyatlari va rivojlanish darajasini hisobga olib savol va topshiriqlarni moslashtirish kerak.

Blum taksonomiyasi topshiriqlaridan foydalanilganida quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- 3-4 yoshli bolalar bilan bilish, tushunish, qo‘llashni; (1, 2 daraja); Bir yilda nechta fasl bor? Fasllarning nomini ayting. Hozir qaysi fasl?.

- 4-5 yoshli bolalar bilan bilish, tushunish, qo‘llash, analiz va sintezni; (1, 2, 3, 4, 5 daraja); Hozir qaysi fasl ekanligini qayerdan bildingiz? Qish va kuz faslining farqli tomonlarini ayting. Qish faslining belgilarini ayting.

- 6-7 yoshli bolalar bilan oltita darajaning barchasini qo‘llash mumkin. Qish va kuz faslining umumiy jihatlarini toping. Taqqoslang.

Ko‘rib chiqilayotgan muammo doirasida maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo‘yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish;

-ta’lim-tarbiya jarayonida tasviriy innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish;

- ta’lim jarayonida pedagog va bolalar o‘rtasidagi muloqotning ustunligini xisobga olish;

- maktabgacha katta yosh tarbiyalanuvchilari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning rivojlantiruvchi muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish hamda rag‘batlantirishni xisobga olish;

-ta’limiy jarayonlarda Blum taksonomiyasining oltita darajasini MTT guruhlarining rivojlanish markazlarida mos ravishda qo‘llash.

Amaliyotga joriy etilayotgan Blum taksonomiyasi texnologiyasi bolalarda ijodiy, mantiqiy fikrlash, hayotda

uchraydigan muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topa olish, qaror qabul qilish va vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan rejalar tuzishga o'rgatadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin bo'ladi: maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim mazmuni va sifatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, uni ta'lim xizmatlari iste'molchilarining (ot-onalar, bolalar) talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda uzluksiz takomillashtirib borish—bolalarni sifatli maktabgacha ta'limga bo'lgan talablarini qondirishdagi muhim omil sanaladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim sifatini ortishi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlari ko'rsatkichlarining rivojlanishiga olib keluvchi sinergetik aloqadorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. O.A.Shiyan: Развитие творческого мышления. Работаем по сказке Серия «Библиотека программы «От рождения до школы» М.2012. 7 с

2.I.A.Beschanova. Taksonomiya Bluma v dou. Metodicheskie rekomendatsii. Kazan-2019.

3.Э.Боно. Серьёзное творческое мышление. Пер. с англ. Д.Я.Онацкая М.2005.стр.11

4.K.K.Mirzayev. Kreativ yondoshuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafkkurini rivojlantirish. Образование и инновационные исследования (2022 год №7) <http://interscience.uz> 311


5.Z.Nishanova, Z.Qurbonova, S.Abdiyev.Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. T.2011.47b.

6. Haqqulov T.R. Tarbiyaviy ishlarda artpedagogikadan fydalanishning nazariy asoslari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №2) ISSN 2181-1709

7. Z.S.Teshabayeva.Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish mazmuni .Academic research in educational sciences, (3), 557-562.

BOLALARDA SHAXSIY IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILA BILAN HAMKORLIK ISHLARINING DOLZARB MASALALARI

Urmonova Toshxon Ibragimovna
“Maktabgacha ta’lim
pedagogikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi



Maktabgacha ta’lim fakulteti,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalasi
J.Farhodova



Maktabgacha ta’lim fakulteti,
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalasi
G.Otabayeva



Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ularda uchraydigan salbiy illatlar, bartaraf etish yo‘llari, hamda ularni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan psixologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillar tahlil qilinadi. Bolalarda uchraydigan salbiy sifatning oldini olish uchun ota-onalar va tarbiyachilar qanday yondashuvlarni qo‘llashlari kerak, mazkur maqola ana shu savollarga javob izlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, yolg‘on, tarbiya, psixologiya, ota-ona, ishonch, haqiqat, bolalar psixologiyasi, ogohlantirish, jazolash va rag‘batlantirish, hamkorlik.

Kirish: Yangi O‘zbekistonning zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma’naviy xislatlarga ega bo‘lishi, umumiy va kasbiy

kompetentga ega bo'lishi: madaniyatli, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilishi zarur. MTT pedagogi- kasbiga xos psixik holatlar va xarakter, maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdek mas'uliyatdan iborat. Zotan, "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti"da "maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash" vazifasi ko'rsatib o'tilgan.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik jihatdan rivojlanishi va taraqqiyotining eng mas'uliyatli davri bo'lib xisoblanadi. Bu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, turli hil odatlarni o'ziga singdirishida uning katta odamlar bilan qiladigan faol munosabatlari juda katta o'rin egallaydi. Bola katta odamlar bilan bo'ladigan munosabatlarida o'zining son-sanoqsiz savollariga javob oladi. Binobarin, u yangi- yangi informatsiyalarga ega bo'lib, psixik jihatdan rivojlanadi. Shu bilan birga bo'lalarda kichik yolg'onni qo'llash, aldash kabi sifatlar ham uchraydi-ki, bu illatlarni o'z vaqtida bartaraf etish g'oyatda muhimdir.

Asosiy qisim. Bolaning kichik yolg'onni bir qarashda bezarardek tuyulsad, keyinchalik unga ko'nikish, odat tusiga kirib qolishi mumkin. Yolg'on - har qanday yoshda inson axloqiy qiyofasiga ta'sir qiluvchi holat. Ayniqsa, bola yoshligidan yolg'on gapirishni odat qilsa, bu uning kelajakdagi shaxsiyati, munosabatlari va ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ammo har bir yolg'onning ortida bir sabab, qo'zg'ovchi omil yotadi. Bola nega yolg'on gapiradi? Bu savol ko'plab ota-onalarni tashvishga soladi va uni chuqur tushunish, to'g'ri yondashish uchun bolaning ruhiy olamiga nazar tashlash lozim.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MA‘NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

**Qurolboyeva Marjona Sherzod qizi
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi**



**Hayitova Gulmira Ilhomiddin qizi
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: Ilmuradova Feruza**



ANNOTATSIYA: Ushbu maqolamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy madaniyatini shakllantirishda interfaol usullardan foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy nazariy tahlil qilingan bo‘lib, mazkur maqolada interfaol usullardan foydalanish samaradorligi haqida ma‘lumot beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Boshlang‘ich ta‘lim, sinf, interfaol, kreativ, Abdulla Avloniy, ilm, shakllantirish, ma‘naviyat, madaniyat, o‘dab-axloq, kitobxonlik.

**THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE
DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL CULTURE OF
PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

ANNOTATION: this article is one of the current issues of today and is a scientific analysis dedicated to the use of interactive methods in the formation of the spiritual culture of Primary School students. This article will tell about the use of interactive methods.

KEYWORDS: primary education, class, interactive, creative, Abdullah Avlani, science, formation, spirituality, culture, etiquette, reading.

KIRISH: Bugungi kun talabiga nazar soladigan bo‘lsak

o‘quvchi yoshlarning ma’naviyatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Chunki ilm olishning asosiy bosqichi asosi boshlang‘ich talimda olinadi. Xo‘sh bu borada qanday ishlar olib borilmoqda. Yosh nihollarimizning ma’naviyatini yuksaltirish uchun mamlakatimizda birinchi qilingan ishlardan biri besh tashabbus loyihasi ishlab chiqildi. Bu loyiha yoshlarni san’at, musiqa, rassomchilik, sport, kitobxonlik to‘garaklariga jalb qilmoqda. Jumladan ma’naviy-axloqiy munosabatlar tarixiy davrdan boshlab rivojlanib kelgan va kishilarning birgalikda yashash sharoitidan, ijtimoiy ehtiyojlar natijasida asta-sekin takomillashib borgan. Tarixga nazar tashlasak, ota-bobolarimiz ming yillar oldin tarixiy yodgorlik manbalarida, dunyoqarashida xalq og‘zaki ijodi namunalari milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir. Buyuk mutafakkir manaviy hayotidagi, muhim hodisa bo‘lib odob-axloq ilmni yoshlar ongiga zamonaviy talablar asosida singdirish hisoblanadi. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning bir jumlasini bor: “Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi faqat ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladigan kitobni axloq deyilur. O‘z aybini bilib, iqrur qilib tuzatmak‘a sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir”. Bu so‘zlar ilimli inson har doim e‘zozda ekanligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ham o‘qitishni o‘rgatish bilan birgalikda ma’naviy ahloqiy tomondan ham o‘qitish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilimsiz, marifatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda Sohibqiron Amir temur bobomizning “Agar bizning qudratimizni bilmoqchi bo‘lsangiz biz qurgan binolarimizga boqing” degan so‘zlarini va ma’naviyatning gullab yashnashida muhim o‘rin tutishini eslashimiz joiz. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatini yanada kuchliroq shakllantirish uchun ularni turli sayohatlarga olib chiqish, tarixiy obidalarni jonli korsatish ko‘rsatish, turli xil to‘garaklar tashkil qilish, kitobxonlik kechalari, kutubxonalariga tashrif buyurish kabi jarayonlar orqali amalga oshirish mumkin.

Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'rgan buyumlarini tez eslab qolish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ularga mana shunday jonli narsalar orqali ta'lim berish eng samarali usullardan hisoblanadi. Maktablarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida kreativ yondashgan holda dars o'tish, ya'ni zamonaviy texnologiyalar, turli xil dars ishlanmalari, ko'rgazmali qurollar, boshlang'ich ta'limga mos keladigan qiziqarli maetodlar orqali dars o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan bir qatorda o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish uchun o'qituvchilar bilan bir qatorda ota-onalar ham birgalikda harakat qilsa ko'zlangan maqsadga erishish darajasi ikki hissa oshadi.

Pedagogik amaliyotda "faol ta'lim usullari va shakllari" kabi atama uzoq vaqtdan beri ishlatiladi. U o'quvchilarning rivojlanishi va faoliyatining yuqori darajasiga yetadigan pedagogik texnologiyalar guruhini birlashtiradi. Yaqinda yana bir atama o'z o'rnini topdi – "interfaol o'rganish". Interfaol ta'lim, birinchi navbatda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi. **Boshlang'ich sinf darslarida interfaol usullar quyidagilarga qaratilgan:**

1. Maktab o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirish, fikrning ma'lum mustaqilligi, xulosalar, qoidalar va boshqalarga ijodiy munosabatni rivojlantirishni rag'batlantiradi.

3.O'ziga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantirish, o'z xatolarini ko'rish va ularga etarlicha munosabatda bo'lish qobiliyati; nafaqat o'rtoqlarning, balki o'zlarining ham ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shish;o'zingizni boshqalar bilan taqqoslang va o'zingizni diqqat bilan baholang.

4. Ta'lim muammolarini hal qilishning eng yaxshi variantlarini topish istagining rivojlanishi bolalarni haqiqiy qidiruv holatiga keltiradigan usullarni ta'minlaydi. "Brainstorming", "g'oyalar doirasi", "tugallanmagan jumlar" interfaol usullaridan foydalanish jarayonida bolalarning haqiqiy va xayoliy barcha fikrlari qabul qilinadi.

5. Sinfdoshlar bilan qo'shma yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantirish, maktab o'quvchilarining o'rganilgan materialga qiziqishini oshirish.

XULOSA. Boshlang'ich sinf darslarida interfaol o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarning materialni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar kommunikatsiyaga, vazifalar bo'yicha ijodiy bellashuvga, o'z fikrlarini bildirishga, bayonotlarni isbotlashga va hokazolarga ishtiyoqmand bo'ladilar. Shunday qilib, boshlang'ich maktabda interfaol ta'lim o'quvchilarni bilish jarayoniga jalb qilishga yordam beradi, bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullari almashinuvi orqali ular bilgan va o'ylagan narsalarini tushunishga va qayta ko'rib chiqishga imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar maktab o'quvchilariga nafaqat yangi bilimlarni egallashga imkon beradi, balki bilim faoliyatini o'zi rivojlantiradi, uni kooperatsiya va hamkorlikning yuqori shakllariga o'tkazadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini yuksaltirish uchun maktab va otana hamkorligi, o'quvchilar o'zlarining ustida ishlab rivojlanishi bilan amalga oshirish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini o'stirish uchun turli interfaol usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. "O'zbekiston" 2000-yil 47-bet.

2. A. Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" Yoshlar nashriyot uyi. T: 2019 5-bet.

3. A. E. Kenjaboyev, J.A. Kenjaboyev. Masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Ilmiy ommabop nasr. Termiz 2021. 53-54-betlar.

4. Qo'chqorbaeva, K. B. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishida xalq og'zaki ijodining o'rni va ahamiyati. Internatsional journal of innovative analyses va emerging texnologiya, 2(4), 5761.

5. Qo'chqorbaeva, K. B., & Mamasoliyeva, I. H. (2022). Ona Tili o'qitish metodikasi haqida. Xalqaro innovatsion tahlillar va rivojlanayotgan texnologiyalar jurnali, 2(4), 26-29.

6. Muhammadjonova, U. N., Maxmutova, T. H., & Kurbonov, M. U. (2020). demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish., 7(12), 3133-3139.

7. Adxamjonova, Q. M. (2021). Boshlang'ich sinf matematika darslarida fikrlashga urgatish. ACADEMICIA: xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali, 11(5), 952954.

8. Farxodov, T. D. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo tolerantlikni shakllantirish muammosi. Internatsional jurnal of innovative analyses va emerging texnologiya, 2(4), 12-15.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING INNOVATSION YONDASHUVLARI XALQARO TAJRIBASI

Jabborova Onaxon Mannapovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası
mudiri, dotsent,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori(PhD), dotsent



To‘rayeva Gulhayo Temirqul qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi



Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta‘limning innovatsion yondashuvlari xalqaro tajribasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va mualliflarning yondashuvlari bayon qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается международный опыт инновационных подходов в начальном образовании и изложены взгляды различных авторов.

Annotation: the article discusses international experiences regarding innovative approaches in primary education and presents the perspectives of various authors.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, innovatsiya, yondashuv, xalqaro tajriba, munosabat, tadqiqot, o‘zlashtirish.

Ключевые слова: начальное образование, инновация, подход, международный опыт, отношение, исследование,

усвоение.

Keywords: primary education, innovation, approach, international experience, attitude, research, assimilation.

Yangi O‘zbekiston jamiyatida ta’lim vositasida rivojlantirishning yangi texnologiyalariga ega bo‘lish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda boshlang‘ich ta’limga tayanish strategiyasi amalga oshirilmoqda[1, 48]. Shu ma’noda Yangi O‘zbekiston sharoitida boshlang‘ich ta’limning innovatsion yondashuvlari bo‘yicha xalqaro tajribasini o‘rgshanih va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limning innovatsion yondashuvlari xalqaro tajribasining yo‘nalishlari. Xorijiy mamlakatlarning boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha innovatsion yondashuvlarida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

boshlang‘ich ta’limni nodavlat va davlat hamkorligida amalga oshirish innovatsion tajribasi;

boshlang‘ich ta’limda ta’lim oluvchilarning miqdorini qat’iy belgalash (kamida 12 nafar o‘quvchi) innovatsion tajribasi;

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini davlat xizmatchisi sifatida maqomga ega bo‘lishi innovatsion tajribasi;

boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar olib borish innovatsion tajribasi.

Bu yo‘nalishlar bo‘yicha Yevropa va Amerika qit’alari mamlakatlarida o‘ziga xos innovatsion yondashuvlar tarkib topgan[2,19]. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta’limning xalqaro tajribasida innovatsion metodikalar yo‘nalishi. Boshlang‘ich ta’limning xalqaro tajribasida o‘ziga xos innovatsion metodikalar tarkib topgan. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

an’anaviy va inklyuziv boshlang‘ich ta’limni uyg‘un amalga oshirish innovatsion tajribasi;

boshlang‘ich ta’limda xususiy o‘qitishni amalga oshirish

innovatsion tajribasi;

boshlang'ich ta'limda o'quv fanlarini tanlash asosida o'qitish amalga oshirish innovatsion tajribasi;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida ularni ta'limning keyingi bosqichlariga tavsiya etish innovatsion tajribasi.

Ushbu innovatsion tajribalar xorijiy mamlakatlarning ko'p yillik tajriba-sinovidan o'tgan va ular amaliyotga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga molik.

Boshlang'ich ta'limning amaliyoti bo'yicha xalqaro tajriba innovatsion yo'nalishi. Xorijiy mamlakatlarda bevosita boshlang'ich ta'lim amaliyot bilan bog'liq holda olib boriladi. Bunda quyidagi innovatsion yondashuvlar diqqatni tortadi:

boshlang'ich ta'lim mashg'ulotlarini tegishli tashkilotlar va joylarda amalga oshirish;

boshlang'ich ta'limni xomiylik va beg'araz yordam vositasida rivojlantirish innovatsion amaliyoti;

boshlang'ich ta'lim jarayonini jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda har bir o'quv yilida yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlab borish innovatsion amaliyoti.

oliy pedagogik ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning individual innovatsion amaliyoti.

Bu innovatsion amaliyotlar kutilgan samarani berayotganligini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limning innovatsion xalqaro tajribalaridan foydalanish mexanizmlari. Mazkur masalada quyidagilarga tayanish bizningcha, kutilgan samarani beradi:

oliy pedagogik ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'limning ilg'or tajribalarini ommalashtirish mexanizmi;

boshlang'ich ta'lim tajribalaridan foydalanishning markazlashgan innovatsion mexanizmi;

boshlang'ich ta'lim bo'yicha individual tajribalarni amaliyotga joriy etishning innovatsion pedagogik ta'lim klasteri mexanizmi;

tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodikasidan foydalanish bo'yicha innovatsion mexanizm.

Ushbu mexanizmlar asosida boshlang'ich ta'limning xalqaro tajribalaridan oqilona foydalanish omillariga ega bo'lish mumkin.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limning xalqaro tajribalaridan foydalanish innovatsion yondashuvlari o'ziga xos xususiyatlarga egadir[3,9]. Buning uchun quyidagi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Respublika ta'lim markazi muvofiqlashtiruvida boshlang'ich ta'lim bo'yicha xalqaro tajribalardan foydalanish innovatsion tadbirlarini amalga oshirish;

oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim bo'yicha xalqaro innovatsion tajribalariga doir tadqiqotlarini amaliyotga joriy etish;

mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha amalga oshirilayotshgan tadqiqotlarning xalqaro tajribalar qismini deponentlashtirib borish;

muayyan oliy pedagogik ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim bo'yicha xalqaro tajribalari metodikalarini tajriba-sinovdan o'tkazish tizimidan foydalanish.

Mazkur mexanizmlar asosida boshlang'ich ta'limning xalqaro tajribalaridan innovatsion foydalanish omillariga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur masalada mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim bo'yicha xalqaro tajribalarini amaliyotga joriy etish milliy metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023
2. Mardonov Sh., Jabborova O. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviyatini shakllantirishning innovatsion metodikasi. – Toshkent, 2024
3. Jabborova O. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 4 k modeli bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang'ich ta'lim metodikasida yangilanishlar. – Toshkent, 2024

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MILLIY O'ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDA, UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TARBIYABIY AHAMIYATI

Kalmirzayeva Roza Begali qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqish talabasi



Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida o'zligini anglash, insonparvarlik, ezgulik g'oyalarini sing'dirish, jaroyonining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu jaroyanda o'quvchilarning roli, ta'lim-tarbiyabiy metodlari, dars jaroyinida qo'llaniladigan milliy madaniyat asosida beriladigan tarbiyabiy uslublar ham qollaniladi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga milliy qadriyatlarimiz, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, ularni asrab-avaylash hamda o'quvchilarimizga milliy qadriyatlarimizni shakllantirish orqali xalqimizning azaliy qadriyatlarini yo'qolib ketishdan saqlash haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Milliy qadriyat, ezgulik g'oyalar, ta'lim-tarbiyabiy metodlar, milliy madaniyat, tarbiyabiy uslublar.*

Abstract: *The article discusses the importance of developing primary school students' sense of identity based on national values, humanism and the ideals of goodness. It also includes the role of students in this process, teaching methods and teaching methods based on national culture used in the lesson. Primary school students are taught to understand the essence of our national values, preserve them and protect the ancient values of our people from disappearing by developing our national values in our students.*

Keywords: *National values, noble ideals, methods of education, national culture, methods of education*

Аннотация: В статье рассматривается важность формирования у учащихся начальной школы чувства идентичности, основанного на национальных ценностях, гуманизме и идеалах добра. Он также включает роль учащихся в этом процессе, методы обучения и методы обучения, основанные на национальной культуре, используемые в процессе урока. Учащихся начальной школы учат понимать суть наших национальных ценностей, сохранять их и защищать древние ценности нашего народа от исчезновения путем формирования у наших учащихся наших национальных ценностей.

Ключевые слова: Национальные ценности, благородные идеалы, методы воспитания, национальная культура, методы воспитания.

Milliy qadriyatlar deganda, biz xalqimizning azaldan amal qilinish kelayotgan fazilatlarini, odatlari va turmish-tarizining madaniy an'analari majmuasini tushinamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir" kitobida hozirgi zamon ta'lim jarayonimizda yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yo'lga qoyilgan. Shu ma'noda tarbiya jaroyanida boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi fazilatlarini shakllantirish taqozo etiladi:

- insonni qadrlash;
- Vatanni sevish;
- o'zgalarni hurmat qilish;
- o'z manfaatlaridan o'zgalarni manfaatlarini ustun qo'yish;
- mehnatsevarlik.

Bu fazilatlar xalqimizning azaliy tabiatiga singib ketgan. Ushbu fazilatlarini har bir oila ularni bajarishga, o'zlarida shakllantirishga harakat qiladi. Hozirgi boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy vazifasi o'quvchilar ongiga shu fazilatlarini chuqurroq singdirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqimizga xos bo'lgan

quyidagi odatlarni singdirish taqoza etiladi:

- jamao bo‘lib yashash;
- qo‘shnini hurmat qilish;
- yaxshilikni baham ko‘rish;
- molparastlik va boylikka o‘ch bo‘lmaslik;
- halol mehnat evaziga yashash;
- biror kasb yoki hunarning egasi bo‘lish.

Ushbu odatlar xalqimizning milliy tabiatiga mos ekanligini xorijlik buyuk mutafakkirlar ham o‘z so‘zi bilan etirof etib o‘tkan. Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim- bu inson shaxsiyatining poydevori qo‘yiladigan bosqish bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarga faqatgina bilim emas, balki to‘g‘ri tarbiya, yuksak axloqiy fazilatlar, milliy g‘urur tuyg‘usini singdirish nihoyatta muhimdir.

Yuqorida aytib o‘tilgan an‘analari, o‘quvchilar ongini nafaqt ijtiyoilashtiradi, balki ularda milliy ruhning tarkibini topishda muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ana shu tayanchlarga asoslanadi.

Hozirda mamlakatimizda yashayotgan 130 millat va elatlarning milliy qadriyatlariga ham hurmatta bo‘lish ruhi o‘quvchilarga singdiriladi. Chunki, bu xalqlarning milliy qadriyatlari ham xalqimizning qadriyatlariga mos tushadi.

Bo‘shlang‘ich sinflar uchun o‘tiladigan tarbiyaning ham o‘quvchilarga shaxsiyatni, axloqiy fazilatlarini va milliy o‘zligini shakllantirishda asosiy bosqishi hisoblanadi. Boshlang‘ich o‘quvchilari o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni o‘rgatishda, milliy o‘zligini shakllantirishda bir nechta usullarni qollash mumkin; dars jaroyonida turli hil o‘yinlar, ertaklar, milliy bayramlar va qadriyatga oid an‘analarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatga nisbatan hurmat va sadoqat tuyg‘ularini rivojlantirish mumkin. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida ham o‘quvchilarga namuna bo‘lishi, ularning milliy qadriyatlarni anglashiga, shuqquroq o‘rganishiga yordam berish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish. Bilganimizdek ong bu- shaxsning

miya organida yuzaga keladigan tushunchalari, fiklari va odatlari majmuidir. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi yozilmagan oq qog'ozga oxshaydi. Ushbu masala 7-11 yoshli o'quvchilar uchun va ularning ongiga maqsadli va muddaoli qadriyatlarni shakllantirishini taqozo etadi. Bu borada umuminsoniy qadim orin tutadi.

Umuminsoniy qadriyatlar bu dunyoda yashovchi xalqlarining tajribasidan o'tib, o'zgaralar tomonidan qabul qilingan yondashuvlar majmuasi qisoblanadi. Shu bois ham Prezidentimiz yoshlar tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarining shakllanishiga katta e'tibor berishni tavsiya etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning o'quvchilarning keying ta'lim bosqishlariga tayyorgarligi bilan baholanadi. O'zbekistonning hozirgi ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni bitiruvchilar ta'limning quyidagi turlariga tayyorlanadi;

- o'rta umumta'lim maktablariga;
- Prezident maktablariga;
- ijod maktablariga;
- ixtisoslashtirilgan maktablariga.

Bu ta'lim turalariga bo'shlang'ich sinf o'quvchilarini tayorlashta, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalab borish, shu ta'lim tizimiga bilim ko'nikmalarini shakllantirib borish bo'shlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy vazifasidir. Shu sababli, bu qadriyatlar asosida tarbiyaganlik darajasini baholashning quyida berilgan indikatorlarini belgilash mumkin;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarini bilish;

-mazkur toifa o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlardan xabardorligi;

-o'quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlariga rioya qilish ko'nikmasiga egaligi;

-o'quvchilarning o'z millati va o'zga millatlarni hurmat

qilishi.

Ushbu, inikatorlarimiz, boshlang'ish sinf o'quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalanganlik darajasini belgilab beradi.

Ba'zi pedagogik adabiyotlarda «indikator» tushunchasi ta'lim va tarbiyaning sifat ko'rsatkichi belgilovchi atama sifatida ishlatiladi. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash aynan indikatorlarga, ya'ni ushbu ruhda tarbiyalanganlik darajasining sifat ko'rsatkichiga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda quyidagilarga asoslanish lozim:

-o'quvchi ongi va yurish turishida xalqimizning tabiatiga mos bo'lgan milliylik, urf-odat va odablar majmuning shakllanayotgani;

-o'quvchi axloqida va axloqiy munosabatlarida xalqimizning madaniyatida mavjud bo'lgan o'zgalarni hurmat qilish va o'zgalarga doima yordamga tayyor turish kabi umuminsoniy yondoshuvlar shakllanayotganligi;

- o'quvchilarning dunyoqarashida o'zlikni anglash va indeal maqsad-muddolarga intilish xislatlari shakllanayotganligi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarimizni umuminsoniy ruhda tarbiyalashga indikatorlar asosida amalga oshirish imkonini yaratib beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy va umuminsoniy ruhda to'g'ri tarbiyalash, milliy o'zligini shakllanishida, tarbiyalashda kitoblardan foydalanish lozim deb hisoblayman. Masalan, G'afur G'ulom, Abdulla Avloniy kabi o'zbek yozuvchilarning yozib qoldirgan asarlari bolalarni vatanparvarlikka, halollik va mehnatsevarlikka chorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiya vositasi orqali biz o'qituvchilar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining avvalo dunyoqarashini, jamiyatta axloqi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirgan bo'lamiz. Shu ko'nikmalarni o'quvchilarimizga to'g'ri shakllantira olsak, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmati va bilim ko'nikmalari, tarbiyasi

ortadi.


Maktabda milliy tarbiyani shakllantirish jaroyanida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy sifatлари tarkib topib, ilk axloqiy sifatlar shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati:

1. Онахон Жабборова, Зухра Умарова “Бошлангич таџимда “тарбия” фанини оқитиш методикаси” Тошкент-2022 16-20б
2. Маънавият: асосий тушуншалар изохли луғати. – Тошкент,-2009
3. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент, -2021.
4. Манавият асослари жамоаси. “Бошлангич таџимда тарбия фани” 2023

ZAMONAVIY JAMIYATDA AYOL-QIZLARNING O‘RNI VA MUAMMOLARI

Sadirkbekova Aqjarqin
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi



Baltabayeva Beksulu
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi



**Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar fakulteti “Fakultetlararo
ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, PhD N.M.Koshanova**

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda zamonaviy jamiyatda ayollar va qizlarning tutgan o‘rni, ayollar hayotidagi gender tengsizlik, ta‘lim va ish bilan ta‘minlanishdagi imkoniyatlar yetishmovchiligi, shuningdek, ularga nisbatan mavjud stereotiplar va bosimlar yoritildi. Tadqiqot ishimizda jamiyatda ayollar mavqegini mustahkamlash, ularning to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash masalalariga e‘tibor qaratildi hamda bu boradagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar: ayollar, qizlar, gender tenglik, jamiyat, ijtimoiy muammolar, huquqlar, imkoniyatlar, stereotiplar, ayollar mavqei, ayollar faoliyati.

Kirish. Yurtimizda ayol-qizlarning hayotdagi faolligi, jamiyatdagi o‘rni va nufuzi tobora yuksalib bormoqda. Bugungi kunda ular nafaqat oila muqaddasligini asrab-avaylovchi, balki davlat va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etayotgan yetuk shaxslar sifatida e‘tirof etilmoqda. Har bir sohada — ilm-fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va boshqalarda ayollar o‘z o‘rni va salohiyatini namoyon etmoqdalar. Biroq bu ijobiy

jarayonlar bilan bir qatorda, ayollar duch kelayotgan muammolar, ularni cheklab turuvchi omillar, ayrim hollarda gender tengligining yetarli darajada ta'minlanmagani kabi masalalar ham mavjud. Ushbu maqolada ana shu muammolar o'rganilib, ularga yechim topish yo'llari tahlil qilinadi hamda zamonaviy jamiyatda ayollar o'rnini mustahkamlash borasidagi takliflar ilgari suriladi.

Bugungi kunda o'zbek ayollarining nafaqat oila va farzandlar tarbiyasidagi o'rni, balki, mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi ham beqiyos. Bugun yurtimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir so'z bilan aytganda opasingillarimizni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor a'zosiga aylantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, jumladan, bandligini ta'minlash, sog'ligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning turmush darajasini yaxshilashga e'tibor yuksak darajaga ko'tarildi desak xato bo'lmaydi.¹⁵

Har sohada kamchiliklar bo'lganidek jamiyatda ayollar o'rnini mustahkamlash huquqlarini taminlashda ham turli qiyinchilik va to'siqlarga duch kelinmoqda. So'nggi yillarda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu illatlarni yo'qotish uchun huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi, Senatda Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari" tizimlari yo'lga qo'yildi. Bu kabi tizimlarni mamalakatimizda targ'ib qilinish ayollarga nisbatan zo'ravonlik omillarini birmuncha pasaytirdi."Ayollar daftari" ning joriy

¹⁵ Berdiyeva Sh «Jamiyatda ayollarning ijtimoiy roli».2021

etilishi jamiyatimizda o'z o'rnini topolmayotgan, eri tomonidan zo'rvonlikka uchragan yokida boquvchisini yo'qotgan ayollar uchun o'zlarini kelajagini yaratish uchun jamiyatdagi o'z ijtimoiy mavqeyini yanada mustahkamlash uchun bir debocha bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatning teng yarmini ayollar tashkil etadi ular ham erkaklar bilan bir hil teng huquqqa ega. Gender tenglik jamiyatimizda keng targ'ib etilayotganligi bois anchayin ayollarga bo'lgan kamsitishlar, tahqirlashlar birmuncha kamaygan. Ayollar sog'ligiga davlatimiz tomonidan anchayin kuchli e'tibor qaratilmoqda. Sabab jamiyatning sog'lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog'lom ekani bilan tavsiflanadi.

Yurtboshimiz aytganlaridek, "...ona va bola sog'lig'iga e'tibor –jamiyatga, kelajakka e'tibordir" deb bejiz ta'kidlamaganlar.¹⁶ Ma'lumki zamonimiz texnologiya zamoni, rivojlangan mamlakatlarda biron soha yo'qki, raqamlash va yashil raqamlash tizimi kirib bormagan bo'lsa, ayni paytda bu jarayonda dunyo aholisining yarmi, ya'ni ayollarning o'zni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi aniq ma'lum emas. Ko'p davlatlarda o'rta ta'lim majburiy va o'qishga borganda qizbola va o'g'ilbola teng qatnashadi, shunga ko'ra dunyoning ko'plab mamlakatlarida bakalavriat talabalarining muhim qismi ayollar bolsada, ko'rsatgichlar shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan yuqori ilmiy darajalarda ayollar soni kamayib borishi kuzatiladi va ularning soni ko'pchilikni tashkil etmaydi. Ayollar san'at va ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, ta'lim va tarbiya sohasida ko'proq faoliyat yuritsalar, texnika, muhandislik, aniq fanlar sohalariga kamroq kirishadi. Asosan, ayollar tarbiyaviy va jismoniy parvarishga urg'u beradigan ishlarga moyil bo'lib, texnika mexanika mahoratiga va ijodiy fikrlashga tayanadigan ishlarda kamroq faoliyat ko'rsatadilar. Lekin aytib o'tish joizki, O'zbekistonda oxirgi ikki yil magistratura bosqichida tehsil olayotgan qizlar soni 2-3 barovarga ko'paygan. Bundan tashqari, ilmiy yo'nalishlarni tanlashda gender farqlar ham nisbattan kamroq kuzatilmoqda.¹⁷

¹⁶ Suyumova M «Jamiyatda ayollar o'zni».2023

¹⁷ Xashimxo'djayeva M «Jamiyat taraqqiyotida ayollarning o'zni».

Zamonaviy O‘zbek jamiyatida ayollar hayotidagi asosiy muammolardan biri — gender tengsizlikning hali ham to‘liq bartaraf etilmaganidir. Har qancha huquqiy kafolatlar mavjud bo‘lmasin, amaliyotda ayollar ko‘pincha «ikkinchi rol»da qolmoqda. Ular o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun jamiyatda aniq barqaror infratuzilma va mental o‘zgarish talab etiladi. Avvalo, ta‘lim tizimida gender tenglikni ta‘minlash muhim. Chekka hududlarda qiz bolalarning maktabdan so‘ng oliy ta‘limga kirishi past darajada. Sabab — ijtimoiy bosim, erta turmush, yoki «qiz bolaga ortiqcha o‘qishning keragi yo‘q» degan qadimiy stereotiplar. Bu stereotiplar faqat qizlarning emas, butun jamiyatning intellektual salohiyatini pasaytiradi. Shuning uchun mahalliy va davlat darajasida qiz bolalar uchun motivatsion grantlar, stipendiyalar, va o‘rnak bo‘ladigan ayol liderlar bilan uchrashuvlar tashkil etish zarur. Ayniqsa, ayollarga nisbatan mavjud ijtimoiy bosim va stereotiplar — ularning eng katta raqibi. Ayol jamiyatda kuchli bo‘lsa, unga «erkaklashib qolgan», o‘z fikrini aytsa, «qo‘pol», erkin harakat qilsa, «axloqsiz» tamg‘asi yopishtiriladi. Bu esa, ularning ichki imkoniyatlarini bo‘g‘adi, ijtimoiy faolligini susaytiradi. Shuning uchun OAV orqali ongni o‘zgartirish, ijobiy namunalarni targ‘ib qilish, jamiyatda ayolga hurmatni zamonaviy kontekstda shakllantirish lozim. Jamiyatida ko‘plab ayollar jismoniy, ruhiy yoki iqtisodiy zo‘ravonlik qurboni bo‘layotgan bo‘lsa-da, bu holatlar ko‘pincha yashirin qoladi. Chunki jamiyat ularni sukut saqlashga, sabr qilishga o‘rgatgan. Aynan shu «sabr» talabi ko‘plab ayollarni ichki inqirozga olib kelmoqda. Buni oldini olish uchu har bir tuman va shahar miqyosida ayollarni himoya qilish markazlari, maxfiy murojaat liniyalari, psixologik va huquqiy yordam guruhlari tashkil etilishi lozim deb o‘yayman. Shuningdek, zo‘ravon erkaklarni jazolashda emas, ularni ijtimoiy rehabilitatsiyaga yo‘naltirish ham kerak - masalan, majburiy psixologik mashg‘ulotlar orqali. Konstitutsiyada ayollar huquqlari muhofaza qilingan, biroq real hayotda huquqiy savodxonlik past, sud va huquq organlarida ayollar bilan ishlash madaniyati yetarli emas. Ko‘p hollarda ayollar o‘z haqlarini talab

qilishdan cho‘chiydi yoki kimga murojaat qilishni bilmaydi. Fikrimcha, ayollar uchun yuridik mobil ilovalar yaratish, unda huquqiy maslahatlar, namunaviy arizalar, murojaat qilish tartiblari oddiy tilda berilishi lozim. Shuningdek, mahallalardagi faollar va raislar gender huquqlari bo‘yicha maxsus o‘qitilishi kerak.

Bugungi O‘zbekiston taraqqiyot sari dadil qadam tashlar ekan, unda ayollar va qizlarning o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat an’anaviy oila doirasida, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol ishtirok etayotgan kuchli ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo‘lmoqdalar. Maktab o‘quvchisidan tortib, oliy ta’lim muassasasi talabalariga, oddiy xodimdan tortib, yuqori lavozimli rahbar ayollargacha — bugungi kunda O‘zbekiston ayoli o‘zining salohiyati, aqliy va ma’naviy kuchi bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Mazkur chora-tadbirlar nafaqat ayollar huquqlarini ta’minlaydi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, sog‘lom ijtimoiy muhit shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz Prezidenti ayollarning jamiyatdagi o‘rni va rolga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishlari hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog‘lom bola tug‘ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog‘ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e’tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e’tibor qaratmoqda. Ma’lumkin millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shibhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha birinchi galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi.¹⁸

Xulosa qilib aytganda, ayol — hayot manbai, taraqqiyot negizi va jamiyatning eng mustahkam ustunidir. Uning ilmi, mehnati, ma’naviyati rivojlangan davlatning kelajagi porloq

¹⁸Xasanova D «Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqei»

bo'ladi. O'zbekiston bugun ayollar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda, biroq faqat qonunlar va rejalar bilan emas, balki real harakatlar bilan ayollar hayotini o'zgartirish lozim. Agar qiz bola ta'lim olishdan cheklansa -bu nafaqat uning, balki jamiyatning yo'qotishi. Agar ayol mehnati qadrlanmasa - bu butun iqtisodiyotning sustlashishiga sabab bo'ladi. Agar ona baxtsiz bo'lsa - kelajak avlod ham baxtsiz bo'ladi. Demak, ayollarni qo'llab-quvvatlash -bu faqat ularning muammosini hal qilish emas, balki butun jamiyatni yangi bosqichga olib chiqish demakdir. Endi vaqt keldi: ayolning ovozi eshutilishi, mehnati e'tirof etilishi, huquqlari himoya qilinishi shart. Uning orzulari to'xtab qolmasligi, iste'dodi so'nmasligi, jasorati jilovlanmasligi kerak. Zero, ayol baxtli bo'lsa, jamiyat kuchli bo'ladi. Jamiyat kuchli bo'lsa, davlat qudratli bo'ladi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berdiyeva Sh «Jamiyatda ayollarning ijtimoiy roli». T.: 2021. 24B.
2. Suyumova M «Jamiyatda ayollar o'rni». T.: 2023. 84 B.
3. Xashimxo'djayeva M «Jamiyat taraqqiyotida ayollarning o'rni».
4. Xasanova D «Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqei»

4 K MODELI KO'NIKMALARINING PEDAGOGIK MAZMUNI

Narimbetova Zaxiya Axmedovna
CHDPU pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent



***Annotatsiya:** Maqolada hozirgi kundagi ta'lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy yondashuvlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida geometriya fanini o'qitish misolida tahlil etilgan. 4K modeli bo'yicha kommunikatsiya va kollobaratsiya ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik mazmuni masalasi tahliliga e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** 4K, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, tahlil, baholash, tushuntirish, o'z nuqtayi nazarini asoslash, faraz qilish, tartibga solish, muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, fikrlar, geometrik bilimlarni takomillashtirish.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining *geometrik bilimlarini* shakllantirish va takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Bunda biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

- 1) o'quvchilarning geometrik bilimlarini tarkib toptirish;
- 2) o'quvchilarning geometrik savodxonligini takomillashtirish;
- 3) o'quvchilarning geometrik layoqatini rivojlantirish[2].

Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining geometrik bilimlari asoslarini Geometriya o'quv fani bo'yicha tushunchalirini tarkib toptirish tashkil qiladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'lchov, hisoblash, yuza kabi geometrik tushunchalarini o'zlashtirsa yuqori sinf o'quvchilari bevosita

geometrik masala va misollarning asoslari bo'yicha bilim oladilar. Buning natijasida o'quvchilarda Geometriya asoslari bo'yicha ko'nikmalar tarkib topadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning geometrik savodxonligini ushbu fan asoslarini chuqur o'zlashtirish tashkil qiladi. Bunda o'quvchilar darsliklarda berilgan masala va misollarni mustaqil yechish ko'nikmasini egallashi bilan geometrik savodxonligini rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining robototexnika va muxandislik ko'nikmasini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu ko'nikmalarning asoslarini geometrik bilimlar majmuyi tashkil qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning geometrik bilimlari tarkibida ularning Geometriya o'quv faniga bo'lgan layoqatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning geometrik layoqatini rivojlantirish laboratoriya mashg'ulotlari va to'garak mashg'ulotlari vositasida amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish asos hisoblanadi. Bunday yondashuv umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning layoqatini rivojlantirish asosi hisoblanadi.

Shu tariqa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining geometrik bilimlari deganda biz Geometriya fani asoslarini o'zlashtirish, geometrik savodxonlikka ega bo'lish va ularning geometrik layoqatini rivojlantirishni nazarda titamiz. Shu jihatdan bunday yondashu 4K modeli bo'yicha kommunikatsiya va kolloboratsiya ko'nikmalariga mosdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarning *kommunikatsiya ko'nikmasi* asosida geometrik bilimlrini takomillashtirish muxim masaladir. "Kommunikatsiya" so'zi lotincha bo'lib, quydagi ma'nolarni anglatadi:

- 1) ta'lim sharoiti;
- 2) ta'lim imkoniyati;
- 3) ta'lim muhiti.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining

kommunikatsiya ko'nikmasini ta'lim sharoiti va undan foydalanish muhim tarkibiy qism hisolanadi. Bunga ko'ra , umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari ta'lim sharoitidan oqilona foydalana olishni bilishi kerak. Shu sababli mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarini kompyuterlashtirish, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash va zamonaviy ta'lim to'garagini tashkil qilish vositasida ta'lim sharoitini munosib yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilar ana shu ta'lim sharoitidan foydalangan holda geometrik bilimlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

O'quvchilarning geometrik bilimlarini takomillashtirish bo'yicha kommunikatsiya ko'nikmasi tarkibida ta'lim imkoniyati asosiy o'rin tutadi. Unga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ruhiy, ijtimoiy va estetik imkoniyatlariga mos ravishda dars jadvallari tuzilgan, o'quv fanlarini o'qitish chuqurlashtirilgan holda tashkil qilingan va o'quvchilar ta'lim plansheti vositasida o'qituvchilar bilan istalgan vaqtda bog'lanishi mumkin. Bunday ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining geometrik bilimlarini takomillashtirishda samarali kechadi.

1-4sinflar uchun hozirgi maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu metodologiya bolalarni har tomonlama rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib kollaboratsiya (jamoalar bo'lib ishlash), kommunikabellik (muloqat ko'nikmalari), kreativ fikrlash, (yangi ma'lumotga nisbatan tanqidiy baho berish) jihatlari asosiy e'tibor qaratiladi [6].

Umimiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kommunikatsiya ko'nikmasi tarkibida ta'lim muhitidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muhiti – bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida yaratiladigan o'quv jarayoni va imkoniyatlar majmuidir. Bunda o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash, oliy ma'lumotli o'qituvchilarning mavjudligi va o'quv jihozlarining talab darajada ekanligi katta o'rin tutadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim maktablari

darsliklar va qo‘shimcha adaboyotlar bilan to‘liq ta‘minlanmoqda. Matematika o‘quv fanlari bo‘yicha oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar bilan talab darajasida ta‘minlangan va o‘quv jihozlarini takomillashtirib borish jarayoni kechmoqda. Bunday o‘ziga xos ta‘lim muhitidan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining geometrik bilimlarini oshiradi.

E‘tibor berilsa, 4K modeli bo‘yicha kommunikatsiya ko‘nikmasi asoslarini ta‘lim sharoiti, ta‘lim imkoniyati va ta‘lim muhiti tashkil qiladi. Mana shu uch masala o‘quvchilarning geometrik bilimlarini takomillashtirishda kommunikatsiya ko‘nikmasi bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim o‘quvchilarining 4k modeli bo‘yicha *kollobratsiya* ko‘nikmasini tarkib toptirish ham muhim ahamiyatga ega. “Kolloboratsiya” so‘zi lotincha bo‘lib, birgalikda ishlash, o‘zaro yordam va jamoa bo‘lib harakat qilish ma‘nolarini anglatadi. Shu jihatdan umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining 4 K moduli bo‘yicha kolloboratsiya ko‘nilmasi asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) o‘quvchilar gurihida ishlash;
- 2) sinf guruhida ishlash;
- 3) sinflararo guruhda ishlash.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha kolloboratsiya ko‘nikmasi tarkibida o‘quvchilarning guruhli bo‘lib ishlashi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar ikki va undan ortiq o‘quvchilar guruhiga bo‘linib muayyan geometrik masala yoki topshiriqlarni bajaradi. Bunda o‘quvchilarning bilimlaridan o‘zaro foydalanishi, hamkorlik va guruh manfaatini himoya qilish ko‘nikmalari tarkib topadi. Shu jihatdan o‘quvchilarning guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ularning geometrik bilimlarini yanada chuqurlashtiradi. Shu sababli mazkur masalaga keyingi yillarda dunyo maktablarida keng e‘tibor berilmoqda.


O‘quvchilarning 4K modeli bo‘yicha kolloboratsiya ko‘nikmasi tarkibida sinf bo‘yicha guruh bo‘lib ishlash han

muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, har bir sinf o'quvchilari ikki yoki uch guruhga bo'linib, berilgan geometrik topshiriqlarni bir komanda bo'lib bajaradi. Bunda komandaga bo'lingan o'quvchilarning tashabbuskorligi, o'zaro tajriba almashish va bilimlarni uyg'unlashtirish ko'nikmalari tarkib topadi. Buning natijasida o'quvchilarda hamkorlik asosida geometrik bilimlarni o'zlashtirish jarayoni yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning sinf miqiyosida guruhlarga bo'linib geometrik laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kolloboratsiya ko'nikmasi asosida ularning sinflararo guruh bo'lib ishlashi ham katta ahamiyatga ega. Bunda har bir sinf manfaatini himoya qilish vositasida o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda jamoaviylikning tarkib topishi muhim ahamiyatga ega. Aynan mana shu o'rinda kolloboratsiya ko'nikmasining mazmuni o'z o'rnini topadi.

Diqqat qilinsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kolloboratsiya ko'nikmasi tarkibini o'quvchilarning guruhlarga bo'linib ishlashi, sinf guruhida ishlashishi va sinflararo guruhda ishlashi tashkil qiladi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha kommunikatsiya va kolloboratsiya ko'nikmalari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda o'quvchilarning ta'lim olishi va muayyan ko'nikmaga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi. Mazkur masalani quydagicha modellashtirish mumkin:



1-rasm. 4K modeli bo'yicha kommunikatsiya va kollobratsiya ko'nikmasi mazmuni

Xulosa

Yangi innovatsion yondashuv o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xasanbayev J., To'raqulov X., Xaydarov N.; Xasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at.-T: «Fan va texnologiya.2009.427-bet.

2. Tursunov I., Narimbetova Z. O'quvchilarning geometrik kompetentsiyalarini rivojlantirish (10-11 sinflar misolida). Monografiya.-Tashkent, 2023

3. Eshqoraev Q. A, Narimbetova Z.A. Geometriyani o'qitish tayanchlar / International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET), Volume 11, Issue 3, 2218-2221 6.March 2022

4. Maxmudova D., Narimbetova Z.A. Developing creative competence through the formation of scientific generalization in students/ European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, 2020, Part II. ISSN 2056-585

5. Akhmedov B.A, Majidov J.M., Narimbetova Z.A. Active, interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. "Экономика и социум" №12(79) 2020

6. Abdirimova I.K. Project activities as a factor in the development of human abilities. European Science Methodical Journal. Ispaniya. ISSN (E): 2938-3641. Volume 3, Issue 1, January – 2025,-B.36-38

7. "Xalq so'zi" 2023 yil 18 avgust, № 169(8512)


SIFATLI KASBIY TA'LIM- FAROVONLIK INDIKATORI

Gulmira Rifovna Tojiboeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

mirak5275@gmail.com



Axmadova Asilaxon Komiljon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti

axmadovaasilaxon@gmail.com



Annotatsiya Aholi farovonligini oshirish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning indikatori sifatida ta'limga alohida diqqat e'tibor berilayotganligi yoritib berilgan. Ijtimoiy farovonlik va taraqqiyotni ta'minlash sifatli kasbiy ta'limning asosiy maqsadi ekani haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: farovonlik, xalq, turmush tarzi, ijtimoiy ehtiyoj, ilmiy-texnik taraqqiyot.

Farovonlik xalqimizning azaliy maqsadi, mamlakat taraqqiyotining mezonidir. Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlaridan biri ta'limdir. O'zbekistonda ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv maskanlarini tashkil etish, o'qituvchilar yetishmasligi, o'quv dasturlarini takomillashtirish kabi dolzarb masalalar yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Pedagog kadrlar malakasini oshirish, ularga munosib sharoit yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aholining farovonligi bir tomondan, muntazam o'zgarib turadigan turli ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi [1, Aliyev B.].

Inson shaxsiyatining ko'p qirraliligi shaxsga ham, jamiyatga

ham tegishli bo‘lgan turli xil farovonlik turlarining mavjudligini belgilaydi. Bular hissiy farovonlik, jismoniy farovonlik, ijtimoiy farovonlik, kasbiy farovonlik, ijtimoiy farovonlik, psixologik farovonlik, ma’naviy farovonlik, jinsiy farovonlik, psixologik farovonlik, subyektiv farovonlik bo‘lish va hokazo. Ba’zilariga to‘xtalsak:

shaxsiy farovonlik - bu shaxsning holati yoki obyektiv holat, bunda inson o‘z hayotini boshqalar, qarindoshlari va o‘zi oldida tavsiflovchi hamma narsaga ega;

ruhiy farovonlik - o‘ziga ishonch, o‘zini yetarli darajada hurmat qilish, hayotga ijobiy qarash, mehribonlik, muloqot, hissiy barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlar bilan bog‘liq;

ijtimoiy farovonlik - ko‘proq insonning do‘stlari va yaqinlari bor-yo‘qligi, yaxshi ish, sevimli mashg‘ulotlari uchun imkoniyatlar, sog‘liq, ta’lim va kamida o‘rtacha turmush darajasi haqida[2, Bessonova Yu. V.];

moddiy farovonlik - bu jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarning moddiy ne‘matlar bilan ta’minlanganligi, kishilar moddiy ehtiyojlarining kondirilish darajasi hisoblanadi. Farovonlik darajasini ifodalash uchun “turmush darajasi”, “halq farovonligi” va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo‘llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma’naviy-ma’rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir;

kasbiy farovonlik - bu kasbiy muhitda mazmun va o‘shishga erishish uchun o‘z manfaatlarini, qadriyatlarini va maqsadlarini amalga oshirish qobiliyati. Kasbiy farovonlik insonning nima qilishi, uning uchun muhim bo‘lgan narsa bilan bog‘liq. Bu insonning kasbiy faoliyatini yanada samarali bajarishga yordam beradigan kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ularning qadriyatlarini tushunish va ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashni o‘z ichiga oladi. Professional salomatlik ishdan zavqlanish imkonini beradi va diqqatni jamlagan,

motivatsiyali va muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Inson kasbiy farovonlikka erishsa, uning ishi va natijada kundalik hayoti kuchayadi.

Ta'lim darajasiga qarab, kasbiy farovonlikni shakllantirish jarayonida individual shaxsiy xususiyatlarning rolini baholash ham o'zgaradi. Shu sababli kasbiy shakllanish jarayonida sifatli ta'lim tizimini yaratish dolzarbdir [3, Козлова, Н. С.].

Dunyoda farovonlikni tadqiq etish bo'yicha bir qancha nufuzli markazlar faoliyat olib borishadi, xususan, Legatum Prosperity Index Britaniyaning The Legatum Institute tahliliy markazining jamlama ko'rsatkichi bo'lib, dunyo mamlakatlari yutuqlarini ularning farovonligi nuqtayi nazaridan baholaydi. Ro'yxatning boshida fuqarolari qulay sharoitlarda yashayotgan va turmush darajasi doimiy ravishda yaxshilanib borayotganini his qiladigan davlatlar joylashgan.

Ushbu reyting Britaniyaning The Legatum Institute tahliliy markazi (Legatum xalqaro investitsiya guruhining bo'limi) tomonidan 2006 yildan beri chiqariladi. Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy farovonlik va uning rivojlanishini global miqyosda o'rganishdir. Shuningdek, ushbu reyting dunyoning eng rivojlanayotgan mamlakatlarini ko'rsatadi, deb hisoblanadi.

Indeks jamiyatning turli jihatlari va ijtimoiy farovonlik parametrlarini aks ettiruvchi to'qqiz toifaga birlashtirilgan ko'plab turli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan:

1. Iqtisodiyot.
2. Tadbirkorlik.
3. Menejment.
4. Ta'lim.
5. Sog'liqni saqlash.
6. Xavfsizlik.
7. Shaxsiy erkinliklar.
8. Ijtimoiy kapital.
9. Ekologiya.

Har bir mamlakatning reytingi ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning

o‘rtacha vaznini hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi, ularning har biri farovonlik asosi sifatida belgilanadi va shu bilan dunyoning eng gullab-yashnagan mamlakatlari ro‘yxati olinadi. Ko‘rsatkichlar statistik tahlil, sotsiologik tadqiqotlar va so‘rov ishtirokchilarining ekspert baholariga asoslanadi. Reytingda foydalaniladigan statistik ma‘lumotlar BMT, Jahon banki, OECD, Jahon savdo tashkiloti, Gallup, Economist Intelligence Unit, IDC, Pyramid Research va boshqa muassasalardan olinadi. Index nashri tahririyati tarkibiga qator yetakchi universitetlar va tadqiqot markazlari vakillari kiradi. Indeksni shakllantirish metodologiyasining batafsil tavsifi va u bo‘yicha ma'lumotlar manbalari keyingi qiyosiy tadqiqot natijalari bo‘yicha yillik reyting nashrida keltirilgan. Mamlakatlarning farovonlik darajasi bo‘yicha reytingi oxirgi marta 2021-yilda yangilangan.

Mamlakatimizda har bir insonning o‘zida borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan va xalqaro andozalar talablariga javob beradigan oliy kasb-hunar ta‘limi tizimi sifatini baholash tizimini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir, degan xulosaga kelindi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aliyev, Bekdavlat., QUDRAT VA FAROVONLIK OMILI // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/quadrat-va-farovonlik-omili>

2. Bessonova Yu. V. O strukture psixologicheskogo blagopoluchija [About the structure of psychological well-being]. Psixologicheskoe blagopoluchie lichnosti v sovremennom obrazovatel'nomprostranstve: sb. statej [Psychological well-being of a person in modern educational environment: collection of research papers]. Ekaterinburg, Ural. Gos. Ped.Univ. Publ., 2013, 146 p.

3. Козлова, Н. С. Особенности субъективного благополучия личности в зависимости от уровня ее образования / Н. С. Козлова, Е. Н. Комарова // Интеграция образования. - 2015. - Т. 19, №№ 1. - С. 60-64. DOI: 10.15507/Inted.078.019.201501.060


MUSIQA SAN'ATINING BOSHLANG'ICH SINFDA AHAMIYATI

Gulmira Rifovna Tojiboeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

mirak5275@gmail.com



Urinova Durдона Olimjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

durdonaurinova488@gmail.com



Annotasiya: Ushbu maqolada musiqa san'atining boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Musiqa madaniyati bolalarning estetik didini shakllantirish, hissiy-intellektual rivojlanishiga yordam berish va ularning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita ekanligi yoritiladi. Shuningdek, maqolada musiqaning psixologik va pedagogik ta'siri, bolalar muloqoti va ijtimoiylashuv jarayonidagi roli ham tahlil qilinadi. Ilmiy manbalar va zamonaviy ta'lim metodlari asosida boshlang'ich sinflarda musiqani samarali o'qitish usullari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: musiqa madaniyati, kreativlik, kreativ yondashuv, hissiyot, kognitiv qobiliyatlar, musiqa madaniyati, boshlang'ich sinf, estetik tarbiya, ijodiy rivojlanish, pedagogika.

Kirish qismi: Musiqa madaniyati boshlang'ich sinf o'quvchilarning hissiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa madaniyati bolalarda estetik tarbiyani shakllantirish, ijodiy rivojlanish va kreativlikni rag'batlantirish orqali ularda badiiy didni oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogika musiqa madaniyatini shakllantirishda kreativ yondashuvni qo'llashni ta'kidlaydi, chunki bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, musiqaga bo'lgan qiziqishida

ijodiy faolligini oshirishga yordam beradi. Musiqa orqali bolalar nafaqat kuy va ohanglarni anglashni, balki o'z hissiyotlarini ifoda etishni va ijtimoiy muhitga moslashishni ham o'rganadilar. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda musiqiy ta'limni samarali tashkil etish o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Asosiy qism: Musiqa madaniyati jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. U insonning badiiy didini shakllantirish, estetik hissiyotlarini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati o'quvchilarning ruhiy va aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Musiqa bolalarga san'atga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, ularning ichki dunyosini boyitadi, ijtimoiy faolliklarini oshiradi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativlik – bu insonning yangi va original g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinflarda kreativ yondashuv orqali musiqa darslarini tashkil etish bolalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, ularda yangi ohanglar, kuy va ritmlar yaratishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Musiqa madaniyatini shakllantirishda kreativ yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olib, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu esa bolalarning nafaqat musiqaga, balki umuman san'atga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Musiqa inson hissiyotlarini ifodalash va ularni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari musiqa orqali o'z kayfiyatini ifoda etishni, turli hissiyotlarni anglashni va boshqalar bilan hamdard bo'lishni o'rganadilar. Shu bilan birga, musiqa bolalarning kognitiv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqaga muntazam ravishda jalb qilingan bolalar yaxshiroq eslab qolish qobiliyatiga ega bo'ladilar, ularda e'tibor va tafakkur darajasi yuqori bo'ladi.

Musiqa madaniyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishida pedagogikaning turli metod va usullarini talab etadi. Zamonaviy pedagogika o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga

olib, ularni faollikka undashga qaratilgan. Musiqa darslarida interaktiv usullar, texnologiyalardan foydalanish va amaliy mashg'ulotlar orqali bolalarning musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shu bilan birga, musiqiy tarbiyada milliy va jahon musiqasining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiya bolalarning san'atni anglash va undan zavq olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Musiqa bolalarga go'zallikni his qilish, uni tushunish va unga munosib munosabatda bo'lish ko'nikmasini beradi. Shuningdek, ijodiy rivojlanish ham musiqa madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, bolalarga yangi ohanglar yaratish, musiqa asarlarini tushunish va o'z his-tuyg'ularini ifoda etish imkonini beradi.

Musiqa madaniyati har bir insonning badiiy didini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari musiqiy darslar orqali milliy va jahon madaniyati bilan tanishadi, san'atga bo'lgan tushunchalari kengayadi.

Musiqa madaniyati o'quvchilarga atrof-muhitni musiqiy anglash, tovushlarning uyg'unligi va hissiy ta'sirini tushunish imkonini beradi. Shu sababli, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniy merosni anglash vositasi sifatida taqdim etib borish muhimdir.

Xulosa: Musiqamadaniyatiboshlang'ichsinfo'quvchilarining estetik, hissiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Musiqa madaniyati bolalarda go'zallikni anglash, san'atga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va milliy qadriyatlarni qadrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Musiqadan turli mashg'ulotlarda foydalanish orqali o'quvchilar kreativligini o'rganib, mustaqil fikrlash, yangi g'oyalarni yaratish va o'z hissiyotlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kreativ yondashuv yordamida bolalar nafaqat tayyor musiqiy asarlarni o'rganadi, balki yangi ritm va ohanglarni yaratishga ham intiladilar. Musiqaning kognitiv rivojlanishga ijobiy ta'siri esa xotira, tafakkur va diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar

shuni ko'rsatadiki, musiqaga jalb qilingan bolalar matematik va mantiqiy fikrlashda ham yuqori natijalarga erishadilar. Shuningdek, musiqa hissiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchilar musiqa orqali o'z kayfiyatini boshqarish, turli tuyg'ularni anglash va ifodalashni o'rganadilar. Bu esa ularning empatiya va ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyatini samarali shakllantirish o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari bilan birga umumiy rivojlanishini ham belgilaydi. Ularning ijodiy fikrlashi, hissiyotlarini boshqarish qobiliyati va kognitiv salohiyati kuchayib, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Shu sababli, musiqa madaniyati bolalarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

3. Колесникова И. А. Музыкальное воспитание детей: теория и методика. – Москва: Просвещение, 2017.

4. Назарова З. Болаларда иждодий қобилиятларни ривожлантиришда музиканинг аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2019.

5. Виготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2020.

6. Winner E., Goldstein T. Creativity in education: The role of music and arts in child development. – Educational Psychology Review, 2019, Vol. 31(2), pp. 245-260.14. Министерство народного образования

7. Министерство народного образования Республики Узбекистан. Государственный стандарт музыкального образования в начальных классах. – <https://uzedu.uz>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING ADABIY TIL VOSITASI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
CHDPU, “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi”
kafedraasi
dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD)
zuxraumarova1407@gmail.com



Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til tajribalaridan foydalanishning adabiy til vositasi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy tajriba, boshlang‘ich ta‘lim, ta‘limiy foydalanish, metodik foydalanish, ilmiy o‘rganib borish, bilim va tajriba.

KIRISH. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta‘limning sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasi qo‘yilgan[1]. Mazkur vazifa ijrosi jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi. Bunda adabiy til imkoniyatlaridan foydalanish va xorijiy atamalarning o‘zbekcha muqobil variantlarini berish muhim ahamiyatga egadir. Chunki adabiy til har qanday tajribani o‘rganish va undan foydalanishning asosiy vositasi hisoblanadi[2]. Shu ma’noda boshlang‘ich ta‘limda xorijiy tajribalardan foydalanishning adabiy til vositasini idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e‘tibolringizni tortamiz.

ASOSIY QISM. Boshlang‘ich ta‘limda xorijiy tajribalardan foydalanish masalasida muhim e‘tibor ulardan ta‘limiy va metodik foydalanishga qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi [3]. Shu jihatdan quyidagilarga e‘tibor bering:

A) Boshlang‘ich ta‘limda xorijiy tajribalardan ta‘limiy foydalanish. Mamlakatimizda boshlang‘iya ta‘limni rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Chunki xorijiy tajribalar muayyan sinovdan o‘tgan hisoblanadi.

Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda xorijiy tajribalardan ta'limiy foydalanishning quyidagi shakllariga e'tibor bering:

- 1) boshlang'ich ta'lim mazmunini boyitishda foydalanish;
- 2) boshlang'ich ta'limni o'qitishda foydalanish;
- 3) boshlang'ich ta'limda tajribaviy foydalanish.

Boshlang'ich ta'limda xorijiy tajribalardan foydalanishda ta'lim mazmunini boyitish vositasi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida boyitib borilishi maqsadli hisoblanadi. Misol uchun, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya mamlakatlarida boshlag'ich ta'lim o'quv fanlari anivq, tabiiy va gumanitar turkum fanlariga bo'lib o'qitiladi. Mazkur tajriba mamlakatimizda COVID-19 pandemiyasi sharoiti tufayli 2020-2021 o'quv yilidan boshlab qabul qilindi va boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari ana shu fanlar turkumiga bo'linib o'qitila boshlandi. O'quv fanlarini turkumlarga bo'lib o'qitishda chuqurlashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi va har bir fanlar turkumi bo'yicha mutaxassis o'qituvchilar faoliyat olib boradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari tezlashadi.

Boshlang'ich ta'limni o'qitishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan Finlandiya, Gollandiya va Vengriya mamlakatlarida boshlang'iya ta'limda amaliyotdan nazariyaga tamoyiliga amal qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchisi mavzular bo'yicha dastlab amaliy topshiriqlar bilan tanishadi va topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzularning ta'riflarini o'zlashtiradi. Bu borada Finlandiya tajribasi mamlakatimizda 2021-2022 o'quv yilidan boshlab tajriba tariqasida qabul qilina boshlanganligini eslatib o'tish joiz. Shu sababli mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining yangi avlod darsliklari yaratilib, bugungi kunda ular tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasidan tajribaviy foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra,

boshlang'ich sinf o'qituvchisi bir o'quv yili davomida o'zining individual yondashuvi asosida muayyan mamlakatning o'quv tajribasini sinovdan o'tkazadi. Agar bunday tajribaviy o'qitish kutilgan samarani bersa, shu o'qitish tajribasi ommalashtiriladi. Mamlakatimizda 2015-2016 o'quv yilidan boshlab Matematika o'quv fani bo'yicha xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qitish jarayoni yo'lga qo'yildi. Buning natijasida boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning Matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish, iqtidorini rivojlantirish va ularning matematik tafakkurini takomillashtirib borishga erishilmoqda. Misol uchun, keyingi paytlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari ham Matematika bo'yicha xalqaro fan olimpiadalarida faol ishtirok eta boshladi. Natijada boshlang'ich ta'limning boshqa o'quv fanlari bo'yicha ham xorijiy mamlakatlar tajribasidan tajribaviy foydalanish mumkinligi namoyon bo'ldi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan ta'limiy foydalanish o'ziga xos xususitlarga egadir. Bunday tajriba oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

B) Boshlang'ich ta'limda xorijiy tajribalardan metodik foydalanish. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish asoslari bevosita o'qitish metodikasiga bog'liqdir. Shu ma'noda boshlang'ich ta'limda xorijiy tajribalardan metodik foydalanish masalasi bo'yicha quyidagilarga e'tibor berish bizning yondashuvimizga ko'ra, maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) aniq fanlarni o'qitish metodlaridan foydalanish;
- 2) tabiiy fanlarni o'qitish metodlaridan foydalanish;
- 3) gumanitar fanlarni o'qitish metodlaridan foydalanish.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari aniq fanlar o'qitilmoqda. Shu jihatdan mazkur fanlarni o'qitish bo'yicha xorijiy mamlakatlardan Rossiya Federatsiyasi tajribalaridan foydalanish bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu

mamlakatning aniq Fanlarni o‘qitish tajribasi butun dunyoda tan olingan. Unga ko‘ra, boshlang‘ich ta‘limda aniq fanlarning mavzularini nisbatan ko‘p foizini mustaqil topshiriqlar tashkil qiladi. Mustaqil masala va misollarni bajaraish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi mustaqil fikrlash, mustaqil harakat qilish va mustaqil o‘qib-o‘rganish ko‘nikmalari tarkib topadi. Ushbu mamlakatda boshlang‘ich sinf o‘quvchi larining aniq fanlarni o‘qitish jarayonida miqdori 15 nafar qilib belgilangan. Bunday tajribadan ham foydalanish boshlang‘ich ta‘limda o‘qitish metodikasini kuchaytirishga xizmat qilishini ta‘kidlab o‘tish lozim.

Boshlag‘ich ta‘limda tabiiy fanlarga o‘qitish metodikasi bo‘yicha Buyuk Britaniya tajribasi samarali hisoblanadi. Bu tajribaga ko‘ra, tabiiy fanlar faqat laboratoriya mashg‘ulotlari vositasida o‘qitiladi. Shu sababli keyingi besh yil ichida mamlakatimiz umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida laboratoriyalarni ko‘paytirish va ularni zamonaviy jihozlash ishlari amalga oshirilmoqda. Laboratoriya mashg‘ulotlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jamoaviy ishlash ko‘nikmasini o‘rganadi va o‘zlarining yosh xususiyatlariga mos ravishda tajribalar o‘tkazadi. Bu jihatdan mamlakatimizda o‘quvchilarning gerbariy yig‘ish tajribasi o‘ziga xosligini eslatib o‘tish joiz. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlarni o‘qitishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanishda mamlakatimizning milliy tajribasiga uyg‘unlashtirshgan holda foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang‘ich ta‘limda gumanitar fanlarni o‘qitish bo‘yicha xorijiy tajribalardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va boshlang‘ich ta‘lim davlat standartlariga amal qilgan holda faoliyat ko‘rsatishi kerak. Chunki gumanitar fanlar har bir xalqning milliy qadriyatlariga asosida o‘quvchilarni shakllantirishga asoslangan. Shu ma‘noda boshlang‘ich ta‘lim gumanitar fanlarini o‘qitishda Rossiya Federatsiyasining milliy ta‘lim metodikasi, Misr Respublikasining amaliy ta‘lim metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rossiyaning

milliy ta'lim metodikasida ona tili va o'qitish savodxonligini o'quvchilar bilan individual ishlash asosida tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Misrning amaliy ta'lim metodikasida gumanitar fanlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tug'ma va tabiiy iste'dodini maxsus o'qitish orqali rivojlantirishga diqqat qaratiladi. Shu sababli mamlakatimizda gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida Rossiyaning milliy ta'lim va Misrning amaliy ta'lim metodikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim metodikalaridan foydalanishda har bir mamlakatning yutuqlarga ega tajribasiga diqqat qilish tavsiya etiladi.

XULOSA. Boshlang'ich ta'limda xorijiy tajribalardan foydalanishning shakllari ko'p. Bunda ayniqsa ta'limiy va metodik foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi xulosalarga asoslanish muhim ahamiyatga egadir: a) boshlang'ich ta'lim bo'yicha xorijiy tajribalardan foydalanishda atamalarning o'zbekcha muqobiliga asoslanish; b) imkon qadar xorijiy atamalarning asli va ularning o'zbekcha muqobilini birgalikda qo'llash; v) boshlang'ich ta'lim jarayoniga tadbiq etilayotgan xorijiy tajribalarning o'quvchilar tomonidan ona tili vositasida o'zlashtirisha erishish.

Shunday qilib boshlang'ich ta'lim xorijiy tajribalardan foydalanishda adabiy til vositasidan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik ishlanmalar yaratish dolzarb bo'lib turibdi.

Adabiyotlar:

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi. // www.ziyonet.uz.

O‘zbek adabiy tili. Mualliflar jamoasi. –Toshkent, 2015

Umarova Z.A. Boshlang'ich ta'limda konfliktologiya. – Toshkent, 2023

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
CHDPU, “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası
dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD)

Axunova Diyora O‘rinboy qizi,
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi asosiy muammolar, ularning sabablari va yechimlari tahlil qilinadi. Ta‘lim jarayonida uchraydigan metodik, psixologik, moddiy-texnik va ijtimoiy muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi. Maqolada jahon tajribasi va mahalliy amaliyot asosida samarali yechimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogika, metodika, ta‘lim muammolari, ta‘lim tizimi, psixologik tayyorgarlik, o‘qituvchilar malakasi.

Аннотация: В данной статье анализируются основные проблемы в системе дошкольного и начального образования, их причины и возможные решения. Рассматриваются методические, психологические, материально-технические и социальные трудности, возникающие в образовательном процессе, а также предлагаются пути их устранения. На основе международного опыта и местной практики разработаны эффективные решения.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, педагогика, методика, проблемы образования, система образования, психологическая подготовка, квалификация учителей.

Annotation: This article analyzes the main problems in the preschool and primary education systems, their causes, and potential solutions. It explores methodological, psychological, material-

technical, and social challenges encountered in the educational process, offering strategies for overcoming them. The article develops effective solutions based on international experience and local practices.

Keywords: preschool education, primary education, pedagogy, methodology, educational problems, education system, psychological preparedness, teacher qualification.

Kirish

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim har bir bolaning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalarning intellektual, ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlanishi shakllanadi. Biroq, O'zbekistonda bu sohada bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular samarali ta'lim jarayoniga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagi eng dolzarb muammolar va ularni hal qilish usullari yoritiladi.

Tahlil va muhokama

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida bir qator muhim muammolar mavjud bo'lib, ular bolalarning rivojlanishiga va ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolarni chuqur tahlil qilish va ularga samarali yechimlar topish orqali ta'lim sohasidagi tizimli kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Maktabgacha ta'limdagi asosiy muammolar

Maktabgacha ta'lim muassasalarida birinchi navbatda infratuzilmaning yetarli emasligi sezilarli muammo hisoblanadi. Ko'plab bog'cha binolari eskirgan, mebellari va o'yin jihozlari yetarli darajada ta'minlanmagan. Bundan tashqari, sog'liqni saqlash standartlariga javob bermaydigan sharoitlar bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shaharlarda bog'chalarga talab yuqori bo'lsa-da, qishloq joylarda bunday muassasalar soni juda kam yoki ular umuman mavjud emas.

Pedagoglar tayyorlash tizimi ham yetarli darajada rivojlanmagan. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining maoshi past bo'lib, bu kasbga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi. Shu bilan birga,

pedagoglarning malakasi va yangi ta'lim metodlarini qo'llash darajasi pastligi bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Ota-onalarning maktabgacha ta'limga bo'lgan munosabati ham muhim muammolardan biridir. Ba'zi ota-onalar bolalarni bog'chaga yuborishni muhim deb bilmaydilar, natijada bola maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'lmagan holda keladi. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'qish jarayonini qiyinlashtiradi.

Boshlang'ich ta'limdagi dolzarb muammolar

Boshlang'ich ta'limda darsliklar va o'quv materiallarining eskirganligi katta muammo hisoblanadi. Ko'p hollarda darsliklar bolalarning zamonaviy bilim darajasiga mos kelmaydi, bu esa ularning bilim olish qobiliyatini pasaytiradi. Elektron ta'lim resurslarining yetishmasligi ham muammoni kuchaytiradi.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham yetarli emas. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olmaydi, bu esa passiv o'rganishga olib keladi. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malaka oshirish dasturlari samarali tashkil etilmaganligi tufayli o'qituvchilar zamonaviy ta'lim usullarini to'liq o'zlashtira olmaydilar.

Sinflarda o'quvchilarning haddan tashqari ko'pligi individual yondashuvni qiyinlashtiradi. Bir sinfdan 30-40 nafar bola bo'lganda, o'qituvchi har bir bolaning ehtiyojlariga javob bera olmaydi. Bu esa, ayniqsa, sekinroq o'zlashtiradigan bolalar uchun katta muammo bo'lib qoladi.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar

Infratuzilmani yaxshilash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish kerak. Yangi bog'cha binolarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va ularni zamonaviy jihozlarla ta'minlash muhim qadam bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar va nodavlat tashkilotlarning grantlari ham ushbu sohani rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Pedagoglarning malakasini oshirish uchun qo'shimcha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, ularga yangi ta'lim metodlari

bo'yicha amaliy treninglar berilishi kerak. O'qituvchilarning maoshini oshirish va ularga ijtimoiy himoya dasturlarini kengaytirish bu kasbga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Ota-onalarni maktabgacha ta'lim ahamiyati haqida oshirma ishlar olib borish zarur. Mahalliy jamoat markazlarida seminarlar o'tkazish, ota-onalar uchun pedagogik maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish yaxshi natijalar beradi.

Boshlang'ich ta'limda darsliklarni yangilash va elektron ta'lim resurslarini keng joriy etish kerak. Interfaol darsliklar, onlayn platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

O'qituvchilarni malakasini oshirish bo'yicha doimiy treninglar tashkil etish, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Finlandiya, Singapur kabi muvaffaqiyatli ta'lim tizimlarining tajribalarini o'rganish foydali bo'ladi.

Sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish individual yondashuvni amalga oshirish uchun zarur. Buning uchun qo'shimcha sinf xonalarini qurish va yangi pedagog kadrlarni tayyorlash kerak. Differensiallashgan ta'lim metodlarini qo'llash orqali har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Xulosa

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagi muammolar ko'p jihatli bo'lib, ularni bartaraf etish uchun ijtimoiy, iqtisodiy va pedagogik chora-tadbirlar kompleksini qo'llash zarur. Ta'lim tizimini yaxshilash uchun davlat, xususiy tashkilotlar va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Faqatgina barcha ishtirokchilar samarali ishlashi bilan yosh avlod uchun sifatli ta'limni ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. **Karimova, N. (2020).** *Maktabgacha ta'lim: muammolar va istiqbollor.* Toshkent: O'qituvchi.

2. **To'rayev, B. (2019).** *Boshlang'ich ta'lim metodikasi.* Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. **UNICEF (2021).** *Early Childhood Education in Uzbekistan: Challenges and Solutions.*
4. **Abdullayeva, S. (2018).** *Pedagogik psixologiya.* Toshkent: Akademnashr.
5. **PISA (2022).** *Global Education Rankings and Recommendations.* OECD Publishing.
6. **Yusupov, T. (2021).** *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari.* Toshkent: Innovatsiya.
7. **G'ulomova, M. (2017).** *Bolalar psixologiyasi.* Toshkent: Ma'naviyat.
8. **World Bank (2020).** *Education Reform in Central Asia.*
9. **Hasanov, A. (2019).** *Ta'lim siyosati va rivojlanish.* Toshkent: Sharq.
10. **Jabborova, O. (2022).** *Maktabgacha ta'limda yangi yondashuvlar.* Buxoro: BuxDU.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

Umarova Zuxra Abduraxmanovna
CHDPU, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrası
dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD)



Ergasheva Ruxsora Alisher qizi,
CHDPU talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi va tilshunoslikning nazariyalari haqida ma’lumot berilgan. Maqoladan talabalar, o‘qituvchilar va ota-onalar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tabiat, fan, bilim, jamiyat, tilshunoslik, til, nutq, fikr, naturalizm, psixologizm, fonetik, leksik.

Аннотация: В данной статье представлена информация об узбекском языкознании и теориях языкознания. Статья может быть использована учащимися, учителями и родителями.

Ключевые слова: Природа, наука, познание, общество, лингвистика, язык, речь, мышление, натурализм, психологизм, фонетический, лексический.

Abstract: This article provides information about Uzbek linguistics and theories of linguistics. The article can be used by students, teachers and parents.

Key words: Nature, science, knowledge, society, linguistics, language, speech, thought, naturalism, psychologism, phonetic, lexical.

Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonumiyatlari haqidagi bilimlar tizimining tarmog‘i, soha va yo‘nalishlari fan deb

yuritiladi. Fanlar tizimi o‘zimg o‘rganish obyekt, predmeti, maqsad va mohiyatiga ko‘ra quyidagi yirik guruhlariga bolinadi:

1) tabiiy fanlar;2) aniq fanlar;3) ijtimoiy-gumariitar fanlar;4) texnika fanlari

Fanlar tabiat va jamiyatga bogliq ma‘lum masalalarni ilmiy yoki amaliy jihatdan o‘rganishi nuqtayi nazaridan o‘zaro aloqador bo‘lib, hamkorlikda ish olib boradi, bu ikkinchisining xulosalariga asoslanadi. Shu bois fanlar majmui sistema hisoblanadi. Sistemaning ichki botinuvchanlik xususiyatiga ko‘ra bar qanday fan ma‘lum yo‘nalishli tarmoq va sohalarga bo‘linadi. Bunday xususiyat tilshunoslik faniga ham xos.

Tilshunoslik - tilning ijtimoiy tabiati. vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi fan. Demak, tilshunoslik inson tilini o‘rganadigan mustaqil fandır. Tilshunoslik termini bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarda lingvistika (< fran linguistique < lot. lingua - til) termini ham qoilamladi.

Til va shatranj qurilmalari o‘zaro muqoyasa etiladigan bo‘lsa, avvalo, ulaming birliklari (tashkil etuvchilar) orasida umumiy o‘xshashliklar mavjudligmi ta’kidlash lozim. Har ikkala qurilma ham birliklar sisteniasi va biriiklarining vazifalari bilan ish ko‘radi. Tilshunoslikda shu kunga qadar til va nutq hodisalanmng farqlanishini mashhur nemis olimi Vilgelm Gumboldt boshlagan va bu Ferdinand de Sossyur ta’lnnotining asosim tashkil qiladi, deb hisoblanadi. Vaholanki, Ahsher Navoiy ulardan ancha oldin til va nutq hodisalarim farqlagan.

Til - nutq tuzib, fikr, his-tuyg‘u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli bo‘lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa. Bundan ko‘rmadiki, til kishilik jamiyatidagi ikkilamchi yozuv va belgilar, signallar, imo-ishora, mimika kabi yordamchi aloqa vositalariga nisbatan eng muhim aloqa vositasi bolib, jamiyat tomomdan yaratilgan hamda unga xizmat qiladi. Shuning uchun ham uni o‘rganadigan

tilshunoslik falsafa, psixologiya, tarix kabi ijtimoiy fan ier qatoriga kiradi. Tilshunoslik fani qadimiy tarixga ega Tilshunoslik fanining predmeti, tilning tabiati va mohiyatini har xil tushunish natijasida naturalizm, psixologizm, logisizm, sotsiologizm, strukturalizm kabi turli ilmiy maktablar hamda oqimlar vujudga kelgan.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani tilshunoslikning asosiy masalalari haqida ma’lumot beradi. “Tilshunoslik nazariyasi”ning birinchi qismi tilning shakllanishi, rivojlanishi, dunyo tillari tasnifi haqida boshlang‘ich ma’lumot bersa, ikkinchi qismi hisoblangan “Umumiy tilshunoslik” kursi jahon tilshunosligidagi nazariyalar, ta’limotlar, g‘oyalarni tahlil qilish, lingvistik metodlar mohiyatini yoritishga yo’naltirilgan. “Tilshunoslik nazariyasi” fani tilning ijtimoiy-iqtisodiy, biologik, fiziologik va sotsial qiymatini yoritadi, dunyo tilshunosligi taraqqiyoti, ta’limotlar tarixi, nazariy qarashlar bosqichlari, til sathlari, borliqning inson tafakkuri va lisonida aks etish darajasi, xilma-xilligi, olamni lisoniy bilish usullari, kommunikatsiya vositalari, tilshunoslik bo‘limlarining yuzaga kelish jarayonlari haqida ma’lumot beradi. Shu bilan bir qatorda soha doirasida shakllanayotgan zamonaviy yo‘nalishlar, ularning obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari, ijtimoiy, ma’rifiy ahamiyatiga oid masalalarni ham tahlil qiladi. “Tilshunoslik nazariyasi” – nisbatan murakkab, ilmiy, falsafiy fan. Tilshunoslik nazariyasi til va jamiyat, til va tarix, til va tafakkur, til va ma’naviyat, til va madaniy taraqqiyot, til sathlari, til birliklari, til va nutq, yozuvning shakllanishi, taraqqiyoti, turlari, tilning semiotik tabiati, tizim va struktura sifatidagi mohiyati, tilda substansiya va shakl, para-digmatika va sintagmatika, lingvistik struktura turlari haqida bahs yuritadi.

Xullas, tilshunoslik til haqidagi mustaqil fan bo‘lib, uning obykti tildir. Shuningdek, u tilshunoslikdan tashqari yana bir necha fanlar tomonidan o‘rganilishni talab qiladigan murakkab sohadir. Tilning mohiyatini o‘rganish va tilshunoslik fanining predmetini aniqlash o‘z navbatida tilni o‘rganadigan boshqa fanlarning yutuqlarini nazarda tutishni va tilshunoslikning asosiy masalalarini

hal qilishda ularni inobatga olishni taqozo etadi. Tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik aloqada bo‘lmasin, uning o‘z tadqiqot obyekti va tadqiqot chegarasi mavjud hamda mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qat’iy o‘ringa ega. Demak, aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, til tabiiy biologik hodisa emas; ikkinchidan, tilning mavjud bo‘lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydi; uchinchidan, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog‘liq emas; to‘rtinchidan, faqat jamiyat bo‘lib uyushgan insonlargina aloqa vositasi bo‘lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo‘lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog‘liq bo‘lmagan murakkab ijtimoiy hodisadir. Jamiyatdagi turli guruhga mansub shaxslar bir-biri bilan aloqada bo‘ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyat sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmanova Z.T. TILSHUNOSLIKKA KIRISH Toshkent -2007
2. Zulxumor Xolmanova TILSHUNOSLIK NAZARIYASI Darslik “Nodirabegim” nashriyoti Toshkent – 2020
3. NOSIRJON IJLUQOV TILSHUNOSLIK NAZARIYASI O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan universitetlarning filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.
4. www.ziyo.net

ИСТОРИЯ ФЕМИНИТИВОВ: ПРОИСХОЖДЕНИЕ, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ПРОШЛОМ И РАЗВИТИЕ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКЕ.

Дониёрова Лайло Худайбердиевна, д.ф.п.н(PhD)
преподаватель кафедры «Теория и практика начального
образования» факультета « Начальное образование»
Чирчикского государственного педагогического
университета

laylodoniyorova@gmail.com

Ли Ксения Михайловна,
студентка 4 курса группы БОТ 21/6 факультета
«Начальное образование»
Чирчикского государственного педагогического
университета

Аннотация

Статья посвящена анализу истории феминитивов в русском языке, их происхождению, эволюции и современному использованию. В заключение подчеркивается роль феминитивов как языкового явления, отражающего изменения в социальной и культурной роли женщин в обществе.

Ключевые слова: феминитивы, история феминитивов, гендер, русский язык, социальные стереотипы, женские профессии, равенство, лексика, языковая эволюция.

Abstract

The article is devoted to the analysis of the history of feminitives in the Russian language, their origin, evolution and modern use. In conclusion, the role of feminitives as a linguistic phenomenon reflecting changes in the social and cultural role of women in society is emphasized.

Keywords: feminitives, history of feminitives, gender, Russian language, social stereotypes, women's professions,

equality, vocabulary, linguistic evolution.

Введение

Феминитивы — это словообразовательные формы, используемые для обозначения женского рода у существительных, связанных с профессиями, должностями, видами деятельности и другими понятиями, традиционно ассоциирующимися с мужским родом.¹⁹ Это явление в языке имеет долгую и многогранную историю, на протяжении которой менялись не только формы этих слов, но и их восприятие в обществе. В современном русском языке феминитивы становятся важным инструментом обсуждения гендерного равенства, и вопрос их использования вызывает все большее внимание как среди лингвистов, так и в массовом сознании.

Гендерная политика президента Узбекистана Шавката Миромоновича Мирзиёева.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев 22 февраля 2021 года, затрагивая гендерный вопрос, на главном ежегодном политическом событии – 46-й сессии Совета по правам человека ООН – среди обозначенных приоритетов демократических преобразований в Узбекистане отметил: «В вопросах гендерной политики мы намерены кардинально повысить роль женщин в общественной, политической и деловой жизни страны».

Происхождение феминитивов

В русском языке феминитивы появились достаточно давно. В древнерусский период, как и в других славянских языках, существовала четкая гендерная дифференциация, и многие существительные в женском роде, обозначающие профессию или социальную роль, образовывались с помощью стандартных суффиксов, таких как -ица, -ка, -иха.²⁰

Например, в старославянском языке встречались формы

¹⁹ <https://gendermadad.uz/ru/news/99>

²⁰ Андреев, М. А. (2012). «Феминитивы в русском языке: история, современность, проблемы». — М.: Издательство РГГУ.

«княгиня» (жена князя), «певица» (женщина, поющая), «работница» (женщина, занимающаяся каким-то трудом). Такого рода суффиксы были широко распространены и воспринимались как естественные и закономерные.

Использование феминитивов в прошлом

На протяжении многих веков в русском языке феминитивы использовались не только для обозначения женщин, занимающихся той или иной деятельностью, но и для выражения социальных и культурных стереотипов. В средние века женщины были ограничены в возможностях трудовой и социальной активности, и в основном их роль сводилась к ведению домашнего хозяйства и воспитанию детей.

Таким образом, феминитивы в русском языке того времени часто относились к профессиям, связанным с женщинами: швея, певица, кухарка. Эти слова использовались для обозначения типов деятельности, которые считались «женскими», в то время как для мужских профессий существовали слова в мужском роде, и такие формы не подвергались изменениям.

Светлана Друговейко-Должайская преподаватель СПбГУ и по совместительству научный руководитель портала *gramma.ru* пишет о феминитивах следующее: «Феминитивы меня они скорее забавляют. Широко известно, что Анна Ахматова и Марина Цветаева яростно возражали против именованя «поэтесса», им казалось неправильным подчеркивать половую принадлежность творца. Оппозиции (в том числе и языковые) бывают разных типов.²¹ И в данном случае это привативная оппозиция — в ней одно слово маркировано, окрашено, а другое — нет. Слова «автор», «поэт» не окрашены половой принадлежностью, а «авторка» и «поэтесса» — окрашены.

Развитие феминитивов в современном языке

В XIX и XX веках, с ростом социальной активности женщин, феминитивы начали развиваться в сторону равенства

²¹ Шмидт, Л. И. (2002). «Русский язык. Лексикология и лексикография». — М.: Наука.

и гендерной нейтральности. Женщины начали занимать более широкий спектр профессий и должностей, которые ранее были исключительной прерогативой мужчин. Вместе с этим возникла необходимость в создании соответствующих феминитивов для новых профессий.

Во времена Советского Союза, когда женщины активно вовлекались в трудовую деятельность в различных сферах, использование феминитивов стало более массовым, но вместе с тем они не всегда воспринимались с энтузиазмом. Например, были популярны формы вроде «комсомолка» или «партработница», но в официальных текстах продолжали употребляться нейтральные или мужские формы, такие как «директор» или «инженер».

В последние десятилетия, особенно после 1990-х годов, интерес к феминитивам в русском языке значительно возрос.²² Женщины стали требовать большего представительства в языке, и вопросы гендерного равенства, в том числе через язык, стали актуальными. Активисты и лингвисты начали бороться за создание и принятие новых феминитивов, таких как «президентка», «журналистка», «архитекторка», «докторка», что вызвало в обществе множество дискуссий.

Современное использование феминитивов

Сегодня феминитивы активно входят в повседневное употребление в русском языке, но процесс их принятия далеко не завершен. В некоторых случаях феминитивы используются органично и воспринимаются как естественная часть языка, в то время как в других — вызывают противоречия. Например, такие формы, как «учительница», «певица», «художница», «врачиха», активно используются в разговорной речи, но в профессиональной среде может возникать сопротивление. В ряде случаев традиционные формы (например, «врач») остаются доминирующими.²³

²² Гендер в языке и культуре - [www.genderlinguistics.ru](<http://www.genderlinguistics.ru>)

²³ Дониёрова Л. Х. (2021). Феминитивы-неологизмы в современном русском языке.

Одним из аспектов, который вызывает споры, является вопрос, насколько удобными и естественными являются новые формы, такие как «менеджерка» или «предпринимательница».²⁴ Некоторые лингвисты и носители языка считают такие слова ненужными и искусственными, другие же утверждают, что они необходимы для достижения гендерного равенства и уважения к женщинам в профессиях.

Заключение

Феминитивы — это не только языковое явление, но и зеркало социальной реальности. С их помощью можно проследить изменения в социальной роли женщины, ее месте в обществе и трудовой сфере.²⁵ Хотя путь феминитивов в русском языке был долгим и тернистым, их использование продолжает развиваться, и сегодня они становятся важной частью дискуссий о языке и гендере.²⁶ Несмотря на некоторые противоречия, очевидно, что феминитивы в будущем будут продолжать расширяться и изменяться, отражая в языке прогресс общества в вопросах равенства и уважения к женщинам.

Использованная литература

1. <https://gendermadad.uz/ru/news/99>
2. Лесникова, Т. В. (2005). «Русский язык в контексте гендерных исследований». — СПб.: Алетей.
3. Андреев, М. А. (2012). «Феминитивы в русском языке: история, современность, проблемы». — М.: Издательство РГГУ.
4. Шмидт, Л. И. (2002). «Русский язык. Лексикология и лексикография». — М.: Наука.

Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1471-1478 <https://cyberleninka.ru/article/n/feminitivy-neologizmy-v-sovremennom-russkom-yazyke>

²⁴ Нечленимые предложения в современном русском языке ЛХ Дониёрова - Academic research in educational sciences, 2022

²⁵ Методы и цели преподавания пунктуации русского языка учащимся средних классов ЛХ Дониёрова - Экономика и социум, 2021

²⁶ www.femdict.ru — Онлайн-словарь, содержащий множество примеров феминитивов в русском языке.

5. Гендер в языке и культуре [www.genderlinguistics.ru]
(<http://www.genderlinguistics.ru>)

6. Дониёрова Л. Х. (2021). Феминитивы-неологизмы в современном русском языке. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(11), 1471-1478 <https://cyberleninka.ru/article/n/feminitivy-neologizmy-v-sovremennom-russkom-yazyke>

7. Нечленимые предложения в современном русском языке

ЛХ Дониёрова - *Academic research in educational sciences*, 2022

8. Методы и цели преподавания пунктуации русского языка учащимся средних классов Л.Х Дониёрова - *Экономика и социум*, 2021

9. [www.femdict.ru](<http://www.femdict.ru>) — Онлайн-словарь, содержащий множество примеров феминитивов в русском языке.

ФЕМИНИТИВЫ В РАЗНЫХ ЯЗЫКАХ: СРАВНЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ.

Дониёрова Лайло Худайбердиевна, д.ф.п.н(PhD)

преподаватель кафедры «Теория и практика начального образования»

Факультета «Начальное образование»

Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация: Статья посвящена анализу феминитивов в различных языках мира, их особенностям, структуре и культурным контекстам. Рассматриваются примеры из английского, французского, испанского и русского языков, а также подчеркивается влияние феминитивов на гендерные стереотипы и социальные роли женщин в разных культурах.

Ключевые слова: феминитивы, гендер, языковая политика, социальные стереотипы, лексика, культурные различия.

Feminatives in Different Languages: Comparison and Features

Doniyorova Laylo Khudayberdievna,

PhD Lecturer at the Department of "Theory and Practice of Primary Education" Faculty of "Primary Education" Chirchik State Pedagogical University

Abstract

The article is dedicated to the analysis of feminatives in various languages around the world, their features, structure, and cultural contexts.

Examples from English, French, Spanish, and Russian are examined, and the influence of feminatives on gender stereotypes and social roles of women in different cultures is emphasized.

Keywords: feminatives, gender, language policy, social stereotypes, vocabulary, cultural differences.

Введение

Феминитивы представляют собой важный аспект языковой практики, отражающий изменения в восприятии женской роли в обществе. Они служат не только для обозначения женского рода у существительных, связанных с профессиями и должностями, но и как индикатор социальных изменений. В данной статье мы рассмотрим феминитивы в нескольких языках — английском, французском, испанском и русском — с акцентом на их структуру и использование.

Феминитивы в английском языке

В английском языке традиционно использовались нейтральные формы для обозначения профессий (например, "doctor", "teacher"). Однако с ростом феминистского движения в 20-м веке возникла необходимость создания феминитивов. В результате появились такие формы как "actress" (актриса), "waitress" (официантка) и "authoress" (авторесса). Тем не менее, многие женщины предпочитают использовать нейтральные термины ("actor", "waiter"), чтобы избежать гендерной маркировки. В последние годы наблюдается тенденция к возвращению к нейтральным формам как к более инклюзивным.

Феминитивы во французском языке

Во французском языке феминитивы образуются путем добавления суффиксов к мужским формам. Например, "acteur" (актер) становится "actrice" (актриса), а "directeur" (директор) — "directrice" (директорша). Однако использование феминитивов во французском языке вызывает споры. Некоторые лингвисты утверждают, что такие формы способствуют укреплению стереотипов о ролях мужчин и женщин. В то же время активисты за гендерное равенство выступают за более широкое использование феминитивов как способа признания женских достижений.

Феминитивы в испанском языке

Испанский язык также имеет четкую гендерную маркировку. Феминитивы образуются путем добавления

окончаний "-а" к мужским формам: "profesor" (профессор) становится "profesora" (профессорша). Однако в последние годы наблюдается появление альтернативных форм для обозначения гендера без явной маркировки: например, использование "@", "x" или "e" вместо традиционных окончаний ("tod@s", "todxs", "todes"). Эти новшества отражают стремление к инклюзивности и равенству.

Феминитивы в русском языке

Русский язык имеет богатую историю использования феминитивов. Традиционно они образовывались с помощью суффиксов "-ка", "-ица", "-ша". Например, "учитель" — "учительница", "поэт" — "поэтесса". Однако современное общество сталкивается с противоречиями по поводу использования новых форм: такие слова как "президентка", "архитекторка" вызывают споры о целесообразности их употребления. Тем не менее активисты продолжают продвигать идеи гендерного равенства через язык.

Сравнительный анализ

Сравнивая феминитивы в разных языках, можно выделить несколько ключевых аспектов:

Структура образования: В большинстве языков феминитивы образуются путем добавления суффиксов или окончаний к мужским формам. Однако некоторые языки (например, испанский) начинают использовать альтернативные формы для достижения инклюзивности.

Социальное восприятие: В разных культурах отношение к феминитивам варьируется от полного принятия до активного сопротивления. Это связано с историческими контекстами и уровнем развития гендерного равенства.

Языковая политика: В некоторых странах существуют официальные рекомендации по использованию феминитивов (например, во Франции), тогда как в других это остается на уровне общественного обсуждения.

Социальное восприятие феминитивов также зависит от

образовательного уровня и возраста населения, что может влиять на степень их принятия. В некоторых культурах феминитивы воспринимаются как способ повышения видимости женщин в профессиональной сфере, в то время как в других они могут вызывать негативные ассоциации и восприниматься как излишняя политкорректность. Языковая политика в отношении феминитивов может служить индикатором общего уровня гендерного равенства в обществе.

Заключение

Феминитивы являются важным элементом языка и культуры, отражая изменения в социальной роли женщин и гендерных стереотипах. Несмотря на различия между языками, общая тенденция заключается в стремлении к инклюзивности и равенству через язык. Будущее использования феминитивов будет зависеть от дальнейших изменений в обществе и восприятии женской роли на всех уровнях.

Эта статья предоставляет обзор феминитивов в различных языках мира с акцентом на их особенности и культурный контекст использования.

Использованная литература

- 1.Лесникова Т.В., «Гендерная лексикология: проблемы и перспективы», СПб.: Алетей.
- 2.Андреев М.А., «Феминизм и язык: международный опыт», М.: Издательство РГГУ.
- 3.Гендерная лингвистика: <https://old.bigenc.ru/linguistics/text/2349842>
- 4.Котляр А., «Язык как инструмент борьбы за права женщин», Журнал социолингвистики: <https://sociolinguistics.ru/index.php/sociolinguistics>
- 5.Дониёрова Л.Х., «Феминизм и язык: новые горизонты», Academic Research in Educational Sciences: <https://cyberleninka.ru/article/n/feminitivy-neologizmy-v-sovremennom-russkom-yazyke/viewer>

«ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ФЕМИНИЗМ: РОЛЬ ФЕМИНИТИВОВ В БОРЬБЕ ЗА РАВНОПРАВИЕ»

Дониёрова Лайло Худайбердиевна, д.ф.п.н. (PhD)

Преподаватель кафедры «Теория и практика начального
образования»

факультета «Начальное образование»

Чирчикского государственного педагогического
университета

Рустамова Холида Асадовна,

студентка 4 курса БОТ 21/6

Факультета «Начальное образование»

Чирчикского государственного педагогического
университета

Аннотация

Tadqiqot modeli — talabalar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig'indisidan iboratdir. Tadqiqot modelining maqsadi dars jarayonida talabalarda savol qo'yish va ularga javob izlashida qiziqishini uyg'otishga qaratilgandir. Ushbu model bo'yicha o'qitish talabalarni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bularga muammoli vaziyat,

loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi.

Amaliyotdagi oddiy qoidalar shu haqda guvohlik beradiki, yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirib, talabalarning bilimlarini mustahkamlash kerak. Qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan, faqat ma'ruza o'qiladigan vaqt 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o'rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 30 daqiqadan keyin esa, o'rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Bu hamma takliflar talabaning diqqatini uzoqroq vaqtacha saqlab turishga xizmat qiladi.

Idrok qilish paytida qancha ko'p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bilimlar faqat «ma'ruza»lar orqali (passiv tinglash yo'lida) berilgan bo'lsa, unda 3 kundan so'ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma'ruzalar o'qish (tinglash), namoyish va ko'rgazmali qilish (ko'rish, ushlab ko'rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to'g'risida bahslashilsa, unda 3 kundan so'ng 75%ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi. O'kuv vaziyatini tayyorlashda noan'anaviy metodlar va audio-vizual vositalarni samarali ishlatish lozim. Bunda birdaniga ko'pgina sensorik kanallar jalb etiladi.

Quyida tavsiya etilayotgan sxemada talabalarning eslab qolish ko'rsatkichlariga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi aks ettirilgan: ma'ruza - eshitganimizning 5%, o'qish - o'qiganimizning 10%, videousul, namoyish - ko'rganimizning 20%, tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30%, bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%, mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%, ishbop o'yin, kichik

guruhlarda ishlash, loyihalash – mustaqil o‘qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%, yo‘naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o‘qitish — mustaqil o‘rganganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning 90%.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dars jarayonida an’anaviy metodlar ko‘llanilganda, talabalarning axborotni eslab kolish ko‘rsatkichining eng yukori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Noan’anaviy metodlar qo‘llanilganda esa, talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish darajasi ko‘tarila boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati


1. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.–279 b.

2. 3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun). – T.: TDPU, 2013 y. 15,25 b.t.

3. Muslimov N., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”. 2013 y. 8 b.t. 4. Pedagogika nazariyasi va tarixi // M.X. To‘xtaxo‘jaeva tahriri ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2008. – 208 b.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISH - TALABALARDA UMUMKASBIY BILIM VA KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILI


**Jismoniy madaniyat fakulteti
Sayidova Muxtaram Xamidullayevna-
katta o‘qituvchi**



**Toirjonova Sevinch Odiljon qizi,
Jismoniy madaniyat 2-bosqich talabasi**



**Taniyeva Madina Ural qizi,
Jismoniy madaniyat 1-bosqich talabasi**



Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘qitish talabalarida umumkasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish omillari izohlangan. Talabalarga ta‘lim berishda ta‘lim sifatini yuqori samaradorligini va ijobiy sifat ko‘rsatkichlarini oshirishning metodikasi va tarkibiy qismlari asoslab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, axborot resurslari, innovatsion texnologiyalar, innovatsion jarayon, muammoli ta‘lim, interfaol ta‘lim.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish, kerakli bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, usullarini yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish masalalari bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Shu boisdan, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha ta'lim maqsadlari talaba yoshlarni faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirib olishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir talabaning faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish talaba uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda talabalar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. Talabalar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashadi. O'quv topshiriqlari alohida bir talabaga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. Mikroguruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda o'z hissasini qo'shishga harakat qiladi. Bu holat talabalarda jamoa tuyg'usini shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi zamonaviy ta'lim tizimi so'nggi yillarda shu sohada olib borilgan ulkan o'zgarishlarning samarasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim olish bugungi kundagi jamiyat ijtimoiy hayotining bir qismi bo'libgina qolmay, balki uning rivojlanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki kelajak avlodni tarbiyalashda ta'limning o'rni hal qiluvchi o'rinlardan biri ekanligi barchaga ma'lum.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimiga ko'plab ilg'or innovatsion texnologiyalar kirib keldi. Eng avvalo talabalar passiv tinglovchi va ko'chirib oluvchi shaxslardan dars jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxslarga aylantirildi. Bunda ularning o'z aqliy layoqatlari darajasini namoyon qilish imkoniyati ochib berildi. Avvalgi vaqtlarda ta'limning vazifasi kishilarda bilimlarni, ko'nikmalarni, informatsion va ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish hamda shaxslarning jamiyatdagi sharoitlarga moslashishidan iborat bo'lgan "hayotga tayyorlash"dan iborat bo'lgan. Hozirgi paytda esa ta'lim shaxslarda jamiyat va shaxsiy manfaatlar orasidagi muvozanatni vujudga keltiruvchi ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqishga, shaxslarning o'zlarini takomillashtirib borishi va hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatda samarali mehnat qilish yo'llarini o'rgatishga yo'naltirilmogda. Ko'pchilik ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga yangi zamonaviy elementlarni joriy qilishni boshladi, biroq bunday o'zgarishlar tezda rivojlanishga bo'lgan talab va pedagoglarning bu talabni qondira olmasliklari natijasida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun "yangi", "yangilik", "innovatsiya", "innovatsion jarayon" kabi birinchi ko'rishda sodda, lekin aslida murakkab bo'lgan tushunchalarni o'zlashtirish zarur.

Avvallari innovatsion masalalar faqat iqtisodiy tomonlama ko'rib chiqilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan innovatsion loyihalarning sifatini baholash lozimligi ma'lum bo'ldi. Innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muammolarni hal qilish ta'lim sohasidagi mavjud muammolarni tahlil qilishga bog'liq.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o'qituvchini hamkorga aylantiradi. Darsni qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir. Quyida uning asosiy qonuniyatlari ko'rsatilgan: yangilikni yaratish, ta'limiy faoliyatni tahlil etish va o'zgarishlarga ehtayoji, yangilikni loyihalash, yangilikni tajribada sinab ko'rish, baholash.

“Innovatsiya” tushunchasi lotin tilidan tarjima qilinganda “yangilanish, yangilik yoki o'zgarish” degan ma'nolarni beradi. Bu tushuncha ilk bor XIX asrdagi tadqiqotlarda qo'llanilgan va bir madaniyatning ayrim elementlarini boshqa madaniyatga tadbiiq qilishni anglangan. XX asr boshlarida yangi ta'lim sohasi — innovatika, ya'ni joriy qilingan yangiliklar haqidagi fan yuzaga keldi. Uning vazifasiga sanoat ishlab chiqarish jarayoniga tadbiiq qilingan texnik yangiliklar qonuniyatlarini o'rganish kiritilgan. Pedagogik innovatsion jarayonlarni o'rganish o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan.

Inovatsiyalarni loyihalashda asosiy qonuniyatni ko'rish mumkin: innovatsiyalarning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, inovatsion jarayonni ilmiy asoslangan holda boshqarish uchun ham shunchalik katta talablar qo'yiladi.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishda o'quv fanlari bo'yicha yangi axborot texnologiyalarining tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir talaba va o'qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Hozirda sifatli ta'lim berish uchun an'anaviy ikkita tomon — talaba-o'qituvchiga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat uchinchi tomon faoliyatini tashkil qilishi zarur.

Bu yo'nalish axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilish yo'nalishi deb nomlanadi. Shu axborotlarni talabalar tushuna oladigan mantiqiy shakllarda ifodalash talaba bilan o'qituvchining verbal muloqotini tashkil qiladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari

shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini- o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Unga o‘qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg‘araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta‘minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo‘ladi.

Xulosaqilibaytganda, innovatsion ta‘lim bo‘lajak mutaxassisni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo‘lib, u oldingi olgan bilimlari asosida ta‘limni takomillashtirishga samarali yangicha yondashuv qilishdan iboratdir. Innovatsion ta‘limning asosiy maqsadi ta‘lim berishda yuqori samaradorlikni va ijobiy sifat ko‘rsatkichlarini egallashning metodikasini yaratish. Bunda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari va hokazolar asosiy manbalar bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent, 2006.

2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent, 2005.

3. Pardaev M.Q. Iqtisodiyotga oid fanlarni yangi pedagogik texnologiya metodlarini qo‘llab o‘qitish. -Samarqand, 2007.

4. Sadriddinzoda Sh.J., Eshmurodov M.Sh. Pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish kursi bo‘yicha ma‘ruzalar to‘plami. -Samarqand, 2007.

BO‘LG‘USI TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” kafedrasida katta
o‘qituvchisi



Ibadullaeva Shahzoda Umarbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi



Bagibekova Nilufar Odilbek qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi



Annotatsiya: maqolada texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlashda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish texnologiyasi o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsion texnologiyalar, tikuvchilik, oshpazlik, yog‘och, metall bilan ishlash, xalq hunarmandchiligi, an’anaviy, masofaviy ta’lim, chok, mustaqil bilim olish, kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilimlar, ko‘rgazmali materiallar, namunalar, raqamli texnologiyalar

Zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Fan-texnika va axborot-texnologiyalari kun sayin rivojlanib hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Ta’lim tizimini va xususan oliy ta’lim

tizimini rivojlantirish hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Ushbu maqsadda yurtimizda juda ko'p ishlar olib borilmoqda.

Bo'lg'usi pedagoglarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) dan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lishga, zamon bilan xamqadam bo'lishga imkon beradi. Albatta ta'limda AKT laridan foydalanish uchun ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter bilan jihozlanishi va internet tarmog'iga ulangan bo'lishi kerak.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu mamlakatlarda asosan o'quvchi va talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish va bunda AKT laridan foydalanishga katta e'tibor berilganini ko'rishimiz mumkin. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalari asosan kasb-hunar egallashga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar. Bular tikuvchilik, oshpazlik, yog'och va metall bilan ishlash, xalq hunarmandchiligidir. Ushbu bilimlarni egallashda va rivojlantirishda talabalar axborot – kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, global internet tarmog'i orqali o'zlariga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni olish va ularni hayotda qo'llay olish imkoniga ega bo'ladilar. Bunda AKT cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi..

Amerikalik pedagog Edgar Deylning tadqiqotlarida bilimlarni o'zlashtirish foizlari konus usulida ko'rsatilgan. (1-rasm) Edgar Deylning fikricha o'qish va eshitish orqali ma'lumotlarni faqatgina 10% o'zlashtiriladi. Texnologik ta'limda o'qish va eshitish orqali mutaxassislik fanlaridan darslar juda kam o'tiladi. Chunki mutaxassislik fanlarida asosan buyumlarni tayyorlash texnologiyasi o'qitiladi. Bunda asosiy vazifa buyumni bajarishga qaratilgan bo'ladi. Rasmlar orqali ma'lumotlar 20% ga o'zlashtiriladi. Darslar davomida ko'rgazmali materiallardan keng foydalanish mumkin. Tikiladigan chok ko'rinishi yoki tayyorlanadigan salat rasm ko'rinishida talabaga taqdim etiladi. Video orqali 30% ma'lumotlar o'zlashtiriladi. Texnologik ta'limda videoroliklar ko'rsatish undan ham ko'proq samara beradi. Chunki buyumni bajarish tartibini

vizualizatsiya orqali ko‘rish mavzuni o‘zlashtirishga yanada ko‘proq yordam beradi. Hozirgi kunda maktabdagi “Texnologiya” fani darsliklarida maxsus chiplar orqali buyumni yasash ketma-ketligini vizual tarzda ko‘rish imkoni yaratilmoqda. Bu usul ta’limda va ayniqsa texnologik ta’lim yo‘nalishi talabalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini ko‘rsatmoqda.



1-rasm Edgar Deylning bilimlarni o‘zlashtirish foizlari piramidasi

Texnologik ta’lim yo‘nalishi talabarlari amaliy mashg‘ulotlarni o‘tayotganda buyum namunalarni ko‘radilar, o‘qituvchi bajarayotgan jarayonni kuzatadilar va o‘rganadilar. Bu mavzuni 50% o‘zlashtirishga olib keladi. Bajarilayotgan vazifani muhokama qilish orqali talabalar mavzuni yanada chuqurroq bilimga ega bo‘ladilar va bu albatta ularning xotirasida yaxshi muxrlanib qoladi. Mavzuni 75% xotirada saqlanishi bu juda katta samaradorlikka erishish degani.

Hozirda o‘qitishning an‘aviy, ya’ni o‘qituvchi tomonidan barcha bilimlarni berish usullaridan voz kechib, talabani ko‘proq mustaqil bilim olishi va ko‘proq izlanishga undash metodini qo‘llash o‘z ijobiy tomonlarini ko‘rsatmoqda. Chunki talaba darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida mavzuni chuqur o‘rganadi.

Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bunda albatta talabaga AKTlardan foydalanish katta yordam beradi va buning natijasida talaba mavzuni 90% ga o'zlashtira oladi.

Hozirgi axborot-texnologiyalari rivojlangan davrda o'quv materialini passiv usullarda faqat eshitish va bajarish orqali o'rganish ta'lim tizimida innovatsion rivojlanishiga katta to'siq bo'ladi. Fan-texnikaning rivojlanishi albatta ta'lim tizimida AKT lardan foydalanish va ta'lim tizimida qo'llashni taqozo etadi. Insonni butun umr o'qitib bo'lmaydi, uni umri davomida o'qishga o'rgatish kerak. Hozirgi kunda axborot-texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali talabalar o'zlarini qiziqtirgan barcha masalalarni hal etishi va kerakli bilimlarni mustaqil egallashi mumkin.

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalariga nazariy, amaliy va laboratoriya ishlarini o'qitish davomida AKT lar orqali dars mashg'ulotlarini qiziqarli ma'lumotlar, audio va video lavhalar bilan boyitish mavzuni qiziqarli o'tish imkonini beradi. Bu talabalarda dars mavzusini yaxshi o'zlashtirishi va o'tilayotgan fanga nisbatan qiziqishlarini ortishiga olib keladi.

Xa bu borada biz rivojlangan davlatlardan ancha orqadamiz. Lekinkeyingi yillarda mamlakatimiz rahbari tomondan yurtimizning barcha sohalariga axborot-texnologiyalarni joriy etish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasida ushbu ishlarni amalga oshirish uchun eng avvalo professor-o'qituvchilar axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish va ularni dars jarayonida qo'llay olishi lozimdir. Ayniqsa hozirgi kunning dolzarb masalalardan biri bo'lgan masofaviy o'qitish tizimini yurtimizda joriy qilinishi AKTlarini ta'lim tizimiga yanada chuqurroq kirib borayotganini ko'rsatmoqda.

Keltirilgan mulohazalardan shunday xulosa yasash mumkin: mamlakatimiz ta'lim tizimini va xususan oliy ta'limni isloh qilish ushbu sohaga AKTlarini jalb etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlash, internet resurslaridan foydalanish imkonini yaratish orqaligina amalga oshadi. Ushbu masalalarni yechish orqali biz talabalarni har tomonlama bilimli,

aql-zakovatli va o‘z kasbini yetuk mutaxassisi bo‘lishi imkonini yaratgan bo‘lamiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xakimova M. F. Axborot ta’lim muhitida innovatsiya va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi //Academic research in educational sciences. -2021. T. 2. No. NUU Conference C. 149-152.

2. Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna. “Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni va vazifasi”. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. “Ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 6-7 may 2024 yil. B.-24-27

QADRIYATLAR VA ULARNING KOMIL INSONNI TARBIYALASHDAGI O‘RNI


Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” kafedrasida katta
o‘qituvchisi



Erkinova Nilufar Vahob qizi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi



Tursunaliyeva Rayhona Ne‘matjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi



Jalg‘asova Danela Batirovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabasi



Annotatsiya: ushbu maqolada qadriyatlar va uning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati mavzusi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy iftixor, iymon-etiqodlilik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, birodarlik, baynalmilallik aksiologiya, qadriyatshunoslik.

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarida bo‘layotgan o‘zgarishlar kelajakda mamlakatimiz intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta’lim tizimiga bog‘liqdir. Shu sababdan hozirgi kunda ta’lim tizimini isloh qilish, uning innovatsion potensialini

oshirish, yangi axborot-kommunikasion texnologiyalar bilan birga azaliy qadriyatlarimizdan

Hozirgi kunda jamiyat va ta'lim tashkilotlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ma'naviy hayot va jamiyatdagi yangicha munosabatlar mohiyatini anglash, ularning yechimini topish, tahlil qilish va to'g'ri yo'lni tanlash qobiliyatiga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashdir.

Komil inson ma'naviy hayotni yaqqol ko'ra olishi, hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni tasavvur etishi, uning mohiyatini tushuna bilishi lozim. Tarbiyaviy ishning asosiy g'oyasi esa, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy iftixor, iymon-etiqodlilik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, birodarlik, baynalmilallik g'oyalaridan iborat. Ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik tushunchalarining mazmuni va tarkibini bilib olishlari kerak. Shundagina ular bu tushunchalarning mohiyatini puxta anglab, bu ulug' fazilatlarini egallashga ongli ravishda harakat qiladilar. Ma'naviyatimiz tarkibi milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, xulq-atvorimiz, g'ururimiz, ijtimoiy hayotimiz, dinimiz, tuyg'ularimizdir.

O'quvchilarda milliy ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish jarayoni qo'yidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin:

- a) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- b) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlarni shakllantirish;
- v) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy odatlarni shakllantirish;
- g) o'quvchi xarakterining ma'naviy-axloqiy qirralarini tarkib toptirish kabilardir.

Xo'sh, qadriyatlar tushunchasining o'zi nima? Uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Eng avvalo shuni qayd etish kerakki, qadriyatlar juda sermazmun tushunchadir. Shuning uchun adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, «Faylasuf ensiklopediyasi»ning

beshinchil jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflanadi: Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o'zidir, chunki hayotda muhim bo'lish boshqa barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqqa chiqaradi, qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne'matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi deyilgan. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini xaqida so'zlash be'manilidir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi

Qadriyatlar falsafasining tarixi uzoq bo'lsada, bu to'g'ridagi fan aksiologiya o'tgan asrning o'rtalarida shakllandi. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. Aksiologiyani qadriyatlar to'g'risidagi fan yoki to'g'ridan-to'g'ri qadriyatshunoslik, deb atash mumkin. Har bir fanga o'z nomini bergan asosiy tushunchalar bo'lgani kabi qadriyat tushunchasi ham qadriyatshunoslik atamasi uchun shunday asos rolini bajaradi. G'arbda bu atama grekcha "axio" (qadriyat) va "logos" (fan, ta'limot) tushunchalariga asoslanadi.

Sobiq Sho'rolar davrida aksiologiya fan sifatida tan olinmagan va hattoki Stalin tomonidan ta'qiqlangan edi. Sovet ittifoqining asosiy shiori bo'lmish kommunizm qurish g'oyasi qadriyatlarni eskilik sarqiti sifatida ko'rib, uni porloq kelajak qurishga to'sinlik qiluvchi omil deb hisoblashga olib keldi va buning natijasida ushbu sohada hech qanday tadqiqotlar olib borilmadi.

Mustaqillik qadriyatlarimizga qaytishni taqozo etdi. Negaki inson an'analarini bilmas ekan, unda rivojlanish va komillik sari intilish tuyg'ulari yuzaga kelmaydi. Ushbu omillar aksiologiya fanini yurtimizda rivojlanishiga va bu mavzuda juda ko'p tadqiqotlar olib borilishiga olib keldi.

Qadriyatlar tizimida millat, unga xos belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayonlariga muayyan

darajada ta'sir ko'rsatgan xudud va u bilan bog'liq tuyg'ular, millatning o'tmishi, tarixi, madaniyati, u yaratgan madaniy boyliklar va ma'naviy meros bilan bog'liq qadriyatlar ham muhim o'rinni egallaydi. Bu qadriyatlar biror millat kishilari uchun umumiy bo'lib hisoblanadi. Ular alohida shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi xalqalardan biridir. Muayyan kishi yoki shaxs umuminsoniy qadriyatlarni anglashda, faoliyatini ushbu qadriyatlar mezoniga moslashtirishda milliy qadriyatlarni hisobga oladi, ular bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutadi.

Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn-Sino, Ulugbek kabi mutafakkirlar, Al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Axmad Yassaviy, Bahouddin Nakshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi shoirlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizasiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta'siri beqiyos.

Jamiyat rivojining muayyan davriga aksiologik nuqtai nazaridan qarash shu davrning ijtimoiy tuzilishiga biror bir umumiy qadriyatlar tizimi mos kelishini va u ijtimoiy voqealar bilan bog'liq tarzda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Umuminsoniy, milliy, diniy, sinfiy, shaxsiy va boshqa qadriyat shakllari ushbu tizimda muayyan o'rinni egallaydilar. Ular orasidagi farq, tafovut va munosabatlarga ko'ra ushbu tizimdagi umumiy o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi. Hozirgi davrga kelib olim va mutaxassislar har qanday jamiyat qadriyatlar majmuasining o'ziga xos, tegishli tizimni yaratishini alohida ta'kidlamogdalar.

Har bir millat o'z qadriyatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodga qoldirish uchun ma'suldir. Bunga yashab turgan jamiyat, uning har bir fuqarosi birdek javobgar bo'lmog'i lozim. Dunyodagi ba'zi rivojlangan davlatlarni misol qilsak, masalan Yaponiya shu darajada fan va texnologiyasi rivojlanishiga qaramasdan azaliy qadriyatlarini saqlab kelmoqda. Bunga yana ko'p davlatlarni misol qilishimiz mumkin. Bunga sabab u yoki bu davlatni rivojlangan yoki qoloqligi emas, balki ma'naviy darajasi yuqoriligida. Insonlar ongidagi ma'naviy bo'shliq ularda ajdodlar merosi, madaniy

yodgorliklar, urf-odatlar, millat tarixi haqidagi fikrlarga joy qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino. Axloq, ta'lim tarbiya hikmatlaridan. –T.:135-137 b.

2. Халмухамедова Махбуба Аслановна “Нақшбандия тариқатида комил инсон ғояси”. “Globallashuv jarayonida innovatsion ta'lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 2023-yilning 26-27 may B.-99-101

3.Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna. Texnologik ta'lim talabalarini

kasbiy kompetentligini takomillashtirishga akseologik yondashuv/O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligi» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami 2023-yil 20-oktabr Chirchiq, 389-391b

4.Ochilov M. Muallim-qalb me'mori. T.,”O'qituvchi”, 2001.

5.Zunnunov A. Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish. T.,” O'zbekiston”, 2006.

KREATIV YONDASHUV MASALASINING IJTIMOIIY- PEDAGOGIK DOLZARBLIGI VA MOHIYATI

Yakubova Marhabo Yusufovna
Jismoniy madaniyat fakulteti
p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.



Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagog kadrlarda kreativlikni takomillashtirishning ahamiyati va zarurligi, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, ta’lim-tarbiya samaradorligini sifat bosqichiga ko‘tarish, pedagogik kreativlikni shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyat, kasbiy innovatsion kompetentlik, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta’lim oluvchilarning faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirilgan pedagogik eksperimentlarni loyihalash, tashkil etish va o‘tkazishning zamonaviy shakl va metodlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bugungi zamon talablari asosida ta’lim tizimini isloh qilish, pedagogika sohasida ilg‘or innovatsiyalar, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishi va ularni keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shu sababli bo‘lajak mutaxassislarining pedagogik

muammolarni qiyosiy taqqoslash, tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining optimal variantlarini tanlash asosida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish orqali pedagogning kreativlik potentsiali darajasini oshirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi.

Ta'lim sifatini ta'minlash - bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o'quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko'rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ko'rsatma va tamoyillar ko'rinishida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini "Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi" deb asoslaydi.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.

Ta'limni modernizatsiyalashdan maqsad ta'limning taraqqiyotini ta'minlash, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy

ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. Bunday taraqqiyot tizimini yaratish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- davlat tomonidan to'liq ta'lim olish huquqini ta'minlanishi;
- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlash;
- ta'limning xuquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash va jalb etish;
- pedagog kadrlarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag'batlantirish;
- ta'lim tizimiga ilg'or xorijiy tajribalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini keng joriy etish;
- fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi konsorsiumni rivojlantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarning kreativ ko'nikmalarini, intellektual sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalar.

Bugungi kunda ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushuniladi. Kreativlik so'zi (inglizcha "kreate" – yaratuvchanlik, ijodkorlik) so'zidan olingan bo'lib, inson shaxsining ijodkorlikka bo'lgan qobiliyati, ijodkorlik iste'dod darajasi, individning an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlaridir.

Kreativ shaxs bo'lish, bizning misolimizda esa, kreativ o'qituvchi bo'lish – bugungi ta'limiy faoliyatda fzalliklarga ega bo'lish, masalan, boshqa o'qituvchilar ichida ajralib turish, boshqalarga qaraganda qiziq suhbatdosh bo'lish, ta'limda uchraydigan qiyinchiliklardan noodatiy tarzda chiqib ketish

demakdir.

Kreativ qobiliyatlarni faqat yangi g‘oyalarni yaratishgina uchun emas, balki hayot tarzining, yoki alohida olingan aspektlarni yaxshilash uchun qo‘llash va shaxsning ichki dunyosi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Kreativlik axborotni yodda saqlash va faktlarni yig‘ishga asoslanganligi tufayli an’anaviy ta’lim sistemasi har doim ham o‘qitishda kreativ yondoshuvga asos bo‘la olmaydi. Bu holat shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning, xususan talabaning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qodir emas. Kundalik hayot tarzi ko‘pincha shaxsning kreativ xususiyatlarining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu tufayli, kreativ qobiliyatlarning rivojlanishi uchun faqat maxsus tashkil qilingan muhit bo‘lishi lozim.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli talabalar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadi.

Torrens bolalar kreativligini shakllantirish dasturini, “yosh bolalardan kattalargacha” kreativlikni aniqlash testlarini yaratdi.

Umuman olganda, kreativlik – bu yangi, original g‘oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir. Kreativ tafakkur esa revolyusion tafakkur bo‘lib, u konstruktiv xarakterni ifodalaydi.

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik o‘qituvchining

ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Psixologiyada E.P.Torrance tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, shaxs kreativligi o‘zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma’lumotlarga e’tiborsiz bo‘lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

O‘qitishga kreativ yondashuv masalasi bu pedagogik jarayonni shaxs imkoniyatlariga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, ta’lim oluvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlashiga imkon beruvchi zaruriy o‘qitish texnologiyalarini tanlash va amalga oshirishda, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligi bilan asoslanadigan o‘qitishga nisbatan zamonaviy yondashuv shakllaridan sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Karimov.I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.-B.15-16

2. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. — Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

3.David Watson. The Question of Conscience Higher education and personal responsibility. Oxford, Institute of Education Press. 2014.

KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI

Yakubova Marhabo Yusufovna
Jismoniy madaniyat fakulteti
p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.



Saydullayeva Marjona Shodilbek qizi
Jismoniy madaniyat fakulteti, talabasi



Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak pedagog kadrlarda kreativlik kompetensiyasini shakllantirish ahamiyati va zarurligi, ta’limni modernizatsiyalash sharoitida ilmiy-amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, ta’lim-tarbiya samaradorligini sifat bosqichiga ko‘tarish, pedagogik kreativlik kompetensiyasini shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalarni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, iqtidorlilik, modernizatsiya, texnologiya, pedagogik kreativlik, kasbiy innovatsion kompetentlik, axborot-kommunikatsiya, kompetensiya, disput, diskussiya, milliy mentalitet va steriotitlar, diagnostika, tafakkur, istiqbolni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or

tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash ko'zda tutilgan.

Xalqaro pedagogik amaliyotda ta'lim oluvchilarning shaxsiy muhim sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. Shu nuqta'i nazardan umumta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ fikrlash ko'nikmalari muhim hisoblanadi. Unda, milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini, o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Shu o'rinda o'quvchilarning kreativlik kompetentlikka ega bo'lishlarda o'qituvchi yo'llanmasi, ko'rsatmasi, topshiriqlari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, fanga qandaydir bir yangiliklar olib kirishga intilishi, o'zining odobi, kasbiy sifatleri bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi darkor. O'z ustida ishlaydigan ijodkor o'qituvchilarning obro'-e'tibori, martabasi ulug' bo'ladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kompetensiya – ta'lim oluvchining nazariy bilimlarga asoslangan hamda aniq bir hayotiy holatlarda muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan, bugungi kun talab etayotgan mustaqillik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat usullaridan foydalanish qobiliyatidir.

Hozirda ko'plab ilm dargohlarida kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashga katta e'tibor qaratishmoqda. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchilarda

kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda, lekin shunga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarida hamda o'quvchilarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayotganligi tajriba-sinov ishlarimizda aniqlandi.

Shu boisdan pedagoglarning o'quvchilarda kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda, kreativ tafakkur o'qituvchining o'zida mujassam bo'lishi zarur.

Quyida kreativlik kompetensiyasini tarbiyalashning ba'zi mezonlarini keltiramiz:

1. O'z tafakkurini original, optimal yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga qaratish, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zini undash;

2. Yangiliklardan yoki boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimaslik;

3. Keng mushohada etishga harakat qilish, an'anaviy bo'lmagan usullardan foydalanish, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va steriotitlar qobig'idan chiqib ketishga urining, erkin ijodiy mushohada yuritish;

4. Agar birinchi tajriba muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribadan voz kechmaslik, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettirish, masala yechimining boshqa variantlarini topishga harakat qilish, boshqa yo'llarni aqlan qidirib topish, davom etish;

5. Disput, diskussiya, bahs, munozaralar uchun doimo ochiq bo'lish, uni o'ziga qaratilganligiga ishonmaslik, bahsni to'g'ri tashkil qilish, o'z fikrini har qanday bahslashuv jarayonida nazorat qilib borish;

6. Tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qilish;

7. An'anaviy usullarda faoliyat olib borishdan voz kechish, yangi usullarda ishlashga urinib ko'rish;

8. Yangi g'oyalardan qo'rqmaslik, ularni albatta keng qo'llash kabilar.

Bugungi kunda dunyo ta'lim hamjamiyati, pedagogika va psixologiya oldida ta'lim muassasalarida shaxsni optimal rivojlantirish vazifasi turibdi. XXI asr yoshlarini bilimlarni o'zlashtirishda ertangi jamiyatga tayyorlashda nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy kreativ tafakkurga ega bo'lgan kadrlar qilib tayyorlashimiz zarur. Zero, zamonaviy ta'lim taraqqiyoti yangi bilim, malaka va g'oyalar hisobiga rivojlanadi. Bu esa o'z o'rnida jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi va davlatimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yimaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o'zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Ya'ni o'quvchida kreativ tafakkur va kreativ fikrlash shakllantirilishi lozim.

Kreativ tafakkur jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichlarini ta'minlash uchun xizmat qiladigan noan'anaviy fikrlash qobiliyati va taraqqiyot omillarini ta'minlashga yo'naltirilgan tafakkur hisoblanadi.

Kreativ tafakkur rivojlangan davlatlarni xalq xo'jaligining

barcha tarmoqlarida eng quyi bosqichdan tortib eng yuqori darajalargacha kreativ tafakkur talab qilinadi. Chunki u jamiyat taraqqiyotida uning takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining vositasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogik faoliyatda shunday o'qitishni tashkil etish kerakki, o'quvchi kreativ fikrlovchi, kelgusida zamonaviy jamiyat va ishlab chiqarishda muhim rejalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, asoslash, motivatsiyalash, nazorat qilish kabi funksiyalarni kreativ tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Kreativ tafakkur inson ma'naviyati, tarbiyasi, bilimi, intellekti, iqtidori kabilarni ishlata olish qobiliyatini o'z ichiga qamrab oladi. Demak, har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarda mana shu xislatlarni pedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlagan holda, uni shakllantirish va rivojlantirishi zarur.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni ong, tafakkur va aqlni barcha yo'nalishlarda istiqbolni ko'rish va anglashga o'rgatish, ularda tafakkur aqlning peshqadamligi, tafakkurning noan'anaviyligi, oldindan bashoratlay olish, ya'ni prognoz qila olish kabi xususiyatlarni pedagogik jarayonda maqsadli shakllantirilishi kerak.

Zamonaviy taraqqiyot uchun yangi yo'nalishlar va yo'llarni ko'ra bilish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, faoliyatni yangilash, faoliyatdagi masalalar yechimini yangi yo'nalishlarini topa bilish kabi noan'anaviy tafakkurga ega bo'lish;

O'z mehnat faoliyati sohasidagi istiqbol o'zgarishlarning mohiyati, zaruriyati, amalga oshirilish muddatlarini tafakkur orqali oldindan anglash kabi prognoz, bashorat qila olish kabi xususiyatlar uzluksiz ta'lim jarayonida shakllanishi va takomillashishi o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini qanday tashkil etishiga bog'liq

“Texnologiya” fani o'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida o'quvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni

egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Shu sababli "Texnologiya" fanini o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchi va o'quvchilar guruhi, shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli

2. Якубова М.Ю. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида креатив компетенцияларни такомиллаштириш/ Муғаллим-республика илмий-амалий журнали, 2020 йил. 1/1-сон, . –Б. 69-71 (ISSN 2181- 7138)

3. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Scholastic Testing Service, Inc., 2004.

4. Белогуров А.Ю.Реализация компетентностного подхода в образовательномпроцессе // Педагогика. 2012. No 12. С. 6–13


5. Арипджанова Альфия Равильевна Развития креативного потенциала педагогов высших образовательных учреждений в условиях дис. .пед. фан. ном. –Т.: 2017. -194 б.,

PEDAGOGIK MAHORAT VA O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA TUTGAN O‘RNI

Yakubova Marhabo Yusufovna
Jismoniy madaniyat fakulteti
p.f.f.d. (PhD), dots. v.b



Qalandarova Asila To‘liboy qizi
Jismoniy madaniyat fakulteti
talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy sifatleri, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishdagi ro‘li va pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini tahlil qilgan. Shuningdek, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishi zarurligi asoslab berilgan. Maqola ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ijodiy yondashuvni shakllantirishda pedagogik mahoratning muhimligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik mahorat, Pedagogik qobiliyat, Zamonaviy o‘qituvchi, ta’lim jarayoni, kasbiy mas’uliyat, axloqiy me’yorlar, pedagogik faoliyat, shaxsiy namuna.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasiga, aqliy salohiyatiga hamda kasbiy mahoratiga nisbatan alohida mas’uliyat yuklangan. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning pedagogik mahorat va o‘qituvchi faoliyatiga oid qarorlari ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. u o‘qituvchilarni malakasini oshirish va pedagogik innovatsiyalarni joriy etish zarurligini ta’kidlagan.

zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi jamiyat rivojlanishining asosiy omili sifatida qaralmoqda. bu jarayonda asosiy mas'uliyat o'qituvchilarga yuklanadi. o'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi, balki yosh avlodning axloqiy va ma'naviy tarbiyasida ham ishtirok etadi. Shu sababli o'qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy tamoyillarga amal qilish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy o'qituvchining roli oddiy pedagogik vazifalar bilan chegaralanib qolmaydi. U o'qituvchilarga nafaqat bilim beruvchi, balki ularga hayotda o'rnatilgan bo'ladigan shaxs sifatida maydonga chiqishi lozim. Ushbu maqolada o'qituvchi etikasi, uning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va u bilan bog'liq muhim masalalar keng yoritiladi.

Pedagogik mahorat nima? uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni

Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "pedagogik ensiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohasini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning Yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda

mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, O'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviv - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, Ijtimoiy hayot, taffakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlari hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini hartomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart - sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy - metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar o'z

pedagogik faoliyati jarayonida faoiyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo‘lib, o‘qituvchilarning faoliyat mezonini begilab beradi. O‘qituvchilarning faoliyati pedagogik jarayonning harakat vositasidir.

«Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobili yatlarni o‘qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar berib boradi.

Zamonaviy o‘qituvchi kim? Bugungi kunda o‘qituvchi – bu faqat dars o‘taydigan shaxs emas. U o‘quvchilarni ilmiy izlanish, ijodiy fikrlash va insoniy qadriyatlar asosida rivojlantirishga yo‘naltiradigan rahnamo hisoblanadi. Zamonaviy o‘qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Bilimdonlik: O‘z fanini mukammal bilishi va zamonaviy bilimlarni yetkazish qobiliyatiga ega bo‘lish.

2. Axloqiy yetakchilik: O‘quvchilarga hayotiy tamoyillarni o‘rgatish va ularga o‘rnak bo‘lish.

3. Innovatsion yondashuv: Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish.

4. Doimiy rivojlanish: O‘z ustida ishlash va kasbiy malakasini muntazam oshirish.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifasi – nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ko‘maklashishdir.

O‘qituvchining ushbu tamoyillarga rioya qilishi uning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi va o‘quvchilarni tarbiyalashda samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi va texnologiyalar. Bugungi kunda

texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Internet, elektron darsliklar va virtual platformalar o'quv jarayonini yanada samarali qilmoqda. Ammo bu jarayon o'qituvchilar uchun ham yangi majburiyatlarni yuklaydi:

1. Axborot filtrlash: O'quvchilarga texnologiyalar orqali to'g'ri va foydali ma'lumotlarni yetkazish.

2. Ijtimoiy tarmoqlar etikasi: O'qituvchi ijtimoiy tarmoqlarda o'zini qanday tutishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. U o'quvchilar bilan ortiqcha yaqinlikdan yoki shaxsiy chegaralardan o'tib ketishdan qochishi lozim.

3. Texnologiyalarni o'rgatish: O'qituvchi o'quvchilarga texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni ham o'rgatishi kerak.

Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish, pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi (N. N. Azizxo'jayeva); “kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi” (I. A. Zyazyun); Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, “pedagogik mahorat” tushunchasiga quyidagi tarzda umumlashgan ta'rifni berish mumkin: Pedagogik mahorat – bu o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talabalarda (o'quvchilarda) dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir.

Pedagogik mahorat – bu nafaqat o'qituvchining bilim va tajribasi, balki uning shaxsiy fazilatlarini, muloqot madaniyati hamda o'quvchilarga individual yondashish qobiliyatining uyg'unligidir. Zamonaviy ta'lim tizimida samarali faoliyat yuritish uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagogik innovatsiyalarni o'rganib, amaliyotda qo'llashi zarur. Pedagogik mahoratning yuqori darajada shakllanishi ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarda mustahkam bilim, ijtimoiy faollik va ijodkorlikni

rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashib, pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi bugungi ta’lim jarayonining muhim talablaridan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizaxo‘jaeva N.N Pedagogik Texnologiya va Pedagogik Mahorat.- Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU,2006.
2. In-akademy.uz. Ziyodullayeva Nigora Meyliyevna.
3. Pedagogik mahorat. Darslik A’zam Xoliqov.
4. Toshkent’’Iqtisod-Moliya’’ 2011

XALQ XUNARMANDCHILIK SAN'ATINING TARIXI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Saydullayeva Marjona Shodilbek qizi
Jismoniy madaniyat fakulteti, talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy hunarmandchiligimiz yoʻnalishi boʻyicha yoshlar oʻrtasida milliylikni zamonga uygʻunlangan holda ularni targʻib etish bilan birgalikda sohada amalga oshirilayotgan tizimli ishlar ilgari surildi.

Kalit soʻzlar: oʻzining bemisol, Estetik-badiiy, shakl-shamoyilda, ramziylikka, ganchkorlik, koshinkorlik, xattotlik, toshtaroshlik, monand, Kandakor,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 20.11.2017-y., 06/17/5242/0280-son.

Oʻzbek xalq amaliy sanʼati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Uning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Fargʻona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak sanʼati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunln va tarixiy bebaho sanʼat asarlari boʻlib, jahon madaniyatining durdonalaridan boʻlgan badiiy va maʼnaviy merosni tashkil etadi. Oʻzbek xalqining koʻp asrlik tarixida xalq amaliy bezak sanʼati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Oʻzbek diyorida vujudga kelib, gullab-yashnagan sanʼat turlari oʻzining bemisol va betakrorligi bilan dunyoga mashhur.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi boʻlmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat tarixiy taraqqiyot

jarayonida juda katta ahamiyatga yega bo‘ldi. Estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettirishga havas uyg‘otadi. Shakl va ranglarning aniq hamda uslubiy tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va bu o‘z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning turli-tuman shakllari va turlari paydo bo‘ldi. Jumladan, san‘at asarlari orasida, naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ahamiyatga molik. Naqshli bezaklar takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma‘lumki, islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan.

Tasviriy san‘atga falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish taraqqiy yetgan. Jumladan, hozirda jahonga mashhur me‘morchilik yodgorliklarimizda qo‘llanilgan ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-taroshlikning ajoyib darajada uyg‘unlashgani buning isbotidir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me‘morlik va xalq amaliy san‘ati yodgorliklari o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas san‘at asarlarining namunalari bo‘lib, ular ayni vaqtda jahon madaniyatining durdonalari ham hisoblanadi.

Xalq amaliy san‘ati kishilarning ma‘naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqi amaliy san‘ati kishilarni badiiy, axloqiy, umum-insoniy ruhda tarbiyalab, ularning dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy saviyasini yuksaltirishda yeng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Nosir Xisrav, Kamoliddin Behzod, Umar Xayyom, Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va naqqoshlar amaliy bezak san‘atiga yuksak baho berganlar. Jumladan, binolarni kishilar diqqatini o‘ziga tortuvchi tabiatning go‘zal manzaralariga monand

naqshlar bilan bezashga chaqirganlar. Kishilarni yesa go‘zallik bilan yaqin do‘st, birodar bo‘lishga undaganlar. Amir Temur hamma shaharlarni chiroyli va ulug‘vor qilishga intilib, tosh hamda g‘ishtli yo‘llar, keng, katta, ravon ko‘chalar bunyod etgan. Miskarlik, zargarlik, beshikchilik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, gilamdo‘zlik va boshqa rastalar qurdirgan. «Bog‘i naqshi jahon», «Bog‘i behisht», «Bog‘i baland», «Davlatobod saroy bog‘i», «Bog‘i nov», «Bog‘i chinor saroyi» kabi bog‘-rog‘lar, ajoyib, ulug‘vor saroylar barpo ettirgan.

O‘rta Osiyo amaliy san‘ati qadimdan me‘morchilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bizning davrimizgacha saqlanib kelgan o‘tmishning ulug‘vor madaniy yodgorliklari — Samarqandning Registon maydonidagi «Ulug‘bek», «Sherdor» va «Tilla Kori» madrasalari, «Shohi zinda» va «Go‘ri Amir» ansambl maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxorodagi «Ismoil Somoniy» maqbarasi, Kogon minorasi, Toshkentdagi «Ko‘kaldosh» madrasasi, Shahrisabzdagi «Oqsaroy» va boshqalar o‘zining betakror ko‘rinishi bilan dunyoga mashhurdir.

Amir Temur va temuriylar davrida xalq amaliy san‘ati, hunarmandchiligi yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa, Temur o‘z onasiga bag‘ishlab qurdirgan «Oqsaroy» tarixning o‘chmas bir bo‘lagi bo‘lib qoldi.

Amir Temurning me‘morchilik, naqqoshlik va hunarmandchilikka qiziqqanligini 1404-yilda, Shahrisabzda, Temur saroyida bo‘lgan Ispaniya Qirolligining elchisi Ryui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida quyidagicha yozib qoldirgan: «Men podshohning amri bilan qariyb 20 yildan beri qurilayotgan katta bir saroyni ko‘rdim. Bu saroyning kirish joyi juda uzun bo‘lib, peshtoqi juda baland edi. Kirish joyining o‘ng va chap tomonlarida turli xil naqshlar bilan bezatilgan, g‘ishtdan silliq qilib qurilgan ariklar qad ko‘tarib turibdi. Kengligi 300 qadam bo‘lgan katta hovlidan so‘ng, podshohning taxti o‘rnatilgan zal ranglar bilan bezatilgan, koshinlari juda ham nafis ishlangan. Bu xonaning devorlari oltin va zangori bo‘yoqlar bilan bezatilgan, koshinlari silliqlangan, shifti

esa butunlay zarhallangan».

O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlikdir. Qadimdan, Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’ati ravnaq topgan. Xorazmdagi Tuproqqal’a zallari mahobatli naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI— VII asrlarda qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi ajoyib naqsh va rasmlarni ko‘rib hayron qoladi kishi. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoga arablar kelgach, tasviriy san’atda jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yoqolib borib, naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada, naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. IX— X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi. Arxitekturada g‘isht qalab, naqsh solish rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa, maqbaralarning peshtoqlari, devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatildi.

XVIII asr oxiri va XIX asrlarda Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro shaharlarida yetuk namoyondalar qatori xalq ustalari yetishib chiqdi. Miskarlik, naqqoshlik, ganchkorlik va boshqa san’at turlari rivojlana boshladi. O‘rta Osiyoda qadimdan hunarmandchilik taraqqiy etib kelgan. Hunarmandlar xalqning ehtiyojidan kelib chiqib kerakli buyumlar yasaganlar. Shahrixon, Urgut, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chustda hunarmandlar alohida-alohida mahalla bo‘lib yashaganlar, ya’ni hunarmandlar qaysi kasb bilan shug‘ullansalar, shu hunar nomi bilan mahalla nomi ham aytilgan. Chunonchi, zargarlik bilan shug‘ullangan mahalla bo‘lsa «zargarlik mahallasi», pichoqchilik bilan shug‘ulansa «pichoqchilik mahallasi» deb yuritilgan. O‘sha vaqtlarda miskarlik, zargarlik, bo‘yrachilik, tandirchilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravaszlik, kulolchilik, toshtaroshlik, savatchilik mahallalari mavjud bo‘lgan. Masalan, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Buxoroda bo‘yrachi mahallasi

bo‘lib, u yerda hamma bo‘yra to‘qiydigan ustalar yashagan. Har bir ustaning o‘z rastasi bo‘lgan. Bozorda, odatda bozor begi bo‘lib, u barcha rastalarga keltirilgan mollarni kuzatib, ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustaning bozori odatda kasodga uchragan.

O‘zbek xalq amaliy san’atining ko‘pgina turlarida naqshdan foydalaniladi. Kandakor, sangtarosh, kulol, ganchkor, miskar, yog‘och ustalari naqsh chizib ishlaydilar. Naqsh yaratish mutaxassisligi iste’doddan tashqari qunt, uzoq mashq-malakani talab qiladi.

Naqqoshlar madrasada tahsil olganlar, adabiyot, tarix, musiqa va matematika fanlarini yaxshi bilganlar. Qadimda naqqoshlar naqsh ishlash sirlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlariga o‘rgatganlar. Shogirdlar yesa usta bo‘lganlaridan so‘ng bilganlarini o‘z shogirdlariga meros qilib qoldirganlar. Shunday qilib, naqqoshlik kasbini an’ana tariqasida rivojlantirib kelganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.11.2017-y., 06/17/5242/0280-son.

2. Шермухамедов. Р.С., Парпиева М.М., Шарипова Г.С. Халқ хунармандчилиги. – Тошкент: ТКТИ, 2020. – Б. 22–27.

BIR TO‘P ATROFIDA BUTUN DUNYO

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna
Jismoniy madaniyat va sport kafedrası

Murayeva Patilabonu Sherali qizi
Turizm fakulteti 2-bosqich talabasi



Annotatsiya: Futbol bo‘yicha jahon chempionati dunyodagi eng ko‘p tomosha qilingan sport musobaqasidir. Ushbu maqolada futbol sport turining rivojlanish tarixi, o‘yin texnikasi va O‘zbekistondagi futbolchilarga yaratilgan qulayliklar va sharoitlar haqida hikoya qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sharq xalqlari , futbol o‘yini, o‘yin taktikasi, jamoaviy o‘yin , kichik maydonlar, charm to‘plar, jismoniy rivojlantirish, sport natijalari, texnik usullar, ma‘naviy, irodaviy xislatlar.

Kirish: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerak”. Aynan shu maqsadda, mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident Qarori (PQ-136-son, 20.03.2024-y.) qabul qilindi.

Futbol - bu dunyodagi eng mashhur jamoaviy va atletik o‘yin hisoblanadi. Futbol so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, «oyoq to‘pi» degan ma‘noni bildiradi. Futbol asosan futbol maydonida o‘ynaladi va o‘yin maydoni to‘g‘ri burchak shaklida bo‘ladi. Yon chiziqdar darvoza chizig‘iga nisbatan uzunroq bo‘lishi kerak. Uzunligi: 120 m, 90 m. Eni: 45 m, 90 m. Xalqaro o‘yinlarlarda esa uzunligi: minimum 100 m, maksimum 110 m; eni: minimum 64 m, maksimum 75 m bo‘ladi. O‘yinchilarni maydondagi harakatlanish texnikasiga - yurish, yugurish, sakrash, burilishlar kiradi. Bundan tashqari maydon o‘yinchisini texnikasi ya’ni to‘pga

zarba berish, oyoq bilan kaftni ichki tomoni bilan, oyoq yuzi ichki qismi bilan, oyoq yuzi tashqi qismi bilan, oyoq uchi bilan, tovon bilan. O'rta asrlarda Futbol keng tus olgan. Bunda ko'cha va qishloqlar maydon o'rnida xizmat qilardi. Musobaqalar kun o'rtasida boshlangan va qorong'u tushgancha davom etgan. To'pni butun shahar bo'ylab ma'lum bir joygacha surib kelishga erishgan «komanda» g'olib hisoblangan. Bugungi zamonaviy futbol 1863-yilda Angliyada tashkil etilgan Futbol Uyushmasi tomonidan tayyorlangan qoidalar asosida yaratilgan. Bu futbolni regbidan ajratib turuvchi asosiy bosqich bo'ldi. O'yinda faqat oyoq bilan olib borilishi belgilanib, qo'l bilan o'ynash taqiqlangan. 1904-yilda FIFA tashkil topildi va tez orada xalqaro sport turiga ayla boshlagan. Bugungi kunda futbol butun dunyo bo'ylab eng mashhur va ommaviy sport turlaridan biridir. Futbol texnikasi, taktikasi va jismoniy tayyorgarlik yildan-yilga rivojlandi. Bugungi kunda futbolchilarning jismoniy salohiyati, o'yin intellekti va texnikasi yuqori darajada bo'lishi talab etilmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Futbolning ommalashuvida ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar katta rol o'ynamoqda. Klublar o'z brendini global miqyosda targ'ib qilmoqda, futbolchilar esa nafaqat sport yulduzi, balki ijtimoiy tarmoqda millionlab kuzatuvchilarga ega shaxslar sifatida maydonga chiqmoqda. Bugungi kunda futbol nafaqat sport turi, balki global madaniy hodisa sifatida dunyo bo'ylab millionlab kishilar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Har kuni dunyoning turli burchaklarida minglab futbol uchrashuvlari o'tkaziladi, stadionlar muxlislar bilan to'ladi va ijtimoiy tarmoqlar futbol yangiliklari bilan to'ladi. Yevropa chempionlari ligasi, Jahon chempionati kabi yirik musobaqalar milliardlab tomoshabinlarni ekranlar qarshisiga yig'adi. Zamonaviy futbol texnologiya, iqtisodiyot, va ommaviy axborot vositalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan holda, nafaqat sportchilarni, balki murabbiylar, jurnalistlar va biznesmenlarni ham jalb qilgan murakkab tizimga aylangan. Shu bilan bir qatorda mahoratli sportchilarni tayyorlash,

ularni nufuzli musobaqalarda ishtirokini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Milliy futbol assotsiatsiyasi FIFA va Osiyo futbol konfederatsiyasi tomonidan o'tkaziladigan barcha musobaqalarda ishtirok etadi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: O'zbek futbolining asosiy boshqaruv organi 1946-yilda tashkil etilgan O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi hisoblanadi. Futbol ligasi tizimida yuqori qismida Superliga (Oliy liga) va Pro-liga joylashgan. Superliga g'olibi O'zbekiston chempioni unvonini oladi. Shuningdek, mamlakat kubogi musobaqalari orasida O'zbekiston kubogi, O'zbekiston Superkubogi va O'zbekiston Liga kubogi turnirlari ham o'tkaziladi. Superligada dastlabki 4 o'rinni egallagan futbol klublari OChL va OFK kubogi turnirlariga yo'llanma oladi. Mamlakatda futbolning tug'ilgan yili 1912-yil hisoblanadi, chunki o'sha paytdan boshlab Farg'ona va Qo'qonda, biroz keyinroq Andijon, Toshkent va Samarqandda futbol jamoalari tuzilib, uzoq masofalarga o'yinlar o'tkazila boshlagan. O'zbekistonda futbol o'tgan asrning 20-yillarida rivojlana boshlagan. Farg'ona vodiysining birinchi chempionati 1914-yilda, O'zbekiston SSR chempionati 1926-yildan tashkil topgan. O'zbekistonning yetakchi futbol jamoasi bu - Paxtakor. 1956-yil tashkil etilgan. Paxtakor poytaxt Toshkent shahrida joylashgan bo'lib, O'zbekiston Superligasida ishtirok etgan

Tadqiqot natijalari va muxokamasi:Zamonaviy futbolning yuksak darajada rivojlanishi, eng avvalo, futbolchilarga yaratilgan qulay sharoitlar bilan chambarchas bog'liq. Futbolchilar nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki intellektual va psixologik rivojlanish uchun ham zarur imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bugungi kunda dunyo bo'ylab ko'plab professional futbol klublari o'z futbolchilarini yuqori darajada tayyorlash uchun zamonaviy mashg'ulot bazalariga ega. Bu bazalarda sportchilarning jismoniy holatini nazorat qiluvchi texnologiyalar, sog'liqni tiklash markazlari, fizioterapiya xonalari, basseynlar, maxsus diyetologiya dasturlari va dam olish hududlari mavjud. O'zbekistonda ham futbolga

qaratilayotgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda. Respublika bo'ylab bir necha futbol akademiyalari faoliyat yuritmoqda. Ularda iqtidorli bolalar yoshligidan boshlab professional yo'nalishda tayyorlanadi. Misol uchun, "Bunyodkor", "Paxtakor", "Nasaf", "Lokomotiv" kabi klublarning futbol maktablari bor. Shuningdek, milliy terma jamoa va yoshlar terma jamoalari uchun ham maxsus tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilgan. Chet ellik mutaxassislar jalb etilishi, xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inlarida qatnashish, turli yosh toifasidagi futbolchilar uchun musobaqalarning tashkil etilishi sportchilar salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, yarim professional va havaskor futbolchilarning rivojlanishi uchun sport inshootlari, stadionlar, futbol maydonlari barpo etilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston futboli bir necha iste'dodli va xalqaro maydonlarda o'zini ko'rsatgan futbolchilarni yetishtirib chiqardi. Ular orasida Jaloliddin Masharipov, Eldor Shomurodov, Abbosbek Fayzullayev, Rustam Ashurmatov, Odil Hamrobekov kabi sportchilar xalqaro klublarda o'ynab, mamlakatimiz sharafiga himoya qilmoqda. Ularning muvaffaqiyatlari yosh avlodga motivatsiya berib, futbolga bo'lgan qiziqishni yanada oshirmoqda.

Xulosa: Futbol dunyodagi eng mashhur va ommaviy jamoaviy sport turiga aylangan. U o'zining tarixi, texnikasi va taktikasi bilan yillar davomida rivojlanib, global madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston futboli ham o'zining uzoq tarixiy yo'lini bosib o'tib, bugungi kunda xalqaro maydonlarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Superliga, Paxtakor kabi jamoalar mamlakat futbolining yetakchi ishtirokchilari hisoblanadi. Futbol nafaqat sport, balki ijtimoiy tarmoq, iqtisodiyot va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ommalashuvida ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynamoqda. Futbolning rivojlanishi va uni global miqyosda targ'ib qilish hozirgi kunda muhim vazifa hisoblanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. La fabuleuse histoire du football (Fransızca). Paris: ODIL, 1990. ISBN 978-2-7324-2052-3.
2. L'encyclopédie du football 2004-5 (Fransızca). Saint-Sulpice: Chronosports, 2004. ISBN 978-2-84707-076-7.
3. Football, the first hundred years. Londra: Routledge, 2005. ISBN 0-415-35018-2
4. Nurimov Z. R., Iseyev Sh. T. Qurbonov O. A., Davletmuratov S. R., Futbol nazariyasi va uslubiyati TOSHKENT – 2015
5. Akramov R.A.Futbol. Darslik Toshkent. 2005
6. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2005.
7. D., Davids, K., & Hristovski, R. (2006). The ecological dynamics of decision making in sport. *Psychology of Sport and Exercise*, 7(6), 653–676.
8. Ch., & Schön, D. A. (1997). *Organizational learning: A theory of action perspective*. Reis,
9. I. T., Garganta, J., Greco, P. J., & Mesquita, I. (2009). *Princípios táticos do jogo de futebol: conceitos e aplicação*

CHESS IS MENTAL GYMNASTIC

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna
Department of Physical Culture and
sports
Turism faculty 2-stage student
Nurmamatova Sevara Kamol qizi



Annotation: This article narrates a historical event related to Napoleon Bonaparte. Chess is presented not only as a game but also as a powerful tool for shaping human intellect. It also highlights the state-level attention given to chess through President Shavkat Mirziyoyev’s high praise for young talents.

Keywords: Napoleon, Bonaparte, Chess Escape Plan, Vladimir Kramnik vs. Fritz, The Largest Chess Piece, Garry Kasparov, Mental Gymnastics, Intellect, Nodirbek Abdusattorov, World Ranking, Presidential Recognition.

Login: As the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev has been paying great attention to the development of sports. Some of his notable statements on the importance of sports are as follows: “Sport is the foundation of a healthy lifestyle.” The President views sport as a vital tool in shaping a healthy society. “Sport guides young people toward high goals, nurturing them to be disciplined and patriotic.” These words emphasize the educational value of sports among the youth. “We are proud of our athletes. Every victory of theirs is the pride of our nation.” The President highly values achievements in international sports arenas. “Developing sports is one of the most important tasks aimed at strengthening the health of our people.” “By constructing modern sports facilities in every region, we are creating wide opportunities for our youth.” Chess is not only a game but a remarkable type of sport that sharpens human intellect and develops logical thinking. It is often called “mental gymnastics” because a chess player must deeply analyze every move and make strategic decisions.

The purpose of the study: Through chess, individuals can develop qualities such as focus, problem-solving, patience, and resilience. In particular, chess plays an invaluable role in enhancing the thinking abilities of the younger generation. Many world-renowned chess players are known to be knowledgeable, patient, and wise individuals. Today, chess clubs operate in many schools and sports institutions, helping young people use their free time meaningfully and contribute to their mental development. Chess is more than just a sport—it is a powerful tool for intellectual growth. Everyone, especially the youth, should be encouraged to learn and play this game. In the 20th century, a tradition emerged among European youth where they played chess in their imagination without a physical board. This was influenced by a single piece of literature, which significantly increased interest in this intellectual activity. *Bonaparte's Unfulfilled Plan:* A Swedish man once bought Napoleon Bonaparte's chess set at an auction for a very high price. One day, he discovered that one of the chess pieces could be twisted open. Inside was a letter detailing an escape plan. It was later revealed that in 1816, one of the emperor's friends sent him a chess set while he was serving his sentence on the island of Saint Helena. The escape plan had been hidden inside the chess pieces. Unfortunately, Bonaparte never discovered the secret hidden within the piece and was unable to execute the escape.

Research organization methods: In Brief: World chess champion Vladimir Kramnik once lost a match to the computer program Fritz because he yawned during the game. The largest chess piece in the world is a king made by Swedish craftsman Mats Allans. It stands 4 meters tall with a base diameter of 1.4 meters. According to Garry Kasparov, "Chess is indeed mental gymnastics. But it cannot be played with excessive passion," as that may lead to one-sided mental development and even intellectual decline—similar to the protagonist in *The Royal Game* (Chess Novella). The deep essence of chess, refined over centuries, remains as authentic as ever. Regardless of circumstances, the value of chess continues

to grow. Uzbek chess grandmaster Nodirbek Abdusattorov has risen to fourth place in the world ranking. The 20-year-old athlete holds the national record in Uzbekistan for the highest chess rating.

Research results and discussion: As of the end of March 2024, Nodirbek Abdusattorov reached fourth place in the FIDE Elo rating with 2765 points, surpassing reigning world champion Ding Liren (2762) of China and other famous grandmasters. Norwegian grandmaster and multiple-time world champion Magnus Carlsen tops the world ranking with 2830 points, followed by American players Fabiano Caruana (2803) and Hikaru Nakamura (2789). At only 20 years old, Nodirbek Abdusattorov has become the highest-rated chess player in Uzbekistan's history. Before that, only Rustam Qosimjonov had achieved the highest result, ranking 11th with 2715 points. The Elo rating system is a method used to calculate the relative strength of players in sports involving two participants. It was developed by Hungarian-American physics professor Arpad Elo. In chess, the Elo rating is calculated based on the results of players competing against each other. The Elo rating system classifies chess players into nine categories: the highest category starts from 2600 points, while the lowest level corresponds to a rating of 1200 and below.

Conclusion: President Shavkat Mirziyoyev recognized the achievements of grandmaster Nodirbek Abdusattorov. "Let us all sincerely wish on this great holiday that Nodirbek will soon bring the world chess crown to our homeland! You are certainly capable of this, my son Nodirbek! Our entire nation awaits this great victory from you," said the head of state in his Navruz greeting. In his Navruz congratulatory message, President Shavkat Mirziyoyev also acknowledged that Uzbek youth are actively participating and winning in international academic olympiads, prestigious competitions and festivals in culture and art, IT, and sports. He recalled that the famous chess grandmaster Nodirbek Abdusattorov secured an early victory at the Prague International Tournament and became one of the world's top four chess players.

References:

1. Stefan Zweig. The Royal Game (Schachnovelle). – Vienna, 1941.
2. Kasparov, Garry. Chess and Life – Moscow: Eksmo, 2008.
3. Elo, Arpad. The Rating of Chessplayers, Past and Present – New York: Arco Publishing, 1978.
4. Official FIDE website: <https://www.fide.com>
5. “Nodirbek Abdusattorov Ranked Fourth in the World” – olamsport.com, March 2024.
6. Mirziyoyev, Shavkat. “Navruz Holiday Greeting” – president.uz, March 2024.
7. “Interesting Facts About the World’s Largest Chess Piece” – BBC Chess Weekly, 2023.
8. Kramnik, Vladimir. Interview: “My Mistake in the Game Against Fritz” – Chessbase News, 2006.

KELAJAK AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING AHAMIYATI

Odilova Ominabonu Muzaffar qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy
madaniyat yo‘nalishi 24/1-guruh talabasi



Yo‘ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy
madaniyat yo‘nalishi 24/1-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola kelajak avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya axloqiy fazilatlarini, his-tuyg‘ularini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, kelajak avlod, barkamol shaxs, jismoniy tarbiya, sport.

Bugungi kunda respublikamizda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ustuvor masalalaridan biridir. Zamonaviy jamiyatda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash har bir davlatning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Inson salomatligi, jismoniy faolligi va ruhiy barqarorligi bevosita jismoniy tarbiya va sport bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod orasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ‘ib qilish, ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy faollik va irodaviy sifatlarini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Shu sababli, jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e‘tibor berilishi nafaqat individual salomatlik, balki butun jamiyat farovonligining kafolati hisoblanadi. Jismoniy tarbiya-bu bolalar, o‘smirlar va yoshlarda jismoniy salohiyatni oshirish, to‘g‘ri gavdani shakllantirish, harakat faoliyatini rivojlantirish, salomatlikni mustahkamlash va irodaviy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan

tizimli mashg‘ulotlar majmuasidir. U yosh organizmining to‘laqonli rivojlanishida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Jismoniy tarbiya orqali o‘quvchilarda iroda va intizom, mehnatsevarlik va sabr-toqat, qoidalarga rioya qilishodati, jamoa bilan ishlash qobiliyati shakllanadi. Bu fazilatlar esa o‘z navbatida ularning nafaqat sportda, balki hayotda ham muvaffaqiyatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Sport insonni nafaqat jismonan chiniqtiradi, balki ma‘naviy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Sport musobaqalarida ishtirok etish, g‘alabaga intilish, mehnat qilish orqali yoshlarda sog‘lom raqobat, halollik, bardavomlik, o‘zini boshqara bilish, muammolarni yengish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan sport sohasiga qaratilayotgan e‘tibor, yoshlar orasida sport maktablari, to‘garaklari, sport inshootlarining barpo etilishi bu borada katta zamin yaratmoqda. Ayniqsa, yengil atletika, suzish, kurash, futbol, voleybol kabi sport turlarining ommalashib borayotgani quvonarli hol. Sog‘lom tanani shakllantirishda muntazam jismoniy faollikning ahamiyati beqiyos. Harakatga boy turmush tarziga ega insonlarda yurak-qon tomir kasalliklari, semizlik, asabiy buzilishlar, depressiya holatlari ancha kam uchraydi. Shu boisdan ham jismoniy tarbiya va sport kasalliklarining oldini olish va salomatlikni mustahkamlashda tabiiy profilaktika vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, pandemiya sharoitida ham sportning ahamiyati yana bir bor o‘z isbotini topdi. Mustahkam immunitet, jismoniy chidamlilik - bu sog‘lom hayotning asosi bo‘lib, uni yoshligidanoq shakllantirish lozim. Maktabgacha ta‘limdan boshlab oliy ta‘limgacha bo‘lgan bosqichlarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari majburiy tarzda joriy etilgan. Bu orqali yoshlar ertalabki badantarbiya, darsdan tashqari sport to‘garaklari, sport bayramlari va musobaqalarda ishtirok etib, sog‘lom turmush tarziga o‘rganadilar. Shuningdek, jismoniy tarbiya orqali ta‘lim-tarbiya birligi ta‘minlanadi. Jismoniy faoliyat insonning o‘quv faoliyatini ham yaxshilaydi, fikrlash qobiliyatini oshiradi, stress va zo‘riqishni kamaytiradi. Jismoniy tarbiya va sport kelajak avlodni sog‘lom, barkamol, ma‘naviy yetuk va ijtimoiy faol insonlar

sifatida voyaga yetkazishda muhim vositadir. Sogʻlom yoshlar-sogʻlom jamiyat demakdir. Shu boisdan ham har biro ta-ona, ustoz, taʼlim muassasasi va jamiyat jismoniy tarbiya va sportning targʻibotiga alohida eʼtibor qaratmogʻi lozim. Kelajakni sogʻlom avlodga qurib berish-bu jamiyatning eng ulugʻ vazifasi. Bu yoʻlda esa jismoniy tarbiya va sport eng ishonchli tayanchdir. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim togʻrisida” gi qonuni, “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyunda Oʻquvchi va talaba yoshdagi sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalarini tizimini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qaror, shuningdek,jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid hujjatlar qarorida belgilangan vazifalar, taʼlim muassasalarida bugungi kunda eng dolzarb masala, yaʼni yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sport harakatlarini kuchaytirish uchun ommaviylikini oshirishga qaratilgan. Ushbu qaror va farmoyishlar barcha taʼlim tizimiga yosh avlodni jismonan baquvvat, chaqqon, irodali, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish uchun jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini yangi usullar bilan tashkil qilish va oʻtkazish, oʻquvchi yoshlarni sport mashgʻulotlariga uzluksiz jalb qilish va rivojlantirish hamda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilishga yoʻnaltirilgan. Ushbu qonun va qarorlar, meʼyoriy hujjatlarni hayotga tadbiiq etishga Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, oliy va oʻrta maxsus kasb-hunar taʼlimi markaziy, xalq taʼlimi vazirligi, “Mahalla” jamgʻarmasi, Yoshlar ittifoqi kengashi hamda bir qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oʻquvchi-yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish ishlarini sportga kengroq jalb qilish hamda sport turlarining ommaviylikini oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Shuning uchun ham, taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish yoshlar oʻrtasida jismoniy tarbiya va sport harakatlarini kuchaytirish muhim pedagogik-psixologik ahamiyatga ega. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti Islom Karimov “Sogʻlom va kelajak avlodni tarbiyalash, kelajagi

buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o‘zimizga yuksak obro‘ egallash hisoblanadi. Mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha yoshlardagi tarbiyalanuvchilar o‘rtasida tashkil etilgan. “Sog‘lomjon va polvonjon”, yoshlar orasida “Futbol g‘unchasi”, “Yoshlik”, “Futbol kelajagi”, “Umid” kuboklari, maktab-internet o‘quvchilari o‘rtasida respublika birinchilari, o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida “Quvnoq startlar”, “Umid nihollari”, “Kelajak avlod”, “Universiada” hamda “Shunqorlar” harbiy sport musobaqalari hamda xotin-qizlar Spartakidasi, mahallalarda “Futbol kelajagi”, “Mahallamiz polvonlari”, “Sog‘lomoila” oilaviy sport musobaqalari, Milliy sport turlari va xalq o‘yinlari, “Alpomish” va “To‘maris” festivali kabi tadbirlar shular jumlasidandir. Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Uzviylik va davomiylik;
- Tizimli boshqaruvlik;
- Maqsadlilik va samaradorlik;

Uzluksiz ta‘lim tizimida ommaviy sport o‘yinlarini dasturiy yondashuvi asosida boshqarishning yuqoridagi tizimi mazkur tadbirlarning uzviyligi va davomiyligi ta‘minlaydi. Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan tizimining amalga oshirilishi bu boradagi vazifalarning ijobiy hal etilishiga bog‘liq.

Xulosa, shunday qilib kelajak avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya axloqiy fazilatlarini, estetik his-tuyg‘ularini har tomonlama rivojlantirib boradi. Shuning uchun ham, bugungi kunda uzluksiz ta‘lim tizimida ommaviy tus olgan uch bosqichli sport musobaqalarini mazmunan takomillashtirish ular tarkibining sport turlari bo‘yicha uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash, musobaqalarning yoshlarga quvonch, zavq bag‘ishlash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish talab etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.*

2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent., O'zbekiston jismoniy tarbiya instituti, 2005-yil -300b.

3. www.pedagog.uz

PORTRET JANRINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Abdumajidova Komila Abrorbek qizi

Alimova Sevinch Abdurashid qizi

San’atshunoslik fakulteti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi

1- bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada portret va uning tarixi haqida kerakli ma’lumotlar, undagi ranglarning roli va bu ranglarning psixologik ta’sir etishi yoritib berilgan. San’atdagi mashhur rassomlar ularning ijod yo‘li va asarlari haqida keltirib o‘tilgan. Issiq va neytral ranglarning inson ruhiyati, hissiy holati va kayfiyatining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Portret janri, san’atdagi rassomlar, ranglar, psixologik ta’sir.

Portret janri: tarixi, turlari, ranglar psixologiyasi va O‘zbekistondagi talqini. Mazkur maqola portret janrining tarixiy rivoji, uning asosiy turlari, ranglarning inson psixologiyasiga ta’siri hamda O‘zbekiston va jahon san’atidagi yorqin namoyandalar ijodini keng qamrovli tahlil qiladi.

Tarixiy ildizlar va janrlar tasnifi. O‘rta Osiyoda ranglar haqidagi ta’limot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik va devorlarga fresko pannolar ishlash bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Portret janrining shakllanishi esa Yevropada Uyg‘onish davri (XIV-XVI asrlar) ga to‘g‘ri keladi. Ushbu janrning rivojlanish bosqichlari quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

1. Qadimiy davr: Misr va Yunoniston (miloddan avvalgi IV-I asrlar)
2. Qadimgi Rim davri (milodiy I-IV asrlar)
3. O‘rta asrlar (V-XIV asrlar)
4. Uyg‘onish davri (XIV-XVI asrlar)
5. XVII-XVIII asrlar

6. XIX-XX asrlar oralig'i va hozirgi kunga qadar

“Portret” so‘zi fransuzcha “portrait” so‘zidan olingan bo‘lib, “tasvir”, “surat” ma’nolarini anglatadi. Portretlar asosan besh asosiy turga bo‘linadi:

1. Shaxsiy portret: Insonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki dunyosi, ruhiy holati va individual xususiyatlarini aks ettiradi. Leonardo da Vincining “Mona Liza” asari bunga yorqin misol.

2. Rasmiy portret: Davlat arboblari, qirollar va boshqa muhim shaxslarning jiddiy qiyofasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Napoleonning rasmiy portretlari bu turga kiradi.

3. Tarixiy portret: Faqatgina tarixiy shaxslarni tasvirlamay, ularning tarixiy o‘rnini va ahamiyatini ham ta’kidlaydi.

4. Karikatura yoki grotesk portret: Insonlarning xususiyatlarini bo‘rttirib, kinoyali, kulgili yoki tanqidiy ko‘rinishda ifodalaydi.

5. Avtoportret: Rassomning o‘z ichki dunyosini ifodalash, san’at uslubini sinash va o‘z-o‘zini anglash uchun foydalaniladi. Vinsent van Gogning asarlari bunga misol.

Portret janri bugungi kunda ham san’at va jamiyatda o‘zining chuqur ahamiyatini saqlab qolmoqda. U nafaqat insonning tashqi ko‘rinishini tasvirlash, balki uning shaxsiyatini, madaniy va ijtimoiy mavzularni ham ochib berishda yordam beradi. U rassomlar va tomoshabinlar uchun o‘z-o‘zini anglash, jamiyatni chuqurroq tushunish va madaniy muloqot qilish imkonini beradi.

Jahon va O‘zbek san’atida portretning o‘rni. O‘zbekiston xalq rassomi, professor, Respublika Badiiy akademiyasi faxriy akademigi Malik Nabiyev (1916-2008) yaratgan betakror tarixiy asarlari sirasidan Beruniy portreti alohida o‘rin egallaydi. Bu portret ustidagi izlanish 1949-yildan boshlanib, 1973-yilgacha, ya’ni 32 yil davom etgan. Taniqli musavvir mo‘yqalami ostida Abu Rayhon Beruniyning hayotiy qiyofasi yaratilgan.

Yana bir atoqli o‘zbek rassomi Rahim Ahmedov (1921-2008) «O‘zbek ayolining portreti» va «Sharq ayoli» kabi mashhur

asarlari bilan tanilgan. Chingiz Ahmarov (1912-1995) monumental va portret janrlarida ijod qilgan bo‘lib, uning «Navoiy siyмосi» va «Sharq mutafakkirlari» kabi asarlari xalqimiz orasida juda mashhur. Hozirgi kunda ijod qilib kelayotgan o‘ziga xos rassomlarimizdan biri Akmal Ikromov (1950-yildan hozirgi kunga qadar) zamonaviy portret janri va ekspressionizm uslubida ijod qiladi.

Jahonda ham portret janrida ulkan iz qoldirgan san’atkorlar ko‘p. Italiya Uyg‘onish davri rassomi Leonardo da Vinchi (1452-1519) va uning «Mona Liza» asari sirli tabassumi va realizmi bilan ajralib turadi. Gollandiya Barokko davri rassomi Rembrandt van Reyn (1606-1669) portretlarida yorug‘lik va soyaning mahorat bilan ishlashi bilan tanilgan. Uning mashhur asarlari qatoriga «Doktor Tyulpning anatomiya darsi» va ko‘plab avtoportretlari kiradi.

Ranglar psixologiyasi va ularning inson ruhiyatiga ta’siri. Issiq ranglar (qizil, sariq, jigarrangning issiq tusalari) olov, yoz fasli va energiyani eslatuvchi ranglarni o‘z ichiga oladi. Ular odamda iliqlik, jonlilik va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi mumkin.

- Qizil: Ehtiros, kuch, energiya va kayfiyatning ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ta’siri: E’tiborni o‘ziga jalb qilishi va odamni charchatishi mumkin.

- Sariq: Ijodkorlik energiyasi, quvonch, iliqlik va optimizmni anglatadi. Ta’siri: Ruhiy ko‘tarinkilik, energiyani oshiradi va kayfiyatni yaxshilaydi.

- Jigarrang (issiq tusi): Tabiiylik, sadoqat va ishonchlilikni anglatadi. Ta’siri: Odamga osoyishtalik bag‘ishlaydi.

Neytral ranglar (masalan, kulrang, bej, oq) esa juda tinch va sokin hisoblanaadi. Ranglar bilan ishlash inson psixologiyasini yaxshilashga katta yordam beradi. Depressiya yoki stressni davolash uchun hozirgi kunda art-terapiya usulidan foydalanish ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada nafaqat ranglar va ular bilan bog‘liq turli terapiyalar, balki rassomlarning asarlari ham katta rol o‘ynaydi va ular turli ma’nolarga ega bo‘ladi:

- Vinsent Van Gogning «Yulduzli tun» asari umid uyg‘otadi, romantik va orzuga to‘la bo‘lib, ranglarning harakati hayotning

go‘zalligini va murakkabligini bildiradi.

- Leonardo da Vincining «Mona Liza» asaridagi noyob sirlı nigoh insonni o‘ziga tortadi, sirlarga to‘la hayotni his qildiradi.

- Klod Monening «Nilufar gullari» asari tabiat, suv va yorug‘likning betakror go‘zalligini ochib beradi va stressni kamaytiradi.

- Pablo Picassoning «Gernika» asari urushning dahshatli oqibatları, inson azobi va zo‘ravonlikni aks ettiradi, tomoshabinni chuqur o‘ylashga majbur qiladi.

- Salvador Dalining «Vaqtning suyuqligi» asari vaqt nisbiyligini eslatadi, hayotning qisqa va o‘tkinchiligi haqida o‘ylashga undaydi.

- O‘zbek rassomi Chingiz Ahmarovning «Alpomish» freskasi milliy qadriyatlarimiz, kuch, vatanparvarlik va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini anglatadi.

- Yana bir mashhur rassomimiz Kamoliddin Behzodning miniatyura asarlari noziklik, go‘zallik va hayot manzaralarini estetik ifoda etadi.

Xulosa.

Portret janri san‘atning eng qadimiy va chuqur mazmunga ega yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u insonning tashqi ko‘rinishi bilan birga ichki dunyosi, ruhiy holati va jamiyatdagi o‘rni haqida chuqur ma‘lumot beradi. Bu janrning tarixiy rivoji Misr va Yunoniston davridan boshlab bugungi zamonaviy ekspressionistik ifodagacha yetib kelganligi, uning doimiy o‘zgaruvchan va boy uslubiy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ranglarning portret san‘atida tutgan o‘rni esa nihoyatda muhim bo‘lib, ular inson psixologiyasiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi: issiq ranglar ijobiy energiya va ruhiy ko‘tarinkilik uyg‘otsa, neytral ranglar xotirjamlik va muvozanat yaratadi. Shuningdek, mashhur jahon va o‘zbek rassomlarining portret janridagi ijodiy izlanishlari ushbu yo‘nalishga estetik, falsafiy va madaniy chuqurlik bag‘ishlaydi. San‘atda ranglar vositasida inson ruhiyatiga ta‘sir etish, art-

terapiya kabi zamonaviy yo‘nalishlar orqali portretlar bugungi kunda nafaqat go‘zallik ifodasi, balki insoniylik, ruhiy salomatlik va ijtimoiy anglanish vositasiga ham aylanmoqda. Demak, portret janri bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi zamonaviy ma’no va shakllar bilan boyib, san’atda va psixologik jarayonlarda muhim o‘rin tutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ankabayev, A. T. Rangtasvir: 1-kurslar uchun o‘quv qo‘llanma. 1-qism. Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021.
2. Alimova, S. A., Abdumadjidova, K. A. Portret janrining bugungi kundagi ahamiyati, ranglarning roli va psixologik ta’siri // Chirchiq davlat pedagogika universiteti. 2025.
3. Karimov, R. Ranglar psixologiyasi va tasviriy san’atda ularning o‘rni. Toshkent: San’at nashriyoti, 2019.
4. Shomurodov, A. O‘zbek san’ati va rassomlik tarixidan lavhalar. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. Qurbonov, H. Portret janrining evolyutsiyasi: Uyg‘onishdan hozirgacha. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti, 2017.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

San’atshunoslik fakulteti
Baynazarova Nilufar Xikmatullayevna,
tyutor



Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi mazmuni, bosqichlari va pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining muhim jihatlari tahlil etiladi. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik bosqichida mutaxassislikka oid fundamental bilimlarni o‘zlashtirishning mazmuni, ahamiyati, shuningdek amaliy tayyorgarlikning ahamiyati, shakllari va samaradorlikka ta’siri natijasida tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy va amaliy tayyorgarlik, pedagogik faoliyat, kompetensiya, amaliyot, metodika, amaliy mashg‘ulot.*

“Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir”. Ta’lim tizimining isloh qilinishi pedagog shaxsiga va uning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat o‘z fanini bilishi, balki pedagogik, psixologik, kommunikativ, metodik va axloqiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik mazmuni chuqur o‘ylangan, bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Ta’lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan zamonaviy o‘qituvchining kompetentligi yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo‘g‘rilgan. Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim sifati va uzluksizligini ta’minlash va o‘zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o‘quv

jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo'lishi shart.

Hozirgi globallashtirish va texnologik rivojlanish sharoitida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri — talabalarni bozor talablariga javob bera oladigan, amaliy ko'nikmalarga ega va mustaqil ishlay oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashdir. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash — bu nafaqat nazariy bilim berish, balki ularning professional kompetensiyasini, amaliy tajribasini va mehnat bozoriga moslashish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. [1]

Talaba oliy ta'lim muassasasiga kirishdan oldin kasb tanlaydi va bu uning kelajak rejalarini va qaysidir ma'noda taqdirini aniqlab beradi. Bu yangi vazifalar (kasbiy faoliyatni o'zlashtirish) va mavjud imkoniyatlar orasida, shakllangan qobiliyat va iste'dodni rivojlantirish o'xshash munosabatlar kelib chiqadi. Kasbiy tayyorgarlik yo'lining o'zi talabadan tez o'zgarishini talab qiladi, ya'ni jadal ijtimoiy ulg'ayishini va kasbiy - shaxsiy jihatdan rivojlanishini talab qiladi.[2]

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etib, har bir pedagog yosh qalblar kamolotining me'mori sanaladi. U bolalarni har tomonlama chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o'rgatish jarayonida, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning mukammal va noodatiy yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishini talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat o'qituvchidan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart – sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy – metodik yordam ko'rsatishi hamda o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ta'lim olish jarayonidagi olgan bilimlari zamin bo'ladi.

Kasbiy tayyorgarlik — bu talabaning o'z sohasida faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni.[2]

Asosiy nazariy bilimlarni egallash - bu bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim bosqich bo'lib, uning pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Bo'lajak pedagoglar nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish orqali kelajakdagi amaliy faoliyatga tayyor bo'ladilar. Bu bilimlar ularga nafaqat dars berishda, balki har bir o'quvchi bilan individual ishlashda, tarbiyaviy muammolarni hal etishda, zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishda yordam beradi. Talaba qanchalik nazariy bilimlar bilan yaxshi qurollangan bo'lsa, kelajakda dars berish jarayonida ushbu bilimlardan samarali foydalana oladi.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish - nazariy bilimlarni real ta'lim jarayonida qo'llashga tayyor bo'lish demakdir. Bu jarayon pedagogik faoliyatning samarali amalga oshirilishi uchun juda muhim hisoblanadi. [3]

Amaliy ko'nikmalar deganda dars rejasini tuzish va uni samarali tashkil etish, turli o'qitish metodlaridan foydalana olish, interaktiv usullar va AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)ni qo'llash, o'quvchi bilan individual yondashuvni tanlash, muomala madaniyati va o'qituvchi sifatida o'zini tutish ko'nikmasi, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. Hozirgi kun talabasi ushbu amaliy ko'nikmalarni o'zida shakllantirgan holda dars jarayoniga kirgan taqdirda, u maktab o'quvchisini o'z faniga qiziqтира oladi.[4]

Kasbiy tayyorgarlik ham o'z o'rnida bir necha bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog kadrlar tayyorlashda chuqur nazariy hamda amaliy bilimlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchining o'z fanini puxta bilishi — ta'lim sifatining muhim omillaridan biridir. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida fundamental bilimlarni o'zlashtirish jarayoni alohida e'tiborni talab qiladi. Mutaxassislikka oid nazariy tayyorgarlik fundamental bilimlarni o'zlashtirish asosida shakllanadi. Fundamental bilim — bu fan asoslarini tashkil etuvchi, umumiy nazariy tushunchalar va qonuniyatlarga tayanuvchi

bilimlar tizimidir.[5]

Zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarning mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni o'quv-amaliyot laboratoriyalari, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Amaliy tayyorgarlik — bu bo'lajak mutaxassisning real kasbiy faoliyatga tayyorlanishdagi ajralmas bosqichdir. Amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyoti orqali talabalar mustahkam ko'nikmalarga ega bo'lib, o'z kasbining puxta egasiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, oliy ta'limda amaliy fanlar yo'naishida amaliy tayyorgarlik sifatini oshirish va unga ko'proq e'tibor qaratish — raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning asosiy shartidir. [6]

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy amaliyot muhim o'rin egallaydi. U nazariy bilimlarni real ta'lim jarayoni sharoitida qo'llash, tajriba orttirish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, maktab va bog'chalarda o'tkaziladigan amaliyot talabalarni ish faoliyati bilan yaqindan tanishtirib, ushbu muhira ko'nikishi va o'zini sinab ko'rishi uchun sharoit hisoblanadi. Kasbiy amaliyot jarayonida talaba mehnat jamoasi bilan ishlashni, ish jarayonidagi real vazifalarni bajarishni, o'z mutaxassisligi bo'yicha rejalashtirishni, me'yoriy hujjatlar bilan tanishish imkoni paydo bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash zamonaviy ta'limning eng dolzarb vazifalaridan bo'lib, bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo'lib, u nafaqat ta'lim mazmunini yetkazishni, balki shaxsiy, kasbiy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayon faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanmasdan, amaliy ko'nikmalar va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A.X., Xasanboyeva N.A. Pedagogika.

– Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.

2. Jabborov S.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: «Ilm-Ziyo», 2019.

3. Rasulova D.M. O‘qituvchilik kasbiga kirish. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2021.

4. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: «Akademkniga», 2003.

5. Shodmonqulova D.K. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

6. UNESCO. Teachers of the 21st Century: Status and Challenges. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

San'atshunoslik fakulteti
Dushanboyeva Xusnida Qudrat qizi
Tuyinova Nozima Erkinjon qizi
Libos dizayn yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarni joriy etishning dolzarbligi, imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishi, o'quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va o'quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maktab infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi bo'yicha xalqaro tajriba asosida taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, umumiy o'rta ta'lim, innovatsion ta'lim, raqamli savodxonlik, ta'limda texnologiyalar, o'qituvchilar malakasi, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'lim islohotlari, raqamli transformatsiya

Kirish: Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida inson hayotining barcha jabhalarida raqamli texnologiyalar tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, sanoat, sog'liqni saqlash, moliya va hatto san'at singari ko'plab sohalarda innovatsion yechimlar taqdim etmoqda. Bunday yuksak texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi esa, bu sohada tub burilish yasash imkonini bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari — jamiyatda bilimli, tafakkur qiluvchi va zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lgan

avlodni shakllantirishdagi eng muhim bo'g'indir. Ta'limda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarga individual yondashuv, interaktiv va vizual o'qitish, real vaqt rejimida tahlil qilish hamda avtomatlashtirilgan baholash kabi zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat darajasida muhim qaror va loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimini raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bunga javoban, maktablar bosqichma-bosqich elektron platformalarga o'tkazilmoqda, dasturlash asoslari, axborot texnologiyalari, raqamli madaniyat kabi fanlar joriy etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat texnik jarayon, balki pedagogik, metodik va madaniy o'zgarishlarni ham talab etadi. Bu texnologiyalar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatga, ta'lim metodologiyasiga, hatto bilimni baholash tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli talim, yani raqamli texnologiyalar orqali o'quv jarayonini amalga oshirish, bugungi kunda talim sohasidagi muhim mavzulardan biridir. Raqamli ta'limning asosiy maqsadi, o'quvchilarga interaktiv darslar, onlayn o'quv resurslari va boshqa raqamli vositalar orqali o'qish va o'rganish imkoniyatlarini yaratishdir. Raqamli ta'limning O'zbekistonda rivojlanishi ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi talim tizimida raqamli ta'limni rivojlantirishga oid markazlar faoliyat yuritadi. Misol uchun, Raqamli Ta'limni Rivojlantirish Markazi Telegram kanalida va YouTube kanalida o'quvchilarga maxsus ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va boshqa ma'lumotlar taqdim etiladi. Boshqa universitetlar ham raqamli ta'limni rivojlantirishga e'tibor qaratishadi, masalan, Toshkent davlat Transport universitetida Raqamli Ta'lim Texnologiyalari Markazi faoliyat yuritadi. Raqamli ta'limning rivojlanishi ta'lim sohasida yangiliklar va innovatsiyalar bilan bog'liq. O'zbekiston talim tizimida raqamli talimning

rivojlantirishga oid konferensiyalar, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to‘plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun. Andijon davlat pedagogika instituti trenninglar va boshqa tadbirlar o‘tkazilgan. Bu tadbirlar o‘quvchilarga raqamli ta’limning muhimligini tushuntirish, o‘qish va o‘rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Raqamli talimni rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 son Farmonida ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda talimni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish, ta’limning barcha yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish belgilab qo‘yildi. Bulutli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil qilishning yangi usuli bo‘lib, ta’lim jarayonini tashkil etishning an’anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi, shaxsiy ta’lim jamoaviy o‘qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimida “bulut” texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi hali yaratilgan o‘rganilmagan bo‘lib, adabiyotlar ham yetarli emas. Bulutli texnologiyalarni ta’limda qo‘llash tizimlariga elektron kundalik, elektron jurnallar, interfaol tizimlar, axborot qidiruv tizimlarini misol qilish mumkin. Bulutli texnologiyalarni ta’limda qo‘llashda talabalarning birgalikdagi loyihasini samarali tashkil qilish mumkin. Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarni internet orqali saqlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Ta’limda bulutli texnologiyalardan foydalanishning bir necha samaradorligi mavjud; Elektron kundaliklar va jurnallar: Bulutli texnologiyalar orqali talabalarga elektron kundaliklar va jurnallar taqdim etish mumkin. Bu o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun

ma'lumotlarga oson va masofadan kirish imkonini beradi. Shaxsiy hisoblar: Talabalar va o'qituvchilar uchun shaxsiy hisoblar orqali ta'lim faoliyatini boshqarish imkoniyati mavjud. Bu hisoblar orqali talabalarning o'zlarining ma'lumotlarini saqlash, elektronik kundaliklarga kirish, interaktiv qabulxonalar va tematik forumlarga kirish imkoniyatini beradi. Interaktiv qabul qilish: Bulutli texnologiyalar, talabalarga interaktiv qabul qilish imkonini beradi. Tematik formulalar: Talabalar uchun tematik formulalar orqali ma'lumot almashish va fikrlarni almashtirish imkoniyati mavjud. Ta'lim muammolarini hal qilish: O'qituvchilar, talabalar uchun muammolarini hal qilish uchun bulutli texnologiyalardan foydalanishadi. Bulutli muammolarni hal qilish: Ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar uchun ma'lumotlarni bulutda saqlash imkoniyatini beradi. Bu ma'lumotlarining xavfsiz va osonlik bilan saqlanishi va ularga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirish imkonini beradi. Bulutli texnologiyalardan foydalanish talim sohasida bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida hujjatlar bo'yicha xodimlarning hamkorligi, ta'lim tizimini o'zgartirish tamoyillarini amalga oshirish va boshqalar kiritilgan. Shunday qilib, bulutli texnologiyalar bu ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari bo'lib, unda kompyuter resurslari internet foydalanuvchisiga onlayn xizmat sifatida taqdim etiladi.

Xulosa qilib shuni aytishi mumkinki, bugungi kunda rivojlanayotgan sun'iy intellekt varaqamli texnologiyalarning ijobiy taraflari bo'lgani kabi salbiy taraflari ham mavjud. Ya'ni bularni oqibatida kelajakda bolalar faqat internetda o'qishga o'rganib qolishadi, bir qancha kasblarning yo'q bo'lishiga va ko'p insonlarni ishsizligiga sabab bo'ladi. Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarining kirib kelishi talabalarga ma'lumotlarni yanada oson olishlariga yordam bermoqda. Sun'iy intellektlarning ommalashuvi natijasida talabalar ongining pasayishiga olib kelmoqda. Bunga sabab esa sun'iy intellekt talabalar uchun berilgan vazifalarni osonggina qilib beradi. Bu esa talabalarning bilim olishlariga to'sqinlik qiladi. Lekin bu texnologiyalarning

foydali taraflari ham juda ko‘p, agar bulardan kerakli vaqtda to‘g‘ri foydalansak albatta biz raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekdan juda ham ko‘p ma‘lumotlarni olib, bilimlarimizni yanada ko‘paytirishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PQ-142-sonli qarori "Raqamli texnologiyalar sohasini rivojlantirish va ularni ta‘lim tizimiga tatbiq etish chora-tadbirlari to‘g‘risida".

2. Karimova, D. Sh. Raqamli texnologiyalar va ularning o‘quv jarayonidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti, 2021.

3. Qodirov, S. Sun‘iy intellekt: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

4. Xolmatova, M. T. Ta‘limda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning zamonaviy yo‘nalishlari // Ta‘lim innovatsiyalari jurnali. 2020. №2. B. 45–52.

5. UNESCO. AI and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2021.

6. Anderson, J., & Rainie, L. The Future of AI in Education // Pew Research Center. 2022.

7. Raqamli texnologiyalar vazirligi. Sun‘iy intellekt strategiyasi – 2030. Toshkent: RT vazirligi axborot markazi, 2023.

8. Xasanov, B. A. O‘quvchilarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish – zamon talabi // Yosh pedagoglar jurnali. 2022. №4. B. 31–37.

INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOLARI VA TASVIRIY SAN'AT ORQALI YECHIMLARI

San'atshunoslik fakulteti

Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi,
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"

yo'nalishi

2-bosqich talabasi



Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zni hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurati yoritilgan. Amaliyotga joriy etishda duch kelinayotgan muammolar, mavjud yondashuvlar va samarali tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalar nigohidan ham inklyuzivlik estetik qadriyat sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: diskriminatsiya, pandus, defektolog, inklyuziya, san'at, ijtimoiy tenglik.

Kirish. So'nggi yillarda jahon ta'lim tizimida katta e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri — bu inklyuziv ta'limdir. Ushbu yondashuv barcha bolalarning, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy cheklolvaridan qat'i nazar, bir xil muhitda, teng sharoitda va sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston ham bu borada muhim islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda. [1]

Inklyuziv ta'limning asosi — har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, unga mos muhit yaratishdir. Bu yondashuv diskriminatsiyani kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va ta'limda tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida psixolog, defektolog, logoped, ota-ona va pedagoglarning hamkorligi muhim o'rin tutadi.[2]

Mamlakatimizda ayrim umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilgan, "Mehribon maktab" loyihasi joriy qilinmoqda. UNESCO, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etilmoqda. Qonunchilik

bazasi ham takomillashtirilmoqda: 2009-yilda O‘zbekiston BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasini imzolagan.[5]

Amaliyotda quyidagi muammolar mavjud:

- Pedagog kadrlarda maxsus kompetensiyalarning yetishmasligi;

- Maktab infratuzilmasining nogironligi bor o‘quvchilarga mos emasligi;

- Individual ta‘lim rejaları yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- Ijtimoiy stigma va diskriminatsiya holatlari.

Yechim sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- Malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- Darslik va o‘quv metodikasini moslashtirish;

- Maktab infratuzilmasini moslashtirish (panduslar, liftlar, maxsus belgilar);

- Ota-onalarni faol jalb qilish.[3]

Men — tasviriy san‘at yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba sifatida, inklyuziv ta‘lim g‘oyasini insonparvarlik, go‘zallik va ijtimoiy uyg‘unlik nuqtai nazaridan talqin qilaman. Rassom uchun har bir chiziq — his-tuyg‘u, har bir rang esa shaxsiy dunyoqarash aksidir. Xuddi shunday, har bir bola — o‘ziga xos “rang”, ularning barchasi jamiyat manzarasini rang-barang va ma‘noli qiladi.

Nogironligi bor bolalarga bag‘ishlab chizgan rasmlarim orqali men ularning kuchli irodasi va ichki dunyosi naqadar boy ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘laman. Ular jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishlari, o‘z san‘atlari orqali o‘zlarini namoyon etishlari kerak. San‘at vositasida biz jamiyatdagi stereotiplarga qarshi kurashishimiz, inklyuzivlikka da‘vat etishimiz mumkin.[4]

Bundan tashqari, maktablardagi devoriy plakatlar, rangli belgilar, o‘quv qurollarining vizual ko‘rinishi ham inklyuziv ta‘limning bir qismidir. Biz, tasviriy san‘at sohasidagi talabalar, ushbu yo‘nalishda ham foydali bo‘lishimiz, o‘quv materiallarini soddalashtirish, piktogrammalar asosida tushunarli navigatsiya

tizimlarini yaratishimiz mumkin.

Nogironligi bor bolalar uchun san'at mashg'ulotlari — bu nafaqat terapiya, balki o'zini anglash, jamiyatga kirib borish yo'lidir. Ularning qo'li bilan yasalgan haykallar, chizgan suratlar — bu ularga berilgan imkoniyat samarasidir. Shu sababli, inklyuziv ta'lim doirasida san'at mashg'ulotlarini keng joriy etish lozim deb hisoblayman.[5]

Xulosa. Inklyuziv ta'lim — bu nafaqat ta'limdagi yangilik, balki insoniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi kuchdir. Har bir bolaning huquqi, imkoniyati va qobiliyati hurmat qilnadigan jamiyat barpo etishda inklyuziv yondashuv muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bu sohada muammolar yetarli, ammo yechimlar ham mavjud: pedagoglar tayyorlash, metodikani yangilash, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish va maktab muhitini moslashtirish.

Bularning barchasi faqat ta'lim sifati emas, balki inson huquqlari va estetik uyg'unlikni ta'minlash yo'lida ham muhim qadamlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова, З.Ф. Инклюзивное образование: теория и практика. — М.: Академический проект, 2020. — 256 с.
2. PQ–187-sonli Prezident qarori. “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”. — 2021.
3. Халипова, Е.Е. Современные подходы к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья // Вопросы психологии. — 2022. — №5. — С. 34–40.
4. UNESCO. Inclusive education: the way of the future. International Conference on Education. — Geneva: UNESCO, 2021.
5. UNICEF Uzbekistan. Inclusive education in Uzbekistan: Status, challenges and opportunities. — Tashkent: UNICEF, 2023.

INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

San'atshunoslik fakulteti

Imomatova Umida Mirpulatovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Tasviriy san'at va dizayn” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda ta'limda ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalar pedagogik ta'limni rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi. Ushbu sohalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Kelajakda bu istiqbollarni rivojlantirish orqali biz sifatli ta'lim tizimini yaratishimiz mumkin. Innovatsion pedagogik usullar ta'lim jarayonini yangilashga va talabalarni yanada faol ishtirok etishga undashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, innovatsiya, madaniyat, texnologiya, interaktiv, kreativ.

Ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalar orqali pedagogik ta'limni rivojlantirish istiqbollari hozirgi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohalar o'rtasidagi bog'liqlik ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Innovatsion pedagogik usullar innovatsiyalar ta'lim jarayoniga yangi metodologiyalar va texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Masalan, interaktiv ta'lim, masofaviy ta'lim va o'yin orqali o'qitish usullari talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda yordam beradi. Bu texnologiyalar yordamida talabalar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Madaniyat va ilm-fan integratsiyasi madaniyat va ilm-fan o'rtasidagi integratsiya ta'limda ko'p madaniyatlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar turli madaniyatlar bilan tanishib, ularning ilmiy yutuqlarini o'rganish orqali global fikrlash

qobiliyatini rivojlantiradilar.

Shu borada hozirda kreativlik va innovatsion fikrlash pedagogik ta'limda kreativlikni rag'batlantirish, talabalarni yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi. Bu esa innovatsion yechimlar topishda yordam beradi va kelajakda ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga olib keladi. O'qituvchilarni tayyorlash o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsiyalar bilan tanishtirish, ularning professional rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayoni zamon bilan hamnafas yangi innovatsion texnologiyalarni talab qilmoqda. Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlarini tasviriy san'atga bog'lash bilan shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va ijodiy tafakkurini amaliyotga tatbiq etishga olib keladi. Bunda esa uning eng muhim yo'nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo'lib, u talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi.⁸⁴ O'qituvchilar yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va talabalar bilan samarali ishlash uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. O'zaro hamkorlik ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va sanoat o'rtasidagi hamkorlik, yangi tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik talabalar uchun amaliy tajriba olish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim sifatini oshirish ilm-fan va innovatsiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish, talabalar uchun yuqori sifatli ta'lim resurslarini yaratish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, talabalar bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Interaktiv ta'lim. Interaktiv ta'limda o'quvchilar faol ishtirok etadilar. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot kuchayadi, bu esa o'quvchilarning fikrlarini ifoda etish va o'zaro fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Ushbu usulda guruhli ishlar, munozaralar va rolli o'yinlar qo'llaniladi.

Bu borada masofaviy ta'lim texnologiyalari yordamida ta'lim olish imkoniyatini beradi. Talabalar internet orqali darslarga

⁸⁴Abduvoitovich, B. D. (2023). Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(4), 54-58.

qatnashishlari, materiallarni o‘qishlari va o‘z vaqtida topshiriqlarni bajarishlari mumkin. Bu usul talabalar uchun qulaylik yaratadi va ularni mustaqil o‘qishga rag‘batlantiradi.

Undan tashqari o‘yin orqali o‘qitish (Gamification) O‘yin elementlarini ta‘lim jarayoniga kiritish talabalarni qiziqtiradi va motivatsiyasini oshiradi. Bu usulda o‘yinlar, tanlovlar va mukofotlar orqali o‘qitish amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llashlariga yordam beradi.

Kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish Talabalarga muammolarni hal qilish vazifalari berilib, ularni kreativ fikrlashga undaydigan vazifalar tayyorlanadi. Bu usulda talabalar turli xil yondashuvlar bilan muammoni yechishga harakat qiladilar, bu esa ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Loyiha asosida o‘qitish usuli talabalarni muayyan loyiha yoki mavzu bo‘yicha mustaqil ishlashga undaydi. Talabalar loyiha doirasida tadqiqot olib boradilar, muammolarni aniqlaydilar va yechimlar taklif qiladilar. Bu usul jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Flipped Classroom (Teskari dars) Bu usulda talabalarga darsdan oldin video darslar yoki boshqa materiallar beriladi, shunda dars davomida ular o‘z bilimlarini amalda qo‘llashlari uchun vaqt ajratiladi. Bu yondashuv talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va dars vaqtida muhokama va amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e‘tibor berishga imkon beradi.

7. Individual ta‘lim har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta‘lim dasturlarini yaratish. Bu usulda talabalar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab o‘qitiladi, bu esa ularning muvaffaqiyatini oshiradi.

8. STEAM ta‘limi STEAM ta‘limini tatbiq etishning asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlari S –science tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, T – technology-texnologiya, E –engineering muhandislik grafikasi, A – art-san‘at, M – math-matematika yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi.⁸⁵ Bu usulda talabalar fan

⁸⁵ Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta‘limini tatbiq etish orqali tasviriy san‘at fanini o‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O‘zbekistonda fanlararo*

va texnologiyalarni birlashtirib, amaliy masalalarni hal qilishga harakat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, ilm-fan, madaniyat va innovatsiyalar pedagogik ta'limni rivojlantirishda muhim omillar hisoblanadi. Ushbu sohalar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Kelajakda bu istiqbollarni rivojlantirish orqali biz sifatli ta'lim tizimini yaratishimiz mumkin. Innovatsion pedagogik usullar ta'lim jarayonini yangilashga va talabalarni yanada faol ishtirok etishga undashga qaratilgan. Ushbu usullar yordamida ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi, bu esa talabalar bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:


1. Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш // —Замонавий таълим илмий-амалий оммабоп журнали, №11, 2016. -59-64 б.
2. Abduvoitovich, B. D. (2023). Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 6(4), 54-58.
3. Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 187-193.

ILM YO‘LIDA FIDOKOR AYOLLAR, O‘ZBEK OLIMALARINING ILMIIY IZLANISHLARI VA IJTIMOIIY FAOLLIGI

San‘atshunoslik fakulteti

Qayumova Zilola

“Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi”
yo‘nalishi
2-bosqich talabasi.



Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ayollarining ilm-fan sohasidagi o‘rni, ularning izlanishlari, yutuqlari hamda jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Unda taniqli olimalar misolida ayolning ilmga bo‘lgan qiziqishi, mehnatsevarligi va ijtimoiy faolligi ochib berilgan. Shuningdek, ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ilmiy faoliyatga jalb qilishdagi dolzarb masalalar ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: olimo ayol, san‘at, ayol, poydevor, ilm.

Bugungi kunda ilm-fan sohasida ayollar faolligi tobora ortib borayotgani quvonarli hol. O‘zbekiston tarixida ayol siyмосi nafaqat oila, balki jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, ilm-fan sohasida faoliyat yuritayotgan olimo ayollar o‘z aql-zakovati, sabr-toqati va fidoiyligi bilan yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Ularning tinimsiz izlanishlari va yangilikka intilishi zamonaviy O‘zbekiston ilm-fanining mustahkam poydevoriga aylangan. Shuningdek yurtboshimiz tomonidan ayol va qizlarimiz uchun ko‘plab sharoit va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Olimo ayollar jamiyati tuzildi. O‘zbekistonda ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan davlat ravnaqiga katta hissa qo‘shib kelayotgan olimo ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli ravishda tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi huzurida tashkil

etilayotgan nodavlat va notijorat tashkilot. Mazkur tashkilot “Olima ayollar” jamiyati va uning hududiy bo‘linmalari “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi”, “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish” vazirligi hamda “Oliy va o‘rta maxsus” ta’lim vazirligi, O‘zbekiston ixtirochi ayollari markazi nodavlat va notijorat tashkilotining takliflari asosida tashkil etilmoqda.[3]

Ilmli ayollar borasida so‘z borar ekan, buyuk ajdodlarimizning yozgan hikmat-u nasihatlari yodimizga kelaveradi. Ularning har bir so‘zi ilm olishga targ‘ib etadi. Jumladan, Buxorodagi madrasa kattaligi jihatidan Movarounnahrdagi ikkinchi nufuzli madrasaning peshtoqiga Mirzo Ulug‘bek tomonidan “Ilm olishga intilish har bir musulim va musulima uchun farzdir”, degan hadis bitilgan edi. [2]

Demak, ilm olishda o‘g‘il farzand kabi qizlarni ham keng jalb etish kerakligi necha ming asr avval aytilgan ekan. Har bir qizimizning kelajagi oila, jamiyat va Vatanimiz kelajagidir. Yaqin o‘tmishdagi zamondoshimiz Abdurauf Fitrat ham “ayollarimiz – millat onalari ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”, deya o‘z asarida yozib, qizlarni ilm olishga da’vat etganini tarix sahifalarida ko‘rishimiz mumkin. Har bir davrda buyuk ajdodlarimiz oiladagi farzandlarning ilmli bo‘lishiga pand-u nasihat qilgan.

Qisqa qilib aytganda, ilm – bu ma’rifat deymiz. Jaholatni ham yuksak ilm-ma’rifatimiz bilan yengamiz. Hayotimizga kirishga urinayotgan yot g‘oyalarga ham ilmga intilishlarimiz bilan o‘rin qoldirmaymiz. Ilm butun hayot yo‘llarimizni yoritadi.[4]

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan ko‘plab olim ayollar bor. Ular orasida tabiiy fanlar, texnika, tibbiyot, ijtimoiy, gumanitar va san’atshunoslik fanlarda yuksak yutuqlarga erishganlar yetarli.

Xususan tabiiy fanlar bo‘yicha ko‘plab muvaffaqiyatga erishgan olim ayollarimizdan misol keltiradigan bo‘lsam. Akademik Suyima G‘aniyeva adabiyotshunoslik sohasida, Komilaxon To‘xtayeva esa biologiya sohasida olib borgan fundamental tadqiqotlari bilan tanilgan. Ularning ishlari xalqaro miqyosda e’tirof etilgan, ilmiy

maktablar shakllangan. Shuningdek mazkur olim ayollarimizning olib borgan ilmiy izlanishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, hozirda amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

Tibbiyotda esa mashhur olim ayollarimizdan Professor Gulnora Karimovani misol qilib keltirsak bo'ladi. Onkologiya sohasidagi izlanishlari bilan minglab inson hayotini saqlab qolishga hissa qo'shgan. Professor Gulnora Karimova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yangi diagnostika usullarini joriy etishda asos bo'lgan. Hozirgi kunda mazkur tadqiqot tibbiyotda katta yangilik bo'lgan desam adashmagan bo'laman.

San'atshunoslik fanlarini rivojlantirishda ko'plab olim ayollarimizni misol qilib keltirsak bo'ladi. San'atkor ayollarning ilmiy izlanishda olib borgan tadqiqotlari o'z o'rnida ijobiy natijani berdi. Professor Marziya Azizova o'zining teatrshunoslik borasidagi ilmiy ishlari orqali o'zbek sahna san'ati tarixini chuqur o'rgangan. Sahna madaniyatini va O'zbekiston teatrining rivojlanishi uchun ilmiy izlanishlar olib borgan. San'atshunos Nafisa Qurbonova esa xalq amaliy san'ati va milliy liboslar tarixiga oid tadqiqotlar olib borib, milliyligimizni o'zining yaratgan ijodiy ishlarida namoyon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ayollar barcha javhalarda o'z faolligi bilan jamiyatda mustahkam o'rin egallashmoqda. Ayollar ilm-fan, ta'lim, madaniyat, tibbiyot va boshqa sohalarda faollik ko'rsatib, yurt ravnaqiga o'z hissasini qo'shib kelmoqdalar. Yurtboshimiz tomonidan ilm yo'lida o'zining munosib xissasini qo'shgan barcha ayollar taqdirlanib kelinmoqda, hamda ularga ilmiy tadqiqotlarini samarali davom ettirishlari uchun barcha shart-sharoit yaratilmoqda. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar va qo'llab-quvvatlovlar tufayli, olim ayollarimiz ilmiy izlanishlarini yanada samarali olib bormoqda. Ilm – bu taraqqiyot yo'li, u orqali ayollarimiz jamiyatda kuchli, bilimli va yetakchi pozitsiyalarni egallab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Курбонов, Ш.Ш. Музыка таълими методикаси.

- Тошкент: Ўқитувчи, 2020. — 256 б.
2. Мирзиёев, Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022. — 432 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оила ва хотин-қизлар давлат қўмитаси тўғрисида”ги қарори. — Т., 2023. — № PQ-4012.
4. Фитрат, А. Танланган асарлар. — Тошкент: Фан, 2019. — 304 б.
5. Azizova, M. O‘zbek teatr san’atining taraqqiyoti. — Toshkent: San’at, 2021. — 212 b.

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUV: TALABA NIGOHIDAN TAKLIFLAR

San'atshunoslik fakulteti
Qudratova Nozliya Ilhom qizi

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi
2-bosqich talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida raqobatdosh kadrlar tayyorlashda innovatsiya va integratsiyaning muhim ahamiyatlari ko'rib chiqiladi. Unda innovatsiya va integratsiya orqali oliy ta'lim jarayonini takomillashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatilish haqida shaxsiy fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, innovatsiya, ta'lim, professional, texnologiya, uslub, jarayon.

Jamiyat uchun yuqori bilimga ega bo'lgan malakali kadrlarni yetishtirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, texnologiyalar rivojlangan aseimizda pedagogik kadrlardan axborot texnologiyalardan foydalanib ta'limni tashkil etish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonini sifat hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etish bilan bog'liq jadal o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda. Oliy ta'lim jarayoni mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda raqobat sharoitda oliy ta'lim muassasalari raqobatdosh kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llashlari kerak. Innovatsiya va integratsiya bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon bir nechta jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. *O'qitish jarayoni:* ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash muhim rol o'ynaydi. Masalan, interaktiv

darslar, onlayn platformalar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilarni faol jalb qilish mumkin.

2. *Texnologik yondashuvlar*: oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatida IT texnologiyalarini (masalan, virtual real yoki sun'iy intellekt) qo'llash yordamida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

3. *Ijodkorlikni rivojlantirish*: talabalarga ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish kerak.[1]

Ta'lim va sanoat hamkorligida talabalar amaliyot va stajirovkalarni sanoat korxonalarida o'tkazishlari mumkin. Bu imkoniyat ularning ishbilarmonlik ko'nikmalarini oshiradi. Fanni integratsiyalash yordamida biz turli sohalarni birlashtirish orqali yangi ixtirolar, nafaqat rivojlanish imkoniyatlari yaratiladi. Masalan, IT va iqtisodiyotni birlashtirish orqali raqamli iqtisodiyot sohasida raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishi mumkin.

Xalqaro hamkorlik: Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tajribani o'rganish, talabalarning xorijiy universitetlar bilan almashuv dasturlariga jalb etilishi orqali global raqobatbardoshlikni oshirishi ko'zda tutiladi.

Yangi texnologiyalarni joriy etish: Oliy ta'limda virtual va qo'shilgan real dunyo, sun'iy intellekt hamda masofaviy ta'lim kabi texnologiyalarni qo'llash talabalarning ko'nikmalarini kengaytirib, bilimlarni samarali yetkazadi, balki talabalarning zamonaviy ish joylarida muvaffaqiyatli bo'lishlarida yordam beradi.

Innovatsion tadqiqotlar: Oliy ta'lim muassasalari tadqiqot olib borish va innovatsiyalar yaratishda faol ishtirok etishlari zarur. Ushbu jarayon talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qiladi va ularning mustaqil fikr qilish qobiliyatini rivojlantiradi.[2]

Ta'lim sohasining holati va istiqbollarni o'rganish, an'anaviy usullarni qayta tiklash, sohaga sinovdan o'tgan ilg'or tajribalarni tatbiq etish kun sayin dolzarblashib bormoqda, chunki insoniyat oldida turgan global muammolarni hal qilish uchun yangi kuch va bilimlar kerak. Ularning yagona manbai inson salohiyatidir. Oliy

ta'lim jarayonida raqobatdosh kadrlar tayyorlashda innovatsiya va integratsiya yondashuvlari o'zaro bog'liq va muhim ahamiyatga egadir. Innovatsion metodlar hamda texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini yangilash, ta'lim va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, xalqaro tajribani o'rganish orqali biz yosh avlodni zamonaviy kasblarga tayyorlash imkoniyatini yaratamiz. Natijada, mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Integratsiya orqali san'at va boshqa fanlar, masalan, musiqa va tasviriy san'at o'rtasida o'rta bog'liqlikni yaratadi. Buning natijasida bir nechta ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatish mumkin. San'at yaratuvchanlikni oshiradi. Musiqa va tasvir san'ati birlashganda, talabalar o'z fikrlarini yanada chuqurroq ifoda eta olishlari uchun yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Masalan, musiqa ritmi tasviriy san'atdagi kompozitsiyani yaxshilashga yordam berishi mumkin. Keng qamrovli ta'lim orqali talabalar bir nechta fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'ra bilishadi. Musiqa nazariyasi, san'at tarixiga oid bilimlar bilan birlashganda, talabalarning san'at mafkurasini kengaytirishi qayd etilgan. Tasviriy san'at esa nafaqat badiiy tafakkur va estetik didini rivojlantirib, hissiy intellekt, ijodkorlik, o'z fikr-mulohazalarini ifoda qilish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qilishi bilan ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi.[3]

San'atning turli sohalaridagi integratsiya, talabalar his-tuyg'ularini yanada chuqurroq tushunishga va ifodalashga yordam beradi. Musiqa va tasviriy san'at birgalikda ishlaganda, talabalarda hissiy tajriba shakllanib, ijobiy qobiliyatlari yuzaga keladi. San'at va boshqa fanlar integratsiyasi orqali talabalar madaniy merosni yanada yaxshi anglab yetadilar, natijada turli xalqlar va davrlar san'atini o'rganish imkonini beradi. [4]

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at va musiqa kabi san'at shakllarining asosiy fanlarga integratsiyasi, ta'lim jarayonini boyitib, talabalarni ko'proq yaratuvchan, fikrli va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Bu esa ta'lim jarayonini

yanada mustahkamlab, yetuk kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar royhati:

1. Yangi O‘zbekiston. Oliy ta’limda fan va ishlab chiqarish integratsiyasi // *Yangi O‘zbekiston* gazetasi. – 17.09. 2024.
2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar integratsiyasi. Yangi vazirlikning rejasi qanday? // *Oyina.uz*. 2025
3. Qudratova N.I. San’atning inson hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati // *International journal of science and technology*. – 16.04. 2025.
4. Sulstonov X.E., Qudratova N.I. Klaster yondashuvi asosida tasviriy san’at darslarini tashkil etish usullari // *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*. – 45–49b, №2, 2025

AYOLLARNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘RNI VA TARAQQIYOTDAGI HISSASI

San’atshunoslik fakulteti

Rajabboyeva Noila G‘ulomjon qizi

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi

2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: ushbu maqolada ayollarning hozirgi jamiyatdagi o‘rni va ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy sohalarida tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, davlat tomonidan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar va ularning natijalari ko‘rib chiqiladi. Maqola san’at va muhandislik sohasida muvaffaqiyatga erishgan ayollar misolida ularning taraqqiyotdagi hissasini yoritadi.

Kalit so‘zlar: ayol, jamiyat, tenglik, siyosiy ishtirok, iqtisodiy faollik, ijtimoiy rivojlanish

Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, ayollar va yoshlarning faolligi, ularning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishi davlatlar barqarorligining asosiy omilidir. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayollar ko‘plab sohalarida – san’at, siyosat, ilm-fan, me‘morchilik va hatto harbiy ishda ham muhim rol o‘ynagan.[1]

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning huquqiy va ijtimoiy mavqeini oshirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Masalan, ayollar parlament a‘zolari, vazirlar, professorlar va ishbilarmonlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Oliy Majlisda har besh deputatdan biri – ayol. Bu ko‘rsatkich Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqorilardan biridir.[2]

Prezident Shavkat Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o‘rniga yuksak baho berib, shunday degan edilar:

“Ayollarimiz orasida olimlar, muhandislar, tadbirkorlar,

shifokorlar, pedagoglar, san'atkorlar ko'payib borayotgani – bu xalqimizning yuksak ma'naviy darajasi va ma'rifatga intilishining yaqqol dalilidir.”

Ayollar faolligining global manzarasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ilmiy tadqiqotchi ayollarning ulushi atigi 33 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, muhandislik sohasida bu ko'rsatkich 20 foizdan oshmaydi. Xususan, Fransiyada har besh muhandisdan biri ayol bo'lsa, Hindistonda ayollar axborot texnologiyalari (IT) sohasida erkaklarga nisbatan tezroq o'smoqda. Bu, texnologik taraqqiyotda ayollarning ishtiroki tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

“Ayollar ilm-fanda kuchli rol o'ynaydi. Ularning kashfiyotlari jamiyatga teng imkoniyatlar olib keladi. Bu esa haqiqiy taraqqiyot sari yo'l ochadi”,- deydi UNESCO Bosh direktori, Audrey Azoulay (2021).[3]

Tavsiyaviy ko'rsatkichlar. UNESCO tavsiyalariga ko'ra, har bir davlat STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida ayollarning ishtirokini rag'batlantirishi lozim. Rivojlangan davlatlarda maxsus grantlar, mentorlash dasturlari, ayollar texnoparklari tashkil etilmoqda. Masalan, Germaniyada “Girls' Day” nomli yillik loyiha orqali o'quvchi qizlar muhandislik va ilm-fan sohalariga qiziqtiriladi.[3]

Mahalliy ahamiyatli tashabbuslar. O'zbekiston ham bu borada orqada emas. 2023-yildan boshlab “Ayollar muhandislikda” nomli tanlov e'lon qilinib, texnika sohasidagi iste'dodli qizlarga alohida ta'lim kvotalari va stipendiyalar ajratilmoqda. Bu tashabbus nafaqat kasb tanlashga, balki ayollarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ayollar faolligi bo'yicha jahon ko'rsatkichlari:

№	Davlat	Ilmiy xodim ayollar ulushi (%)	Muhansilik sohasida ulushi (%)
1	O'zbekiston	45	15

2	Fransiya	28	20
3	Hindiston	30	18
4	Germaniya	34	22
5	Butun jaxon ko'rsatkichi	33	20

Bugungi kunda ayollar ilm-fan va texnologiya sohasida ham faol. Muhandislik sohasida ham ular o'z o'rnini topmoqda. Masalan, *Mary Jackson* – NASAning ilk afroamerikalik ayol aerokosmik muhandisi bo'lib, AQShda koinot dasturlarining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Yaponiyalik *Yuki Nakagawa* esa robototexnika sohasida taniqli bo'lib, insonparvar robotlar ustida ishlagan. Hindistonlik *Tessy Thomas* esa mamlakatning birinchi ayol raketa muhandisi sifatida tanilgan. O'zbekistonda ham ayollarning ilm-fan sohasidagi faolligi oshmoqda. “Olima ayollar jamiyati”, “Ayollar daftari”, “Xotin-qizlar qo'mitasi” kabi tuzilmalar orqali ularni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmogda. Ayollarga oliy ta'lim uchun alohida kvotalar, qishloq joylarda esa kasbga yo'naltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun kreditlar ajratilishi bunga misoldir.[1] Butun dunyoda san'atda faol ayollar jamiyatdagi muhim ijtimoiy kuch hisoblanadi. Masalan, *Frida Kahlo* (Meksika) o'zining betakror uslubi bilan XX asr san'atida inqilob yasagan. *Zaha Hadid* (Iroq-Buyuk Britaniya) me'morlikda ilk Pritsker mukofoti olgan ayol bo'ldi. Bugungi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida ko'plab ayol rassom va dizaynerlar o'z ishlarini namoyish etmoqda.[4] Xalq amaliy san'atida – kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik kabi sohalarda ayollar asrlar davomida meros bo'lib kelayotgan san'atni avloddan-avlodga yetkazmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarda hunarmand ayollar ushbu san'atni saqlab qolish va rivojlantirishda yetakchi kuchga aylangan.[5]

Xulosa qilib aytganda, bugungi zamonaviy ayol – bu ilmli, mustaqil qarashlarga ega, kasbiy faol, tarbiyachi va jamiyat taraqqiyotida o'z o'rniga ega shaxsdir. Ularning siyosiy, iqtisodiy


va madaniy faolligi yurtimiz barqaror rivojiga xizmat qilmoqda. Ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali yanada kuchli va taraqqiy etgan jamiyatni qurish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T.: 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni 02.09.2019 y. № O'RQ-561.
3. Women in Engineering: A Review of Barriers and Enablers (UNESCO Science Report, 2021).
4. Official website of the Committee on Women and Family Affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, 2023
5. Fitrat A. *Milliy taraqqiyot yo'lida*. – T.: 1998.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – TURKISTON XALQINING MILLIY QAHRAMONI

San’atshunoslik fakultet
Xudayarova Dilnoza Anvarovna,
dekanat ish yurituchi



Annotatsiya: mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri ekanligi, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynaganligi, Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etganligi, birinchi o‘zbek dramasi yaratib, professional o‘zbek teatr san’atining maydonga kelishiga zamin yaratganligi hamda jamiyatni ma’rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimiz ekanligi xaqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, ilm, bilim, ma’naviyat, madaniyat, san’at, adabiyot, aktyor, rejissyor, teatr.

Bugun Behbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo‘ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo‘lida fido bo‘lganlar esa shu Millat va Vatan umri qadar boqiydirlar.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega bo‘lgan buyuk alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda madaniyat maorif arbobi, birinchi o‘zbek dramaturgi, milliy teatr muassisi, sifatida Osiyo va Evropaning ko‘pgina mamlakatlarida ham ma’lum va mashhur. SHu bois Behbudiy hayoti va faoliyati deyarli bir asrdan buyon tarixchi, adabiyotshunos, huquqshunos, san’atshunos olimlar, qolaversa, keng jamoatchilik e’tiborida.

Uning ijtimoiy-ijodiy faoliyati turli soha mutaxassislarini tomonidan tadqiq qilinmoqda, adabiy merosi chop etilmoqda.[1]

Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan milliy uyg‘onish harakatining atoqli rahbarlaridan biri bo‘lib, shu davrda o‘zbek xalqi ijtimoiy ongining uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi. U Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi, milliy matbuotning yuzaga kelishida faol ishtirok etibgina qolmay, birinchi o‘zbek dramasi yaratib, professional o‘zbek teatr san‘atining maydonga kelishiga zamin hozirladi. U xalq va jamiyatni ma‘rifatlashtirish orqali mustaqillikka erishish g‘oyasini olg‘a surgan va shu qutlug‘ yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘ ajdodimizdir. Mahmudxo‘ja Behbudiyning nomi Turkistondagi maktablar islohoti nomi bilan bog‘liq bo‘lib, yangi usuldagi maktablar tashkil etish ishida jonbozlik ko‘rsatdi. U tirikchilik va ro‘zg‘or tashvishlariga mukkasidan ketgan avom xalqni dunyoning eng ilg‘or xalqlari qatoriga qo‘shish uchun eng avvalo yangi maktablar faoliyatini rivojlantirishga kirishadi. Biroq, maktabning o‘zi kamlik qilishini tushunib etadi. SHu bois Behbudiy “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnallarida turli maqolalar nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, uning haq-huquqi, milliy tilning qadri, chet tillarini o‘rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e‘lon qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning Turkistondagi ijtimoiy faoliyatida nihoyatda kuchli jonlanish ro‘y berdi. Bu jonlanish o‘lkada tobora keng miqyosda targ‘ib etila bordi.

“Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondir-ki, makotib – taraqqiyotning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamondosh isloh etib ko‘paytirmaguncha taraqqiy yo‘liga kirib madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko‘rolmas. «Muborizai hayot» maydonida mutlaqo mag‘lub bo‘lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o‘zgalarning asiri bo‘lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham qo‘ldan berur. Ana ushbu yo‘llar ila oxiri mahv va nobud bo‘lub ketar.” [2]

Milliy uygʻonish kayfiyati va uning amaliy koʻrinishi boʻlgan jadidchilik hodisasi bilan belgilandi. Jadidchilik harakati tarixan qisqa muddatda ijtimoiy ongni maʼrifatchilikdan siyosiy-ozodlik, mustaqil davlatchilik gʻoyasi tomon rivojlantira oldi. Bu harakat bir necha yoʻnalishdagi amaliy faoliyatda oʻz ifodasini topdi. Jadid ziyolilari taʼbiricha teatr ibodatxona “ulugʻlar maktabi” edi. Ayni chogʻda teatr maʼnaviy tarbiya maskani boʻlishi bilan bir qatorda, maktab-moarif sohasini moddiy quvvatlab turuvchi asosiy manbalardan ham edi. SHu boisdan ham taraqqiyparvarlar milliy teatr ishlarini zoʻr berib rivojlantirishga intildilar.

Jadid dramaturgiyasining karvonboshisi Mahmudxoʻja Behbudiy nafaqat Turkistonda balki Markaziy Osiyodagi birinchi Oʻzbek dramasi muallifidir. “Padarkush” XX asr boshlarida Turkiston xalqlari hayotining eng dolzarb muammolari mavzuida yozilgan boʻlib, u jadidchilik mafkurasining dasturi sifatida maʼrifatparvarlikning tub siyosiy va ijtimoiy maqsadini ifodalagan. Oʻqimagan bolaning jamiyatning olgʻa siljishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi haqidagi asargina emas, muallif bu pʼesada jadidlarning Turkistondagi ijtimoiy tuzumga, mustamlaka zulmiga boʻlgan munosabatlarini boy va uning oʻqimagan oʻgʻli misolida tasvirlagan. Ammo savodsiz, olamdan xabarsiz, quroli yoʻq xalq mustamlakachilarga qarshi kurasholmas edi. Jadidlar oʻz maqsadlariga etish uchun, avvalo, avom xalqning koʻzini ochishlari, uni kurashga otlantirishlari kerak edi. [3]

Dramada jaholat, ilmsizlik, tarbiyasizlikka qarshi maʼrifat ulugʻlanadi. Mahmudxoʻja Behbudiy oʻqimagan bolaning holini, ayanchli oqibatlarini bayon etishni maqsad qilib oladi. Dramada Boy va uning oʻgʻli, Toshmurod, yangi fikrli domla, ruscha tahsil olgan ziyoli boyning mirzasi Xayrullo, boyning qotili boʻlgan Tangriqul va boshqa personajlar mavjud. “Padarkush” soʻzining lugʻaviy maʼnosi “ota qotili” degan maʼnoni anglatadi. Asarning asl moxiyati va muallif aytmoqchi boʻlgan fikr asar kahramonlaridan biri Ziyoli tili bilan beriladi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgʻon tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik,

darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir”. [4]

“Padarkush” dramasiidagi har bir obraz muallif tomonidan berilgan kichik izohlar yordamida tasivirlanadi. Muallif Boy obrazi orqali mol-dunyoga ega bo‘lgan, ammo uni ilm va farzand tarbiyasi uchun sarflashni o‘ylamagan kimsa qiyofasini yaratgan. Asar voqealariga ko‘ra Boy Domlaning ham, Ziyolining ham nasihati va maslahatlariga quloq tutmay loqaydlik qiladi, savollariga qo‘pollik bilan javob qaytaradi. Boy hamma narsani: inson qadrini, obro‘-e‘toborini boylik bilan o‘lchaydi va boyligi tufayli atrofdegilar ularni “izzat qilishadi” degan fikr bilan yashaydi. Bilamiz-ki, sharqona odob-axloq va madaniyatimizga ko‘ra farzand eng avvalo, otaga so‘zsiz itoat etishi lozim. Inson faqatgina moddiy boylik bilan yashay olmaydi. Insonda ma’naviy, jismoniy hamda ruhiy boylik bo‘lishi lozim. Pyesada Domla Boyning o‘g‘lini ilm-ma’rifatga chorlaydi. O‘z zimmasidagi vazifasini bajaradi. SHuning uchun ketar chog‘i “Boy, man sizga amri ma’ruf etdim va menga shariat bo‘yicha lozim bo‘lgan ishni bo‘ynumdan soqit qildim. Inshoolloh, mo‘ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan o‘g‘lungiz holini ko‘rarmiz va o‘qutmaganingiz uchun gunohkor bo‘lursiz” degan gapni aytadi.

Dramadagi Domla va Ziyolining vazifasi bir. Ular asardagi Boy, Toshmurod, Tanriqul va Arhun kabi obrazlarga qrama-qarshi turadi. Toshmurod do‘st va dushmanning farqiga bormaydi. SHuning oqibatida Tangriqul bilan birga o‘z uyiga o‘g‘rilikka borishga rozi bo‘ladi. Otasining sandiqdagi mol-mulkini o‘marish yo‘llarini maishatparast sheriklari bilan rejalashtiradi. Ularni o‘z uyiga boshlab boradi va buni sezib qolgan ota Tangriqul tomonidan o‘ldiriladi. O‘g‘rilar Toshmurodning soddaligi keyingi mudxish ishlarida yana as qotishini o‘ylab, uni ruxlantirish uchun: “Barakalla! Ilgari ham o‘g‘rilik qilganga o‘xshaysiz” – deya, maqtovlar keltiradi. Toshmurodning maishatga berilishi, buzuq yo‘llarga kirishi va padarkushga aylanishining asosiy sababi – bu uning ilmsizligidir. Oxir- oqibat ota qotili - padarkush Toshmurodning qulog‘ida ona

qarg‘ishi qoldi: “He juvonmarg Toshmurod! Qon Qus! Chechakda ketsayding! Voy Padarkush! Toshmurod!” [5]

Asar qisqa bo‘lishiga qaramasdan, hayotiy voqealar tasvirlangan sahna asari sifatida muvaffaqiyatli namoyish etilgan. Bu paytda jadidchilik g‘oyasi butun Turkiston bo‘ylab keng targ‘ib qilinayotgan edi. Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta‘lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas‘uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta‘sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o‘z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to‘g‘ri yo‘ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta‘sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to‘g‘ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko‘rib yig‘laydilar, mamlakat yoshlarini o‘qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar.[6]

“Teatr - bu ibratxonadir”. Teatrni ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ana shunday atagan bo‘lsa, bugun yurtboshimiz, teatrni ma‘naviyat o‘chog‘i, ijod ahlini esa inson qalbining muhandislari deya yuksak ta‘riflaydilar. Haqiqatdan ham teatr har qanday davrda, hayotiy saboqlar beruvchi jonli vosita hisoblangan. Inson ma‘naviyatini yuksaltirishda teatrning alohida o‘rni bor. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu pesasida bir oilani ilmsizlik natijasida parokanda bo‘lgan xolini ko‘rsatib bergan bo‘lsa-da, buning zamirida butun bir jamiyatning ilm-ma‘rifatga bo‘lgan extiyojini ko‘rsatib beradi. SHu boisdan ham o‘sha davr buyuk Jadid namoyondachisi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Teatr – bu ibodatxonadir” deya millat ongini yanada yuksaltirish ilm-ma‘rifatga, yurt taraqqiyotga o‘zining katta hissasini qo‘shgan buyuk alloma sifatida millat xotirasida qoldi.

Biz yoshlar esa, Ma‘rifatparvar ziyoli boblarimiz ruxlarini shod etib, ular yaratgan asarlarni o‘qib, ibratli ishlarini davom

ettirishimiz va hikmatlaridan soboq olishimiz bugungi kunning ma'naviy ehtiyojidir. Ularning bebaho asarlari umrboqiyligi bilan ezgulikka intiq va muhtoj ko'ngillarga taskin beradi. Zulmat qo'ynidan yorib chiqqan jadedlarimizning yorqin xotirasi avlodlarni jur'atga chorlaydi. Bugungi kunda qatog'on yillarining qurboni bo'lgan, nohaq jabr ko'rgan shoir va yozuvchilarimizning mo'tabar nomlari, sha'ni-shavkati, qora bo'htonli muhit malomatidan qutilib, o'z zamonalariga qaytarildi. A.Fitrat, M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Qodiriylar vatanimiz osmonida porlagan so'nmas yulduzlardir. Biz ana shunday yuksak salohiyatga ega bo'lgan ajdodlarimizdan faxrlanib, ularni davomchilari sifatida munosib bo'lishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar ro'hati:

1. N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. – T. 2014. 3-bet.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg'a murojaat. «Oyna» jurnali. 1914 yil. 41-son. 970-972-betlar.
3. M.Rahmonov. Hamza. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2001 y. 9-10 betlar.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Padarkush. 1913.
5. O'sha manbaa.
6. Edvort Olvort. Birinchi o'zbek dramasi. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2009 yil, 9-son.

ЎЗБЕКИСТОН БАДИИЙ БЕЗАК САНЪАТИ

Санъатшунослик факультети

Иззат Мухамадсултановна Марасулова,
“Тасвирий санъат ва дизайн” кафедраси
доцент в.в.б



Аннотация: Ушбу мақолада ҳунармандчилик анъаналарини тиклаш, миллий маданиятни сақлашга интилиш масалалари ҳақида умумий маълумот берилади. Шунингдек, Ўзбекистоннинг амалий санъати турлари ва уларнинг ўзига хослиги ёритилган.

Калит сўзлар: декоративлик, усто, ҳунарманд, буюмлар, анъана, кадрият, нақш, санъаткорлик, безаклар.

Бадий безак санъати инсоният тарихи давомида шаклланган энг қадимий ва серқирра санъат турларидан бири ҳисобланади. Бу санъат тури инсоннинг ҳаётга, табиатга ва эстетикага бўлган ички эҳтиёжининг ифодаси сифатида вужудга келган. Ўзбекистон ҳудудида асрлар давомида ривожланган ҳунармандчилик ва бадий безак санъати орқали халқимизнинг бой маданий мероси яратилган. Самарқанд, Бухоро, Хива, Тошкент ва Қўқон каби қадимий шаҳарлар ҳунармандчилик ва санъат марказларига айланган.

Бадий безак санъати тушунчаси маданият тарихи жараёнида аста-секин шаклланган. Бу жараёнда ҳар бир ҳудуднинг табиий ресурслари, миллий урф-одатлари ва эстетик қарашлари муҳим ўрин тутган. Маданий меросга ва миллий кадриятларга эҳтиёткорона муносабат билдириш, уларни сақлаш ва тиклаш, айниқса, мустақиллик йилларида янги босқичга кўтарилди. Ҳунармандчилик анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш миллий маданиятни асраш ва янги авлодларга етказиш учун муҳим восита бўлиб хизмат

қилмоқда.

Сўнги йилларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг бир қатор фармон ва қарорлари асосида халқ хунармандчилигини сақлаш ва ривожлантириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди. Мустақиллик йилларида кўплаб хунармандлар Ўзбекистон Бадий академиясига аъзо этиб қабул қилинди, уларга «Ўзбекистон Республикаси халқ устаси» унвони берилди. Илмий-ишлаб чиқариш маркази “Мусаввир” қошидаташқилэтилган “Хунарманд” ассоциацияси эса халқ хунармандчилигининг унутилган анъаналарини қайта тиклашда муҳим роль ўйнамоқда. Масалан, ушбу ассоциация орқали Самарқандда абрмато тўқиш, Риштанда кулоллик ва Бухорода заргарлик анъаналари қайта жонлантирилмоқда.

Ўзбекистоннинг бадий безак санъати азалдан халқаро майдонда ҳақли равишда тан олинган. Унинг асарлари шакл мукаммалиги, ўзига хос безак услуби ва юксак эстетик қиймати билан ажралиб туради. Декоратив санъат буюмлари — мебеллар, идишлар, зеб-зийнат буюмлари, матолар ва ҳайкалчалар — инсон ҳаёти ва турмуш муҳитини нафақат гўзаллаштиради, балки халқнинг маданий қадриятлари ва дунёқарашини ҳам ифода этади.

Кўп асрлар давомида гончарчилик — яъни керамика ишлаб чиқариш — Ўзбекистонда энг тараққий этган хунармандчилик турларидан бири бўлиб келди. Поливал (сирланган) ва нополивал керамика буюмлари — лаганлар, пиёлалар, касалар ва хумлар — нафақат амалиётда қўлланилган, балки нақшлари ва ранг ечимларининг бетакрорлиги билан ҳам халқнинг бадий салоҳиятини намоён қилган. Масалан, Риштон кулоллари ўзининг кобальт ва оқ рангли безаклари билан машҳур.

Бухоро зергари усталари яратган миллий зеб-зийнат буюмлари ҳам юксак бадий қийматга эга. Анъанавий кашгар-балдок сирғалари ва кўнғироқсимон сирғалар, шойи ва ипак иплар билан безалган узуклар ва биланглар нафақат маҳаллий

бозорларда, балки халқаро кўргазмаларда ҳам катта қизиқиш уйғотмоқда.

Кўл меҳнатига асосланган каштачилик санъати — "каштачилик" ҳам миллий маданиятимизнинг ажралмас қисми ҳисобланади. Ҳар бир сюзанадаги (деворга осиладиган миллий ишланган парда) нақш қадимий ва рамзий маъно касб этган. Масалан, пахта гули ёки ёмғир булути шаклидаги нақшлар ҳосилдорлик ва баракани билдиради. Бухоро зардўзлик санъати эса бутун дунёда шуҳрат қозонган — Бухорода тайёрланган тилла ипли чопонлар бир пайтлар амирлар ва хонлар кийими сифатида эътиборга сазовор бўлган.

Ўзбекистоннинг кўлда тўқилган матолари — адрас, атлас, шойи ва беқасам — хунармандчилик анъанасининг нафис намунасиدير. Самарқанд ва Фарғона водийси тўқимачилари ажойиб абрсимон (булутсимон) нақшлар яратишда улкан маҳоратга эга бўлган. Бугунги кунда ҳам Фарғона водийсининг марғилонлик тўқимачилари ўз анъанавий усуллари билан мато ишлаб чиқаришни давом эттирмоқдалар.

Табийй материаллардан фойдаланган амалий санъат ҳам қадимий анъаналар қаторида. Масалан, тол хохларидан саватлар, сундуклар ва мебель тайёрланган, бу эса табиат билан ҳамоҳангликда яратилган амалиёт намунасиدير.

Ганч ўймакорлиги — Ўзбекистоннинг яна бир ўзига хос санъат тури бўлиб, асосан ўсимлик ва геометрик орнаментлар билан бойитилган безаклар яратилади. Масалан, Бухоро мадрасалари ва масжидларидаги ганч нақшлар нафислиги ва мураккаблиги билан ҳайратлантиради. Бугунги кунда ганч ўймакорлиги меъморий биноларнинг ички безакларида кенг қўлланилмоқда.

Керамика санъати эса Самарқанд, Гиждувон, Шаҳрисабз, Каттақўрғон, Риштан, Ханқа ва Хива каби шаҳарларда қадимийдан ривожланган. Ҳар бир марказ ўзига хос услуб ва орнаментга эга бўлиб, керамика буюмлари нафақат маиший эҳтиёж учун, балки эстетик эҳтиёж учун ҳам ишлаб чиқарилган.

Қўғирчоқ санъати ҳам халқ маданиятининг ажралмас қисми бўлиб, қадимда масхарабозлар томонидан намойиш этилган кўчма қўғирчоқ театрлари халқ ҳаётида муҳим ўрин тутган. Бугунги кунда пахта қоғози, гил ва дарахтдан тайёрланган миллий қиёфали қўғирчоқлар нафақат ўйинчоқ, балки интерьер учун сувенир сифатида ҳам қадрланади. Масалан, Бухорода Хамро Раҳимова ва унинг шогирди Кубро Бабаева каби усталар миллий услубда керамик хуштаклар ва ҳайкалчалар яратиш келмоқда.

Ўзбекистоннинг кичкина керамик ҳайкалчалари — "мўйсафидлар" — миллий сувенир сифатида ҳам, маданий рамз сифатида ҳам алоҳида ўрин тутди. Ҳар бир фигурада халқнинг шодлик ва меҳр туюғуси ифодаланган.

Чирчиқ давлат педагогика институтида ҳам санъатшунослик таълим йўналишида устоз-шогирд анъанаси асосида талабаларнинг ижодий фаолияти фаол қўллаб-қувватланмоқда. Кластер тизими орқали ёш мутахассисларнинг мустақил фикрлаши, муаммо ечиш қобилияти ва профессионал ўсиши учун зарур шарт-шароитлар яратилмоқда.

Ўзбекистоннинг бадий безак санъати — бу халқимиз маънавияти, дунёқараши ва ижодий салоҳиятининг ёрқин ифодасидир. Бу анъаналарни сақлаш, ривожлантириш ва янги авлодларга ўргатиш орқали нафақат миллий маданиятимизни асраймиз, балки уни дунё саҳнасида ҳам янада намоён этамиз. Бадий безак санъати инсонга табиат ва жамият ўртасидаги уйғунлик, энг муҳими, гўзаллик яратиш орқали маънавий бойиш имкониятини беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Султанов Х.Э., Анкабаев Р.Т., Хасанова Н.С., Чориева Н.Ш. Инновационные методы обучения на занятиях по изобразительному искусству // Актуальные вопросы современной педагогики. – 2017. – С. 103–105.
2. Ne'mat A.M., Ankabaev R.T. Methodological

Principles of Training Fine Arts // Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №6.

3. Ирбутаева М.Т., Махмудов М.Ж., Махмудов М.Э. Живопись и гармония музыки // Учёный XXI века. – 2020. – Т. 6-1(65). – С. 31–34.

4. Tursunmurotovich S.S. Importance of illustrations for perception of content of the book // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 4. – P. 98–101.

5. Shuhratovich I.U. Application of innovation in teaching process // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 5. – P. 4–8.

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKADA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI: SUN’IY INTELLEKT VA MUSIQA

**Maxkamova Shoxida
Raxmatullayevna, ChDPU,
Musiq ta’limi kafedrasi dotsenti,**



**Abdumalikova Rayxona Dilshod qizi
ChDPU,
San’atshunoslik fakulteti,
Musiq ta’limi yo‘nalishi 3–kurs talabasi**



Annotatsiya: Sun’iy intellekt o‘qituvchilarga talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin, shuningdek, o‘quv jarayonini yanada samarali qilish uchun o‘quvchilar-ning qobiliyatlari va bilimlarini baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, pedagogik diagnostika, AI asosida ishlovchi dasturlar, musiqa uslublari, innovatsion vositalar.

O‘qitish va o‘rganish jarayonlari zamonaviy texnologiyalar yordamida tubdan o‘zgarib rivojlanib bormoqda. Shu jumladan, sun’iy intellekt (SI) va uning musiqa ta’limidagi qo‘llanilishi pedagogik diagnostika sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu yo‘nalisdagi tadqiqotlar tobora ko‘paymoqda. Sun’iy intellekt o‘qituvchilarga talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin, shuningdek, o‘quv jarayonini yanada samarali qilish

uchun o'quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt va musiqa ta'limi orqali pedagogik diagnostikaning o'rni o'rganiladi. Tarbiyaviy texnologiyalarning tarixi chalkash bo'lgan shakllardan boshlangan bo'lib, bu jarayon chalkboard va proyektor kabi an'anaviy vositalarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Biroq, XX-asrning oxiridan XXI-asrning boshigacha raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning kelishi bilan ta'limda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Dastlab SI, asosan, ma'muriy vazifalar uchun qo'llanilgan bo'lsa-da, uning shaxsiylashtirilgan o'qitish va diagnostik baholash imkoniyatlari ko'plab tadqiqotchilar diqqatini tortdi. Musiqa ta'limida texnologiyalar, kompozitsiya va ijro tahlili kabi sohalarda keng qo'llanilib, talabalarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi⁸⁶.

Pedagogik diagnostika tushunchasi o'quvchilarning mavjud ko'nikmalari, bilimlari va o'rganish ehtiyojlarini baholash jarayonini anglatadi, bu esa o'qitish strategiyalarini shakllantirishda muhimdir. Sun'iy intellekt - bu inson aqlini simulyatsiya qiluvchi texnologiyalarning majmui bo'lib, u ko'plab vazifalarni bajarish imkonini beradi, jumladan, vizual sezgi, nutqni tanish, qaror qabul qilish va tilni tarjima qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Musiqa ta'limi texnologiyalari esa kompozitsiya, ijro tahlili va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun mo'ljallangan vositalarni o'z ichiga oladi. Sun'iy intellektning pedagogik diagnostikada qo'llanilishi shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalarini taqdim etadi, bu esa har bir talabaga mos keladigan o'quv jarayonini yaratadi.

Sun'iy intellekt talabalarning ijro ma'lumotlarini tahlil qilish, real vaqt rejimida fikr-mulohazalar berish va vaqt o'tishi bilan rivojlanishni kuzatish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarni rag'batlantirish va o'zlashtirishni oshirishga yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi musiqa kompozitsiyasi vositalari talabalar kiritmalariga asoslanib akordlar va melodiyalarni taklif qilishi mumkin, shuningdek, talabaning ijrosini baholovchi dasturlar

⁸⁶ Jumayev A. Sun'iy intellekt va musiqa ta'limi: innovatsiyalar va imkoniyatlar. O'zbekiston Milliy Universiteti, 2022

mavjud. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanib amalga oshiriladigan diagnostik baholashlar talabalarning qiyinliklari bilan bog'liq joylarni aniqlashga yordam berishi mumkin, bu o'qituvchilarga o'quv jarayonlarini moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi paytda tadqiqotlar sun'iy intellektning musiqa ta'limidagi roli bo'yicha o'sib borayotgan qiziqishni ko'rsatmoqda.

Tadqiqotchilar musiqa ijrosini baholash va kompozitsiya jarayonini yaxshilash uchun intellektual o'qitish tizimlarini ishlab chiqishni o'rganishmoqda. MIT va Stanford kabi yirik ta'lim muassasalari bu tadqiqotda oldinda turib, sun'iy intellektdan foydalanib musiqa ta'limini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion vositalarni ishlab chiqmoqdalar. Shuningdek, musiqa uslublarini va talabalar qiziqishlarini tahlil qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanish kabi yangi submaydonlar paydo bo'lmoqda.

Biroq, sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik diagnostikada qo'llanilishida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ulardan biri sun'iy intellekt baholashlarining aniqligidir; sun'iy intellektning musiqa ijrosini ishonchli baholay olishi muammosi hali ham murakkab vazifa hisoblanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning maxfiyligi va ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishning etik jihatlari bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Raqamli tafovut ham talabalarning texnologiyalardan foydalanishida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, chunki texnologiyalarga kirish imkoniyati talabalarda keskin farq qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining musiqa ta'limidagi pedagogik diagnostika metodlariga qo'shgan hissasini o'rganish va ulardan qanday qilib samarali foydalanishni ko'rsatishdir. Tadqiqot shuningdek, o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalarini o'z ta'lim amaliyotlariga qanday qilib muvaffaqiyatli kiritish bo'yicha batafsil o'quv dasturini taklif qiladi. O'qitish jarayonini yaxshilash va barcha talabalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida, sun'iy intellektning imkoniyatlarini to'liq anglash va ushbu sohadagi muammolarni hal etish juda muhimdir. Sun'iy intellekt

(AI) va musiqa ta'limida shaxsiylashtirish, zamonaviy pedagogik diagnostika jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Ushbu yondashuv, talabalar uchun individual o'quv tajribalarini yaratishga asoslangan bo'lib, ularning o'ziga xos ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos keladi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari, musiqa ta'limida shaxsiylashtirishni ta'minlashda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi⁸⁷.

AI ta'limda shaxsiylashtirish jarayonini bir necha usullar orqali ta'minlaydi. AI asosida ishlovchi dasturlar, talabalarni o'z qobiliyatlari va bilim darajasiga qarab baholash imkonini beradi. Masalan, talaba musiqa asarini ijro etayotganida, AI texnologiyalari uning ijrosini real vaqt davomida tahlil qilib, xatolarni aniqlaydi va ularning tuzatishlari bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Bu jarayon talabaga o'z ijrosini yaxshilash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tez va samarali olish imkonini beradi. Shuningdek, shaxsiylashtirish jarayonida, AI musiqa kompozitsiyasi tizimlari orqali ham qo'llanilishi mumkin. Bu tizimlar, talabalar tomonidan kiritilgan noaniq melodiya va akkordlarga asoslanib, yangi musiqalar yaratishda yordam beradi. Bu jarayon, talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga va ularning musiqiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, AI yordamida yaratilgan shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlari, talabalar o'rtasida musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shaxsiylashtirishning yana bir jihati, AI yordamida talabalarning o'zaro munosabatlarini yaxshilashdir. Musiqa ta'limida, talabalar bir-biriga yordam berish, o'zaro baholash va musiqiy ijrolarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. AI dasturlari, talabalar o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan platformalarni taqdim etishi mumkin, bu esa guruhda ishlash va musiqiy fikr almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, sun'iy intellekt va musiqa ta'limida shaxsiylashtirishda ba'zi muammolar va cheklovlar ham mavjud. Masalan, AI tizimlarining samaradorligi ko'pincha ular qanday ma'lumotlar

⁸⁷ Isakov R. Musiqa ta'limida diagnostika metodlari va ularning samaradorligi. Musiqa Ta'limi va Texnologiyalari, 2023

asosida ta'lim olganiga bog'liq. Agar tizimlar yetarlicha xilma-xil va sifatli ma'lumotlarga ega bo'lmasa, ularning natijalari to'g'ri va ishonchli bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, shaxsiylashtirish jarayoni, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi shaxsiy aloqani kamaytirishi mumkin, bu esa o'qish jarayonining insoniy jihatlarini zaiflashtiradi.

Bundan tashqari, musiqiy ta'limda sun'iy intellektni qo'llashda axborot xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilish masalalari ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida ma'lumot almashinuvi paytida, shaxsiy axborotlarning xavfsizligini ta'minlash zarur. AI texnologiyalarini joriy etishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan boshqa bir jihat esa, talabalarning texnologiyaga bo'lgan kirish imkoniyatidir, chunki har bir talabada zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

Umuman olganda, sun'iy intellektning musiqa ta'limida shaxsiylashtirish jarayonidagi o'rni juda katta va u kelajakda ta'lim jarayonlarini yanada takomillashtirishda davom etishi kutilmoqda. AI yordamida yaratilgan shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalari, talabalarni yanada faol, motivatsiyalangan va mustaqil o'quvchilarga aylantirishga yordam beradi, bu esa ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Musiqa ta'limida sun'iy intellekt (AI) asosida diagnostika metodlari, pedagogik jarayonlarni yanada samarali qiluvchi muhim vositalardan biridir. Ushbu metodlar, shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash bilan birga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini baholash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega⁸⁸.

O'quvchilar o'z xatolaridan tezda xabardor bo'lishadi va bu orqali o'z ijro mahoratini tezroq oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi⁸⁹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

⁸⁸ Azimov D. Musiqa ta'limida shaxsiylashtirish va sun'iy intellekt. O'zbekiston Musiqa Ta'limi Jurnali, 2023

⁸⁹ Tashkentov S. Pedagogik diagnostikada sun'iy intellektning roli. Ta'lim Innovatsiyalari, 2022

1. Jumayev A. Sun'iy intellekt va musiqa ta'limi: innovatsiyalar va imkoniyatlar. O'zbekiston Milliy Universiteti, 2022
2. Isakov R. Musiqa ta'limida diagnostika metodlari va ularning samaradorligi. Musiqa Ta'limi va Texnologiyalari, 2023
3. Xodjaev M. Sun'iy intellekt yordamida musiqa ijrosini baholash. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2021
4. Azimov D. Musiqa ta'limida shaxsiylashtirish va sun'iy intellekt. O'zbekiston Musiqa Ta'limi Jurnal, 2023
5. Tashkentov S. Pedagogik diagnostikada sun'iy intellektning roli. Ta'lim Innovatsiyalari, 2022

МУСИҚАТЕРАПИЯ: ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМИДА МУЛТИДИСЦИПЛИНАР ЁНДАШУВ САРҲАДИДА

Санъатшунослик факультети
Мухитдинова Малоҳат Саиджабборовна,
“Муסיқа таълими” кафедраси доцент в.в.б.



Аннотация: Ушбу мақола муסיқатерапиянинг Ўзбекистон олий таълим тизимидаги илмий ва амалий имкониятлари, давлат стратегияси билан уйғунлиги, шунингдек, фанлараро тадқиқот маркази сифатида университет қошида ташкил этилиши масалаларига бағишланган.

Калим сўзлар: муסיқатерапия, фанлараро тадқиқотлар, эмоционал барқарорлик, инсон руҳияти, олий таълимда инновация, муסיқа ва саломатлик.

Ўзбекистонда ижтимоий соҳада инсон саломатлиги, таълим ва психологик барқарорликни таъминлаш масаласи давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Хусусан, Президент қарори (PQ–391, 2024 йил 15 ноябрь) да таълимда соғлом муҳит яратиш, замонавий педагогик технологияларни жорий этиш алоҳида қайд этилган. Шу нуктаи назардан муסיқатерапия нафақат ижодий билим соҳаси, балки инсон руҳияти ва ҳаётининг фаолиятини мувозанатлашда муҳим восита сифатида қаралиши керак.[1]

Муסיқатерапияга илмий асосда ёндашилганда, аввало В.М. Бехтеревнинг тадқиқотлари эътиборга лойиқ. Унинг “Объективная психология” асарида таъкидланганидек, муסיқанинг инсон асаб тизими ва физиологиясига таъсири экспериментал равишда исботланган. Бехтерев муסיқа воситасида руҳий ҳолатни бошқариш, асаб тизимини соғломлаштириш ва ҳатто муайян физиологик ўзгаришларга

эришиш мумкинлигини илмий асосда баён этган. Бу қарашлар муסיқатерапияни нафақат бадий, балки клиник ва психофизиологик жиҳатдан ҳам муҳим йўналиш сифатида кўриб чиқишга замин яратади.[2]

Муסיқатерапия турли илмлар чорраҳасида жойлашган бўлиб, муסיқанинг педагогик ва психофизиологик таъсирини ўрганишни талаб этади. Муסיқа соҳасида 35 йиллик тажрибага эга ўқитувчи сифатида шуни таъкидлашим мумкинки, муסיқий ифода *тингловчи* ва *ижрочи* қалбида бевосита эмоционал уйғониш, таъсир ва ички резонансни вужудга келтиради. У инсон онги ва туйғуларини ҳаракатга келтиради, фикрлаш ва рухий ҳолатни ўзгартиришга ёрдам беради.

Ўзбекистонда муסיқатерапия маркази зарурати ва имкониятлари. Ўзбекистонда ҳозирча муסיқатерапия марказлари расман мавжуд эмас, аммо ижтимоий эҳтиёж ва халқаро тенденциялардан келиб чиқиб, олий таълим муассасалари қошида бундай марказларни ташкил этиш долзарб масала ҳисобланади. Чирчиқ давлат педагогика университети қошида муסיқатерапия маркази ташкил этиш ташаббуси айнан шундай эҳтиёждан келиб чиққан.[3]

Мультидисциплинар тадқиқот ва амалиёт. Муסיқатерапия маркази универсал ёндашувга эга бўлиб, у турли фан соҳаларини — психология, логопедия, биология, ахборот технологиялари ва санъатни интеграциялашни кўзда тутади. Марказнинг асосий вазифалари:

- Муסיқа таълими, психология ва логопедия кафедралари билан ҳамкорликда тадқиқотлар олиб бориш;
- ЗПР, РАС, нутқ муаммолари бўлган болалар учун махсус дастурлар ишлаб чиқиш;
- Талабаларнинг стресс ҳолатларини камайтириш бўйича муסיқий машғулотлар ташкил этиш;
- Муסיқий аудио дастурлар ва мобил иловалар яратиш учун ИТ кафедра билан ҳамкорлик қилиш;
- Муסיқа ва тасвирий санъатни бирлаштирган терапевтик

методикаларни синовдан ўтказиш;

- Рақамли таҳлиллар учун сунъий интеллектни жорий этиш;

- Болалар марказлари ва ижтимоий муассасаларда волонтерлик фаолиятини йўлга қўйиш.[4]

Марказнинг университет учун фойдаси.

- Илмий тадқиқот ва амалиётни бирлаштирган платформа;

- Талабалар учун фанлараро тажриба майдони;

- Ўқитувчилар ва тадқиқотчилар учун халқаро грантлар жалб қилиш имконияти;

- Соғлом муҳит яратишга хизмат қиладиган курслар ва терапия сессиялари.

Халқаро тажриба ва келгуси истиқболлар. Хориждаги кўпгина университетларда музикатерапия марказлари муваффақиятли фаолият юритмоқда. Масалан, АКШда Мичиган Давлат Университети қошидаги Муסיка терапияси клиникаси нафақат талабалар, балки кенг жамоатчилик учун ҳам музикатерапия хизматларини тақдим этади. Германияда Берлин Санъат Университетида музикатерапия бўйича махсус таълим дастурлари ва тадқиқотлар олиб борилади. Австрияда Вена давлат муסיқа ва санъат институти музикатерапия йўналишини илмий ва амалий жиҳатдан ривожлантирмоқда. Францияда Париж консерваторияси музикатерапия бўйича курслар ва амалиётлар тақлиф этади. Россияда эса Москва давлат консерваторияси ва Санкт-Петербург давлат маданият институтида музикатерапия йўналишида тадқиқотлар ва ўқув дастурлари мавжуд.[5]

Буларнинг барчаси Ўзбекистон олий таълим тизимида ҳам ушбу йўналишни йўлга қўйиш мумкинлигини кўрсатади. Чирчиқ давлат педагогика университети бу борада илк босқични бошлаш учун етарли илмий, ижодий ва педагогик салоҳиятга эга.

Музикатерапия — музиканинг шифобахш салоҳиятини

тадқиқ этиш, педагогик жараёнларга жорий этиш ва соғлом жамият куришга хизмат қиладиган фанлараро йўналишдир. Университет қошидаги марказ бу борадаги илмий ва амалий ташаббусларни бирлаштириб, янги натижаларга олиб келиши мумкин. Бу ташаббус давлатнинг таълим ва инсон салоҳиятини юксалтиришга қаратилган стратегик йўналишлари билан ҳамоҳангдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Таълим тизимини янада такомиллаштириш ва соғлом муҳит яратиш чора-тадбирлари тўғрисида [Қарор]/Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. – PQ–391-сон, 15.11. 2024

2. Бехтерев В.М. “Объективная психология”. СПб.: Питер, 2012.

3. Мирзакир Норбеков. “Ахлоқ асослари ва инсон сири”. Тошкент: “Шарқ”, 2021.

4. Altshuler I.M. “Music as a Therapeutic Agent”. New York: Columbia University Press, 2006.

5. Гнесины и музыкотерапия: официальный сайт Российской музыкальной академии им. Гнесиных – www.gnesin-academy.ru

FORTEPIANO IJROCHLIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA ULARNING AHAMIYATI

San’atshunoslik fakulteti

Altmisheva Maftuna Baxtiyar qizi,

“Musiqqa ta’limi” yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Muxitdinova Maloxat

Saidjabborovna, “Musiqqa ta’limi” kafedrası
dotsent v.v.b.



Annotatsiya: ushbu maqolada fortepiano o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari, ta’lim jarayonidagi bosqichlari hamda uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, fortepiano o‘rganish jarayonida pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi individual yondashuvning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fortepiano ijrochligi, musiqiy rivojlanish, ijro mahorati, shaxsiy yondashuv, musiqiy tafakkur.

Bugungi kunda musiqa san’ati, ayniqsa fortepiano ijrochligi, yosh avlodning estetik tarbiyasida, hissiy va intellektual rivojida muhim rol o‘ynamoqda. Forteplano nafaqat ijro texnikasini o‘rganish, balki musiqiy tafakkur, did va dunyoqarashni shakllantirish vositasidir. Shu sababli, forteplano ijrochligining ilmiy asosda tashkil etilishi va har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi muhim ahamiyatga ega.[1]

Forteplano XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ixtiro qilingan bo‘lib, uning dastlabki namunasi italiyalik usta Bartolomeo Kristofori (1655–1731) tomonidan yaratilgan. 1709 yilda Kristofori tomonidan “gravicembalo col piano e forte” — “past va baland sadolana oladigan klavishli soz” yaratildi. Bu soz garchi klavesinga o‘xshash bo‘lsa-da, undagi mexanizm tufayli ijrochi bosim kuchini o‘zgartirib, dinamik imkoniyatlarga ega bo‘lgan.

XVIII asr davomida forteplano konstruksiyasi takomillashdi, va Bax, Mosart, Betxoven kabi buyuk kompozitorlar forteplano uchun asarlar yoza boshladilar. XIX asrda esa Chaykovskiy, Shopen, List kabi kompozitorlar forteplani soli ijrochilik va

ijodiy imkoniyatlarni namoyon etishda asosiy vositaga aylantirdilar. Shu tariqa, fortepiano nafaqat konsert sahnalarida, balki har bir uyda ham asosiy musiqa vositasiga aylandi.[2]

Fortepiano ijrochligining asosiy maqsadi — o‘quvchida musiqa chuqur qiziqish uyg‘otish, uning ijro mahoratini rivojlantirish va mustaqil musiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Ushbu jarayon quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- musiqiy uquv va ritm sezgilarini rivojlantirish;
- texnik malakalarni mustahkamlash;
- asarlarning obrazli talqinini shakllantirish;
- o‘quvchining sahna madaniyatini rivojlantirish.

Fortepiano ta’limi ketma-ket va tizimli ravishda tashkil etiladi. Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchiga nota savodi, asosiy texnik ko‘nikmalar va oddiy asarlar bilan tanishtiriladi. Keyingi bosqichlarda esa murakkab asarlarni talqin qilish, ansamblda ishlash va improvizatsiya ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilar uchun Jan Sebastyan Baxning “Kichik prelyudiyalar va fugalari”, Lyudvig van Bетховенning “Sonatalari” kabi oddiy asarlar tavsiya qilinadi. Bu asarlar orqali ular texnik va musiqiy bazani mustahkamlaydi.[3]

Har bir o‘quvchi o‘zining qobiliyatlari, musiqiy didi va psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu boisdan, pedagog har bir talaba uchun individual o‘quv rejasi tuzishi, uning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini olib borishi zarur. Bu esa o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va natijada yuqori ijodiy yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Ba’zi o‘quvchilar texnikada tez muvaffaqiyatga erishadi, lekin musiqiy ifoda sohasida qiynaladi. Bunday holatda ularning his-tuyg‘ularini rivojlantirish uchun improvizatsiya va erkin ijro mashqlari qo‘shiladi.

Fortepiano ijrosini o‘rganish shaxsning irodasi, sabr-toqati va tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, musiqiy texnikani o‘zlashtirish va sahna tajribasi kasbiy faoliyatda — musiqachi,

pedagog, konsertmeyster sifatida muvaffaqiyat qozonishga xizmat qiladi.

Ijodiy rivojlanish uchun Shubertning “Musiqiy lahzalar” yoki Shopenning "Prelyudiyalar" ijrosi mashq qilinadi. Bu asarlar musiqiy fikrlash va hissiy ifoda qobiliyatini kuchaytiradi.[4]

Fortepiano san'atining rivojida dunyoga mashhur ustozlar muhim o‘rin egallaydi. Jahon fortepiano maktabining shakllanishiga Frants List, Friderik Shopen, Klara Shuman kabi buyuk pianinochilarning hissasi katta bo‘lgan. Ular nafaqat mohir ijrochilar, balki o‘z maktabi va metodik asoslariga ega bo‘lgan o‘qituvchilar edi.

Rus fortepiano maktabi XIX asr oxirlarida Anton Rubinshteyn va Nikolay Rubinshteyn faoliyati bilan shakllanib, keyinchalik Sergey Raxmaninov, Aleksandr Ziloti va Genrix Neygauz kabi ustozlar tomonidan rivojlantirildi. Rus maktabi texnik mukammallik, chuqur obrazlilik va musiqiy ifodaning kuchlilik bilan ajralib turadi.

O‘zbek fortepiano maktabi esa XX asr o‘rtalarida shakllanib, Hofiz G‘ulomov, Gavhar Rakhimova va Shohida Tojiboyeva kabi mahoratli ustozlar tomonidan rivojlantirildi. O‘zbek fortepiano san’ati Sharq va G‘arb an’analarini uyg‘unlashtirgan holda o‘ziga xos ifoda uslubini shakllantirdi. Mamlakatimizda fortepiano ta’limi konservatoriyalar, san’at maktablari va kollejlari orqali izchil ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda o‘zbek fortepiano maktabi vakillari xalqaro sahnalarda ham munosib ishtirok etib, milliy san’atimiz sharafini yuksaltirmoqda.[5]

Xulosa. Forteplano ijrochiligi — nafaqat musiqa ijrochiligini o‘rganish, balki o‘quvchining shaxsiy va estetik kamolotini ta’minlaydigan murakkab va sermazmun jarayondir. Har tomonlama o‘ylangan va individual yondashuvga asoslangan ta’lim esa bu yo‘ldagi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Абдуллаев, А. Музыка таълими асослари: дарслик / А. Абдуллаев. — Т.: «Ўқитувчи», 2020. — 240 б.

2. Муродов, Ш. Бола психологияси ва муסיқа таълими / Ш. Муродов. — Тошкент: «Истиқбол», 2019. — 196 б.
3. Давронова, М. Фортепиано ижроси методикаси: ўқув қўлланма / М. Давронова. — Т.: «Фан ва технологиялар», 2021. — 175 б.
4. Соловьёв, Б. Г. Педагогика музикаси: асосий методикаси оқибатда ишга соҳибдорларга / Б. Г. Соловьёв. — М.: Юрайт, 2022. — 312 с.
5. Gardner, H. The Arts and Human Development: A Psychological Study of the Artistic Process / H. Gardner. — New York: Basic Books, 2011. — 432 p.

MUSIQA TA'LIMIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING O'RNI

Baxridinova Barno Tojiddin qizi,
“Musiqqa ta’lim” yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,
“Musiqqa ta’limi” kafedraasi dotsent v.v.b.



Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqqa ta’limida pedagogik diagnostikaning o’rni tahlil qilinadi. Unda pedagogik diagnostikaning turli xil usullari, jumladan, kuzatish, sinovlar, so‘rovnoma va portfol yo‘li bilan baholash kabi usullarni qo‘llashning amaliy jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Musiqqa ta’limi, pedagogik diagnostika, kuzatish, individual, ehtiyojlar, o‘qitish jarayoni, baholash, kasbiy rivojlanish.

Yangi O‘zbekistonning ta’lim-tarbiya sohasida musiqqa ta’limining rivojlanishi davlatning eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. Musiqqa ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarning musiqiy va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularda estetik didni va musiqqa san’atiga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishdir. Hozirgi kunda musiqqa pedagogikasi nafaqat o‘quvchilarga musiqiy bilimlarni berish, balki ularning ijodiy ko‘nikmalarini, tajribalarini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Ushbu sohada ta’limni tashkil etishda samarali yondashuvlar va metodlar izlanmoqda, chunki musiqqa san’ati insonning ma’naviyatini shakllantirishda, shuningdek, uning hissiy va estetik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Musiqqa ta’limining samarasini oshirish uchun pedagogik diagnostika jarayonini o‘rganish zarurati kundankunga ortmoqda. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega, chunki diagnostika

orqali o'quvchilarning musiqa eshitish qobiliyati, ritmik hissiyotlari va ijrochilik ko'nikmalari baholanadi.[1]

Musiqiy diagnostika jarayoni ta'limda o'quvchilarning ehtiyojlariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarni yaxshiroq tushunishga, balki ularning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim usullarini tanlashga yordam beradi. Diagnostika yordamida o'quvchilarning qiziqishlari va motivatsiyasi oshadi, bu esa ularga o'z qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi. O'quvchilar o'zlarining rivojlanish darajasi va qobiliyatlari haqida ma'lumot olish orqali, o'z ustida ishlashga ko'proq motivatsiya topadilar. Shuningdek, o'qituvchi musiqiy diagnostika yordamida o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularning o'sishi uchun mos strategiyalar ishlab chiqishi mumkin. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini yanada samarali va individuallashtirilgan qilishga imkon yaratadi. [2]

Pedagogik-psixologik diagnostikaning ta'lim jarayonidagi o'zaro bog'liqligi musiqiy ta'limni yanada samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Musiqiy pedagogikaning obyekti – shaxsning musiqiy ta'limi va tarbiyasi jarayonidir. Bu jarayon nafaqat musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan, balki shaxsiyatni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Musiqa pedagogikasining predmetiesamusiqata'limi, tarbiyanazariyasi va amaliyotidir. Ushbu soha musiqiy pedagogik jarayonning mohiyati, qonuniyatlarini va ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishiga oid bilimlarni taqdim etadi. Musiqa pedagogikasi murakkab va ko'p qirrali fan bo'lib, uning mazmuni nafaqat shaxsning individual musiqiy mayllarini rivojlantirishga, balki uning shaxsiyatini shakllantirishga ham qaratilgan.

Musiqiy ta'limda kuzatish metodi, tabiiy sharoitda o'quvchilarning xatti-harakatlari, o'zini tutishi va faoliyatini kuzatish orqali ma'lumot olishni ta'minlaydi. Bu usul orqali o'quvchilarning qiziqishlari, musiqa bo'lgan qiziqish darajasi va ijodiy faoliyatlari haqida aniq ma'lumot olish mumkin.

Masalan, musiqa darsida o'quvchining ijrochilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishini kuzatish orqali uning rivojlanish yo'nalishini aniqlash mumkin. Shu bilan birga, kuzatish o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham kuzatishga yordam beradi.[3]

Individual yondashuv pedagogik diagnostika o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va qiziqishlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar o'quvchilarga moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'qitish usullarini tanlashga imkon yaratadi. Individual yondashuv orqali o'qituvchilar o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim jarayonini shakllantiradilar. Shuningdek, diagnostika yordamida o'quvchilarni o'zlarining zaif tomonlarini bilib, ularni yaxshilash uchun zarur mashqlar va topshiriqlar tayyorlanadi.

O'qitish jarayonini rejalashtirish va baholash pedagogik diagnostika natijalari o'qituvchilarga o'quv dasturlarini rejalashtirishda, o'quv materiallarini tanlashda va o'qitish usullarini tanlashda yordam beradi. Shuningdek, diagnostika natijalari o'quvchilarning rivojlanishini kuzatish va o'qitish jarayonining samaradorligini baholashga imkon beradi. Diagnostika metodlarining samaradorligini baholash bu usullarning ta'lim jarayonida qo'llanishini doimiy takomillashtirishni ta'minlaydi. Samaradorlikni baholash uchun diagnostika natijalari va o'quvchilarning rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Masalan, diagnostika yordamida aniqlangan o'quvchilarning zaif tomonlari rivojlanish jarayonida qay darajada yaxshilangani baholanadi. Diagnostika metodlarining samaradorligi aniqlik, obyektivlik va natijalar amaliyotga tatbiq qilinganidan keyin beradigan foyda orqali baholanadi. Kuzatish, test va so'rovnoma metodlari natijalarining o'zaro taqqoslanishi diagnostika jarayonining ishonchliligini oshiradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida diagnostikaning samaradorligi yanada ortadi, chunki raqamli vositalar obyektiv va tezkor natijalarni ta'minlaydi.[4]

O'quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish pedagogik diagnostika o'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash va ularga

o'z vaqtida yordam berish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga va ularning musiqa ta'limi jarayonida muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlash va ularga to'g'ri yordam berish pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalaridan biridir.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash: Pedagogik diagnostika o'qituvchilarga o'z o'qitish usullarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va o'zlarini rivojlantirish uchun yangi usullarni o'rganish imkonini beradi. O'qituvchilar uchun diagnostika nafaqat o'quvchilarning rivojlanishini baholash, balki o'z malakalarini oshirishda ham yordam beradi. Ehtiyojlarini aniqlash diagnostika natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq qilishni talab etadi. Diagnostika natijalari asosida o'quv dasturlari va metodik yondashuvlar moslashtiriladi.

Masalan, musiqa eshitish qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar uchun murakkab ijrochilik mashqlarini taklif qilish, ritmik qobiliyati sustroq o'quvchilar uchun esa maxsus mashqlar tayyorlanadi.

Xulosa. Musiqa ta'limida pedagogik diagnostika o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchilarga o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonlarini tashkil etish va ularning rivojlanishini kuzatishda yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhamedov O'.X. Usmonbayeva M.H., Rustamov S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. T., 2016. – 45 b. 5.
2. Sobirova G.S. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tili olmoshlarini axborot texnologiyalari asosida o'rgatish metodikasi. T., 2017. – 5 b.
3. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta'lim, 2010.

- №2. – 112-117б.

4. Игнатъева Е.Ю. Менеджмент знаний в управлении качеством образовательного процесса в высшей школе. – Великий Новгород, 2008. – 280с.

O‘QUVCHILARNING YARATUVCHANLIK KO‘NIKMALARINI OSHIRISH USULLARI

Abdumalikova Rayxona Dilshod qizi
San’atshunoslik fakulteti
Musiqqa ta’limi yo‘nalishi 3–kurs talabasi
Ilmiy rahbar:
Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,
“Musiqqa ta’limi” kafedrasida dotsent v.v.b.



Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish bo‘yicha metodlar ko‘rib chiqilgan. Ushbu metodlar bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini va musiqqa san’atiga bo‘lgan muhabbatini rivojlantiradi. Ijodiy faollik odamning ichki xislatlarini o‘zida aks ettirib beruvchi vosita hisoblanadi va uning fikrlashini, ma’naviyatini oshirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Ijodiy faoliyat, ijodiy ko‘nikmalar, innovatsion yondashuvlar, metodlar, mantiqiy fikrlash.

Ijodiy faoliyat o‘quvchilarning yangi g‘oyalar va yechimlar yaratish jarayonini ifodalaydi va ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirish bo‘yicha metodlar, ularning yaratuvchanlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategiya va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, muammolarni hal qilish va yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va metodologiyalar muhim ahamiyatga ega. [1] Hozirgi zamonda, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ta’limda innovatsion yondashuvlar va metodlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashlariga va tajriba orttirishlariga yordam beradi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha metodlar tarixiy jihatdan pedagogika va psixologiya sohalarida o'zgarib borgan. XX asrning o'rtalarida Amerikalik pedagog John Dewey va rus psixologi Lev Vygotskiy ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim nazariyalarni ilgari surdilar. Ular ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va o'z fikrlarini erkin ifoda etishlarini maqsad qildilar. Bu nazariyalar, o'z navbatida, zamonaviy ta'limda ijodiy metodlarni qo'llashga tayanch bo'ldi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatda ishtirok etishlari uchun muhim shartlar: erkin muhit, qo'llab-quvvatlash va o'z fikrlarini ifoda etishga imkoniyatdir.[2]

Ijodiy faollikni oshirish o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlariga, shuningdek, ijtimoiy va emotsional rivojlanishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlik ko'nikmalari zamonaviy ish bozorida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatda yangiliklar yaratishga yordam beradi. Hozirgi kunda ijodiy faoliyatni oshirishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar mavjud. O'zbekistonning turli ta'lim muassasalarida ijodiy metodlar, masalan, loyiha asosida o'qitish, guruh ishlarini tashkil etish va muammoli o'qitish metodlari keng qo'llanilmoqda. Mavjud tadqiqotlar, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda innovatsion texnologiyalar, masalan, internet resurslari va multimedia vositalarining rolini o'rganmoqda.[3]

Biroq, ijodiy faollikni oshirishda bir qator muammolar mavjud. An'anaviy ta'lim tizimlarining cheklovlari, o'quvchilar orasida ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi muhitning yo'qligi va o'qituvchilarning metodologik tayyorgarlik darajasi bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab o'qituvchilar ijodiy metodlarni qanday qo'llashni bilmaydilar, bu esa o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, ijodiy faoliyatni oshirish bo'yicha yangi metodlar va tadqiqotlar ustida ish olib borish zarur.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha metodlar ta'lim jarayonining ajralmas qismidir.

Bu jarayon o'quvchilarning yaratuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning akademik va shaxsiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha metodlarni tadqiq qilish, shu bilan birga, o'qituvchilar uchun ijodiy metodologiyalarni o'rganish va interaktiv o'yinlar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun interaktiv o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarga nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'z fikrlarini erkin ifoda etish va ijodiy yechimlar topishda yordam beradi. Interaktiv o'yinlar, shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

Interaktiv o'yinlar turli xil shakllarda bo'lishi mumkin: onlayn o'yinlar, jamoaviy o'yinlar, rolli o'yinlar va simulyatsiya o'yinlari. Har bir tur o'ziga xos afzalliklari va noqulayliklariga ega. Masalan, onlayn o'yinlar o'quvchilarga global miqyosda hamkorlik qilish va raqobatlashish imkoniyatini taqdim etadi, bu esa ularning ijodiy fikrlashini yanada ravonlashtiradi.

Boshqa tomondan, rolli o'yinlar o'quvchilarga turli xil muhitlarni yaratish va o'z fikrlarini o'zaro almashish imkonini beradi, bu esa ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.[4]

Interaktiv o'yinlar orqali o'quvchilar muammolarni hal qilish jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar. Masalan, simulyatsiya o'yinlarida o'quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun turli strategiyalarni sinab ko'rishlari mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar qiyinchiliklarni bartaraf etish, alternativ yechimlar topish va o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

O'yinlar o'quvchilarga mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Ular o'z fikrlarini erkin ifoda etish, guruhda ish olib borish

va yangi g'oyalar yaratish imkoniyatini yaratadi. O'yin jarayonida o'quvchilar o'zaro munosabatlarni o'rganadilar, bu esa ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bunday muhitda o'quvchilar o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish va yangi fikrlarni ishlab chiqishda motivatsiyalarini oshirishga yordam beradi.[5]

Shuningdek, interaktiv o'yinlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchilar muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'yinlarni qanday qilib qo'llash, ularni qanday tashkil etish va o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish uchun qanday strategiyalarni qo'llash kerakligini bilishlari zarur. O'qituvchilarning metodologik tayyorgarligi va ijodiy yondashuv-lari o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish, nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatlariga, balki ijtimoiy va emotsional rivojlanishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlik ko'nikmalari zamonaviy ish bozorida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning innovatsion fikrlash qobiliyatlarini oshiradi. Ushbu tadqiqot o'qitish jarayonida ijodiy faollikni oshirish bo'yicha yangi yo'nalishlarni belgilab beradi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Akhmedova, D. I. Ijodiy fikrlash va o'qitish: pedagogik metodlar. O'zbekiston ta'limi, 2021
2. Jabborov, B. Ta'limda interaktiv o'yinlar va ularning ijodiy fikrlashga ta'siri. O'qituvchilar uchun ilmiy jurnali, 2022
3. Sirojiddinova, M. Loyiha asosida o'qitish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish. Ta'lim va innovatsiyalar, 2023
4. Tursunov, F. O'qituvchilar uchun ijodiy metodologiyalar: nazariy va amaliy jihatlar. O'zbekiston pedagogika jurnali, 2020
5. Xodjaeva, N. Interaktiv o'yinlar orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Pedagogik Fanlar, 2022

O‘QUVCHILARNING RITM SEZGISI QOBILIYATINI BAHOLASH

San’atshunoslik fakulteti
Jamolxonova Dilafruxxon Xayrullaxon qizi

Musiqqa ta’limi yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,
“Musiqqa ta’limi” kafedrasi dotsent v.v.b.



Annotatsiya: ushbu maqolada o‘quvchilarning ritm sezgisi qobiliyatini baholashning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Unda ritm sezgisi qobiliyatining musiqiy rivojlanishdagi ahamiyati ta’kidlanib, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda maqsadli mashg‘ulotlar va innovatsion metodlarni (tinchlik va harakat, ritimli o‘yinlar, musiqiy asboblarni) qo‘llash zarurligi asoslanadi.

Tayanch so‘zlar: musiqiy ritm, ritm sezgisi, ritimli o‘yinlar, baholash metodikasi, bolalar, musiqqa ta’limi.

Musiqqa ta’limi insonning umumiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. U bolalarni ijodiy fikrlashga, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishga va boshqalar bilan muloqot qilishga o‘rgatadi. Musiqqa ta’limi, shuningdek, bolalarning xotirasini, diqqat-e’tiborini va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ritm musiqaning eng muhim elementlaridan biridir. U musiqaga hayot bag‘ishlaydi, uni yoqimli va jozibador qiladi. Ritm bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularga musiqani tushunishga, uni his qilishga va ijro etishga yordam beradi. Ritm sezgisi qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar musiqani osonroq o‘rganishadi, ijro etishda muammolarga duch kelmaydilar va musiqqa bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo‘lishadi. Ritm sezgisi qobiliyati – bu musiqqa ritmini tushunish, uni his qilish va uni takrorlash

qobiliyatidir. Bu qobiliyat bolalarning musiqiy rivojlanishida juda muhim o‘rin tutadi.

Ritm sezgisi qobiliyatining bolalarning musiqiy rivojlanishidagi roli quyidagicha:

- Tushunish va anglash: Ritm sezgisi qobiliyati bolalarga musiqa tuzilishini, uning ritmik naqshlarini tushunishga yordam beradi. Bu ularga musiqani yanada chuqurroq his qilish va uni osonroq o‘rganish imkonini beradi.

- Hissiy javob: Ritm sezgisi qobiliyati bolalarga musiqa his-tuyg‘ularini tushunishga va ularga javob berishga yordam beradi. Ular musiqaning ritmik o‘zgarishlarini his qilib, uni o‘zlarining his-tuyg‘ulari bilan bog‘laydilar.

- Aniq ijro: Ritm sezgisi qobiliyati bolalarga musiqani to‘g‘ri va aniq ijro etishga yordam beradi. Ular musiqaning ritmini tushunib, uni o‘zlarining harakatlarida aks ettiradilar.

- Qobiliyatlar uchun asos: Ritm sezgisi qobiliyati bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular musiqani osonroq o‘rganishadi, uni ijro etishda muammolarga duch kelmaydilar va musiqa bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo‘lishadi.

Ritm sezgisi qobiliyatini baholash metodikalari

Bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini baholashda bir nechta samarali usullardan foydalanish mumkin.

1. Tinchlik va harakat usuli:

Bu usul bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini baholashning eng sodda va samarali usullaridan biridir. Bunda bolalarga turli xil ritmli musiqalar tinglatiladi va ularning harakatlari kuzatiladi. Baholash jarayoni quyidagicha tashkil etiladi:

1. Musiqa tanlash: Bolalarning yoshi va qobiliyat darajasiga mos keladigan, turli ritm va tempdagi musiqiy parchalar tanlanadi.

2. Musiqa tinglatish: Tanlangan musiqa bolalarga tinglatiladi.

3. Harakatlarni kuzatish: Bolalarning musiqaga

nisbatan qanday harakatlar (qo‘l qarsak chalish, oyoq urish, tana chayqalishi va h.k.) qilayotgani sinchkovlik bilan kuzatiladi. Musiqaga faol javob beradigan bolalar bilan birga xotirjamroq bolalarning ham xususiyatlari inobatga olinadi.

4. Tahlil qilish: Bolalarning harakatlari musiqaning ritmi bilan qanchalik uyg‘un ekanligi tahlil qilinadi va baholanadi.

Tinchlik va harakat usulini qo‘llashda baholash sharoitining tinch va qulay bo‘lishiga e‘tibor berish lozim.

2. Ritmli o‘yinlar orqali baholash:

Musiqiy o‘yinlar bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini baholash va rivojlantirishning juda qiziqarli va samarali usulidir. Ritmli o‘yinlar orqali baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Turli xil ritmli o‘yinlar tanlash: Bolalarning yoshi va qobiliyat darajasiga mos o‘yinlar tanlanadi. Masalan:

- “Qo‘l chaqqon” o‘yini: Bolalarga turli xil ritmli musiqalar tinglatiladi va ular qo‘llarini musiqaning ritmiga mos ravishda chapishlari kerak.

- “Marsh” o‘yini: Bolalar musiqaga mos ravishda marsh (qadam tashlash) bajaradilar.

- “Qarsaklar” o‘yini: O‘qituvchi bergan ritmik naqshni bolalar qarsak chalib takrorlaydilar.

- “Musiq raqsi” o‘yini: Bolalar musiqaga erkin ravishda raqsga tushadilar.

- “Ritmik o‘yinlar” o‘yini: Murakkabroq ritmik naqshlarni guruh bo‘lib yoki individual tarzda takrorlash.

- “Musiq asboblari bilan o‘ynash” o‘yini: Bolalar musiqiy asboblarni yordamida ritm ijro etadilar.

2. O‘yinni birgalikda o‘tkazish: Tanlangan o‘yin bolalar bilan birgalikda o‘tkaziladi, qoidalar aniq va tushunarli qilib tushuntiriladi.

3. Kuzatish: Bolalarning o‘yinda qanday ishtirok etishlari, musiqaning ritmini qanday his qilishlari va o‘yin qoidalariga qanday amal qilishlari kuzatiladi.

4. Tahlil qilish: Bolalarning o‘yindagi ishtiroki tahlil

qilinib, ularning ritm sezgisi qobiliyati baholanadi. Misol uchun, bolaning musiqaning ritmini aniq his qilib, o‘yin qoidalariga mos ravishda harakat qilishi uning yuqori ritm sezgisi qobiliyatiga dalil bo‘ladi.

O‘yin muhiti qulay va xavfsiz bo‘lishi lozim. Ritmli o‘yinlar bolalarga musiqani tushunishga, uni his qilishga va ijro etishga yordam beradi.

Bolalarning yoshi va qobiliyat darajasini hisobga olish:

- Kichkina bolalar (2-4 yosh): Bu yoshdagi bolalar uchun oddiy va takrorlanuvchi ritmli o‘yinlar mos keladi (“Qo‘l chaqqon”, “Marsh”, “Qarsaklar”).

- Maktabgacha yoshdagi bolalar (4-6 yosh): Bu yoshdagi bolalar uchun biroz murakkablashgan ritmli o‘yinlar (“Musiqqa raqsi”, “Ritmik o‘yinlar”, “Musiqqa asboblari bilan o‘ynash”) tavsiya etiladi.

- Maktab yoshidagi bolalar (7 yoshdan yuqori): Bu yoshdagi bolalar uchun yanada murakkab ritmli o‘yinlar, musiqqa asboblari bilan o‘ynash, musiqqa yaratish kabi mashg‘ulotlar mos keladi.

O‘yinlar davomida ularning ishtiroki va ritmni tushunish darajasini kuzatish orqali, bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini samarali baholash va rivojlantirish mumkin.

3. Musiqiy asboblardan foydalanish:

Musiqiy asboblarning bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini baholash va rivojlantirishning ajoyib vositasi hisoblanadi. Ular bolalarga ritmni his qilish, uni ijro etish va musiqaga ijodiy yondashish imkonini beradi. Musiqiy asboblarni ishlatish orqali baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Musiqqa cholg‘u asboblari tanlash:

- Perkussiya asboblari: doira, baraban, marakas, ksilofon va boshqalar.

- Damli asboblari: surnay, nay, karnay va boshqalar.

- Torli asboblari: g‘ijjak, tanbur, rubob va boshqalar.

- Klavishli asboblari: sintezator, pianino kabi sodda klavishli asboblari.

2. Asboblarni tanishtirish: Bolalarga tanlangan asboblarni tanishtirilib, ularni qanday chalish va undan tovush chiqarish o'rgatiladi.

3. Ritmni ijro etish: Bolalarga oddiy ritmik naqshlar berilib, ularni tanlangan asbob yordamida ijro etish so'raladi.

4. Kuzatish: Bolalarning ritmni qanchalik aniq va sinxron ijro etayotgani, ularning harakatlari va asbobdan foydalanish mahorati kuzatiladi.

5. Baholash: Kuzatish natijalariga ko'ra bolalarning ritm sezgisi qobiliyati baholanadi.

Musiqiy asboblarni ishlatish bolalarning qo'l-ko'z koordinatsiyasini rivojlantiradi, musiqani tushunish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, bolalar bir-biri bilan muloqot qilishga va birgalikda ijro etishga o'rganadi, bu esa ularning ijodiy va ijtimoiy qobiliyatini rivojlantiradi. Musiqiy asboblarni bolalarning ritm sezgisi qobiliyatini baholash va rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular bolalarning musiqiy qobiliyatini ochib berishga va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ritm sezgisi qobiliyatini baholash va rivojlantirish musiqiy ta'limning ajralmas qismidir. Yuqorida keltirilgan tinchlik va harakat usuli, ritimli o'yinlar hamda musiqiy asboblardan foydalanish kabi metodikalar bolalarning yoshiga va individual xususiyatlariga moslashgan holda samarali qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondashuvlar orqali bolalarning musiqiy idroki, ijro mahorati va ijodiy fikrlashi yanada takomillashadi, bu esa ularning musiqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umrzoqova L. B. Musiqa darslarida cholg'u asboblari vositasida bolalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishning ahamiyati // *Ekonomika i sotsium*. 2024. № 3-1 (118). C. 426-429.

2. Muxitdinova M. S. Types of music activities in school education and their role in corrective work with children

with severe speech defects // International Journal of Pedagogics. 2024. Vol. 4, № 02. C. 110-115.

3. Mahkamova Sh. R. Maktab o'quvchilarida musiqa madaniyati darslarining integrallashuvi // Scientific progress. 2021. Vol. 1, № 5. C. 438-443.

4. Mahkamova Sh. O'quvchilarni barkamol inson qilib tarbiyalashda o'zbek xalq musiqa ijodining roli // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. Vol. 2, № 7. C. 162-166.

5. Karimov N. A. Zamonaviy musiqa ta'lim. Toshkent, 2012.

BUYUK KOMPOZITORNING BETAKROR MEROSI

San'atshunoslik fakulteti
Xoltoyeva Iroda Asad qizi,
Musiqqa ta'limi yo'nalishi,
1-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,
Musiqqa ta'limi" kafedراسи dotsent v.v.b.



Annotatsiya: Ushbu maqola musiqqa ta'limida o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash muammosini yoritadi. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishning muhimligi, ularni baholash metodologiyalari, shaxsiy xususiyatlar va ta'lim samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda zamonaviy texnologiyalarning bu jarayondagi roli atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari musiqqa ta'limi amaliyotlarini shaxsiyatga yo'naltirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Romantizm, virtuoz pianinochi, poetik janr, professional exnika, to'xtovsiz harakat.

Frederik Shopen (to'liq ismi Frederik Fransua Shopen) 1810-yil 22-fevralda, o'sha paytda Napoleon tomonidan tashkil etilgan Polsha davlati — Varshava gersogligi tarkibiga kiruvchi Jelozova Volya qishlog'ida dunyoga kelgan. Garchi ayrim manbalarda uning tug'ilgan kuni 23-aprel deb ko'rsatilsa-da, cherkovdagi cho'qintirish yozuvida 22-fevral sanasi qayd etilgan. Uning ismlari lotincha shaklda **Fridericus Franciscus** tarzida hujjatlarda aks etgan.

Shopenning otasi, Nikolay Shopen, 1787-yilda 16 yoshida Lotaringiyadan Polshaga hijrat qilgan fransuz edi. U ishlagan oilalardan biri bo'lgan Skarbeklar sulolasining qarindoshi — Justina Kshyjanovskaga uylangan. Frederik Shopen ota-onasi turmush

qurgan Broxuv cherkovida cho‘qintirilgan. Uning cho‘qintirgan otasi 18 yoshli Friderik Skarbek bo‘lib, otasi Nikolay Shopenning shogirdi edi. Shopen — Nikolay va Justinaning ikkinchi farzandi bo‘lib, ularning yagona o‘g‘li edi. Uning katta opasi Lyudvika hamda ikki singlisi — Izabella va Emiliya bo‘lgan. Afsuski, Emiliya 14 yoshida sil kasalligidan vafot etgan. Bu yo‘qotish oila hayotida chuqur iz qoldirgan.

1810-yil oktyabr oyida, ya’ni Shopen tug‘ilgach olti oy o‘tib, oila Varshavaga ko‘chib o‘tadi. U yerda otasi Varshava litseyida fransuz tili o‘qituvchisi lavozimini egallaydi. Shopen oilasi bilan saroy hududidagi pansionatda istiqomat qilgan. Otasi nay va skripka chalgan, onasi esa pianino ijro etar edi va o‘sha pansionatda o‘g‘il bolalarga musiqa saboqlarini bergan. Shopenning gavdasi nozik bo‘lgan va u erta yoshligidan kasalliklarga moyilligi bilan ajralib turgan. Bu uning butun hayoti davomida sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga duch kelishiga sabab bo‘lgan.

Dastlab u pianino chalishni oilasidan o‘rgangan bo‘lsa-da, uning ilk professional musiqa o‘qituvchisi 1816-yildan 1821-yilgacha chexiyalik pianinochi Voytsex Jivniy bo‘lgan. Jivniy Shopenning noyob iste’dodini darhol payqagan va uni jiddiy o‘qitishga kirishgan. Shopenning katta opasi Lyudvika ham Jivniydan dars olgan va vaqti-vaqti bilan ukasi bilan duetlar ijro etgan. Shopen yetti yoshida ommaviy konsertlar bera boshlaydi va 1817-yilda G minor hamda B-bemol majorida ikki polonez yaratadi. 1821-yilda Jivniyga bag‘ishlab yozilgan A-bemol majordagi polonez — bastakorning saqlanib qolgan **eng qadimgi musiqiy qo‘lyozmasi** hisoblanadi. Bu asarlar yosh Shopenda ulkan ijodiy salohiyat mavjudligidan dalolat bergan.

1829-yilda Shopen Varshava konservatoriyasini tamomlaydi. Uning imtihon ro‘yxatida “Frederik Shopen — musiqa dahosi” degan ta’rif qayd etilgan. Bu vaqtga kelib u orkestr bilan fortepiano uchun yozilgan ikki konsertni yaratib ulgurgan edi. Bugungi kunda bu konsertlar butun dunyoda mashhur bo‘lib, hanuzgacha sevib tinglanadi va fortepiano repertuarining durdonalaridan biri

hisoblanadi.

Shopen Polshani juda yaxshi koʻrgan, biroq kasbiy faoliyati uni boshqa yurtlarga safar qilishga majbur etgan. 1830-yilda ilk konsert safari bilan Yevropaga yoʻl oladi va bu safar uning ona yurti bilan vidolashuvi boʻlib qoladi. Vataniga boʻlgan chuqur muhabbati va sogʻinchi uning keyingi ijodiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. 1830–1831-yillar qishini Vena shahrida oʻtkazadi, keyinchalik esa Parijga koʻchadi. U hayotining qolgan qismini aynan Parijda oʻtkazgan. Shopen ijodda sermahsul boʻlgan va tez orada nafaqat bastakor sifatida, balki fortepianodagi betakror ijrosi bilan ham tanilgan. U boshqa bastakorlardan farqli ravishda, asosan zodagonlar toʻplanadigan salonlarda ijro etgan. Zaif sogʻligʻi sabab omma oldida kamdan-kam chiqish qilgan, ammo bu uning shuhratini pasaytirmagan, aksincha, uning ijrosiga boʻlgan qiziqishni oshirgan.

Shopen oʻz davrining mashhur musiqachilari — Ferens List, Gektor Berlioz, Vinchenso Bellini, shuningdek, yozuvchi va shoirlardan Adam Mitskevich, Genrix Geyne, Onore de Balzak, Ivan Turgenev kabi mashhurlar bilan tanish boʻlgan. Fransuz rassomi Ejen Delakrua tomonidan chizilgan bir suratda Shopenning ijro chogʻidagi ilhomlangan chehrasi tasvirlangan. Ferens List uni taniqli yozuvchi Jorj Sand (haqiqiy ismi Avrora Dyudeven) bilan tanishtirgan. 1838-yildan boshlab u Shopenning yaqin insoniga aylangan. Ular birgalikda Mayorka oroliga sayohat qilishgan va u yerda Shopen sil kasalligidan davolangan. Bu davr uning ijodiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan.

Avrora Dyudevenning uyida Shopen bir qancha yuksak darajadagi asarlarini yaratgan. Biroq uning hayoti yurt sogʻinchi va kuchayib borayotgan oʻpka xastaligi bilan ogʻirlashib borgan. Shopen 1849-yil 17-oktyabrda Parijda vafot etgan. U Parijdagi Per-Lashez qabristoniga dafn etilgan. Uning vasiyatiga koʻra, yuragi kumush idishda Varshavaga olib borilgan va Ilohiy Xoch cherkovi devoriga qoʻyilgan. Bu uning vataniga boʻlgan cheksiz muhabbatining ramzi boʻlib qolgan.

Shopen asosan fortepiano uchun asarlar yozgan bastakorlar sirasiga kiradi. U bu cholgʻu vositasi orqali oʻziga xos, ilgari eshitilmagan ohanglarni yaratgan. Uning polonezlari, mazurkalari, balladalari va noktyurnlarida polsha xalqining ozodlikka boʻlgan intilishi mujassam. Ayniqsa, vals va noktyurnlarida fortepiano goʻyo soʻzlaydi yoki kuylaydi, tinglovchini chuqur hissiyotlar olamiga chorlaydi. Uning musiqasi romantizm davrining eng yorqin namunalari qatoridan joy olgan.

Oʻzbekistonda Frederik Shopen ijodi chuqur hurmat va qiziqish bilan qarshi olinadi. Uning fortepiano uchun yozgan lirik va nozik asarlari respublika boʻylab sanʼat institutlari, konservatoriyalar hamda ixtisoslashgan musiqa maktablarida muntazam oʻrgatiladi. Ayniqsa, yosh fortepianochilar uchun Shopen asarlarini ijro etish texnika va ifoda sanʼatidagi yuksaklik belgisi hisoblanadi. Shopen musiqasi yosh avlodning musiqiy didini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatr sahnasida “Shopeniana” baleti sahnalashtirilgan boʻlib, bu ijod namunasi bastakor musiqasining raqs bilan uygʻunlashuvi sifatida muhim sanaladi. Har yili oʻtkaziladigan respublika va xalqaro fortepiano tanlovlarida oʻzbek talabalari Shopen asarlari bilan ishtirok etib, yuqori baholar va mukofotlarga sazovor boʻlishmoqda. Bu Oʻzbekistonda Shopen ijodiga boʻlgan yuksak ehtiromning yaqqol dalilidir.

Kamola Mahmudova, Hamidulla Tojiev kabi taniqli oʻzbek fortepianochilari Shopen musiqasining nozik jihatlarini talqin qilishda mahorat koʻrsatib, yosh avlod uchun namuna boʻlib kelmoqda. Shopenning asarlarida mujassam milliy ruh va insoniy iztiroblar oʻzbek xalqining mustaqillik, ozodlik va erkinlik gʻoyalari bilan uygʻunlashadi. Bu universal qadriyatlar Shopen musiqasini har bir xalqqa yaqin qiladi.

Bugun ham Shopen asarlari Oʻzbekiston sahnalarida, konsert va festivallarda yangramoqda. Har bir tinglovchi uning musiqasida oʻz qalbiga mos ohangni topadi. Varshavada har 5 yilda Shopen

nomidagi xalqaro tanlov o‘tkaziladi. Unda yosh bastakor va ijrochilar Shopen musiqasi asosida bellashadi. Ijrochining virtuozi texnikasi tan olinishi — g‘alaba belgisi hisoblanadi. Ferens List shunday degan edi: “Shopening polonezini tinglab turib, tubanlik va adolatsizlikka qarshi jasorat bilan qadam tashlayotgan odamlarning og‘ir qadamlarini ko‘rgandek bo‘lasiz.” Shu sababdan uning musiqasi har doim qadrlanadi va avloddan avlodga yetkaziladi. Shopening merosi jahon musiqiy hazinasining bebaho boyligidir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Романовский С. В. Шопен: жизнь и творчество. — Москва: Музыка, 1985. — 256
2. Житомирский Д. В. Фредерик Шопен. — 2-е изд., доп. — Москва: Сов. композитор, 1970. — 302 с.
3. Eigeldinger J. Chopin: Pianist and Teacher as Seen by His Pupils / Trans. from the French by N. Shohet. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986. — 324 p.
4. Samson J. The Music of Chopin. — London: Routledge, 1994. — 210 p.
5. Галина Б. И. Фредерик Шопен и его современники. — Санкт-Петербург: Композитор, 2005. — 192 с.

MUSIQA MADANIYATI FANI O‘QITUVCHISI KASBINING XUSUSIYATLARI: PEDAGOGIK AMALIYOTDAGI KUZATUVLAR

San’atshunoslik fakulteti

Klitbekova Go‘zal Manas qizi,

Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar:

Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,

Musiqa ta’limi kafedrası dotsent v.v.b.



Annotatsiya: maqola 2-bosqich talabasi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘tkazilgan pedagogik amaliyot jarayonida olib borilgan kuzatuvlar asosida yozilgan. Unda musiqa darslarining tashkil etilishi, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati, o‘qituvchining kasbiy fazilatları hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: musiqa madaniyati, pedagogik amaliyot, o‘qituvchi kasbiy fazilatları, dars kuzatuvı.

Kirish. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fanining o‘qitilishi, o‘quvchilarning estetik tarbiyasi va milliy-madaniy merosga hurmatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Musiqa darsları orqali bolalarda nafaqat badiiy tafakkur, balki emotsional ong, ijtimoiy faollik va o‘zlikni anglash hissi rivojlanadi. Shu bois, mazkur fanni o‘qituvchi pedagog shaxsiga qo‘yiladigan talablar yildan-yilga murakkablashib, kasbiy fazilatlar spektri kengayib bormoqda. Xususan, musiqa madaniyati o‘qituvchisi nafaqat ijodiy, balki metodik, psixologik va kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Bu jihatlari, ayniqsa, pedagogik amaliyot jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada 2-bosqich talabasining maktabda o‘tkazgan amaliyoti davomida olingan kuzatuvlar asosida musiqa madaniyati fani o‘qituvchisining kasb xususiyatlari yoritiladi. [1]

Maqolaning maqsadi — mavjud amaliy tajribani tahlil qilish, o‘qituvchi faoliyatida uchraydigan muammolarni aniqlash va ushbu kasbga kirishayotgan yoshlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Pedagogik amaliyot davomida o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa madaniyati o‘qituvchisi faoliyati turli kasbiy ko‘nikmalar uyg‘unligidan tashkil topgan murakkab jarayondir. Musiqa madaniyati darslarining o‘ziga xosligi shundaki, bu fanning predmeti — inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi badiiy ifoda vositasi bo‘lgan musiqadir. Demak, bu o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki murabbiy, estetik yetakchi va psixolog rolini ham bajaradi. O‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining ovoz ohangi, emotsional kayfiyati, yuz ifodasi, hattoki tana harakati ham o‘quvchilar hissiyotiga ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyot o‘tash davomida 4-7-sinflar kesimida kuzatuvlar olib borildi. Har bir sinfdagi musiqa faniga bo‘lgan munosabat, o‘qituvchining yondashuvi, dars strukturasi, didaktik materiallardan foydalanish darajasi, shuningdek, o‘quvchilarning darsdagi faolligi tahlil qilindi. Darslar quyidagi bosqichlarda tashkil etilgan: motivatsiya, asosiy qism (yangi bilimlar berish, amaliy mashqlar), yakuniy baholash va mustahkamlash. Ko‘pchilik hollarda o‘qituvchilar darsga o‘zlari tayyorlagan audioyozuvlar, proyektorli taqdimotlar, milliy cholg‘u asboblari namunalaridan foydalanganlar. Bunday usullar o‘quvchilarning diqqatini jamlashda va mavzuni chuqurroq anglashlarida sezilarli yordam bergan.[2]

O‘quvchilarning musiqa madaniyati faniga bo‘lgan qiziqishi darsda o‘qituvchining qanday ruhda dars o‘tishiga bevosita bog‘liq ekani aniqlandi. Ijobiy ruhda, jonli ijroda (masalan, o‘qituvchining ashula aytishi yoki asbob chalib berishi) tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning emotsional ishtirokini kuchaytirgan, mustahkam xotira hosil qilgan. Ba’zi sinflarda esa darslar faqat nazariy yo‘sinda tashkil etilib, o‘quvchilarda zerikish holatlari, befarqlik kuzatildi. Bu holatlar musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, ijodkorligi va didaktik yondashuvi qanchalik muhim ekanini

ko'rsatadi.[3]

O'qituvchining kasbiy xususiyatlari orasida quyidagilar eng muhim deb topildi: birinchidan, ovoz madaniyati va musiqa ijrosi; ikkinchidan, badiiy-estetik did; uchinchidan, psixologik sezuvchanlik va pedagogik muloqot madaniyati. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, masalan, interaktiv doskalar, video loyihalar, musiqa ilovalari va internet platformalari orqali qo'shimcha materiallar berish amaliyoti samarali bo'ldi.[4]

O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatini aniqlash uchun amaliyot davomida kichik ijtimoiy so'rovnomma o'tkazildi. So'rovda ishtirok etgan 40 nafar o'quvchining 85 foizi musiqa darslarini yaxshi ko'rishini va darsdan tashqari ham musiqa bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Ularning aksariyati darsdagi ijodiy yondashuvlar, yangi qo'shiqlarni o'rganish va milliy musiqa asarlarini tahlil qilish kabi mashg'ulotlarni yuqori baholashdi. Shu bilan birga, 15 foiz o'quvchi darslar zerikarli ekanini, ayniqsa, ko'p nazariy ma'lumotlar berilgan hollarda motivatsiya susayishini ta'kidladi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining metodikasi, darsda qo'llanilayotgan vositalar va kommunikatsion yondashuv muvaffaqiyat kalitidir. Pedagogik amaliyotda kuzatilgan yana bir muhim jihat — musiqa madaniyati o'qituvchisining o'z ustida ishlashi, yangilikka ochiqqligi va doimiy professional rivojlanishga intilishi. Ba'zi o'qituvchilar doimiy ravishda seminar va metodik birlashma yig'ilishlarida ishtirok etib, yangi usullarni o'rganib darslariga tadbiq etganlar. Boshqalar esa an'anaviy dars rejalaridan chiqmay, shablon yondashuvda qolib ketgan. Ushbu ikki turdagi o'qituvchilarning dars samaradorligi o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat talabalarni ushbu kasbga tayyorlashda metodik yangilanishlarning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.[5]

Amaliyot davomida o'qituvchi shaxsining o'quvchilarga ta'siri ayniqsa muhim ekani kuzatildi. O'qituvchi o'z shaxsiy namunasi orqali musiqa va madaniyatga bo'lgan munosabatni

shakllantiradi. Agar o'qituvchi o'zi ham san'atsevar, didli, har bir asarga e'tiborli bo'lsa, o'quvchilar ham badiiy-estetik ong bilan qurollanadi. Bunday o'qituvchi o'quvchilarda mustaqil tahlil qilish, ijodiy yondashuv, o'z fikrini erkin ifoda etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, musiqiy madaniyat orqali axloqiy qadriyatlarni singdirish, milliy an'analarni hurmat qilishga o'rgatish vazifasi ham muvaffaqiyatli bajariladi.

Xulosa. Yuqoridagi kuzatuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, musiqa madaniyati fani o'qituvchisi nafaqat bilimdon, balki didli, ijodkor, zamonaviy texnologiyalarni egallagan va insoniy fazilatlarini bilan namuna bo'la oladigan pedagog bo'lishi lozim. Pedagogik amaliyot talabalarga bu kasbning ichki mexanizmlarini, uning murakkab va ayni paytda zavqli jihatlarini anglash imkonini beradi. Talabaning o'zi uchun bu kuzatuvlar kasbiy yo'nalishini mustahkamlash, o'z ustida ishlash zarurligini tushunish va bo'lajak faoliyati uchun strategik ko'nikmalarni shakllantirish imkonini berdi. Shunday qilib, musiqa madaniyati fani o'qituvchisining kasbiy faoliyati — bu nafaqat o'qituvchilik, balki san'at orqali insonni tarbiyalash, ruhiy dunyosini boyitish va jamiyatda madaniy muhitni shakllantirish missiyasidir

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Qurbanova F.Y. Musiqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahorati va xususiyatlari. – Central Asian Journal of Education and Innovation, 2023.
2. Sharipova G.M., Asamova D.F., Xodjayeva Z.L. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
3. Nuratdinova D. Musiqa darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish. – Zamonaviy ta'lim, 2023.
4. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
5. Musiqa ta'limi metodikasi bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Maorif, 2022.

AN'ANAVIY QO'SHIQCHILIKNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

San'atshunoslik fakulteti
Abdujabborova Dilshoda,
Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabasi



Ilmiy rahbar:
Muxitdinova Maloxat Saidjabborovna,
"Musiqqa ta'limi" kafedrasida dotsent v. v. b.

Annotatsiya: Mazkur maqola ananaviy qo'shiqchilikning yoshlar tarbiyasidagi o'rnini tahlil qiladi. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlash borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati doirasida ananaviy qo'shiqchilik yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va ijodiy jihatdan tarbiyalashda muhim vosita sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: An'anaviy qo'shiqchilik, yoshlar tarbiyasi, milliy madaniyat, ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, ijodiy rivojlanish, O'zbekiston, davlat siyosati, milliy musiqiy meros, musiqiy an'analar.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirishga alohida etibor qaratildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy musiqamiz, jumladan, maqom sanati va ananaviy qo'shiqchilikka etibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 2017-yil 17-noyabrda maqom san'atini rivojlantirish, xalq orasida targ'ib qilish va o'rgatish hamda kelajak avlodga yetkazish masalalari qo'yildi. [1]

Ananaviy qo'shiqchilik — o'zbek xalqining qadimiy musiqiy ananalarini o'zida mujassam etgan, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi hisoblangan sanat turidir. Ushbu sanat turi nafaqat estetik zavq bag'ishlabgina qolmay, balki yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashda ham muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, 2010-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan

“2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy merosni obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish” Davlat dasturi tasdiqlandi. Mazkur dasturda an’anaviy qo‘shiqchilik kabi nomoddiy madaniy merosni o‘rganish, saqlash va yosh avlodga yetkazish masalalari alohida o‘rin tutadi . [2]

1. Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish. Ananaviy qo‘shiqlar, xalqning ko‘p asrlik tarixini va madaniyatini o‘zida mujassam etadi. Ular orqali yoshlar o‘zbek xalqining qadriyatlarini, urf-odatlarini, hayot tarzini, ijtimoiy va axloqiy meyorlarini o‘rganadilar. Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishi yoshlarni o‘z tarixiga bo‘lgan hurmatini oshiradi va milliy g‘urur tuyg‘usini mustahkamlaydi.

2. Manaviy va axloqiy tarbiya. Ananaviy qo‘shiqlarda ko‘p hollarda sevgi, do‘stlik, vatanparvarlik kabi ijobiy qadriyatlar hamda insoniy munosabatlar tasvirlanadi. Bunday musiqalar, yoshlarni to‘g‘ri axloqiy qoidalarga, yaxshi odob-axloq va manaviyatga undaydi. Qo‘shiqlarda berilgan ijtimoiy xabarlar, axloqiy normalarni o‘z ichiga olgan sherlar, yoshlar tarbiyasiga beqiyos ta’sir ko‘rsatadi.

3. Milliy musiqiy ananalarning davom ettirilishi. Ananaviy qo‘shiqchilik yoshlar orasida musiqiy analarning davom ettirilishida katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar, bu musiqalar orqali o‘zining musiqiy savodxonligini oshirish, musiqiy ijodkorlikni rivojlantirish hamda tarixiy va madaniy bog‘liqlikni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ananaviy musiqaning o‘rganilishi yoshlarni o‘z san‘atini qadrlashga va unga hurmat bilan yondashishga o‘rgatadi.

4. Milliy birlikni mustahkamlash. Ananaviy qo‘shiqchilik, nafaqat musiqa, balki xalqning birligini, bir-biriga bo‘lgan mehrini, birgalikda yashashni ifodalaydi. Yoshlar, bu musiqalarni ijro etish jarayonida, milliy birlikni saqlash va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni taminlashga qaratilgan qadriyatlarni o‘zlashtiradilar.

5. Yaratilish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Ananaviy qo‘shiqchilik yoshlar orasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. O‘zbek xalqining o‘ziga xos musiqiy uslublarini o‘rganish, ijro etish va yaratish orqali yoshlar o‘z sanatinı shakllantiradi va yangi musiqiy ishlanmalarga ilhom oladilar.[3]

Ananaviy qo‘shiqchilik sanatinı yoshlarga o‘qitishda hissa qo‘shgan ustozlar. Ananaviy qo‘shiqchilik san‘ati, o‘zbek xalqining qadimiy madaniy merosidir va yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu san‘atni o‘rgatishda katta hissalar qo‘shgan ustozlar, xalq musiqasining davomiyligini ta‘minlab, uning yosh avlodga yetkazilishiga hissa qo‘shdilar. Ustozlar o‘z mahoratini va bilimlarini yoshlarga o‘rgatish, milliy musiqaning go‘zalligini ularga tanitish uchun ko‘plab mehnat qilishdi. Shuningdek, ular yoshlarnı ananaviy qo‘shiqchilikka bo‘lgan qiziqishini oshirishga harakat qildilar.

Shu ustozlarning biri — Maqsudxon Nazarov, o‘zining buyuk mahorati bilan o‘zbek xalq musiqasini yoshlar orasida targ‘ib qilgan. U nafaqat qo‘shiqchilik, balki maqom san‘atini o‘rgatishda ham katta ishlarnı amalga oshirgan. Ustoz Shodiya Gulomova esa o‘zining samarali ishlari orqali yoshlarnı yoshlarnı o‘zbek xalq qo‘shiqlarining tarixiy o‘ziga xosliklarini o‘rgatishda alohida yutuqlarga erishgan.

Yana bir taniqli ustoz, hozirgi kunda mehnat foyiatlarini Chirchiq davlat pedagogika universitetida olib borayotgan Norimboy Musayev. Bu ustoz yoshlarnı xalq musiqasining nozik jihatları bilan tanishtirishda va ularning ijro etish qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘z mahoratlari bilan ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

Ustozlarning yoshlarga o‘rgatishda muvaffaqiyatga erishishining sababi, ular har doim milliy musiqaning asliyatiga sodiq qolgan holda, uni zamonaviy talablarga moslab o‘rgatishganidir. Ular musiqaning o‘quv jarayonida yoshlarnı ma‘naviy jihatdan tarbiyalashga alohida e‘tibor berishgan. O‘zining pedagogik faoliyatida xalq musiqasini o‘qitishda samarali metodlarnı joriy qilgan va shu orqali ko‘plab talabalarini mahoratli qo‘shiqchilar

qilib tayyorlashgan.

Ustozlar o'z ishlariga sadoqat bilan yondashgan va yoshlarni musiqaning barcha janrlarida erkin va professional tarzda ijro etishga o'rgatgan. Shuningdek, ular ananaviy qo'shiqchilikning nafaqat musiqiy, balki axloqiy va ma'naviy jihatlarini ham yoshlar ongiga singdirishgan. Ustozlar ko'pincha yoshlarni milliy musiqaga mehr qo'yishga va uni sevishga o'rgatish orqali, o'zbek xalqining musiqiy an'alarini kelajak avlodga yetkazishga katta hissa qo'shdilar. Buning natijasida, ananaviy qo'shiqchilik san'ati bugungi kunda ham yoshlar orasida o'qitilmoqda va rivojlanmoqda.

Xulosa. Ananaviy qo'shiqchilik nafaqat milliy madaniyatni saqlash, balki yosh avlodning manaviy, axloqiy va ijodiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va tashabbuslar yoshlarning milliy musiqiy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni o'rganish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlarni to'g'ri tarbiyalash va ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy merosni obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish" Davlat dasturi. Tashqi aloqalar va madaniyat boshqarmasi, 2010.
2. Tursunov, R. "Musiq ta'limida milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish" Ma'naviyat va ta'lim jurnali, 27-34, 2019
3. Shamsiyev, A. "An'anaviy qo'shiqchilik va uning ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonidagi o'rni", O'zbekiston xalq musiqasi, 66-72, 2020

INKLYUZIV TA'LIM VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISH.



Begmatova Zarnigor Ilyosjon qizi

ChDPU, Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Muxitdinova Maloxat Saidjabbarovna

ChDPU, Musiqa ta'limi kafedrası dotsent v.b.



Annotatsiya: Ushbu maqolda inklyuziv ta'limda Respublikamizda amolga oshirilayotgan va amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar, korreksion ta'lim tashkil etish. Ta'limda amaliyotga tadbiiq etish, muammo va kamchiliklar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, diskriminatsiya, stereotiplar, individual yondashuvni, integratsiyasi, infratuzilma.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarga, ularning jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy holatidan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan tizimdir. Bu yondashuv har bir bolaning shaxsiy qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, ularni umumiy ta'lim muhitida o'qitishni ko'zda tutadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – barcha bolalarning teng huquqli ishtirokini ta'minlash va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkon yaratishdir. Bu tizim nogironligi bor yoki maxsus ehtiyojga ega bolalarni ajratmasdan, ularni boshqalar bilan teng asosda o'qitishni qo'llab-quvvatlaydi.[1] Inklyuziv ta'lim inson huquqlari, adolat va tenglik prinsiplari asosida quriladi. Bu modelda har bir bola alohida shaxs sifatida qabul qilinadi va uning rivojlanishiga to'siq bo'luvchi omillar bartaraf etiladi. Har bir bola o'ziga xos qobiliyatlarga ega bo'lib, ularni yuzaga chiqarish uchun qulay va qo'llab-quvvatlovchi muhit zarur. Inklyuziv ta'lim,

ayniqsa, ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj bolalar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu tizim o'quvchilarning o'zaro hurmati, bag'rikengligi va hamjihatligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Inklyuziv ta'lim – bu faqat pedagogik model emas, balki ijtimoiy qarashlarni o'zgartiruvchi kuchli vositadir. Unda diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmaydi va har bir bola ta'lim olishi mumkin bo'lgan muhitda rivojlanadi. Bu ta'lim shakli orqali turli imkoniyatga ega o'quvchilar birgalikda o'qib, ijtimoiy tenglikka erishiladi. Inklyuzivlik nafaqat bolalarning, balki o'qituvchilar va ota-onalarning ham fikr doirasini kengaytiradi. Bu tizimda o'qituvchilar faqat bilim beruvchi emas, balki yo'lko'rsatuvchi va psixologik qo'llab-quvvatlovchi sifatida faoliyat yuritadilar. Inklyuziv ta'limda har bir bola alohida e'tiborga loyiqdir va unga individual yondashuv zarur. Shuning uchun ham bu modelda ta'lim metodikasi moslashtirilgan, o'quv materiali esa turli darajadagi ehtiyojlarga mos bo'lishi kerak. Bu tizim jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U orqali kelajak avlodda tenglik, hurmat, mehr-oqibat va ijtimoiy birdamlik qadriyatlari mustahkamlanadi. Inklyuziv ta'limning mohiyati – barcha bolalarning salohiyatini to'liq ochish, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida voyaga yetkazishdan iboratdir. [2]

Inklyuziv ta'lim jamiyatda tenglik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu tizim orqali turli imkoniyatga ega bolalar birgalikda o'qib, bir-birlarini qabul qilish va tushunishga o'rganadilar. Nogironligi bor o'quvchilarning sinfdoshlar bilan teng sharoitda tahsil olishi ularning ijtimoiylashuviga va psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv muhit bolalarda empatiya, sabr-toqat va mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Bunday ta'lim modeli orqali ijtimoiy ajratish va diskriminatsiya holatlari kamayadi. O'quvchilar o'zaro hamjihatlik bilim olib, bir-birining kuchli va zaif tomonlarini tushunishni o'rganadilar. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va

ularni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa ularning kelajakda mustaqil hayot kechirishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, jamiyatda salbiy stereotiplar asta-sekin yo‘qolib, ijobiy ijtimoiy qarashlar shakllanadi. Umuman olganda, inklyuziv ta‘lim – bu jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va adolatli taraqqiyotining asosiy yo‘nalishidir.[3]

Inklyuziv ta‘limni joriy etish jarayonida bir qator jiddiy muammolar mavjud. Birinchi navbatda, maktablarning infratuzilmasi ko‘plab nogironligi bor bolalar uchun yetarlicha moslashtirilmagan. Panduslar, liftlar va maxsus o‘rindiqlar kabi muhim elementlar ko‘p joylarda yo‘q, bu esa ularning ta‘limga kirishish imkoniyatlarini cheklaydi. Ikkinchi muammo – o‘qituvchilarning inklyuziv ta‘lim metodikasi bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi. Pedagoglar ko‘pincha maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha zarur yondashuvlarga ega bo‘lmaydi, bu esa ta‘lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, psixologik va pedagogik yordam beruvchi mutaxassislarning maktablarda yetishmasligi muhim muammo hisoblanadi. Logopedlar, defektologlar yoki psixologlarning mavjud emasligi, o‘quvchilarga individual yondashuvni ta‘minlashni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy stereotiplar ham inklyuziv ta‘limni amalga oshirishda katta to‘siq bo‘ladi. Jamiyatda nogironligi bor bolalarga nisbatan salbiy munosabatlar mavjud, bu esa ularning ijtimoiy integratsiyasiga to‘sqinlik qiladi. Ota-onalar inklyuziv ta‘limning mohiyati haqida yetarlicha bilimga ega emaslar, bu esa bolalarning ta‘lim jarayoniga kirishishlariga to‘sqinlik qiladi. Moliya va resurslarning yetishmasligi ham inklyuziv ta‘limni joriy etishda muhim muammo hisoblanadi. Davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ko‘p hollarda yetarli bo‘lmaydi va bu maktablarda zarur infratuzilma va maxsus mutaxassislar tayyorlashga to‘sqinlik qiladi. Hududiy farqlar ham mavjud: qishloq joylarida inklyuziv ta‘lim imkoniyatlari ancha past va bu ta‘limning sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, inklyuziv ta‘limni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus yondashuvlarni o‘rgatish bo‘yicha

kurslar va treninglar yetarli emas.[4]

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun inklyuziv ta'limni amalga oshirishda tizimli yondashuv talab etiladi. Buning uchun maktab infratuzilmasini yaxshilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, jamiyatda nogironligi bor bolalarga nisbatan salbiy stereotiplarni kamaytirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy resurslarni ajratish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytishimi mumkunki inklyuziv ta'limda tahsil oiluvchi insonlar uchun yetarlicha imkoniyatlar eshigini ochish zarur. Ularga ma'naviy va ijtimoiy, jismoniy o'sishlari, teng hurlari bilan birga ta'lim olishlari, barcha imkoniyatlardan teng foydalanishga haqlidirlar.

FOYDALINLGAN ADABIYOTLAR:

1. Muzaffarova, X.N.. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari. Xalq ta'limi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali, 3-son, 2014.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Sh. Mirziyoev.. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4860-son qarori, 2020 yil 13 oktyabr.


3. Shoumarov, G., Shomahmudova, R., Mo'minova, L., Kalbaeva, H.. O'zbekiston Respublikasida Inklyuziv ta'lim kontsepsiyasi. Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi, Toshkent, 2009.

4. Shomahmudova, R.Sh.. Inklyuziv ta'lim. Toshkent, 2011.

5. Rasulova, G.. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari. Ta'lim va rivojlanish, 2022.

MIRZO ULUG‘BEKNING JAHON TAMADDUNIGA QO‘SHGAN ILMYIY-MA‘RIFIY MEROSI

Norqulova Dilnoza Shavkat qizi,
Musiqqa ta‘limi I-kurs talabasi



Annotatsiya: O‘zbek xalqining buyuk qomusiy olimi, Temuriylar saltanatining mashhur hukmdori Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek o‘zining boy ilmiy-ma‘rifiy merosi hamda bunyodkorlik faoliyati bilan yurtimiz taraqqiyoti va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan tarixiy shaxsdir. Ushbu maqolada u asos solgan astronomiya maktabida olamshumul kashfiyotlar amalga oshirilgani xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, astronomiya, yulduzlar, Temuriylar davri, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari, rasadxona.

Kirish. Moziyga nazar soladigan bo‘lsak, birgina Temuriylar davrida yurtimizda ilm-fan qanchalik gullab-yashnaganiga amin bo‘lamiz. Samarqand yirik ilmiy markazga aylangan edi. Mirzo Muhammad ibn Shoxrux ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy 1394-yil 22-mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Shohrux Mirzo Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li edi. Tarixchi Sharafutdin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Ulug‘bek tug‘ilganligi haqidagi xabarni eshitgan Amir Temur Mordin qal‘asini ishg‘ol qilishni to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan tovonni bekor qilgan. Chaqaloqqa Muhammad Tarag‘ay ismi qo‘yilgan, Ulug‘bek taxallusini esa unga keyinchalik bobosi Amir Temur bergan. Tarixiy manbalarda u buvisi Saroy Mulk Xonim (Bibixonim) qo‘lida tarbiya topgani to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Yosh Ulug‘bekning xotirasi o‘tkir bo‘lib, kuchli tafakkurga ega edi. Munajjim G‘iyosiddin Jamshid Koshiy o‘z xotiralarida, Ulug‘bek otda ketayotganida undan Rajab oyining o‘ninchi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15-20-sentabr)

dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga to'g'ri kelishini aniqlab berishni so'raganlarida, u xayolan Quyoshning balandligini vaqt birligida o'lchab, quyoshdan tushayotgan nurning tekislikka nisbatan og'ish burchagini trigonometrik usulda yoddan hisoblab chiqargan va kunni to'g'ri topganini yozgan. Otdan tushgach, Koshiydan so'rab hisob to'g'riligini aniqlab olgan.

O'n yetti yoshida taxtga o'tirgan Mirzo Ulug'bek uzoq yillar o'z saltanatini adolat va insonparvarlik g'oyalari asosida boshqarib, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Buxoro va Samarqandda madrasalar ochdi, inshootlar, ko'priklar, yo'llar qurdirdi. Shu bilan birga, ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Natijada, Temuriylar davlati har tomonlama taraqqiy etib, Sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan o'chog'iga aylandi. Ulug'bek davriga kelib yirik ilm-fan dargohlari, o'ziga xos akademiyalar tashkil qilish an'anasi shakllangan edi. Samarqanddagi Ulug'bek to'plagan boy kutubxona, yaxshi jihozlangan rasadxona va o'z davrining o'quv yurti o'sha davrning akademiyasi hisoblanardi. Unda o'ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblar bo'lgan. Ushbu asboblar yordamida Oy, Quyosh, sayyora va yulduzlar katta aniqlikda o'rganilgan. Shuningdek, tarixiy manbalarga ko'ra, falakshunos olim Samarqandda balandligi 50 metrli Quyosh soati yasagan, afsuski, u saqlanib qolinmagan.

Munajjim Mavlono Ahmad va matematik Qozizoda Rumiyy ta'sirida ulg'aygan Mirzo Ulug'bek, mamlakatning siyosiy-iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy faoliyat — falsafa, tarix, huquq, mantiq va tabiatshunoslik kabi fanlar bilan shug'ullanib, asarlar yozdi. Astronomiya, matematika, trigonometriya, geometriya va algebra sohasida kashfiyotlar qildi, tarix va me'morchilik sohalarida ulkan natijalarni qo'lga kiritdi. Adabiyot, musiqa va tilshunoslik ilmini chuqur egalladi. Serqirra olim ilmiy izlanishlari bilan aniq va gumanitar fanlar rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Uning qarashlarida Aflotun, Arastu, Ptolomey, Muhammad Xorazmiy, al-Farg'oniy, Farobiy, ibn Sino hamda Beruniy ta'limotlari muhim o'rin egalladi. Shu bilan birga

u ajdodlaridan qolgan ma'naviy merosdan o'z ilmiy faoliyatida unumli foydalandi. Matematikaga oid "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola" va astronomiyaga oid "Risolayi Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" hamda tarixga doir "Tarixi arba' ulus" kabi risolala va asarlarning muallifi bo'ldi.

U tashkil qilgan yirik astronomik maktabda G'iyosiddin Jamshid, Muiniddin Koshiy, Ali Qushchi, Miram Chalabiy, Mansur Koshiy, Husayn Birjandiy singari olimlarni to'pladiki, ularning tadqiqotlari butun jahonga yoyilgan. Ayniqsa, Samarqand shahridagi o'zi bunyod ettirgan rasadxonada amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari va kashfiyotlari jahon astronomiya fanining rivojida tub burilish yasadi. Ulug'bek akademiyasi jamoasi Mirzo Ulug'bek rahbarligida yulduz yilining eng aniq qiymati — hozirgi zamon hisob-kitoblariga ko'ra 365 sutka 6 soat, 9 minut, 9,6 sekundga teng ekanini hisoblab topdi.

Buyuk allomaning izlanishlari natijasida yuzaga kelgan, 1445-yili yozib tugatilgan 1018 ta yulduzning aniq koordinatlari ko'rsatilgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari ham dunyo jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shib, unga olamshumul shuhrat keltirdi. Kosmologiya va astronomiya taraqqiyotiga katta ulush qo'shgan falakiyotchi olim Quyosh, Oy hamda sayyoralarning harakatini aniqlash bo'yicha juda boy meros qoldirdi. Bu asar ilmiy-ma'naviy qiymatini saqlab qolgan holda hozirgi kunda ham yulduzlar ilmi sohasidagi eng buyuk asarlardan biri sifatida e'tirof etilib, olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Jadval shu choqqacha dengizchilar uchun yulduzlarga qarab geografik koordinatlarni aniqlashda eng ishonchli vosita sifatida foydalanilmoqda. "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari fors, arab, ingliz, nemis, rus tillariga tarjima qilingan. YUNESKO rahnamoligida 2009-yilda Parijda astronomik olimning 615 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Unda 130 dan ortiq olimlar va turli xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etishdi. Uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari kompyuter yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha soniya farq qilganligini YUNESKO bosh kotibi ham e'tirof

etgan edi.

Olimga o‘z davrida dovrug‘ olib kelgan 1425-yilda yozilgan “Tarixi arba’ ulus” (To‘rt ulus) yoki “Ulusi arbai Chingiziy” (Chingizxonning to‘rt ulusi) nomli tarixiy asarida Temuriylar saltanati egallagan mamlakatlar tarixi ifodalangani bois, o‘rta asrlarning ko‘plab tarixchilari o‘zlarining tarixiy, ijtimoiy va falsafiy asarlarini yozishda Ulug‘bek asarlaridan foydalanishadi. V. Bartoldning “Turkiston mug‘ullar istilosi davrida”, “Ulug‘bek va uning davri” kabi asarlari shular jumlasidan. Shuningdek, muarrixlarning “Xulosatul-axbor”, “Habibus siyar”, “Tavorixi guzidayi nusratnoma”, “Bahrul asror”, “Tarixi Rashidiy” deb nomlangan asarlarida Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asaridan ishonchli manba sifatida foydalanilgan. Ushbu asarning qisqartirilgan to‘rt nusxasi mavjud bo‘lib, hozirda Angliya va Hindiston kutubxonalarida, Britaniya muzeyi va AQSHning Garvard universitetida saqlanmoqda.

Temuriylar davri qay darajada rivojlanganini Mirzo Ulug‘bekning J. Grivz, T. Xayd, F. Beyli, L. Sediyo, V. Bartold, V. L. Vyatkin, T. N. Qoriniyoziy, B. A. Ahmedov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan ilmiy-merosi orqali baholash mumkin. Hozirgi kunda Hindistonning Aligarx kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Risolai Ulug‘bek” deb atalgan asari hanuzgacha o‘rganilmagan.

Shuningdek, Ulug‘bek arab va fors tillarini ham yaxshi bilgan, turk she‘riyatidan xabardor bo‘lgan. Alisher Navoiy “Majolis-un nafa’is” asarida uning she‘rlaridan namunalar keltirib o‘tgan. Tarixchi Davlatshohning yozishicha, “Ulug‘bek geometriya borasida Yevkalidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga o‘xshardi”.

Mirzo Ulug‘bek vafot etgandan so‘ng u Samarqandda jamlagan olimlar turli mamlakatlarga tarqalib ketishadi. Ular o‘zlari bilan “Zijji jadidi Ko‘ragoniy” nusxalarini ham olib ketib, o‘sha davlatlarga yetkazadilar. Shu tariqa Ulug‘bekning ushbu yirik asari Yevropa mamlakatlariga ham yetib boradi. Masalan, Istanbulga kelgan Oksford universitetining professori Jon Grivz o‘zi bilan

Ulug‘bek “Zijji jadidi Ko‘ragoniy” ning bir nusxasini Angliyaga olib ketadi.

Dunyoda Mirzo Ulug‘bek kabi ilm-fan, madaniyat va adabiyotni rivojlantirib, jahon ilm-fan va tafakkuriga hissa qo‘shgan davlat arboblari sanoqligina. Ulug‘bek kashf qilgan astronomik tadqiqot natijalari, u yaratgan jadval astronomiya fanining asosi sifatida Yevropaning barcha observatoriyalarida asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug‘bek hayoti va faoliyatini, ilmiy merosini o‘rganish, unga ehtirom ko‘rsatish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublikadagi qator tashkilot, maydon va ko‘chalarga, ta‘lim muassasalariga, shaharchaga va metro stansiyasiga uning nomi berildi. Samarqandda Ulug‘bek muzeyi tashkil qilindi, observatoriyasi yonida va xorijda uning haykali o‘rnatildi, asarlari qayta nashr etildi. Poytaxtimizning yirik tumani Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Respublikamizda Mirzo Ulug‘bek nomini abadiylashtirish va ilmiy merosini o‘rganishga qaratilgan bir qator Qaror va Farmonlar qabul qilingan. Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 12-sentabr sanasida **“Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”**gi Qarori imzolandi. Unga ko‘ra, ilmiy-adabiy tadbirlar o‘tkazilishi, Mirzo Ulug‘bek davriga oid asarlar qo‘lyozmalarining ko‘rgazmasini tashkil etish, “Osmon toqiga qo‘yilgan narvon” hujjatli filmi taqdimotini uyushtirish, qayta nashr etilgan asarlarini taqdimotini o‘tkazish rejalashtirilgan edi. Shuningdek, Samarqand davlat universitetida “Mirzo Ulug‘bek: buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda 40 ga yaqin olimlar va tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Xulosa. Dunyo sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan alloma Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-ma‘naviy merosi necha asrlarki o‘z ahamiyati va ilm-fandagi o‘rnini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, buyuk ajdodimizning ilmiy xazinasi bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotiga,

yangi izlanishlarga turtki bo‘lib kelmoqda. Yangi O‘zbekistonning munosib bunyodkorlari bo‘lgan mamlakatimiz yoshlari butun umri davomida ma‘naviy, intellektual, axloqiy va jismoniy taraqqiyot cho‘qqilarini zabt etib yashagan, yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan olim va hukmdorning avlodi ekanidan faxrlanishadi. Uning hayot yo‘li va ilmiy-ma‘naviy merosini o‘rganar ekanmiz, u asrlar osha yosh avlod uchun katta ibrat namunasi bo‘lib qolaveradi.


Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov, A. Ulug‘bek akademiyasi. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa‘dayn va Majmai Baxrayn. II jild, I qism. (1405-1429 yillar voqealari). Toshkent: 2008.
3. Bartold, V. V. Ulug‘bek va uning davri. Insholar. Moskva: Nashriyot uyi Sharq adabiyoti, 1963. II jild, 2-qism. 120 b.
4. Masson, M. Y., Pugachenkova, G. A. Shaxrisabz pri Temure i Ulugbeke: Trud SAGU. Toshkent, 1953.
5. Pugachenkova, G. A. Ulug‘bek davri me‘moriy yodgorliklari // Ulugbek davri tarixidan. Toshkent: Fan, 1965. 226 b.
6. Temur va Ulug‘bek davri tarixi (To‘plam). Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati. 99-102 b.
7. Zohidov, P. Sh. Me‘mor olami. Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996.
8. Bulatov, M. S. Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi // Tarixiy-matematik tadqiqotlar. 1986. XVIII. 199–216 b.
9. Qori-Niyoziy, T. N. Ulug‘bekning astronomik maktabi. Moskva-Leningrad: 1950.
10. Matviyevskaya, G. P., Sirojiddinov, S. X. Ulug‘bek maktabining matematik ishlari haqida // Ulug‘bek davri tarixidan. Toshkent: Nauka, 1965. 1 b
- 11.

DUTOR IJROCHILIGINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA UNING AHAMIYATI

San’atshunoslik fakulteti

**Nurmamatova E’zoza,
Qulmirzayeva Gulsevar
Musiqqa ta’limi yo‘nalishi
1-kurs talabalari**



Annotatsiya: Ushbu maqolada dutor o‘rganishning o‘ziga xos jihatlari, ta’lim jarayonidagi bosqichlari hamda uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, dutor ijrochiligida pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi individual yondashuvning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: dutor ijrochiligi, musiqiy rivojlanish, ijro mahorati, shaxsiy yondashuv, milliy cholg‘u san’ati.

Bugungi kunda milliy cholg‘u san’ati, xususan dutor ijrochiligi, yosh avlodning estetik tarbiyasida, milliy o‘zlikni anglash va ruhiy boylikni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Dutor nafaqat texnik mahoratni rivojlantiruvchi cholg‘u asbobi, balki milliy musiqiy tafakkur va madaniy qadriyatlarini tarbiyalovchi vositadir. Shu sababli, dutor ijrochiligining ilmiy asosda o‘qitilishi va har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Dutor Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy torli cholg‘ularidan biri bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. So‘zning o‘zi fors-tojik tilidan olingan bo‘lib, “do”

— ikki va “tor” — tor soʻzlaridan tashkil topgan. Dutor dastlab yengil va oddiy shaklda ishlangan boʻlsa, vaqt oʻtishi bilan uning texnik va estetik imkoniyatlari boyidi. XIV–XV asrlarda Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolar davrida dator koʻplab adabiy va musiqiy manbalarda eslatiladi. XX asrga kelib, dator ijrochiligi alohida kasbiy sanʼat darajasiga koʻtarildi va konservatoriyalar, sanʼat maktablari dasturlarida mustahkam oʻrin egalladi.

Dutor ijrochiligining asosiy maqsadi — oʻquvchida milliy musiqaga chuqur muhabbat uygʻotish, uning texnik mahoratini oshirish va ifoda erkinligini shakllantirishdir. Bu yoʻnalishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- musiqiy uquv va ritm sezgisini rivojlantirish;
- soz ijro texnikasi va barmoq mustahkamligini oshirish;
- kuylarning milliy ohang va obrazini chuqur talqin qilish;
- sahna madaniyati va oʻziga ishonchni rivojlantirish.

Dutor taʼlimi ketma-ket va tizimli tarzda olib boriladi. Boshlangʻich bosqichda nota savodi, asosiy dator chalish usullari va oddiy kuylar oʻrgatiladi. Masalan, “Munojot”, “Samarqand ushshoghi” kabi kuylar boshlangʻich oʻquvchilar uchun tavsiya etiladi.

Oʻrta bosqichda esa murakkab kuylar va ansambl ijrochiligi oʻrganiladi. Yuqori bosqichda esa improvizatsiya, xalq kuylarini ijodiy qayta talqin qilish va sahnaga chiqish malakalari rivojlantiriladi.

Har bir oʻquvchining ijodiy imkoniyatlari, musiqiy didi va psixologik xususiyatlari farq qiladi. Shu sababli, pedagog har bir oʻquvchi uchun alohida dastur ishlab chiqishi zarur. Masalan, texnika tez rivojlangan oʻquvchilarga murakkab kuylar topshirilsa, his-tuygʻulari boy oʻquvchilarga improvizatsion mashqlar beriladi. Bu yondashuv oʻquvchining qobiliyatini toʻliq ochib berishga va ijodiy oʻsishga xizmat qiladi.

Dutor ijrochiligini oʻrganish shaxsda sabr-toqat, irodaviy sifatlar va musiqiy tafakkurni shakllantiradi. Shu bilan birga, professional musiqachi, pedagog va sahna ijrochisi sifatida faoliyat

yuritish uchun zarur malakalarni beradi.

Ijodiy rivojlanish uchun mashhur kuylar — “Tanovar”, “Segoh”, “Bayot” kuylarini o‘rganish tavsiya qilinadi. Bu kuylar musiqiy ifoda va milliy ruhni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Dutor san’atining rivojida mashhur ustozlar. O‘zbek dutor maktabining shakllanishida shunday buyuk ustozlar muhim rol o‘ynagan:

- Usta Olim Komilov — dutor san’atining yangi uslubini yaratgan;

- Komiljon Otaniyozov — xalq kuylarini dutor ijrosida mahorat bilan talqin qilgan;

- Tohir Qurbonov — dutor texnikasini mukammallashtirgan va o‘z uslubini yaratgan.

Bugungi kunda ham dutor san’ati yoshlar o‘rtasida ommalashib, yangi ijodiy yondashuvlar bilan boyitilmoqda.

Xulosa. **Dutor ijrochiligi — bu nafaqat milliy musiqiy merosimizning davomchisi, balki shaxsiy va estetik tarbiyaning muhim vositasidir. Ta’lim jarayonida tizimli yondashuv va individual metodika qo‘llanilishi natijasida o‘quvchilar o‘z iste’dodlarini to‘liq namoyon eta oladilar va dutor san’atining buyuk an’analarini davom ettiradilar.**

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Абдуллаев А. “Ўзбек миллий муסיқаси тарихи”, Т.: “Ўқитувчи”, 2018.

2. Сайфуллаев С. “Дутор санъати: методик қўлланма”, Тошкент: “Фан”, 2020.


3. Шарипова З. “Ўзбек анъанавий муסיқаси ва ижрочилик маданияти”, Т.: “Истикбол”, 2019.

4. Муҳаммаджонов Н. “Муסיқа таълими назарияси ва методикаси”, Тошкент: 2022.

5. Rahimova, S. “Traditional Music of Uzbekistan”, Tashkent: “Heritage”, 2021.

YOSH AVLODNI KAMOLOT SARI YETAKLASHDA – MUSIQA MADANIYATI DARSINING AHAMIYATI

San'atshunoslik fakulteti
Xalilova Maxfuza Maxamadjanovna
“Musiqqa ta’limi” kafedrasida katta o‘qituvchisi



Annotatsiya:

Ushbu maqola o‘rta ta’limda musiqqa fani haqida yozilgan bo‘lib unda maktablarda musiqqa darslarining nechog‘lik muhim va o‘quvchilarga musiqqa darsini o‘tilishining maqsadi tog‘risida yozilgan. Maktab o‘quvchilariga musiqaning ta’siri va foydasi hamda musiqqa o‘qituvchilariga tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so‘z va iboralar:

Musiqqa, musiqqa o‘qituvchisi, ovoz sozlash, musiqqa madaniyati, chapak chalish, Pedagogik mavqe, qo‘l harakati bilan imitatsiya qilish.

Musiqqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san`at turidir. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko‘plab omillari qatori musiqqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqqa fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda musiqqa madaniyatini shakllantirish ularni zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir. Maktabda musiqqa darslarini o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarning musiqqa san`atiga bo‘lgan qiziqishi va

mehr-muhabbatini oshirish;

- musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlari musiqiy uquvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish;

-musiqiy asarlarning badiiy g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash;

-musiqa darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi avvalo bolalarni sevishi, pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, musiqa o'qitish metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi , uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onaning orzusi bo'lgan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblardan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli, go'zallikni his eta oladigan inson bo'lishi kerak. „Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatning barpo etilishi, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi.” deb ta'kidlagan edi o'z asarlarida I.A.Karimov.

O'qituvchilik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır.

O'qituvchi musiqa nazariyasini egallashi bilan birga, bolalarni sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni talab etadi.

Sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sog'lom ruhiy hislatlarni, sharqona axloq odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz.

Buyuk pedagog A.Avloniy shunday degan edi: „Tarbiya qiluvchilar tabib kabitlar, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, O'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi”. „Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir” deb yozgan edi.

Buyuk mutafakkir shoir A.Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib shunday dedi: „Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi”.

Al Farobiy fikricha: „Musiqa-nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir”.

- „Kimki ilm hikmat o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo o'zi ma'naviy barkamollikka erishmog'i lozim” -deydi -Abu Rayhon Beruniy. Shunday ekan, hozirgi davrda musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha yondoshuv uning metodologiyasini chuqur o'rganish talab etadi.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan holda yondoshishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Musiqa madaniyati darslarining yutug'i va natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorgarligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. Afsuski, bu masalaga ko'pgina yosh o'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlarida

yetarli darajada e`tibor bermayaptilar.

Ma`lumki „Musiqqa madaniyati” darslari quyidagi o`ziga hos jihatlar bilan boshqa darslardan farq qilib turadi:

1. Masalan, musiqqa san`ati boshqa san`at turlaridan idrok etilishiga ko`ra farq qiladi, ya`ni u boshqa san`at turlaridan o`zining ifoda vositalari, ya`ni „tili” bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so`z bilan, tasviriy san`at ranglar bilan, raqs san`ati harakat bilan ifodalansa, musiqqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san`at turlarini ko`rish va eshitish orqali idrok qilsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz. Shuning uchun, ko`zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqanligi bizga tarixdan ma`lum bo`ladi.

2. Musiqqa san`ati aniq vaqt o`lchovi bilan bog`langan san`atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini diqqat bilan tinglamasak, asarni mukammal idrok eta olmaymiz.

3. Musiqqa madaniyati darslari musiqqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal-xor mashg`ulotlari, musiqqa savodi, musiqqa tinglash, bolalar cholg`u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iborat.

4. Musiqqa darsi o`zining aralash-integral dars tipi bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

5. Musiqqa san`ati bolalarga aktiv emotsional ta`sir ko`rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uyg`otadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqqa darsidan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo`lib chiqadilar.

Barcha fikrlarimizni umumlashtiradigan bo`lsak, musiqqa darsi o`zining aktiv psixologik ta`siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Shuningdek, musiqqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog`liqdir. Tasviriy san`at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar musiqqa darsini hayot bilan bog`lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.I.Xodjayeva „Musiqqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari”. Toshkent-2014.
2. O‘zME Birinchi jild.Toshkent-2000.
3. Hasanov A.,„Musiqqa va tarbiya”-T.O‘qituvchi 1993.
4. Yusupova N.,„Musiqqa savodi, metodika va ritmika”Toshkent 2010.Musiqqa nashriyoti.
5. M.S. Muxiddinova “Мақтабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютертехнологияларини муסיқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 yil
6. Sh.R.Mahkamova “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда муסיканинг ўрни” 2020

INKLYUZIV TA'LIMDA MUSIQA TA'LIMINING AHAMIYATI

San'atshunoslik fakulteti

Hayitboyeva Nozima Zokir qizi

“Musiqqa ta’limi” yo‘nalishi 2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xalilova Maxfuza

Maxamadjanovna

“Musiqqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi



Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida musiqiy ta’limning ahamiyati yoritilgan. Muallif musiqaning alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarning psixologik, ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishidagi rolini tahlil qiladi. Maqolada musiqaning o‘ziga xos terapevtik xususiyatlari, uning bolalar ijtimoiylashuvi, motorikasi, muloqot va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, musiqa darslari orqali imkoniyati cheklangan bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortishi, ularning jamiyatga integratsiyalashuvi va bilim olish jarayonining samaradorligi ta’minlanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Maqola, inklyuziv ta’lim tizimida musiqa ta’limiga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: alohida ta’lim ehtiyojiga ega bola, musiqa, musiqiy ta’lim, ahamiyati, musiqani o‘rni.

Musiqiy ta’lim inklyuziv ta’lim sharoitida muhim rol o‘ynaydi, chunki u barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi.

Musiqa - bu turli yoshdagi, qobiliyat va madaniyatdagi odamlarni birlashtiradigan universal til. Imkoniyati cheklangan bola uchun musiqaning roli katta: musiqiy faoliyat bolaning zaxira kuchlarini safarbar qiladi, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, qo‘shiq aytish, harakat qilish, musiqa asboblarni chalish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabatlarga yordam

beradi, shuningdek tanaga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bolaning o'zini-o'zi qadrlashini oshiradi.

Musiqqa darslari uchun maxsus tanlangan o'yinlar diqqat, xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, vosita, qo'shiq faoliyatini rag'batlantiradi, musiqani eshitish va idrok etishni rivojlantiradi. Imkoniyati cheklangan bolalar, individual yondashuvga muhtoj, chunki bunday bolalarning rivojlanishidagi asosiy muammo ularning atrofidagi dunyoni o'zlashtirishdagi qiyinchilikdir, boshqacha qilib aytganda, qiyinchilik hissiy xususiyatga ega: qo'rquv, ko'z yoshlari, tashvish, izolyatsiya, noaniqlik. Musiqiy mashg'ulotlar bolalarga musiqaning xilma-xilligini ko'rish, eshitish, his qilish, ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga, tengdoshlar dunyosiga kirishga, unda to'liq mavjud bo'lishga va o'zaro aloqada bo'lishga yordam beradi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilari musiqqa orqali bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga, hissiy jihatdan bo'shishga yordam beradi, u yaxshi do'st va bolaning aqliy muvozanati manbai bo'lishi mumkin. Musiqqa shifobaxsh xususiyatlarga ega ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan, masalan, V.A.Motsart, L.Betxoven, I.S.Bax, A.Vivaldi, P.I.Chaykovskiy asarlari organizmning energiya jarayonlarini faollashtiradi va ularni turli kasalliklarda jismoniy tiklanishiga yo'naltiradi. Musiqiy asarning tonalligi, tempi, ritmi, dinamikasi shaxsiyatning hissiy sohasini tartibga solish, rivojlantirishga yordam beradigan asosiy vositalardir. "Musica animae levamen" – "musiqqa ruhani davolaydi" - bu yozuvni Uyg'onish davridagi ba'zi italyan klaviatura asboblarida ko'rish mumkin.

Musiqqa faoliyati miyaning turli sohalarini faollashtiradi va kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa tinglash, notalarni eslab qolish, ritmni his qilish, kuy yaratish kabi mashqlar xotira, diqqat, konsentratsiya, mantiqiy fikrlash va fazoviy idrokni yaxshilaydi.

Inklyuziv sinflarda musiqqa orqali taqdim etilgan o'quv materiallari bolalarning turli xil o'rganish uslublariga mos kelishi

mumkin, bu esa ularning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi.

Musiqa insonning hissiy olamiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. U quvonch, qayg'u, hayajon, tinchlik kabi turli xil tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Musiqa darslarida bolalar o'z hissiyotlarini ifoda etish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdard bo'lishni o'rganadilar. Bu ayniqsa, emotsional va xulq-atvorida qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Musiqa ularga o'zini xavfsiz va erkin his qilishga yordam beradi.

Musiqiy faoliyatlar, ayniqsa cholg'u asboblari chalish va ritmik harakatlar, bolalarning mayda va yirik motorikasini rivojlantirishga yordam beradi. Baraban chalish, pianinoda o'ynash, raqsga tushish kabi mashqlar qo'l va oyoq harakatlarining muvofiqlashuvini yaxshilaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning kundalik hayotdagi harakatlarini osonlashtiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalarda tashqi dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi juda tor, nutq kam rivojlangan, shuningdek eshitish va vizual hislar, zaif asab tizimi, harakatlarning yomon muvofiqlashtirilishi, beqaror diqqat kuzatiladi. Qoida tariqasida, bu bolalar tovushlarga taqlid, bo'g'inli qo'shiq aytish va eng oddiy ohanglarni intonatsiya qilish qobiliyatiga ega emaslar. Bolalar harakatlarni musiqa bilan qanday muvofiqlashtirishni, o'z harakatlarini turli xil tashqi signallarga bo'ysundirishni bilishmaydi - vizual, eshitish. Ammo ularning bitta xususiyati bor taqlid bu musiqiy - ritmik harakatlarda ham, qo'shiq aytish va qo'shiq aytishda ham namoyon bo'ladi.

Musiqa imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy moslashtirishga yordam beradi, ularning hissiy va hissiy sohalarini boyitadi, o'zini namoyon qilish va o'zini anglashga yordam beradi:

-musiqa jozibali va tinchlantiruvchi ta'sirga ega, qo'rquv va taranglikni yengillashtiradi, bola ijobiy tajribalarni boshdan kechiradi;

-muloqotchanlikni rivojlantiradi; harakatlarni

muvoqilashtirish, mayda qo'l motorikasi, metroritm hissi rivojlanadi, umumiy hayotiylik kuchayadi;

-bolaning hissiy sezgirligi rivojlanadi, uning dunyoqarashi kengayadi;

-har bir bolada ijodkorlikni ochib beradi;

-musiqaga bo'lgan muhabbat shakllanadi, musiqiy did elementlari rivojlanadi.

Inklyuziv ta'limda musiqa ta'limi nafaqat san'atni o'rgatish, balki har bir bolaning shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga hissa qo'shadigan muhim vositadir. U turli qobiliyatga ega bolalarni birlashtiradi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuning uchun ham maktablarda inklyuziv musiqa ta'limini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Jamiyat sifatida biz inklyuziv ta'limning muhimligini anglashimiz va har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini taminlashimiz kerak. Musiqa ta'limi bu jarayonda bebaho o'rin tutadi, chunki u nafaqat bilim beradi, balki bolalarning qalbiga yo'l topib, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va jamiyatga integratsiyalashuviga yordam beradi. Kelajak avlodning har tomonlama barkamol insonlar bo'lib yetishishi uchun inklyuziv ta'lim tizimida musiqa ta'limiga munosib e'tibor qaratishimiz zarur.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Еремина Н. И. Восстановительная коррекция психологического статуса детей из социально неблагополучных семей методом игровой вокалотерапии. Диссерт. на соиск. уч. ст. к. психол. н- М.,- РНЦ ВМ и К, 2009,- С. 133.

2. С.Ф.Потапова “Как музыкальная терапия может помочь при аутизме: теория и практика”.

3. Н.Николаевна “Музыкальное воспитание как средство коррекции отклонений в развитии детей с церебральным параличом в условиях реабилитационного центра”. Диссертация. М.:-2010-г.

4. Azizovna, E. N. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(2), 929-932.


5. R.Shomaxmudova “Maxsus va inklyuziv ta’lim” o‘quv va metodik qo‘llanma. Fan va ta’lim nashriyoti. T.: -2011-y

6. Egamberdiyeva, N. A. “Raqamli ta’lim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.

7. R.Sh.Shomaxmudova, A.Berdiyeva “Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari”. T.: -2008-y.

O‘ZBEK MUSIQIY JANRLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

San’atshunoslik fakulteti
Shukurova Nigina Nasrullaevna
Musiqa ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Xalilova Maxfuza
Maxamadjanovna
“Musiqa ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi



Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy madaniymerosi musiqa san’ati muhim o‘rin kasb etadi. Musiqa xalq hayoti, uning mehnati, orzulari, quvonch va g‘amlarini ifoda etuvchi boy janrlarda namoyon bo‘ladi. Tarixiy rivojlanish jarayonida o‘zbek xalq musiqasi o‘ziga xos shakillar va janrlar tizimini shakillantirdi. Mazkur kurs ishida “O‘zbek musiqiy janrlarining tasnifi va ularning tarbiyadagi o‘rni” nazariy va amaliy jihatdan yoritilib beriladi. Ishda xalq qo‘shiq-lari, ashulalar va an’anaviy musiqiy shakillarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi, amaliy jahatdan ochib berilalgan.

Kalit so‘z: Janr, O‘zbek musiqasi, Folklor, an’anaviy, Sharq, maqom, tasnif, mehnat qo‘shiq-lari, marosim, shashmaqom, dugoh, segoh, navo, iroq, ansambl, tor.

O‘zbek musiqasi butun O‘rta Osiyoning musiqiy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq, O‘zbek xalqining musiqiy merosida, Sharqning boshqa ko‘plab xalqlari singari, ikkita yirik qatlam - folklor va og‘zaki an’analarning professional san’ati (maqom va rivojlangan shakldagi boshqa asarlar) ajralib turadi. O‘zbek xalqining xalq musiqasida to‘rtta asosiy mahalliy uslubni ajratib ko‘rsatish mumkin: Xorazm, Buxoro-Samarqand, Farg‘ona-Toshkent, Surxondaryo-Qashqadaryo. Ular o‘tgan asrlarda O‘zbekistonning ayrim viloyatlari aholisining etnik hamjamiyati va ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlarining o‘xshashligi natijasida

vujudga kelgan. Viloyatlar bir-biridan hayotning ba'zi xususiyatlari, qo'shiq va instrumental janrlar, musiqa asboblari bilan farq qiladi. Masalan, Buxoro va Xorazm viloyatlarida maqomlar keng tarqalgan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida dombra va doston uchun pyesalar, Farg'ona vodiysida esa ushbu hududga xos musiqiy - poetik xususiyatlarga ega qo'shiq janrlari sevimli bo'lgan. Katta ashula yoki patnis-ashula janri ayniqsa Farg'ona-Toshkent uslubiga hosdir. Musiqiy folklor san'ati mohiyatiga ko'ra monotip (monoton). Odamlarning hayoti va hayotining aks etishi bilan u mavzularning ko'p qirraliligi va janrlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Xalq musiqasida, u bajaradigan funktsiyalarga muvofiq, boshqa xalqlar singari, ikkita qo'shiq guruhi va instrumental pyesalar ajratilishi mumkin: ma'lum bir vaqtda, belgilangan sharoitlarda ijro etilgan va muayyan vaziyatlardan qat'i nazar, istalgan vaqtda ijro etilgan. Birinchisi marosimlar, mehnat jarayonlari, bayramlar, turli marosimlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, o'yinlar bilan bog'liq. Ushbu guruh qo'shiq janrlari bilan ajralib turadi: oilaviy marosimlar, mehnat (mayda va xirmon qo'shiqlari), beshiklar (Alla), bolalar o'yin qo'shiqlari va boshqalar. Ushbu qo'shiq janrlarining har biri asosan tor amaliy mavzular va doimiy biriktirilgan ohanglar bilan ajralib turadi. Asosiy mavzudan chetga chiqish lirik aks ettirish, ba'zan esa ijtimoiy norozilik bilan bog'liq. Ikkinchi guruhning qo'shiqlari, aksincha, turli mavzular bilan ajralib turadi. Bularga hamma joyda ijro etiladigan qo'shiq janrlari - terma, qo'shiq, lapar, Yalla, ashula kiradi. VI-VIII asrlarning taniqli musiqachilari: Barbat, Ibrohim Al-Mausili, uning o'g'li Ishoq alMausili va boshqalar mashhur janr egalari va yaratuvchilari bo'lgan

1. An'anaviy xalq musiqa madaniyati janrlari va ijrochiligining murakkabligi qo'shiqchilar va cholg'u ijrochilaridan ko'p yillik tayyorgarlikni talab qildi. O'rta asrlarda ma'lum bo'lgan ovozdanda hamma narsa yodlangan, musiqa amaliyotida qo'llanilmagan. Hatto XIX asrning 3-choragida ixtiro qilingan Xorazm tabulaturasi

(yoki notatsiyasi) faqat tor doiradagi musiqachilar tomonidan ishlatilgan, garchi uning yordamida maqomlar yozib olingan bo'lsa ham. Og'zaki an'analarning professional musiqasining asosiy klassik fondi maqomlardan iborat (muayyan musiqiy rejimlarga asoslangan vokal-cholg'u siklik janr). O'zbekistondagi maqomlar o'zlarining mahalliy xususiyatlariga ko'ra Buxoro (o'zbek va tojik xalqlarining merosi bo'lgan) va Xorazm xalqiga bo'linadi. Buxoro Shashmaqom siklida oltita maqom mavjud: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq va Sharq klassiklarining she'rlariga ijro etiladi: Hofiz, Bedil, A. Navoiy, Jomiy va boshqalar

2. O'zbek xalq cholg'u ansambllarining o'ziga xos xususiyati unison ijrodir. Ovoz va boshqa belgilar bo'yicha asboblarning o'zaro yaqinligi asosida ikki guruhdan iborat:

a) keskin va baland ovoqli asboblar ansambllari (Karnay, surnay va Nog'ora yoki doyra). Bunday ansambllar (turli xil tarkibda) ochiq havoda - maydonlarda, ko'chalarda, hovlilarda namoyish etiladi. Ular katta an'anaviy bayramlar, turli marosimlar, ko'cha tomoshalari bilan birga keladi. Asboblarning har biri o'z vazifasini bajaradi.

b) juda yumshoq tovushli asboblar ansambllari (deyarli barcha asboblar,) juda xilma-xil kombinatsiyalarda.

Har qanday tarkib bilan doyrani usul ijro etadi. Ushbu guruhning ansambllari asosan marosimlar, marosim jarayonlari bilan bog'liq bo'lmagan janrlarning asarlarini ijro etadi. O'zbek xalq cholg'u asboblari an'anaviy orkestrida (2-3 oktavada bir ovozdan ijro etiladi) tovushning xilma - xilligi unga turli xil asboblar guruhlarini kiritish orqali erishiladi. Quyidagi xalq professional musiqachilari - Ahmadjon Umurzakov, Imomjon Ikromov, Muxitdin Qori Yoqubov, Matyusuf Xarratov, Nabijan Hasanov, Toxtasin Jalilov, Usta Olim Komilov, Faxriddin Sodiqov, Shoraxim Shoumarov o'zbek musiqa merosi durdonalari va musiqa asarlari yaratuvchilari hisoblanadi

3. O'zbek xalq musiqa san'ati o'z shaklida bir ovoqli, monotip, melodik shakldan iborat. O'zbek xalq qo'shig'i

melodik xarakterga ega, bolalar qo‘shiqlaridan "Boychechak"; "Laylak keldi", "Oftob chiqdi" va murakkab qo‘shiqlarga qadar davom etadigan kuylar turlariga juda boy. Buxoro, Toshkent viloyati va Farg‘ona vodiysi qo‘shiqlari o‘rta diapazonga ega. Xorazm qo‘shiqlari keng diapazonga ega. O‘zbek xalq qo‘shig‘i ohangning qadamlar bo‘ylab harakatlanishi bilan ajralib turadi, bu tovushning ohangdor kuchlanishini xarakterli ravishda kuchaytiradi, kuchli zarbalardan kuchsizlarga va kuchsizlardan kuchlilarga joylashadi. Baland tovushlar pastki tovushlarga o‘tganda sakrashlar kuzatiladi. Shundan so‘ng, sakrashlar muntazam ravishda ohangning asta-sekin pasayishi kuzatiladi. Xalq qo‘shiqlarida katta va kichik avj - kulminatsiya uchun mo‘ljallangan rivojlangan to‘liq melodik tuzilishga ega. O‘zbek xalq qo‘shiqlari asosan diatonik tuzilishda qurilgan. Xalq qo‘shiqlarining kichik holatlarida xromatik harakatlar uchraydi

4. O‘zbek ashula she‘riyatida ruboiy va murabba deb nomlangan to‘rtlik shakli keng tarqalgan bo‘lib, unda birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi satrlar qofiyalanadi, uchinchi qator esa qofiyalanmaydi ("a-a-b-a" sxemasi bo‘yicha). Shuningdek, O‘zbek mumtoz adabiyotining tez-tez uchraydigan shakli g‘azal bo‘lib, unda dastlabki ikkita satr va har bir keyingi satr qofiyalanadi. G‘azallar xalq qo‘shiqlarida katta shaklda vamaqomalarda mavjud. Shunday qilib, O‘zbek xalq musiqa ijodi janr va shakl jihatidan xilma-xil bo‘lib, bu uning xalq hayoti, urf-odatlarini, urf-odatlarini va madaniyatini bilan chambarchas bog‘liq. "Xalq musiqa ijodi" namunalarini to‘plash va o‘rganish madaniyat tarixining eng dolzarb masalalaridan biridir.

Shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbek xalq musiqa madaniyatini yaqin yil yoki asrlarda paydo bo‘lgan san‘at emas, balki o‘zining ming yillik tarixiga egadir. Shuningdek, xalq ijodi turli janr va uslublarga bo‘ydir. Bugungi kunda ham san‘at ahli va musiqashunoslar tomonidan O‘zbek xalq musiqa ijodini ilmiy-nazariy o‘rganish ishlari samarali olib borilmoqda, buning barchasi musiqa madaniyatimizni keng targ‘ib qilish va saqlab qolish uchun.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. H. Nurmatov, N. Yo'ldosheva "O'zbek xalq musiqa ijodi"
O'quv qo'llanma Toshkent-2007
2. T. Mirzayev, O. Safarov, D. O'rayeva "O'zbek xalq og'zaki
ijodi" O'quv qo'llanma
3. Naimovich, Rakhimov Ravshan, and Abdullayeva
Shahnozabonu Adizovna. "Culture
the Role and Importance of the Kashgar Rhubarb Instrument
in Music Lessons." Czech
Journal of Multidisciplinary Innovations 16 (2023): 1-3.
4. Naimovich, Raximov Ravshan, and Akramova
Maftunabonu Kurbonovna. "SHAXS TARBIYASIDA
MUSIQANING AHAMIYATI." Ustozlar uchun 58.3 (2024): 61-
65.

PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA VA INDIVIDUAL YONDASHUV

San'atshunoslik fakulteti
Karimova Shahlo Davlatboy qizi
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 22.1-guruh 3-kurs
talabasi

Ilmiy rahbar: Xalilova Maxfuza
Maxamadjanovna
“Musiqi ta'limi” kafedrasi katta o'qituvchisi



Annotatsiya

Ushbu maqola psixologik diagnostika va individual yondashuvning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Maqolada psixologik diagnostikaning maqsadlari, usullari va turlari, shu jumladan psixometrik testlar, kuzovlash, suhbat va portfel tahlili keng ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqola individual yondashuvning afzalliklarini, jumladan samarali o'rganish, motivatsiya, muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvni ta'kidlaydi. Maqolada psixologik diagnostika va individual yondashuvning ta'lim va tarbiya jarayonini samaraliroq qilish, bolalarning rivojlanishini optimallashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash kabi ahamiyatli rollarini ta'kidlaydi. Maqola o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim sohasi mutaxassislariga psixologik diagnostika va individual yondashuvning ahamiyati va ularni ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llashning muhimligini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar Psixologik diagnostika, individual yondashuv, ta'lim, tarbiya, rivojlanish, samarali o'qitish, motivatsiya, muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuv.

Yangi O'zbekistonda barcha sohalaridagi singari ta'lim-tarbiya sohasida ayniqsa, musiqiy ta'limning rivojlanishi davlat ahamiyatiga miolik vaazifalardan biriga aylandi. Hozirgi kunda

musiqa pedagogik-psixologik diagnostika – bu shaxsning rivojlanishi va ta’lim jarayonining sifatini aniqlash uchun psixologik va pedagogik usullarni tizimli ravishda qo’llashni anglatadi. Ushbu tushuncha ta’lim jarayonida muhim bosqich bo‘lib, shaxsiy va akademik yutuqlarni baholashga qaratilgan. Shu sababli, pedagogik-psixologik diagnostika ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogik-psixologik diagnostikaning ahamiyati va bugungi kundagi o‘rni ta’lim jarayonining sifatini oshirish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqurroq tushinishda namoyon bo‘ladi. Bu jarayon ta’limdagi muammolarni aniqlash va ularga ilmiy asoslangan yechimlar topish imkonini beradi.

Kuzatish Metodi Diagnostika yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlari aniqlanadi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Psixologik diagnostika inson psixikasining rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, pedagogik diagnostika ta’lim natijalari va uning ta’sirchanligini baholashga yo‘naltirilgan. Diagnostika jarayonida kuzatish, so‘rov, testlash, tajriba va boshqa ilmiy usullardan foydalaniladi. Ushbu jarayon ta’lim texnologiyalarining mosligini aniqlash va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, zamonaviy diagnostika vositalari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni amalga oshirishda katta rol o‘ynaydi. Diagnostika natijalari o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini yaxshilash va samaradorligini oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu jarayon faqat baholash vositasi bo‘lib qolmasdan, balki shaxs va guruhning rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir.

Individual yondashuv - bu har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya jarayonini shakllantirish. Bu bolaning rivojlanish darajasini, o‘rganish uslublarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Samarali o'rganish: Bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish uning o'rganish jarayonini samaraliroq qiladi. Motivatsiya: Bolaning qiziqishlarini hisobga olgan holda o'qitish uning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Muvaffaqiyat: Bolaning kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini bartaraf etishga yordam berish uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi. Ijtimoiy moslashuv: Bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish uning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Psixologik diagnostika va individual yondashuvning ahamiyati:

- * Ta'lim va tarbiya jarayonini samaraliroq qiladi.
- * Bolalarning rivojlanishini optimallashtiradi.
- * Bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.
- * Bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi.

O'qitish jarayonini rejalashtirish va baholash Pedagogik diagnostika rivojlanishi musiqa ta'limida ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada diagnostik usullar zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilib, musiqa ta'limining yangi uslublarini shakllantirish imkonini yaratdi. Pedagogik diagnostikaning rivojlanishi ta'lim jarayonining har bir bosqichida samaradorlikni oshirish va o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda.

O'quvchilarning muvaffaqiyatini o'rganishga asoslangan diagnostika orqali musiqa bilim va ko'nikmalari rivojlanishini yo'naltirish mumkin. Musiqa ta'limida texnologiyalarning rivoji bilan diagnostika jarayonlari yanada aniq va tizimli bo'lib, elektron testlar, raqamli portfellar va virtual kuzatish vositalari keng qo'llanila boshlandi. Bu texnologiyalar o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'lchashda yanada samarali yondashuvlarni qo'llash imkonini berdi. Shuningdek, diagnostika yordamida nafaqat o'quvchilarning bilim darajasi, balki ularning ijodiy va emosional rivojlanishi ham baholanishi mumkin.

O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar diagnostikaning interaktiv metodlarini shakllantirib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini bermoqda. Musiqa ta'limidagi diagnostika vositalari o'quvchilarning musiqiy asarlarni talqin qilish, ritm va intonatsiya hisini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu tariqa, pedagogik diagnostikaning rivojlanishi musiqa ta'limi samaradorligini oshirish va o'quvchilarni yuqori darajadagi ijodiy shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Musiqa ta'limida diagnostikaning asosiy tamoyillari ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Diagnostik jarayonning bosh tamoyillaridan biri etika qoidalariga rioya qilish bo'lib, bu o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishini va ularning qadrqimmatiga hurmat ko'rsatilishini talab qiladi.

Ehtiyojlarini aniqlash diagnostika jarayonida qo'shimcha usullar, masalan, intervyu va so'rovnomalar, o'quvchining ijodiy qobiliyatlari va musiqaga bo'lgan qiziqishini chuqurroq o'rganishga yordam beradi. Ilmiy asoslangan diagnostika tamoyillari yordamida musiqa ta'limining samaradorligini oshirish uchun aniq ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilinadi. Psixologik diagnostika va individual yondashuv ta'lim va tarbiya jarayonida ajralmas qismidir. Ular bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shuning uchun, har bir bolaga uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali yordam berish uchun psixologik diagnostika va individual yondashuvni qo'llash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi Qaror 2022- yil PQ-112-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-391-son qarori.

3. Musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasining asoslari" (mualliflar: A.A. Aliev, N.N. Nuriddinov).

4. Musiqa ta'limi: Zamonaviy yondashuvlar" (mualliflar: A.A. Aliev, N.N. Nuriddinov)

5. .A. Aliev va N.N. Nuriddinovning "Pedagogik Diagnostika: Nazariya va Amaliyot" kitobi.

БУДУЩЕЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ МУЗЫКЕ

Факультет искусствоведения
Умарова Айман Илесовна
Преподаватель кафедры
музыкального образования



Аннотация

В статье рассматриваются перспективы применения искусственного интеллекта (ИИ) в музыкальном образовании. Обсуждаются цифровые технологии и интеллектуальные платформы, такие как виртуальные ассистенты, генераторы музыки и адаптивные системы обучения. Особое внимание уделяется возможностям ИИ в персонализации обучения и развитии творческого потенциала студентов. Рассматриваются как преимущества, так и вызовы, связанные с интеграцией ИИ в музыкальную педагогику, включая вопросы этики и сохранения роли человека в процессе обучения.

Ключевые слова: Музыкальное образование, искусственный интеллект, цифровые технологии, адаптивное обучение, генерация музыки.

Искусственный интеллект (ИИ) значительно изменяет многие аспекты нашей жизни, включая образование. В последние годы его применение в области музыкального образования привлекает особое внимание, так как технологии ИИ способны революционизировать методы обучения, дать новые возможности для творчества и помочь в совершенствовании образовательных процессов. В этой статье мы более подробно рассматриваем перспективы использования искусственного интеллекта в музыкальном образовании,

включая его влияние на педагогические подходы, творческую деятельность студентов и развитие технологий.

Технологии искусственного интеллекта в музыкальном образовании

Применение ИИ в музыкальном образовании охватывает различные области, от анализа музыкальных произведений до создания музыки с использованием алгоритмов. Рассмотрим основные направления, в которых ИИ уже активно используется.

1. **В и р т у а л ь н ы е ассистенты и музыкальные генераторы**
В последние годы появилась масса инструментов на основе ИИ, способных генерировать музыку, помогать в обучении композиции и аранжировке. Программное обеспечение, такое как AIVA (Artificial Intelligence Virtual Artist) или Amper Music, использует алгоритмы машинного обучения для создания музыкальных произведений в различных жанрах. Эти инструменты полезны как для начинающих композиторов, так и для профессионалов, которые ищут новые идеи и способы расширения своего творчества.

Виртуальные ассистенты, такие как Siri или Alexa, могут быть настроены на взаимодействие с музыкальными приложениями, помогая студентам на всех этапах обучения, от поиска музыкальных произведений до создания музыкальных фрагментов. Такие ассистенты могут рекомендовать музыкальные произведения, обучать ритмике и теории музыки.

2. **Адаптивные системы обучения**
Адаптивное обучение с применением ИИ становится неотъемлемой частью образовательных программ, в том числе в музыке. Системы, такие как SmartMusic, предоставляют преподавателям возможность отслеживать прогресс студентов в реальном времени, анализировать их исполнение и адаптировать задания для улучшения определённых навыков. Эти системы могут автоматически подбирать упражнения в зависимости

от уровня подготовки учащегося, что позволяет достигать индивидуальных успехов в обучении.

Например, система может анализировать выполнение студентом музыкального произведения, выявить ошибки и предложить необходимые коррективы. В то же время, в зависимости от уровня подготовки студента, она будет увеличивать сложность задания или наоборот — упростить его для улучшения техники исполнения.

3. Искусственный интеллект для анализа музыкальных произведений

Важно также отметить, как ИИ помогает в анализе музыки. Программы, такие как *Topic*, способны оценивать исполнение музыканта по множеству параметров: интонации, ритму, темпу, выразительности. Эти инструменты могут автоматически распознавать ошибки, такие как неправильное исполнение ноты или проблемы с ритмикой, что даёт студенту обратную связь в реальном времени.

В дальнейшем такие системы могут использоваться для помощи студентам в развитии индивидуальных навыков, что особенно полезно для учеников, изучающих музыкальные инструменты или вокал. Они позволяют акцентировать внимание на наиболее проблемных моментах и дают возможность быстро исправлять ошибки.

Персонализация обучения с помощью ИИ

Одна из самых важных особенностей искусственного интеллекта в музыкальном обучении — это его способность адаптироваться к каждому студенту. Персонализация обучения на основе ИИ позволяет каждому учащемуся получить те материалы и задания, которые соответствуют его индивидуальному уровню, интересам и потребностям.

1. Персонализированные планы обучения ИИ может анализировать поведение студента, его успехи и затруднения, чтобы предложить наилучший путь развития. Например, для студента, испытывающего трудности в

ритмическом исполнении, система может предложить дополнительные упражнения, направленные на улучшение темпа и синхронности. Для более продвинутых учеников, наоборот, можно предложить сложные композиционные задачи.

2. Прогнозирование результатов ИИ также способен анализировать текущие достижения студента и предсказывать его будущие успехи. На основе полученных данных система может предложить индивидуальные корректировки в учебном процессе, чтобы максимально эффективно развивать сильные стороны студента и устранять его слабые места.

3. И н д и в и д у а л ь н ы е рекомендации для творческих заданий ИИ может предлагать студентам новые творческие задания, исходя из их предпочтений и уровня. Например, система может предложить задание на создание музыки в стиле, который студент ещё не исследовал, но который может быть ему интересен или полезен для дальнейшего развития. Это помогает студентам выйти за пределы привычных рамок и расширить свои творческие горизонты.

ИИ в развитии творческого потенциала студентов

С помощью технологий ИИ студенты могут не только совершенствовать свои технические навыки, но и развивать творческий потенциал. Например, они могут использовать ИИ для создания уникальных музыкальных произведений, сотрудничая с алгоритмами и генерируя музыку, которая соответствует их видению. Это способствует развитию творческого подхода и экспериментов с различными стилями и жанрами.

